

**O`ZBEKISTAN RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**G.F. NAZAROVA, N.Z. XAKIMOV, B.R. BOBOJONOV,
D.R. ERGASHEV, SULTONOVA N.A.**

XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

(O`QUV QO`LLANMA)

TOSHKENT - 2008

Nazarova G.G., Hakimov N.Z., Bobojonov B.R., Ergashev D.R., Sultonova N.A. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.:TDIU, 2008. –159 b.
Mas'ul muharrir prof. Xodiev B.Yu.
Taqrizchilar: dots., i.f.n. Xisamieva G.D., G.V. Plexanov nomidagi RIA, dots., i.f.n. Eshtaev A.A.,TDIU

Xo'jalik jamiyatining barcha jabhalarida integratsiya va globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi asosiy rivojlanish tendentsiya va yo'nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish xususiyati o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi hamkorliklar rivojlanmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganish, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq – kamchiliklari, rivojlanish muammolarini hal etishdagi to'g'ri yondashuvlar bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borayotgan Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishda tajriba sifatidagi ahamiyati kattadir.

O'quv qullanma oliy ta'lim, kollej va litsey talabalari, aspirant, ilmiy xodim, magistrant, shuningdek xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganuvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Назарова Г.Г., Хакимов Н.З., Бобожонов Б.Р., Эргашев Д., Султанова Н.А. Экономика зарубежных стран. Учебное пособие. –Т.: ТГЭУ, 2008. - 159 с.

Ответственный редактор проф. Ходиев Б.Ю.

Рецензенты: Доц. Филиала РЭА имени Г.В.Плеханова, к.э.н. Хисамиева Г.Д., доц., к.э.н. Эштаев А.А.

В эпоху усиления процессов глобализации и интеграции во всех сферах хозяйственной жизни ключевое значение придается изучению экономики зарубежных стран и особенностей их развития, определению ключевых тенденций и направлений развития мировой экономики и международных экономических отношений.

Республика Узбекистан вступает в мировое сообщество в процессе изменения особенностей развития мировой экономики. Развиваются отношения с зарубежными странами в социально-экономической, политической и культурной сферах. В условиях поэтапного перехода экономики республики к рынку велика важность изучения проблем развития экономик развитых, развивающихся и стран с переходной экономикой в качестве опыта перехода Узбекистана на уровень развитых стран.

Данное учебное пособие рассчитано на студентов высших учебных заведений, колледжей и лицеев, аспирантов, научных работников, магистрантов, а также широкого круга читателей, интересующихся вопросами мировой экономики.

Nazarova.G.G., Hakimov N.Z., Bobojonov B.R., Ergashev D., Sultanova N.A. Foreign countries' economy. Text book. –T.: TSUE, 2008. - 159p.

Editor in Chief: prof. Hodiev B.Yu.

Reviewers: PhD. Eshtaev A.A, PhD. Xisamiyeva G.D.

During an epoch of strengthening of processes of globalization and integration in all spheres of economic life the main value is given to studying economy of foreign countries and features of their development, definition of key tendencies and directions of development of economic and the international economic attitudes(relations).

The Republic of Uzbekistan enters the world community during change of features of development of economic. Relations with foreign countries in social and economic, political and cultural spheres develop. In conditions of stage-by-stage transition of our economy to the market importance of studying problems of development of economy advanced, developing and the countries with transitive economy is great as experience of transition of Uzbekistan on a level of the developed countries.

The given manual is designed for students of higher educational institutions, colleges, post-graduate students, science officers, and also the broad audience of the readers who are were interested in questions of economic.

©-Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2008.

© - Ташкентский государственный экономический университет, 2008.

© - Tashkent state university of economics, 2008.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi jahon tajribasini rad etmagan holda ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini ishlab chiqdi. Bugungi kunda O'zbekiston jahonda, xalqaro maydonda etakchi o'rin tutadigan davlatlar – AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya va Evropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor bermoqda*, O'zbekistondagi korxonalarning tashqi bozorga chiqishi va xorij firma va kompaniyalarining mamlakatimizda shakllanayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirishi jarayoni sezilarli rivojlanib bormoqda. Ochiq iqtisodiyotni yaratmay turib mamlakatimizning jahon xo'jaligiga kirib borishi qiyin. Shuning uchun ham xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash davrida "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti" fanini har tomonlama va chuqur o'rganishning ahamiyati katta.

XMI fanining maqsadi – talabalarni jahonning etakchi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, milliy xo'jaliklar taraqqiyotining xususiyatlari va maqroiqtisodiy modellarning tahlili, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini taqqoslash kabilar hisoblanadi.

"Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti" fani orqali jahondagi etakchi mamlakatlar iqtisodiyotlari bilan bir qatorda diqqatga sazovor bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiyot modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishiladi.

* Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalash va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: Ўzbekiston, 2005.

1-bob. MILLIY IQTISODIYOTLARNING JAHON XO`JALIK ALOQALARIDA TUTGAN O`RNI

1.1. Jahon xo`jaligi va milliy iqtisodiyotlar

1.2. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning turkumlanishi

1.3. Milliy chegaralar muammosi

1.4. Globalizatsiya sharoitida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlarining o`rtasidagi o`zaro aloqalar va ziddiyatlar

1.1. Jahon xo`jaligi va milliy iqtisodiyotlar

Milliy iqtisodiyotlar “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” kursining asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida xizmat qiladi. Ularning hech biri jahon xo`jaligidan, jahon iqtisodiyotidan ayrilgan holda, boshqa milliy iqtisodiyotlar bilan o`zaro munosabatlarga kirishmay turib to`laqonli ravishda rivojlana olmaydi. Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning to`la avtonomligi, ya'ni yopiq iqtisodiyotli mamlakatlarga misol keltirish juda mushkul. Masalan, Shimoliy Koreya va Kubani olsak, XX asrning 90-yillari oxirida Shimoliy Koreyadagi ocharchilik paytida bu mamlakatga Janubiy Koreya va Xitoy tomonidan gumanitar yordam ko`rsatilgan, Kubada esa tashqi iqtisodiy bitimlar soni juda kichik bo`lishiga qaramay, bu mamlakat turistlarni qabul qilish va mashhur gavana sigaralarini xorijga etkazib berishga ixtisoslashgan edi.

Jahon xo`jaligi uzoq tarixiy jarayon natijasida XX asrning boshlariga kelib shakllandi. XIX asrning o`rtalariga kelib, yirik sanoat, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi ichki bozorning kichikligini va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ilk shaharlar va davlatlar tashkil topgan davrlardayoq vujudga kelgan xalqaro savdo XIX asrga kelib sezilarli darajada faollashdi. Mamlakatlar ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshladi va bu tovar va xizmatlarni tashqi bozorda ayirboshlash jarayoni kuchaydi. Ayni ana shu davrga kelib, kapitalni xorijga olib chiqish hamda sanoat, ijtimoiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko`rsatish sohalariga xorijiy investitsiyalarning kirib kelish jarayoni boshlandi.

Yuqoridagi sabablar va boshqa bir qancha omillar tufayli insoniyat bir butun xo`jalik mexanizmi, ya'ni jahon takror ishlab chiqarish mexanizmiga birlashdi. Shunday bo`lsa-da, hozirgi paytgacha yagona “jahon iqtisodiyoti” tushunchasi mavjud emas. Bu atamani har kim o`zicha talqin qiladi. Bizningcha, jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali o`zaro bog`langan milliy iqtisodiyotlarning majmuasidir.

Milliy xo`jaliklar o`rtasida universal aloqalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi. Bu munosabatlarga xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, intellektual mulkning xalqaro transferti, xalqaro kapital harakati, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi kabilar kiradi. Jahon iqtisodiyotining asosini milliy va global miqyosdagi ishlab chiqarish munosabatlari,

moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish tashkil qiladi.

- Jahon iqtisodiyoti tushunchasiga quyidagilarni kiritish mumkin:
- insonlar ishlab chiqarish faoliyatlarining yig'indisi;
- milliy iqtisodiyotlarning yig'indisi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi;
- transmilliy kompaniyalar va transmilliy banklarning faoliyati;
- mamlakatlar guruhining integratsiyasi;
- insoniyat iqtisodiy faoliyatining natijalari.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti XIX asrning oxiriga kelib vujudga kelgan va hozirgi paytda ham kundan-kunga taraqqiy etib borayotgan iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosini tovarlar va xizmatlar, intellektual mulk mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, ularni xalqaro savdo jarayonida taqsimlovchi va ayirboshlovchi hamda iste'mol qiluvchi milliy iqtisodiyotlarning majmuasi tashkil etadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning jahon xo'jaligi aloqalarida tutgan o'rini, eng avvalo, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholash mumkin. Bu ko'rsatkichlar qatoriga mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) yoki yalpi milliy mahsuloti (YaMM)ning hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM yoki YaMM, o'rtacha ish haqining miqdori, tashqi savdo operatsiyalarining hajmi, kapital harakatining ko'rsatkichlari, mamlakat tashqi qarzining miqdori kabilar kiradi. Bundan tashqari inflyatsiya va ishsizlikning o'sish sur'ati, % stavkasining darajasi, soliq stavkalari, milliy valyuta kursining etakchi mamlakatlar valyutalariga nisbatan o'zgarish dinamikasi va boshqa nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatlarni solishtirishda savodxonlik darajasi, nafaqa va ijtimoiy rag'batlarning miqdori, o'rtacha umr ko'rish davri kabi ko'rsatkichlarni ham inobatga olish zarur.

1.2. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning turkumlanishi

Mamlakatlarni guruhlarga ajratishda turli mezonlardan foydalaniladi. Birinchi mezon sifatida hududiy yondashuvga murojaat qilish mumkin. Masalan, mamlakatlarni qit'alar bo'yicha guruhlash, o'z navbatida, bu qit'alarni madaniy-tarixiy hududlarga bo'lish mumkin. Misol uchun Evropani G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Evropaga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmiga ko'ra mamlakatlarni eng kam rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarga guruhlaniadi. BMT iqtisodiy tahlil maqsadlarida mamlakatlarni quyidagilarga ajratadi: rivojlangan mamlakatlar, o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar. Bu guruhlarga kiruvchi mamlakatlarni ham turli tamoyillarga ko'ra yana kichik guruhlarga bo'lish mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan etti mamlakat: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya va Kanadani ajratib ko'rsatish mumkin. O'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarni ham Sharqiy Evropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlar va sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan respublikalarni alohida guruhga kiritish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy iqtisodiyotining rivojlanishi, tashqi qarzining miqdori darajasi jihatidan ham guruhlariga ajratishimiz mumkin. Masalan, sof kreditor, sof qarzdor mamlakatlar yoki energiya resurslarini eksport qiluvchi yoki bu resurslarni import qiluvchi mamlakatlar va hokazo. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda mamlakatlarning quyidagi elementar tipologiyasini keltirishimiz mumkin:

1. Katta ettilik davlatlari.
2. Boshqa rivojlangan mamlakatlar.
3. Yangi industrial mamlakatlar.
4. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari.
5. Sobiq SSSR respublikalari.
6. Xitoy.
7. Hindiston va Pokiston.
8. Nisbatan tezroq rivojlanayotgan mamlakatlar.
9. Klassik rivojlanayotgan mamlakatlar.
10. Eng kam rivojlangan mamlakatlar.

Daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarni kam daromadli (60 ta), o'rtadan past daromadli (59 ta), o'rtadan yuqori daromadli (37 ta) va yuqori daromadli (53 ta) mamlakatlarga ajratish mumkin.

1.3. Milliy chegaralar muammosi

Milliy chegara muammosi hozirgi paytga kelib yana dolzarb masalalarning biriga aylanmoqda. Olimlar jahon siyosiy kartasi shakllanishining bir necha bosqichlarini ko'rsatib o'tishgan:

- qadimgi, bu bosqichga ilk davlatlar (qadimgi Rim, qadimgi Misr, Karfagen)ning tashkil topishi xosdir;
- O'rta asrlar, Muqaddas Rim Imperiyasi va Kiev Rusi paydo bo'lgan;
- yangi, Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq bosqich;
- yangiroq, ikkita jahon urushi yuz bergan, ikki xil iqtisodiy rivojlanish tizimi (kapitalistik va sotsialistik) vujudga kelgan, imperializmning mustamlaka tizimining tarqalib ketgan davrini o'z ichiga olgan;
- zamonaviy, hozirgi davr.

Hozirgi paytda insoniyat tarixi davomida yuz bergandek, milliy chegaralarning o'zgarishi davom etmoqda. Jahonning siyosiy kartasi shakllanishda davom etmoqda. XX asrning 90-yillarida juda katta o'zgarishlar yuz berdi, ayniqsa, Evropa tubdan o'zgarib ketdi. 1991 yildan boshlab, Sovet imperiyasi inqirozga duch kelgandan keyin Evropa va uning tevaragida bir qancha yangi davlatlar vujudga keldi: Sloveniya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Makedoniya, Bosniya va Gertsegovina, Litva, Latviya, Estoniya, Rossiya, Ukraina, Moldaviya, Belarus, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston. Dunyoning boshqa nuqtalarida ham yangi davlatlar paydo bo'ldi. Afrikada Eriteriya mustaqil bo'ldi, Zair o'rnida Kongo Demokratik Respublikasi tashkil topdi.

Davlatlar chegarasi o'zgarishida milliylikka intilish katta ta'sir o'tkazmoqda. Ana shu sababdan Kanadada Kvebek, Frantsiyada Korsika, Buyuk Britaniyada Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya madaniyatda, tilda va dindagi qarashlar turlichaligini namoyish etmoqda. Milliylikka intilish turli etnik kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda, ya'ni aynan shu sabablar bois Chexoslovakiya Chexiya va Slovakiyaga, Yugoslaviya Sloveniya va Bosniyaga ajralib ketdi. Chechenistonning Rossiyadan ajralib chiqishiga bir bahya qoldi.

Siyosiy to'qnashuvlar iqtisodiyotda to'g'ridan- to'g'ri o'z aksini topmoqda. G'arb mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, Chechenistonda olib borilgan urushning bir kuni Rossiyaga 60 mln. doll.gacha zarar keltirdi. NATO tomonidan Serbiya va Chernogoriya iqtisodiyotiga etkazilgan zararni bartaraf etish uchun o'nlab yillar kerak bo'ladi. Sobiq SSSR va Sharqiy Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik qiluvchi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti ham og'ir vaziyatda qoldi.

Yangidan vujudga kelgan davlatlar va qolgan davlatlarning o'rtasida raqobat kurashi ham keskinlashdi. Mamlakatlar sonining ko'payishi raqobatchilar sonini ham orttirishi tabiiy hol, albatta. Raqobatning kuchayishi narx dempingiga olib keladi, siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik esa investitsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati har doim ham hududining kattaligi va aholi sonining ko'pligi bilan belgilanmaydi. Hududi eng katta bo'lgan yigirma davlatning to'qqiztasi, aholisi eng ko'p bo'lgan yigirma davlatning to'qqiztasi iqtisodiy salohiyati eng yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Rossiya maydoni jihatidan birinchi, aholi soni jihatidan oltinchi o'rinda tursa-da, YaIM bo'yicha 11-o'rinni band etib turibdi, bu Janubiy Koreya YaIM bilan deyarli teng. Hindiston iqtisodiyoti aholi soni jihatidan 62 marta kam aholiga ega bo'lgan Niderlandiya iqtisodiyotining salohiyatiga to'g'ri keladi. Malayziya hududi jihatidan Singapurdan 550 marta katta bo'lishiga qaramay, bu ikki davlatning ishlab chiqarish imkoniyatlari deyarli teng, 7 mln. aholiga ega bo'lgan Shveytsariya 130 mln. aholi yashaydigan Pokiston iqtisodiyotidan to'rt barobar quvvatliroq iqtisodiyotga ega.

Jahon xo'jaligi aloqalariga xizmat qiluvchi asosiy valyutalarni solishtirganimizda ajoyib manzaraga duch kelamiz. Jahon YaIMning 40 %ini ishlab chiqaruvchi 16 ta mamlakatga savdo sohasida global moliya makonining 85 %i va jahon valyuta zaxiralarining 82 %i to'g'ri keladi. Xorijiy mamlakatlarning valyuta zaxiralarining 56 %ini doll., 26 %ini EI valyutasi, qolgan 18 %ini boshqa valyutalar egallaydi. Eksport to'lovlarida bu ko'rsatkichlar – 65, 20, 15 %ni tashkil etadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda, bu esa o'z navbatida, milliy chegaralarga ham ta'sir etmay qolmayapti.

1.4. Globalizatsiya sharoitida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlarini o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ziddiyatlar

Hozirgi tez o'zgarayotgan dunyoda shunday tamoyil kuzatilyaptiki, asosiy kelishmovchiliklar nafaqat alohida mamlakatlar o'rtasida, balki umumiy iqtisodiy rivojlanish modeliga ega bo'lgan mamlakatlar guruhlarining o'rtasida ham kelib chiqyapti. Yaqin kunlarga jahon iqtisodiyotida G'arb-Sharq liniyasida keskin kurash ketardi. G'arbning rivojlangan mamlakatlari, ya'ni kapitalistik mamlakatlar deb ataluvchi davlatlar rivojlanishning liberal modelidan foydalanishadi, bu mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillari hukmron. Sharqqa kiritiluvchi sotsialistik mamlakatlarda esa rivojlanishning ma'muriy-buyruqbozlik modelidan foydalanilar edi. Hozirgi paytga kelib, Sharqning ideologiyasiga aylangan marksizm tarixda o'ziga ajratilgan davrni yashab bo'ldi. Barcha sobiq sotsialistik mamlakatlar endilikda g'arbning rivojlanish modeliga o'tishmoqda (Kuba, Shimoliy Koreya va qaysidir darajada Xitoy ham bundan mustasno. Rossiyaning taqdiri ham unchalik aniq emas).

XX asrga kelib, jahon mamlakatlari o'rtasidagi ziddiyatlar yangi liniya, Shimol-Janub o'qi bo'ylab, ya'ni Shimolning boy mamlakatlari va Janubning kambag'al mamlakatlari o'rtasida sodir bo'lmoqda. Bu kelishmovchiliklar hamisha mavjud bo'lgan, biroq hozirgi paytga kelib, yaqqol namoyon bo'lib qoldi.

Shimol mamlakatlarining ko'pchiligi uchun janub mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'lmoqda:

1) Janub bilan aloqalardan bosh tortish va janub bilan uzviy aloqalarni rivojlantirishda shimol mamlakatlari manfaatdorligining pasayib borishi. Janubning rivojlanayotgan mamlakatlari xomashyo manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotdi, bu mamlakatlardagi aholining daromad darajasi pastligi tufayli tovar eksporti ham hozircha yaxshi daromad bermaydi. Janub Shimolni o'zining arzon ishchi kuchi bilangina qiziqtirishi mumkin.

2) Shimol tomonidan Janubning iqtisodiy jihatdan mustamlakaga aylantirilishi. Janub mamlakatlari siyosiy jihatdan mustaqil bo'lsalar-da, iqtisodiy jihatdan ularning iqtisodiyoti Shimol tomonidan nazorat qilinishi yuqori darajada. Shimol o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini Janubda joylashtirish orqali ekologiyaga zarar keltiruvchi ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etmoqda va ushbu mamlakatlarning arzon ishchi kuchlaridan foydalanmoqda.

3) Shimol tomonidan dunyoning ba'zi rivojlanayotgan hududlarini tanlash usulida qo'llab - quvvatlanishi. Shimolning Janubga nisbatan tanlov siyosati quyidagilarda o'z aksini topgan:

- TMKlarning investitsiyalari faqatgina foyda olishga qaratilgan, Janubning infratuzilmasini rivojlantirish xohishi deyarli yo'q, shuning uchun ham investitsiya kiritilishida investitsiya muhiti eng qulay bo'lgan mamlakatlar tanlanmoqda;
- Shimol tomonidan ko'rsatilayotgan gumanitar va moliyaviy yordam asosan qisqa muddatli muammolarni (ochlik, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish va hokazolar) hal etishga qaratilgan;

- Shimol faqat energetik resurslar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar, soliq gavanlari, turistik markazlarga, ya'ni iqtisodiy istiqbolli davlatlarnigina qo'llab-quvvatlamogda. "Istiqbolsiz" qoloq mamlakatlar bir chetda qolib ketmogda.

Shimolning bu siyosati natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning uzoq muddatli muammolari o'z echimini topgani yo`q.

Shuni ham qayd etib o'tish joizki, shimol va janub o`rtasidagi "demografik ekvator" yagona chiziq orqali o'tmaydi. Janubning bir qator mamlakatlari (Isroil, Singapur, Janubiy Koreya) Shimolga, Shimolning ba'zi mamlakatlari Janubga kiradi.

Jahon iqtisodiyotida bir tomonlama manfaatlar shakllanishining yana bir sababi mamlakatlarning hududiy integratsiya guruhlarini tashkil etishi hisoblanadi. Hududiy integratsiyani globallashtirish yo`lidagi oraliq bosqich deb atashimiz mumkin. Biroq bu jarayon ham o`zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga ham ega. Masalan, turli hududiy uyushma (blok)lar o`rtasidagi kelshimovchiliklar, xalqaro ayirboshlash va hamkorlik yo`lida bir qator to'siqlarning vujudga kelishi, xalqaro savdodagi kelishmovchiliklar, integratsion guruhning hududiy proteksionizmi, erkin raqobat tamoyillarining darz ketishi va hokazolar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sivilizatsiyamiz hozirgi paytda quyidagi to`rtta tamoyildan foydalanishi kerak:

Mamlakatlar o`rtasidagi nizolarni bartaraf qilishda iloji boricha harbiy kuchlardan foydalanmaslik.

Ommaviy qirg'in keltiruvchi qurollarni va bu qurollarga ega bo`lgan mamlakatlarning sonini kamaytirish va kuchli nazorat o`rnatish.

Jamiyat xavfsizligi umumjahon kuchlari shaklidagi gumanitar intervensiyalarning maxsus chegaralangan doktrinasini qabul qilish, bunda nafaqat davlat, balki har qanday davlat hududida yashovchi barcha fuqarolar o`z suverenitetiga egaligi asosiy tamoyil bo`lishi kerak.

Iqtisodiy ochiqlikka amal qilish, ya'ni tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi harakati yo`lidagi to'siqlarni olib tashlashgina emas, balki davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va xususiy biznesning etakchi rolini ta'minlash lozim.

Tayanch iboralar

Xalqaro savdo, yalpi ichki mahsulot, yangi industrial mamlakatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM), jahon iqtisodiyoti, demografik portlash.

Nazorat uchun savollar

1. Jahon iqtisodiyoti tushunchasiga ta'rif bering.
2. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida nimani aks ettiradi?
3. Xalqaro taqqoslashda qanday makroiqtisodiy ko`rsatkichlardan foydalaniladi?
4. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni guruhlariga ajratishning o`zingiz biladigan usul va tamoyillarini ayting.

5. Jahon siyosiy kartasi shakllanishining zamonaviy muammolarini ayting.
6. Jahonning siyosiy va iqtisodiy chegaralari nimasi bilan farq qiladi?
7. Shimol va Janubning iqtisodiy kelishmovchilarining xususiyatlarini yoritib.
8. Shimolning Janubga nisbatan olib borayotgan iqtisodiy siyosatini tushuntirib.
9. Jahon mamlakatlarining qutblarga ajratilishining zamonaviy xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд. 3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Василенко, И.А. Геополитика современного мира: Учебное пособие. - М.: Гардарики, 2006.
3. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
4. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: ТК Велби, Изд-во Поспект, 2006.
5. Nazarova G.G`, Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti: O`quv qo`llanma. -T., 2005
6. Волгин Н.А., Волгина О.Н. Оплата труда: японский опыт и российская практика: Учебное пособие. – М.: Дашков и К, 2005.
7. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. Юристъ, 2004 .
8. Кругман П. СПб.: Международная экономика. 5-е изд. С-П.:Питер, 2004.
9. Ломакин В. Юнити-Дана. Мировая экономика: Учебник, 2004.
10. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П.: Питер, 2003.

2 - bob. AMERIKA QO`SHMA SHTATLARI IQTISODIYOTI

2.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

2.2. AQSH iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari

2.3. AQSHning iqtisodiy rivojlanish davrlari va xususiyatlari

2.4. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va o`ziga xos xususiyatlari

2.5. AQSHning jahondagi iqtisodiy mavqei

2.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

Amerika Qo`shma Shtatlari O`zbekiston mustaqilligini 1991 yil 25 dekabrda tan oldi va 1992 yilda ikkita mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar o`rnatildi. 1992 yil mart oyida Toshkentdagi AQSH elchixonasi ochildi va 1993 yil fevralda AQSH poytaxti Vashingtonda O`zbekiston Respublikasining elchixonasi o`z faoliyatini boshladi. O`zbekiston-Amerika aloqalari hozirgi kunda ko`plab sohalarni o`z ichiga oladi, jumladan hududiy xavfsizlik, transmilliy tahdidlarga qarshi kurash, O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

2002 yil mart oyida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi Hukumat delegatsiyasi AQSH da rasmiy tashrifda bo`ldi. Tashrif chog`ida mamlakatlar o`rtasida strategik hamkorlik to`g`risidagi Deklaratsiya imzolandi.

Savdo-iqtisodiy aloqalar. O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarida AQSH bilan olib boriladigan savdo-iqtisodiy munosabatlar muhim o`rin tutadi. AQSH O`zbekistonning 10 ta yirik hamkorlari qatoriga kiradi. 2004 yil yakunlariga ko`ra, O`zbekiston va AQSH o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasi 354 mln. AQSH doll. ini tashkil etdi, shu jumladan eksport 118 mln. AQSH doll., import 236,1 mln. AQSH doll. i va tashqi savdo saldosi 117,8 mln. AQSH doll. ga teng bo`lgan.

Eksportda xizmatlar 26,2%, paxta tolasi 26%, kimyo mahsulotlari va plastmassa 19,4%, mashina va uskunalar 28% asosiy o`rinni egallaydi. Importda esa mashina va uskunalar 46,8%, kimyo mahsulotlari va plastmassa 6,6%, oziq-ovqatlar 20%, xizmatlar 18,4% va 8,2% boshqa turdagi mahsulotlar o`z o`rniga ega.

O`zbekiston Respublikasi va AQSH hamkorligidagi asosiy yirik qo`shma korxonalarga quyidagilar kiradi:

- Amerikaning "Nmont Mayning" korporatsiyasi ishtirokida tashkil etilgan tog`-kon minerallarini qayta ishlashga mo`ljallangan "Zarafshon-Nyumont" qo`shma korxonasi, ushbu loyihaning qiymati 228 mln. AQSH doll. ga teng.

- Hojiobod er osti gazni saqlash qurilmasini ishga tushirishda AQSH ning "BiEsAy Indastriz Ink" kompaniyasi bilan shartnoma tuzilgan. Sharnomaning jami qiymati 69,2 mln. AQSH doll. ga teng. Ushbu loyiha 1999 yil iyun oyida amalga oshirildi.

- Sho`rton gaz kimyo majmuasi qurilishida Amerikaning "ABB Lummus Global" kompaniyasi ishtirok etdi. Mazkur loyihaning umumiy valyutadagi qiymati 633,5 mln. AQSH doll. ga teng bo`lib, bu majmua 2001 yil dekabr oyida ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasida Amerika investorlari ishtirokida 316 ta korxona tashkil etilib, o'z faoliyatini olib bormoqda. Shulardan 227 tasi qo'shma korxonalar va 89 tasi 100% xorijiy kapital asosida tashkil etilgan korxonalardir.

Amerika Qo'shma Shtatlari ko'pgina iqtisodiy va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha jahonning eng etakchi mamlakati hisoblanadi. AQSHning YaIM miqdori jahon bo'yicha eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich 2005 yilda deyarli 10 trln. AQSH doll.ni tashkil qildi yoki jahon bo'yicha YaIMning 30% ulushi AQSHga to'g'ri keladi, jahonda hududi bo'yicha to'rtinchi va aholi soni jihatdan uchinchi o'rinda turadi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM o'rtacha 31 ming AQSH doll.ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich bo'yicha ham jahonda etakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan.

Jahon iqtisodchilarining bergan tahliliga ko'ra, jahondagi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti tez sur'atlarda rivojlansa-da, yaqin 10 yil oralig'ida hech qaysi mamlakatning iqtisodiyoti AQSHdan o'zib ketolmas ekan, chunki AQSH iqtisodiy salohiyatining qudrati jahon xo'jaligida o'z xukmronligini o'rnatgan. Mamlakatning bozori jahondagi eng sig'imli va raqobatbardosh bozor hisoblanadi. Shu bilan birga, jahonda biznes olib borish uchun eng qulay mamlakat hisoblanadi.

AQSH Shimoliy Amerika qit'asida joylashgan bo'lib, uning hududini ikki tomondan Tinch va Atlantika okeanlari o'rab turadi. Hududi 9,67 mln.kv.km. er maydonini tashkil qilib, er maydonining kattaligi bo'yicha jahonda Rossiya, Xitoy va Kanadadan so'ng 4-o'rinda turadi.

Poytaxti Vashington shahri. Yirik industrial shaharlariga Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Filadelfiya, San-Frantsisko, Mayami, Detroyt, Dallas, San-Diego, Boston, Xyuston, Feniks, Atlanta va boshqa yirik industrial shaharlar kiradi. 1894 yildan beri AQSH mahsulot ishlab chiqarish miqdori bo'yicha Buyuk Britaniyani ortga qoldirib, jahonda birinchi o'rinni egallab kelmoqda.

Pul birligi AQSH doll. bo'lib, 1 AQSH doll. – 2006 yil holatiga 1200 so'mni tashkil qiladi. AQSH boshchiligida va uning hamrohligida NATO, ANSYuZ, SEATO, SENTO va boshqa harbiy bloklar tashkil qilingan.

Aholisi 280 mln. kishini tashkil qilib, shundan 80 % oq tanlilar, ya'ni evropalik xalqlar, 12%ini qora tanlilar va qolganlarini boshqa millatga mansub xalqlar tashkil qiladi. Aholi zichligi 1 kv.km. er maydoniga 29 kishi to'g'ri keladi. AQSHga aholi yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosan G'arbiy Evropa mamlakatlaridan kelishgan. Keyinchalik XVII asrdan boshlab, Afrikadan qora tanli negrlarni qul sifatida olib kelishgan. XX asrning boshlarida esa Lotin Amerikasidan ishlash maqsadida yuz minglab kishilar kelishgan. AQSHning eng haqiqiy va asl aholisi hindular va eskimoslar (Alyaska aholisi)dan iborat.

2.2. AQSH iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari

AQSH iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1) *Mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligi.* AQSH hududining joylashuvi, ikki tomoni suv havzasi bilan o'ralganligi, shuningdek, ko'plab xalqaro tranzit dengiz va havo yo'llarining shu mamlakatdan o'tganligi, uning iqtisodiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Shu bilan birga, mamlakatning iqlimi qishloq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi.

2) *Hukumat tomonidan iqtisodiy taraqqiyot va sanoat ishlab chiqarish siyosatining yuqori darajada tashkil qilinishi.* AQSH iqtisodiyoti tarixida 1929–1933 yillarda eng yirik iqtisodiy inqiroz vujudga keldi. Yuzaga kelgan inqirozni yoki tarixda qolgan “Buyuk depressiya”ni bartaraf qilish maqsadida F. Ruzvelt tomonidan “Yangi kurs” iqtisodiy siyosati joriy qilindi.

3) *Tabiiy resurs va xomashyolarga boyligi.* AQSHda yuzdan ortiq turdagi foydali qazilma boyliklari mavjud. Tabiiy resurslar tarkibida qiymati jihatdan eng katta ulush (90%) energetika resurslariga (neft, ko'mir, tabiiy gaz va uran) tegishli. Metallarning 75%ga yaqini temir rudasi va misga to'g'ri keladi. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning xomashyoga bo'lgan ehtiyojining 50%i import hisobiga qondiriladi.

4) *Transport va aloqa tizimining yuqori darajada rivojlanishi.* 1912 yilda AQSHning Panama xududidagi “Panama kanali”ning qurib ishga tushirilishi mamlakatda suv transportining tez sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Bundan tashqari, mamlakatning ikkita qirg'oqbo'yi hududlarida joylashgan dengiz savdo portlaridagi ish jarayonlari yanada kuchaydi, shu bilan birga dengiz floti va kemasozlik sanoati rivojlandi. Mamlakat orqali xalqaro tranzit yo'llarning yuzlab dengiz portlari va aeroportlar ochilishiga olib keldi. Ichki hududlardagi Missisipi va Missuri daryolarida suv transporti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, mamlakat ichkarisida avtomobil yo'llari, temir yo'llari, havo yo'llari va shahar transporti hozirgi kunga kelib yuksak darajada rivojlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakat iqtisodiyotida yuk va yo'lovchilarni tashishda temir yo'l transporti hukmronlik qilmoqda. Temir yo'llarining jami uzunligi 270 ming km; avtomobil yo'llarining jami uzunligi 7 mln.km; ichki hududdagi suv yo'llarining jami uzunligi 40 ming km; quvurlar uzunligi 600 ming km.ni tashkil qiladi.

5) *Mehnat resurslarining etarli ekanligi.* 80-yillargacha ishchi kuchi arzon bo'lganligi sababli barcha sanoat tarmoqlarida aholi yalpi ish bilan ta'minlandi. Keyinchalik, yuqori malakali mehnat resurslarining ko'pligi tufayli, ular asosan industrial tarmoqlarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatda jami 200 mln.dan ortiq ishchi kuchi mavjud (bundan taxminan 20 mln.dan ortiq ishchi kuchi nolegal tarzda, “fuqarolik” olmaganlarni tashkil qilar ekan). Masalan, “qora ishchilar” deb ataladigan nolegal xorijiy fuqarolardan birgina Lotin Amerika va Osiyo mamlakatlaridan 11 mln.dan ortiq ishchilar mavjud ekan.

AQSHda ishchining ish vaqti 1 yilda 1924 soatni tashkil qiladi. Ishsizlik darajasi 6%ni tashkil qilib, jahon mamlakatlari ichida eng pastki o'rinlardan birini egallab turibdi.

6) *Sanoat tarmoqlarida mahsulotlar ishlab chiqarilishining tez sur'atlarda o'sishi.* 40, 50 va 60-yillarning o'rtalarida Evropa va Sharqiy Osiyoda halqaro ahvolning ziddiyatlashuvi AQSH iqtisodiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 40-yillardagi Ikkinchi Jahon Urushi, 1950-53 yillardagi AQSHning Koreya yarim orolidagi va 60-yillarning oxirlarida Vetnamdagi urush harakatlari tufayli nafaqat harbiy sanoat, balki aholi iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarilishi bir necha barobarga oshdi.

7) *Davlat tomonidan yuqori darajada ichki investitsiyalarning sanoat tarmoqlari uchun sarf qilinishi.* Hukumat tomonidan ko'plab ichki investitsiyalar zamonoviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun xarajat qilindi. 50-yillarda hukumat YaMMdan 30-35% mablag'ni sanoat tarmoqlariga yo'naltirdi.

8) *Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yalpi eksportga chiqarilishi.* AQSH kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy ulushi 1940-1960 yillarda, asosan, Evropa mamlakatlariga, 60-80-yillarda esa Osiyoning sharqiy qismidagi mamlakatlarga eksport qilindi.

9) *Fan va texnika sohasining rivojlanishi.* 1935-45 yillar davomida AQSH hukumati fan va ilmni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tekshirish institutlariga davlat byudjetidan ko'pdan-ko'p mablag'ni ajratdi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning va etakchi iqtisodchi mutaxassislarning tahlillariga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida fan-texnika sohasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Hukumat keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyotini yanada rivojlantirish uchun katta mablag' ajratdi. Masalan, oxirgi 10 yil ichida eng ko'p mablag', 1996 yilda 140,9 mlrd.doll.ni tashkil qilgan.

10) *1950-70 yillar mobaynida jahon bozorida yoqilg'i xomashyosining arzon bo'lganligi va ko'plab xomashyoning import qilinganligi.* AQSHdagi deyarli barcha sanoat kompaniyalarining neftga bo'lgan ehtiyoji va talabi hozirgi kunda ham katta. Neft xomashyosi mamlakat hududlarida etarlicha bo'lsa-da, AQSHning iqtisodiy siyosatida hozircha asosiy xomashyoni xorijdan import qilish, hududda ko'plab xomashyo zaxiralaridan unumli foydalanish siyosati qo'llanilmoqda. Jumladan, okean orti hududlaridan, ya'ni Indoneziya va Fors ko'rfazi mintaqasidan neft xomashyosini import qilmoqda.

11) *Moliyaviy xizmatlarning o'sib borishi.* Ko'plab yirik tijorat banklarining faoliyati, jahondagi eng yirik moliya birjalarining aynan AQSH shaharlarida joylashganligi, minglab tijorat banklarining tashkil qilinishi tufayli, mamlakat byudjetiga moliyaviy xizmatlardan ko'plab miqdorda daromadlar olindi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy miqdori bo'yicha AQSH jahon xo'jaligida 1-o'rinda turadi.

Mamlakatdagi kredit tizimi jahondagi eng taraqqiy etgan tizimni tashkil qiladi. Ushbu tizim davlat va xususiy kredit institutlarini o'ziga jamlagan. Uning asosiy komponentini Federal zaxira tizimi (FRS) tashkil qiladi. Ushbu Federal zaxira tizimi mamlakatda Markaziy bank vazifasini bajaradi.

12) *Turizmning rivojlanishi.* AQSH turizm sohasi bo'yicha, sayyohlarning tashrif buyurish soni jihatidan 3-o'rinda, undan daromad olish miqdori bo'yicha esa jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi. 2005 yilda mamlakatga jami 44 mln.dan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, qariyb 68 mlrd. AQSH doll. miqdorida daromad

olingan. Eng asosiy turistik majmualari Florida, Kaliforniya va Gavaya shtatlarida qurilgan.

13) *Mamlakat hududining ikki tomonidagi okean havzasida erkin faoliyat olib borishi va undagi tabiiy resurslardan foydalanganligi.*

14) *AQSHning iqtisodiy salohiyatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan jahon urushlarining ahamiyati.* Ikkinchi jahon urushi tufayli AQSH o'z iqtisodiy qudratini ikki marotabaga oshirib oldi, aynan urush davrida AQSH jahon xo'jaligida iqtisodiy jihatdan tanho hukmron bo'lib qoldi. Uning har sohada dunyodagi etakchi mamlakatga aylanishiga eng asosiy sabablardan yana biri - asosiy raqiblari hisoblangan Evropaning etakchi mamlakatlari iqtisodiy salohiyatiga jahon urushlarining etkazgan salbiy ta'siri edi.

15) *Qariyb 150 yildan ortiq vaqt mobaynida AQSH xududida urush harakatlarining bo'lmaganligi* AQSH hududining jahon urushlaridan uzoqda joylashganligi va unga yaqin qo'shni mamlakatlar bilan urush xavfining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

16) *Jahondagi boshqa yirik mamlakatlarga qaraganda 150 yildan ortiq vaqt mobaynida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy ahvolning bir me'yorda davom etib kelishi.* Mamlakat tepasiga kelgan hukumat rahbarlarining tinch ovoz yo'li orqali saylanishi yoki yaqin 150 yildan beri biror siyosiy inqilob, qo'zg'olonlar, uzoq yalpi ish tashlash jarayonlari yoki davlat to'ntarilishlarining ro'y bermaganligi bilan izohlash mumkin.

AQSH federativ respublika davlati bo'lib, jahon mamlakatlari ichida eng uzoq yillardan beri kuchli Konstitutsiyasi bilan faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdir. Uning Konstitutsiyasi 1787 yilning 17 avgustida qabul qilingan bo'lib, hozirgi kungacha 210 yildan beri ushbu Konstitutsiyaga faqatgina 26 ta o'zgartirish kiritilgan xolos.

17) *Kichik va o'rta biznesning yuksak darajada rivojlanishi.* Hozirgi vaqtda ham ushbu sektor mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. 2004 yil holatiga AQSHning umumiy eksportida kichik va o'rta biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 55% ulushni tashkil qiladi.

2.3. AQSHning iqtisodiy rivojlanish davrlari va xususiyatlari

1-davri 1930-1940-yillar. AQSH 1929-33 yillardagi Buyuk Depressiyadan keyin yangi iqtisodiy siyosat joriy qilish bilan iqtisodiyotni ancha sog'lomlashtirishga erishdi. Buyuk Depressiyadan oldin iqtisodiyotdagi ahvol juda yomon edi. Ushbu inqirozdan chiqib ketish uchun Prezident F.D. Ruzvelt o'zi ishlab chiqqan "Yangi kurs" dasturini taklif etdi va tatbiq qildi. Unda moliyaviy qonunlar, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, ijtimoiy qonunlar, mintaqaviy siyosat jamlangan edi. Ushbu dasturning eng asosiy mohiyati davlatning mamlakat iqtisodiyotini boshqarishi va uni ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solishi, 1929 yilgi "Buyuk depressiya"ga butunlay barham berishdan iborat edi. Olib borilgan ulkan islohotlar natijasida iqtisodiyotda "jonlanish" vujudga keldi.

1933 yilda "Milliy sanoatni tiklash" va "Qishloq xo'jaligini tartibga solish", 1934 yilda esa "Oltin zaxirasi" haqidagi qonunlar chiqarildi.

2-davri 1945-1960 yillar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH urushdan oldin va urush mobaynida Evropa davlatlaridan keltirilgan oltin zaxiralari ko'rinishidagi moliyaviy aktivlarni to'pladi. Milliy valyutani oltin bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'lgan AQSH Bretton-Vuds valyuta tizimi etakchisiga aylandi, ya'ni 1958 yilda G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan tuzilgan Bretton-Vuds shartnomasiga asos solindi. Bu tizim AQSH doll.ni jahon to'lov va zaxira valyutasi sifatida hukmronligini o'rnatishga imkon yaratdi.

AQSH rahbariyati tomonidan Ikkinchi jahon urushidan katta aziyat chekkan Evropa davlatlariga "Marshall rejası" nomli dastur bilan katta miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatilib, ushbu mamlakatlarning iqtisodiyotini tiklashga ko'maklashdi.

Shunday qilib, okean ortiga oqib o'tgan investitsiyalar AQSHning "ikkinchi iqtisodiyotini" shakllantirdi. Ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatiga ko'ra AQSH ning Amerika korporatsiyalarining bo'limlari va shu'ba korxonalariga asoslangan "ikkinchi iqtisodiyoti" dunyodagi etakchi mamlakatlarning milliy iqtisodiyotidan qolishmaydi.

60-yillarga kelib, G'arbiy Evropadagi Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya mamlakatlari va Osiyoning Yaponiya mamlakatining iqtisodiyoti tiklanishi bilan jahon xo'jaligidagi vaziyat keskin o'zgara boshladi. Chunki, amerika mahsulotlarining raqobatbardoshligi hamda doll.ning G'arbiy Evropa davlatlari va Yaponiya valyutasiga nisbatan kursi yildan-yilga pasaya boshladi. AQSHning jahon xo'jaligidagi ishlab chiqarish ulushi taxminan 20% ulushga kamaydi.

3-davri 1970-1990 yillar. Ushbu yillarda AQSHning jahon kapital eksportidagi ulushi qisqarib, Amerika TMKlarining jahon mamlakatlariga yo'naltirgan bevosita sarmoyalarining ulushi deyarli uch barobar kamaydi. Evropa mamlakatlari va Yaponiya mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bo'yicha AQSHga etib oldi. Natijada ularning AQSHga eksporti ikki barobar ortdi.

Jahon iqtisodiyotida etakchilikni boy berib qo'yish xavfi tug'ilganligi sababli, AQSH keskin chora-tadbirlarni ko'rishga majbur bo'ldi. Jumladan, jahon yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorida ahvolni mustahkamlash uchun ITTKI (NIOKR) xarajatlari kamaytirildi, sanoatni ilmtalab sohalar foydasiga qayta qurish tezlashtirildi. AQSH intellektual mulk, yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlar eksportiga ixtisoslashish strategiyasini tanladi.

60-yillarda mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotida Keynscha chora-tadbirlar amalga oshirilgan edi, ya'ni iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga, ishsizlikni kamaytirishga erishildi, federal byudjet mablag'laridan sarmoyalar uchun foydalanildi. Lekin, 80-yillarning boshlarida Keynscha chora-tadbirlar bilan olib borilgan iqtisodiy o'sish sur'ati deyarli to'xtab qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri uzoq yillar davom etgan energetika inqirozidir. Buning natijasida ishsizlik darajasi ko'payib ketdi. 1982 yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotida so'nggi 50 yilda 1 marta iqtisodiy o'sishning eng pasayish darajasi ro'y berdi. Yalpi ichki mahsulot miqdori oldingi yilga qaraganda 7 %ga pasayib ketdi. Ko'plab kompaniyalar energetikaga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga majbur bo'ldi, bu esa o'z navbatida o'z-o'zidan ishlab chiqarishning kamayishiga olib keldi.

80-yillarning o'rtalaridan boshlab, iqtisodiyotda tub burilish yasaldi. Hukumat xususiy sektorni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Iqtisodiyotni tartibga solishda

aynan xususiy sektorning ahamiyati katta bo'ldi. 90-yillarda "sovuq urush" davridagi harbiy mudofaa uchun qurilgan va tashkil qilingan maxsus kompaniya va zavodlarda mahsulot ishlab chiqarilishi endilikda xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tkazildi. Jumladan, hozirda jahondagi eng nufuzli kompaniyalardan hisoblangan "Loksid-Martin", "Nortrop-Grumman", "Boing", "Reytion", "Djeneral elektrik" kabi kompaniyalar nafaqat harbiy sanoat, balki iste'mol mahsulotlarini ham ishlab chiqarmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH faol ravishda yalpi talabni boshqarishning Keynscha siyosatidan foydalandi. Buning asosida to'liq bandlik va yuqori darajada iqtisodiy o'sishni ta'minlash siyosati yotadi. AQSH iqtisodiyotida urushdan keyingi keynschilik siyosatini to'rt bosqichga ajratish mumkin.

1-bosqich. Passiv antitsiklik byudjet makrosiyosati (1946-1962 yillar, G. Trumen va D. Eyzenxaurning prezidentlik davri). Ushbu davrda davlat byudjetining "kiritilgan barqarorlashtiruvchilari"dan keng foydalanilgan. Iukumat moliyaviy vositalardan minimal darajada foydalangan. Keyns nazariyasi bo'yicha byudjet kamomadi kiritilgan.

2-bosqich. Byudjet faolligi (1962-1977 yillardagi J. Kennedi, L. Jonson, R. Nikson, J. Fordlarning prezidentligi davri). Bu davrda davlat byudjetidan foydalangan holda yalpi talab faol ravishda tartibga solingan. 1961-63 yillarda J. Kennedi ma'muriyati iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va ishsizlik darajasini qisqartirish uchun yalpi talabga bevosita byudjet tomonidan ta'sir ko'rsatish siyosatiga o'tdi. Bu siyosat Amerikacha "Keyns fiskalizmi" nomini oldi.

3-bosqich. Keynscha byudjet konservatizmi (1978-1980 yillar, J. Karter prezidentligi davri). Bu davrda J. Kennedi paytidagi klassik byudjet faolligiga qaytildi. Prezident Karterning fikricha, sotuv qobiliyatini qo'llab-quvvatlash uchun vaqti-vaqti bilan byudjet kamomadi zarur, ammo uzoq muddatli byudjet kamomadi inflyatsiyani chuqurlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli strategik maqsad sifatida kamomadsiz byudjet tanlandi. Unga erishish uchun federal harakatlarni boshqarish va nazorat qilish kiritildi, shuningdek, soliqlar qisqartirildi. Ammo amalda byudjet kamomadi va inflyatsiya darajasini kamaytirishga imkon bo'lmadi.

Inflyatsiya darajasining yuqoriligi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, davlat moliyasi holatining yomonligi Keynscha yondashuvning makroiqtisodiy jarayonlarga barqarorlashtiruvchi ta'siri yo'qolishiga olib keldi. Rivojlanishning Keynscha modelini o'zgartirish zaruriyati tug'ildi. Bu model "konservativ iqtisodiy inqilob" boshlanishi bilan almashdi.

4-bosqich. Rivojlanishning nokonservativ bosqichi (1981-1992 yillar, R. Reygan va J. Bush (kattasi) prezidentligi davri). Prezident R.Reygan tomonidan "reyganomika" deb nomlangan islohotlarning amalga oshirilishi AQSH iqtisodiyotining sog'lomlashishiga va tashqi iqtisodiyotdagi mavqeini qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. "Reyganomika"ning asosiy dasturlari amerikaliklarda tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga rag'bat hosil qildi, davlatning milliy iqtisodiyotga samarasiz aralashuvini kamaytirdi. "Reyganomika"ning tamoyili uchta asosiy vazifani hal qilishni nazarda tutdi:

a) inflyatsiya darajasini kamaytirish;

- b) iqtisodiy o'sish darajasini, mehnat unumdorligini va bandlikni oshirish;
- v) federal byudjet barqarorligini ta'minlashdan iborat.

R. Reygan tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi mamlakatning quyidagi sohalarida samarali natija berdi:

- Qattiq pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasini kamaytirish imkonini berdi. Boshlanishiga % stavkalarining ko'tarilishi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilib, sanoatni modernizatsiya qilish imkonini berdi. Keyinchalik iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish uchun % stavkalari kamaytirildi.

- Soliq siyosati tadbirkorlik faolligini oshirdi, amortizatsiyani hisoblashning yangi usuli uskunalarni tez yangilash imkoniyatini yaratdi. Federal soliqlar stavkalari sezilarli ravishda kamaytirildi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi jamg'arma va investitsiyalar darajasini oshirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirdi.

- Ijtimoiy siyosatning qayta ko'rib chiqilishi, ijtimoiy infratuzilmaga federal xarajatlarning kamaytirilishi amerikaliklarni yanada faolroq ishlashga undadi.

“Reyganomika” dasturi qator iqtisodiy muvaffaqiyatlarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, eng asosiy maqsad federal byudjet kamomadini yo'qotish rejasi amalga oshmadi. R. Reygandan keyingi Prezident J. Bush (kattasi) uning siyosatini davom ettirdi. Natijada 90-yillarning boshlariga kelib, bu siyosat iqtisodiyotni boshi berk ko'chaga keltirib qo'ydi. Shu sababli, 1992 yildagi prezidentlik saylovlarida Demokratik partiya vakili B. Klinton g'olib chiqdi. U keyinchalik “klintonomika” deb nom olgan yangi iqtisodiy siyosatni taklif etdi. Umuman, AQSH iqtisodiyoti tarixida ro'y bergan iqtisodiy inqirozning eng og'ir davri 30-yillardagi inqirozga to'g'ri keladi. O'sha bo'lib o'tgan inqiroz natijasida mamlakatda 10 mln.dan ortiq aholi ishsiz qolgandi. AQSH iqtisodiyoti tarixida ro'y bergan barcha iqtisodiy inqirozlar quyidagi yillarda sodir bo'lgan¹(1-jadval).

1- jadval

Inqiroz davrlari	Uning davom etishi (oy)	YaMMning pasayish %i	Ishsizlik darajasi (%)
1948-49	11	-1,4	7,9
1953-54	10	-3,7	6,1
1957-58	8	-3,9	7,5
1960-61	10	-1,6	7,1
1969-70	11	-1,0	6,1
1973-75	16	-4,9	9,0
1980	6	-2,3	7,8
1981-82	16	-3,3	10,8
1990-91	8	-2,2	7,7

¹ Economic Report of the President 1993. -Wash. 1993, p. 59.

2.4. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va o'ziga xos xususiyatlari

AQSH iqtisodiyoti tarkibida YaIMning ulushi quyidagilardan iboratdir: qishlok xo'jaligi YaIMning 10 %ini, sanoat 23 % va xizmat sohasi 67 %ini beradi.

AQSH sanoatida ilmtalab sohalar ustuvor mavqega ega. Bu sohaga investitsiyalarning jalb qilinishi 90-yillarda milliy iqtisodiyot rivojlanishiningsosiy omili bo'ldi. Kapital qo'yilmalar YaIMning qariyb 11 %ni tashkil etdi. Sanoatdagi investitsiyalarning yarmidan ko'prog'ini kompyuter va axborot vositalari ishlab chiqarish tarmog'iga yo'naltirilgan xarajatlar tashkil etadi.


AQSH iqtisodiyotining asosiy sohasi hisoblangan xizmatlar sohasi uning barcha tarmoqlarida yuksak darajada rivojlangan. Bu tarmoqlarga - turizm, bank ishi, savdo, meditsina, ta'lim va boshqalar kiradi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda konsalting, marketing, boshqaruv xizmatlari, shuningdek, axborot texnologiyalari keng rivojlanmoqda.

XX asrning o'rtalaridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrda AQSHning davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishda, uni tartibga solishda va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llagan, shuningdek, bir-biridan ma'lum jihatlari bilan farq qiluvchi texnologiyalar almashtirish va modernizatsiya jarayonlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi.

Sanoat tizimida yangi texnologiyalar bilan mahsulot ishlab chiqarish jarayonining yakuni 1957-1958 yillarda ro'y bergan inqiroz bilan yakunlandi. Bu davrda mahsulot ishlab chiqarishning xususiyati urushdan keyingi yillarda mamlakatning ichki bozori uchun, ya'ni aholi iste'moli mahsulotlarini, ayniqsa, ichki bozordagi talab va ehtiyojni qondirish maqsadiga yo'naltirildi. Shu bilan birga, G'arbiy Evropa mamlakatlarida urushdan keyingi ahvolni yaxshilash va ushbu mintaqadagi mamlakatlarning tiklanishiga ahamiyat qaratdi. Ayniqsa, shu mamlakatlarga bergan ko'plab miqdordagi kredit mablag'lari evaziga yordam berdi. Ushbu yillarda mahsulot ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan universal texnologiyalarga tayangan holda foydalanildi.

XX asrning so'nggi yiliga kelib, AQSHning eng yirik kompaniyasi "Financial Times" gazetasining bergan ma'lumotiga ko'ra, jahondagi eng yirik korporatsiyalar aynan AQSHga tegishli bo'lib, ularning jahon reytingidagi o'rnini quyidagicha: 1-o'ringda "Microsoft" va 2-o'ringda "General Electric" korporatsiyalari.


Hozirgi kunda AQSHda 3 ta iqtisodiy hudud shakllangan bo'lib, ular Shimol, Janub va G'arbiy hududlardir (1-chizma).



1-chizma. AQShning iqtisodiy hududlari (iqtisodiyotdagi ulushi)


Hozirgi zamonaviy sanoat tarmoqlarida ilm-fan yo`nalishi asosida ko`plab yangi sanoat tizimlari tashkil qilingan bo`lib, ular mikroelektronika, lazer texnikalarini ishlab chiqarishga, biotexnologiya, ilmiy-texnik jihatdan chuqurlashtirilgan avtomatlashtirilgan texnikalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. Aynan mana shu tashkil qilingan zamonaviy sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning yillik o`sishi 40 %ni tashkil qilmoqda.

Neft sanoati. AQSHda neftni qayta ishlash sanoati jahon xo`jaligida 1-o`rinda turadi. Jahon xo`jaligida Xyuston neftni qayta ishlash zavodi neft xomashyosini qayta ishlash miqdori bilan jahon xo`jaligida etakchilik qilar edi. Lekin, 2004 yilda ushbu zavodda ro`y bergan kuchli yong`in zavod tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning keskin kamayishiga olib keldi. Shunga ko`ra, hukumat yong`in oqibatlarini tez fursatlarda to`g`rilash va zavodni ta'mirlash ishlarini 2007 yilgacha bartaraf qilish bo`yicha alohida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Neft xomashyosining yarmidan ortig`ini Texas shtati va unga yaqin bo`lgan hududlar beradi. Chunki, Texas neft va gaz xomashyolari bo`yicha Shimoliy Amerika qit'asida eng boy hudud hisoblanadi (2-chizma).



2-chizma. Mamlakatda shtatlar bo'yicha neft qazib olishning taqsimlanishi

Elektr-energiya ishlab chiqarish. Energiya ishlab chiqarishda asosiy rolni neft va tabiiy gaz tashkil qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti mamlakatda ko'mirga bo'lgan ehtiyojni yildan-yilga kamaytirib yubordi. Chunki, avvallari ko'mir hisobiga ishlagan zavodlar va kemalar endilikda energiya hisobiga ishlamoqda. Ko'mir mamlakatning 15 shtatida qaziladi. Asosiy qaziladigan hududlari- Kentukki, G'arbiy Virjiniya, Pensilvaniya va Appalachi ko'mir havzalaridir (3-chizma).



3-chizma. Elekt-energiya ishlab-chiqarishda AQSHning jahon xo'jaligidagi ulushi

Elektr-energiya ishlab chiqarish mamlakatda yil sayin rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda AQSH sanoatini elektr-energiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Avtomobilsozlik. 1973 yilgi jahon xo'jaligidagi «neft inqirozi» tufayli mamlakatda benzinning narxi ko'tarildi va jahon bozorida, shuningdek, AQSHda benzina kamtalab bo'lgan avtomobillarning narxi keskin ko'tarilib ketdi. 1999 yilgacha AQSH barcha turdagi avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 2-o'rinni egallab keldi, 2000 yildan esa 1-o'ringa ko'tarilib oldi. Demak, hozirda AQSH avtomobillarning barcha turlarini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 1-o'rinda bo'lsa, engil mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 2-o'rinda turadi. Mamlakatning jami 26 shtatining 125 ta shaharida yirik avtomobil zavodlari qurilgan. Mamlakatga tegishli bo'lgan kompaniyalar va ularning xorijdagi bo'limlari birgalikda jami 20 mln. donadan ortiq engil va yuk avtomobillari ishlab chiqarilmoqda.

Qishloq xo'jaligi YaIMning taxminan 10 %ini tashkil qiladi. Mamlakatning deyarli barcha hududlarida qishloq xo'jaligi tarmoqlari faoliyatini olib borish iqlim jihatdan juda qulaydir, lekin Alyaska hududida iqlimning noqulayligi sababli qishloq xo'jaligi tarmoqlari deyarli shakllanmagan. Eng asosiy etishtiriladigan ekinlar: bug'doy, dukkakli ekinlar, paxta, kartoshka, sholi, shakarqamish, mevasabzavot, poliz va boshqalar. Oxirgi 30 yilda YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi deyarli 2 marotabaga kamaydi. Mamlakatda 2 mln.ga yaqin fermer xo'jaliklari mavjud (1945 yilda 6 mln.dan ortiq bo'lgan). Umuman, mamlakat qishloq xo'jaligi tarmoqlarida jami 21 mln.ga yaqin ishchi yoki ish bilan band aholining 17%i faoliyat ko'rsatadi.

AQSHning jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi quyidagicha: makkajo'xori 45%, bug'doy 12%, dukkakli ekinlar 52% (jahonda 1-o'rin), paxta 21% (Xitoydan so'ng 2-o'rinda), yog' olinadigan urug'li ekinlar 18% (Hindistondan so'ng 2-o'rin), go'sht 17% (1-o'rin), tamaki 12%, guruch 18%. Makkajo'xori va bug'doy eksporti bo'yicha jahonda 1-o'rinda, sholining eksporti bo'yicha esa jahonda Tailanddan so'ng 2-o'rinda turadi. Mamlakat sanoatida biotexnologiyaning rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida katta ijobiy yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, donli ekinlar XX asr oxirlariga miqdorlarga qaraganda ko'proq etishtirilmoqda.

AQSH iqtisodiyoti tarkibidagi eng etakchi asosiy soha xizmat ko'rsatish sohasidir. U YaIMning 67% ulushini beradi va shu sohada ish bilan band aholining 75%i faoliyat ko'rsatadi. Ushbu soha transport, aloqa, ulgurji va chakana savdo, umumiy ovqatlanish, moliya-kredit faoliyati, maishiy xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash, xo'jalikni boshqarish davlat apparati, harbiy va politsiya tarmoqlarini tashkil qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida olinadigan daromadning 26 %i ijtimoiy, shaxsiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, avtoservis, hordiq chiqarish kabi tarmoqlarga; 25 %idan ortiqrog'i moliyaviy xizmat ko'rsatish, ko'chmas mulk va sug'urta qilish tarmog'iga, 22 %i chakana va ulgurji savdo tarmog'iga, 8 %i transport va 19 %i davlat boshqaruvi tashkilotlariga to'g'ri keladi.

2.5. AQSHning jahondagi iqtisodiy mavqei

AQSH hozirgi kunda yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat bo'lib, iqtisodiy salohiyati jihatidan jahonda 1-o'rinda turadi. Jahon bo'yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 16 %i AQSHga tegishlidir. U dunyodagi eng yirik kreditor davlatlarning ikkinchisi hisoblanadi. Ko'plab ommaviy-axborot vositalarining ma'lumotlariga ko'ra, AQSH jahon mamlakatlariga jami 1 trln. AQSH doll.dan ortiq miqdorda mablag' bergan. U jahon tashqi savdo aylanmasi bo'yicha 1-o'rinni egallab kelgan. Uning umumiy tovar ayirboshlash miqdori 2005 yilda 2530 mlrd. AQSH doll.ni, ya'ni eksporti 1006,5 mlrd. doll.ni va importi 1523,8 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qilgan.

AQSHning jahon miqyosidagi eksport ulushi 16%ni tashkil qilib, jahonda 1-o'rinda turadi (Germaniya 10%, Yaponiya 9%), (tovarlar eksporti 13%, xizmat ko'rsatish eksporti jahon xo'jaligida 18 %ni tashkil qiladi). Asosiy eksport mahsulotlarini telekommunikatsiya vositalari, asbob-uskunalar, transport vositalari (avtomobillar va avialaynerlar), energetika asbob-uskunolari va dvigatellari, har xil o'lchash va hisoblagich asboblari, kompyuter texnologiyalari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil qiladi.

Umumiy eksportning 40 %i Lotin Amerikasi, 25 %i Evropa, 12 %i Osiyo mamlakatlariga jo'natilmoqda. Eksportdagi asosiy hamkor mamlakatlari Kanada (23 %), Yaponiya (11 %), Meksika (10 %), Buyuk Britaniya (5 %), Germaniya (4 %), Janubiy Koreya (3,5 %) va Tayvan (3 %) hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, 1987-1997 yillarda AQSHning eksporti yiliga o'rtacha 10,3 %ga oshib bordi (Kanada - 8,5%, Italiya - 7,8 %, Buyuk Britaniya - 7,7 %, Frantsiya - 6,6 %, Yaponiya - 6,5 %, Germaniya - 5,8%).

Asosiy import mahsulotlariga elektron ehtiyot qismlari, elektron maishiy xizmat ko'rsatish texnikalari (Yaponiya) va ba'zi kompyuterlar (Tayvan), poyabzal mahsulotlari (Evropa) va neft xomashyosi (Osiyo) kiradi. Jahon bo'yicha importning 23 %i AQSHga to'g'ri keladi, uning miqdori 2004 yilda deyarli 1,5 trln. Doll.ni tashkil qilgan.

Import bo'yicha asosiy hamkor mamlakatlari Kanada (19 %), Yaponiya (17 %), Meksika (7 %), Xitoy (6 %), Germaniya (4,5 %), Tayvan (4 %), Buyuk Britaniya (3,5 %) va boshqa mamlakatlar hisoblanadi.

1994 yil 1 yanvardan kuchga kirgan AQSH, Kanada va Meksika mamlakatlari bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, "Shimoliy Amerika erkin iqtisodiy hududi" (NAFTA) tashkil qilindi.

2-jadval

Evropa Ittifoqi va NAFTA mamlakatlarining asosiy ko'rsatkichlari:

Ko'rsatkichlar	Evropa Ittifoqi (15 ta mamlakat, 1997 yilda)	NAFTA
Hududi (ming kv.km)	3232,0	19522,0
Aholisi (mln.kishi)	372,5	378,0
YaIM (mlrd. AQSH doll)	7250,0	8500,0
YaIMning jahon xo'jaligida gi ulushi (% hisobida)	20,5	24,0

Xulosa

Ko'plab iqtisodchi olimlar AQSH iqtisodiyotida mahsulot ishlab chiqarish miqdori ko'rsatkichlari Ikkinchi jahon urushidan keyin boshqa etakchi mamlakatlarga qaraganda pasayganini tahlil qilishgan, ya'ni ushbu mamlakat ko'plab miqdorda turli mahsulotlar ishlab chiqarsa-da, uning ulushi jahon savdo-sotiq tizimida urushdan oldingi yillarga qaraganda pasayganligini e'tirof qilishdi. Buning asosiy sababi, 1950-60 yillarda jahon valyuta tizimida AQSH doll. kursining boshqa etakchi mamlakatlarning, jumladan G'arbiy Evropa va Yaponiya mamlakatlarining milliy valyutalariga qaraganda qadrsizlanishidir.

Haqiqatan ham, AQSHning eng yaqin hamkor mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi XX asrning ikkinchi yarmida AQSHga qaraganda yuqori bo'lib keldi. Chunki, aynan eng yaqin hamkor mamlakatlar AQSHning iqtisodiy yordami, qolaversa uning sarmoyasi, boshqarish tajribasi va eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarini jalb qilishdan unumli foydalandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, AQSHning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi kichik % miqdorlarda o'sib borsa-da, lekin uning miqdori va jahon bozoridagi ulushi o'z iqtisodiy salohiyati va o'rnini saqlab qoldi. Ammo, AQSHning jahonda olib borayotgan siyosiy munosabatlari negizida "tanho hukmronlik"ni ushlab turish, hamda AQSH va uning yaqin sheriklari o'rtasida "jahonni bo'lib olish" siyosati davom etmoqda. Ikkinchi jahon urushidan so'ng avvaliga Koreya yarim orolida, so'ngra Kuba, Shimoliy Vetnam, Liviya va Iroq kabi mamlakatlarda jangovar harakatlarni olib bordi. Aynan hozirgi AQSH siyosatida ro'y berayotgan globallashuv sharoitidagi demografiya, ekologiya va mintaqaviy mummolar kelajakda AQSHning hududida bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Tayanch iboralar

Buyuk depressiya, yangi kurs, reyganomika, jahon valyuta-moliya tizimi, jahon ishchi kuchi bozori, byudjet.

Nazorat uchun savollar

1. AQSH Buyuk Depressiya yillaridan keyin qanday qilib rivojlanishga erishdi?
2. AQSHning moliyaviy qonunlari hakida nima deya olasiz?
3. AQSH o'z xo'jaligida qanday ijtimoiy siyosat olib bordi?
4. Hozirgi kunda AQSH qanday iqtisodiy siyosat olib bormoqda?
5. AKSh bilan O'zbekiston aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
6. AQSH iqtisodiy-geografik jihatdan qanday hududda joylashgan va uning imkoniyatlari haqida to'xtaling.
7. Nima sababdan hozirda AQSHda aholi migratsiyasi miqdori ortib bormoqda?
8. AQSH hududida joylashgan xalqaro tashkilotlarning bir nechasini sanab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. Изд. 3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Кругман П. Международная экономика. изд. 5-е -СПб.: Питер, 2004.
7. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. Юнити-Дана, 2004.
8. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

3 - bob. KANADA IQTISODIYOTI

3.1. Mamlakatning umumiy iqtisodiy-geografik tavsifi

3.2. Kanada taraqqiyoti makroiqtisodiy modelining xususiyatlari

3.3. Kanada iqtisodiyotining zamonaviy holati va uni rivojlantirish istiqbollari

3.1. Mamlakatning umumiy iqtisodiy-geografik tavsifi

O'zbekiston Respublikasi va Kanada o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 7 aprelda o'rnatilgan. 2002 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi va Kanada o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo aylanmasi 11,9 mln. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 7,7 mln. AQSH doll., import 4,2 mln. AQSH doll.ni tashkil qilgan va tashqi savdo saldosini ijobiy bo'lib, 3,5 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan.

Eksportni noorganik kimyo mahsulotlari va kimyoviy elementlar, reaktivlar (95,6 %), xizmatlar (3,6 %), jundan tayyorlangan mahsulotlar (0,5 %), hamda oziq-ovqat mahsulotlari (0,3 %) ni tashkil etgan. Importni esa plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar (31,6 %), go'sht va baliq mahsulotlari (27,6 %), elektr uskunalari (12,3 %), optika jihozlari (12,2 %), mexanik qurilmalar (7,5 %), farmatsevtika mahsulotlari (5,0 %), xizmatlar (1,4 %) va boshqa mahsulotlar (2,4 %) tashkil etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Kanadalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan 25 ta korxona ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 14 tasi qo'shma korxonalar, 11 tasi esa 100% Kanada kapitali asosida tashkil etilgan korxonalardir.

Kanada hududi jihatidan dunyoda Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda, quruqlik maydoni jihatidan esa Rossiya va Xitoydan keyin uchinchi o'rinda turadi. Hududi katta bo'lishiga qaramay, aholi soni unchalik ko'p emas 2004 yil ma'lumotlariga qaraganda 32 mln. kishi atrofida, ya'ni aholi zichligining darajasi ancha pastdir. Kanada jahondagi kam aholiga ega bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan, aholining intellektual salohiyati juda yuqori - insonlarning taraqqiyoti indeksi bo'yicha Kanada jahonda birinchi o'rinda (AQSH - ikkinchi, Yaponiya - uchinchi) turadi.

2004 yil yakunlariga ko'ra, Kanadaning YaIM ko'rsatkichi 958,7 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sishi 1,7 % ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 29800 AQSH doll.ga teng. YaIM tarmoqlar bo'yicha tarkibi quyidagicha: qishloq xo'jaligi 2,2 %, sanoat 29,2 %, xizmatlar 68,6 % ni tashkil etadi. Yalpi investitsiyalarning YaIM dagi ulushi 19,5 % ga teng bo'lib, 2004 yil Kanadada yillik inflyatsiya darajasi 2,8 % ni tashkil qilgan. Mamlakatdagi ishga layoqatlilar 17,04 mln. kishini tashkil etadi. Ishchi kuchining tarmoqlar bo'yicha bandligi: qishloq xo'jaligida 3%, sanoat ishlab chiqarishida 15 %, qurilishda 5 %, xizmat sohasida 74 %ni tashkil qilgan. 2004 yilda ishsizlik darajasi 7,8 % ni tashkil etgan. Kanadaning 2004 yildagi davlat byudjeti 690,9 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan daromad qismi 348,2 mlrd. AQSH doll., xarajatlar qismi esa 242,7 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qilgan.

2004 yilda Kanada tashqi savdo aylanmasi 519,7 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 279,3 mlrd. AQSH doll.ga, import 240,4 mlrd. AQSH doll.ga, tashqi savdo saldosini ijobiy bo'lib, 38,9 mlrd. AQSH doll.ni tashkil etgan. Asosiy eksport

tovarlari sanoat uskunalari, telekommunikatsiya mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, plastmassa, neft va gaz, rangli metallar va boshqa mahsulotlardan tashkil topgan.

Asosiy eksport hamkorlari AQSH (86,6 %), Yaponiya (2,1 %), Buyuk Britaniya (1,4 %) (2003yil ma'lumoti) mamlakatlari hisoblanadi. Asosiy import tovarlari: mashina va uskunalar, iste'mol tovarlari, kimyo mahsulotlari va boshqalardir. Asosiy import hamkorlari: AQSH (60,6 %), Xitoy (5,6 %), Yaponiya (4,1%) mamlakatlari hisoblanadi (2003 yil ma'lumoti). Kanadaning oltin-valyuta zaxirasi 2003 yilda 36,27 mlrd. AQSH doll.ni tashkil etgan. Mamlakatning tashqi qarzi 2000 yilda 1,9 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan.

Kanadaning 80 %ga yaqin aholisi shaharlarda yashaydi. U mustaqil davlat bo'lsa-da, Britaniya Millatlar Hamdo'stligiga kiradi. Davlat tili ikkita – ingliz va frantsuz tillari hisoblanadi. Kanada – emigrantlar mamlakati. Bu erga dastlab Frantsiya, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyadan odamlar ko'chib kelishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Markaziy va Sharqiy Evropa aholisi ko'chib kelgan bo'lsa, hozirgi paytda esa ko'chib kelganlar ichida Janubiy-Sharqiy Osiyo, ayniqsa, xitoyliklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Kanada Rossiya bilan bir xil iqlim mintaqasida joylashgan, maydonining asosiy qismi tundra va taygalardan iborat. Biroq janubiy qismidagi erlar qishloq xo'jaligi uchun etarli darajadagi maydonni tashkil qiladi. Mamlakat tabiiy boyliklar zaxirasiga juda boy bo'lib, 3,5 mln. kv. km. o'rmon bilan qoplangan. Yog'och zaxiralari bo'yicha u jahonda uchinchi o'rinda (Rossiya va Braziliyadan keyin), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yog'och miqdori bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi.

Jahondagi chuchuk suv zaxiralarining deyarli 15 %i Kanadada joylashgan. Hidroelektroenergiya zaxiralarining salohiyati 65 mln. kilovattni tashkil etadi, bu jahon mamlakatlari ichida uchinchi ko'rsatkich hisoblanadi. Mendelev jadvalidagi deyarli barcha elementlar Kanadada mavjud. Shuning uchun ham uning iqtisodiyotida qazilmalar qazib olish va xomashyoni qayta ishlash bilan bog'liq sanoat sohalari rivojlangan. Mamlakat sanoatining rivojlanishiga temir yo'llarning qurilishi sezilarli turtki bo'lgan, ya'ni bu qurilishlardan so'ng engil sanoat, oziq - ovqat sanoati va metallni qayta ishlash sanoati rivojlana boshlagan.

Kanadaning iqtisodiy rivojlanishida AQSH bilan olib borilgan savdo munosabatlari katta ahamiyat kasb etgan. Kanada, AQSH va Meksika mamlakatlari Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA)ni tashkil etishgan. Kanada AQSH ko'magida Katta ettilikka a'zo bo'lgan va iqtisodiyotining "kuchi" jihatidan ettilikda oxirgi o'rinda turadi. Lekin ettilikning boshqa a'zolaridan xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdoga ko'proq jalb qilinganligi bilan ajralib turadi. Kanada tashkil topgan paytdan boshlab jahonning etakchi davlatlariga taqlidan rivojlandi. Kapitalizm vujudga kelishi bilan Kanada rivojlanishning kapitalistik yo'lini tanladi, biroq unda kapitalizmning o'ziga xos jihati shundaki, iqtisodiyotda davlatning mavqei juda kuchli hisoblanadi.

Kanadaning iqtisodiy taraqqiyotida bu mamlakatning jahon urushlarida ishtirok etmaganligi ham muhim ahamiyat kasb etgan, lekin ikkinchi jahon urushi paytida uning harbiy sanoati iqtisodiyotning rivojlanishiga katta yordam bergan. Kanadaning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan asosiy uch omilni ajratib ko'rsatish mumkin: a) tabiiy resurslarning ko'pligi; b) demografik omillar va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar; s) xorijiy kapitalning kirib kelishi.

3.2. Kanada taraqqiyoti makroiqtisodiy modelining xususiyatlari

Kanadaning taraqqiyot modeliga AQSH tajribasi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Masalan, AQSHda neokonservativ islohotlar muvaffaqiyatli yakunlangandan so'ng, 1984 yilda kanadalik islohotchilar ham shunga o'xshash vazifalarni amalga oshira boshlashdi. 80-yillarning o'rtalarida mamlakat iqtisodiyotida olib borilgan qayta qurishlar "Reyganomika"ning asosiy dasturlarini eslatadi.

Islohotlarning zarurligini mamlakat iqtisodiyotida an'anaviy ravishda davlat rolining kattaligi bilan tushuntirish mumkin, chunki eng asosiy tarmoqlar davlat ixtiyorida bo'lgan. 1945-84 yillarda davlatning mavqei yanada mustahkamlashgan, chunki u tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisiga aylangan edi, elektr-energetika, transport va aloqalar ham davlat ixtiyorida bo'lgan. Kanadada olib borilgan neokonservativ islohotlarning dastlabki natijalari kutilganicha bo'lmadi. Biroq 1989 yildan boshlab, AQSH va Kanada o'rtasida erkin savdo bo'yicha yangi kelishuv kuchga kirdi, natijada Kanada uchun AQSH hududida biznes bilan shug'ullanish borasida qulay imkoniyat tug'ildi. Shundan keyin mamlakatda xususiylashtirish jarayoni keng ko'lamda amalga oshirila boshladi, natijada qayta ishlash va neft-gaz sanoatidagi yirik korxonalar, havo, temir yo'l transporti hamda aloqa xususiy biznes qo'lga o'tdi. Portlar, aeroportlarni ommaviy ravishda xususiylashtirish amalga oshirildi. Provintsiyalar hukumati telekommunikatsiya kompaniyalarini, elektr-energetika korxonalarini sotib yubora boshladi va xususiy kompaniyalar ijtimoiy xizmatlar sohasiga ham faollik bilan kirib keldi. Bularning natijasida davlat xarajatlari sezilarli darajada kamaydi va davlat investitsiyalarining qisqarishiga olib keldi.

90-yillar Kanada iqtisodiyotida chuqur o'zgarishlar davri hisoblanadi. Biz bilamizki, Kanada iqtisodiyoti ochiq turdagi iqtisodiyot hisoblanib, asosan tashqi bozorga yo'naltirilgan. Darhaqiqat, globallashuv jarayonlari, ayniqsa, Shimoliy Amerikadagi integratsiya uning iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 1994 yilda Kanada, AQSH va Meksika mamlakatlari tomonidan Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA)ning tashkil etilishi ushbu mamlakat uchun yangi imkoniyatlarni ochdi.

Shunday bo'lsa-da, 90-yillarning boshi Kanada iqtisodiyoti uchun unchalik omadli bo'lmadi, chunki 1991 yilda YaIM o'sish sur'ati bor-yo'g'i 0,2 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 1992 yilda u 1,7 %ni tashkil etdi va jonlanish 1992 yildan keyin boshlandi, lekin bu o'sish 1995 yilgacha sekin kechdi. Kanada iqtisodiyoti rivojining asosiy omili NAFTA doirasidagi tashqi savdo bo'ldi, ichki bozordagi talabning ortishi kuzatilmadi faqatgina 1997 yildan boshlab ichki talab kengaya boshladi.

1993 yilda hukumat tepasiga kelgan liberallar partiyasi byudjet kamomadini bartaraf etishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqdi va amalga oshira boshladi, chunonchi soliq stavkalari saqlangan holda davlat xarajatlari kamaytirildi. 1998 yilga kelib, Kanadada Katta ettilik mamlakatlari ichida birinchi bo'lib federal byudjet kamomadi bartaraf etildi va provintsiyalarning moliyasi sog'lomlashtirildi.

Kanada hukumatining soliq siyosatiga o'zgartirishlar kiritishi hamon kun tartibida turibdi. Daromad solig'i va iste'mol buyumlariga egri soliqlar o'rtasida farq juda katta, ya'ni o'rtacha ish haqidan olinadigan to'g'ri soliq 46 %ga teng (AQSHda 30 %). Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlarning kattaligi mamlakatga yuqori malakali kadrlarning kirib kelishiga to'sqinlik qilmoqda, kanadaliklar esa AQSH,

Avstraliya va Yangi Zelandiyada ishlashga harakat qilmoqdalar. Shunday bo'lsa-da, aholi sog'liqni saqlash xizmatlarining tekinligi, oliy ta'limning arzonligi bilan (federal hukumat oliy maktab xarajatlarining 50 %ini qoplaydi) o'ziga xos kompensatsiyaga ega bo'lmoqda.

3.3. Kanada iqtisodiyotining zamonaviy holati va uni rivojlantirish istiqbollari

Kanada iqtisodiyotining tarkibi quyidagicha: YaIMda qishloq xo'jaligi ulushi – 3,1 %, sanoatning ulushi – 30,7 % (shu jumladan, qayta ishlash sanoatining ulushi – 22,1 %), shuningdek, nomoddiy ishlab chiqarish sohasi ulushi YaIMning 66,2 %ini tashkil etadi.

Qshloq xo'jaligi Saskachevan, Manitoba va Ontario provintsiyalarida rivojlangan bo'lib, asosiy ekinlar bug'doy va makkajo'xori hisoblanadi. Asosiy fermerlar kelib chiqishi Ukrainadan bo'lgan kanadaliklardir. Britaniya Kolumbiyasi, Yangi Shotlandiya va Nyufaunlend provintsiyalarida baliqchilik va dengiz mahsulotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Sanoatda yaqin kunlarga neft, gaz va o'rmon sanoati ustuvor edi, lekin hozirgi davrga kelib xomashyo tovarlariga jahon narxlarining pasayishi va ularga talabning kamayishi natijasida quyidagi ilmtalab sohalar sanoat taraqqiyotida oldingi o'ringa chiqdi:

- elektron va elektr-texnika asbob-uskunolari ishlab chiqarish;
- telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish;
- farmatsevtika sanoati;
- sanoat qurilmalari ishlab chiqarish;
- yangi konstruktiv materiallar (polimerlar, plastmassalar va sintetik materiallar)

sanoati.

Bundan tashqari avtomobillar ishlab chiqarish (avtomobilsozlik AQSH va Yaponiya firmalarining shaxobchalari va shu'ba korxonalariga asoslangan), qurilish sanoati uchun materiallar ishlab chiqarish hajmi ham ortib bormoqda, kimyo sanoati rivojlanmoqda, transport mashinasozligi: ekskavatorlar, suv mototsikllari, aviatsionika ishlab chiqarish ham iqtisodiyotning etakchi tarmog'i hisoblanadi. Hozirgi davrda kompyuter industriyasi ham jadal rivojlanib bormoqda.

Xizmatlar sohasi ham tez sur'atlar bilan taraqqiy etib boryapti. Natijada nomoddiy ishlab chiqarishning quyidagi sohalarida ulkan muvaffaqiyatga erishilmoqda:

- ulgurji savdo;
- tadbirkorlar tarmog'i uchun biznes-xizmatlar ko'rsatish;
- mehmonxona xo'jaligi;
- umumiy ovqatlanish;
- telekommunikatsiya sohasi.

Davlat muassasalari ko'rsatadigan xizmatlarning turlari va hajmi sezilarli darajada kamaygan. Buning natijasida xususiy tarmoqning xizmatlar sohasidagi ulushining oshishiga imkon yaratildi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, Kanada iqtisodiyotida tashqi savdo muhim rol o'ynaydi, chunki YaIMda eksportning ulushi 35-40 %ni tashkil etadi, o'sish sur'ati 9 % atrofida.

Mamlakat eksportining katta qismi (taxminan 85 %) AQSH bozoriga qaratilgan. Jumladan, AQSHga ishlab chiqargan avtomobillarning taxminan 80 %ni, engil sanoat mahsulotlarning – 65 %ni, rezinaning – 55 %ni, elektr asbob-uskunalarining – 50 %ni, poʻlat va sanoat qurilmalarining – 50 %ni, sellyuloza-qogʻoz sanoati mahsulotlarining deyarli teng yarmi eksport qilinadi.

Kanada nefti va gazining deyarli yarmi AQSH sotiladi. UST ma'lumotlariga koʻra, jahon tovar eksportining 4 %i, importining 3,7 %i Kanadaga toʻgʻri keladi. Kanada savdo balansi ijobiy qoldiqqa ega boʻlib, 9,3 mlrd. doll.ni tashkil qiladi. Xizmatlar sohasida bu koʻrsatkichlar mos ravishda 2,2 %, 2,7 % va 6 mlrd. doll. miqdorida kamomadni tashkil etadi.

Xulosa

Kanada hududi jihatidan dunyoda Rossiyadan keyin ikkinchi oʻrinda turuvchi ulkan mamlakat hisoblandi. Kanada dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri boʻlib “Katta sakkizlik” mamlakatlari qatoriga kiradi. Kanadaning taraqqiyotida AQSH bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik, AQSH makroiqtisodiy rivojlanish modeli katta ahamiyat kasb etadi, chunki Kanada mahsulotlarining asosiy qismi AQSHda sotiladi. Kanada iqtisodiyotining rivojlanishiga shuningdek, mamlakatning tabiiy xomashyoga boyligi, mehnat resurslarining nihoyatda yuqori malakali ekanligi ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Kanada jahondagi kam aholiga ega boʻlgan mamlakat boʻlishiga qaramasdan, aholining intellektual salohiyati juda yuqori - insonlarning taraqqiyoti indeksi boʻyicha Kanada jahonda birinchi oʻrinda turadi.

2004 yil yakunlariga koʻra, Kanadaning YaIM koʻrsatkichi 958,7 mlrd. AQSH doll.ga teng boʻlib, uning yillik oʻsishi 1,7% ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YaIM 29800 AQSH doll.ga teng. YaIM tarmoqlar boʻyicha tarkibi quyidagicha: qishloq xoʻjaligi 2,2%, sanoat 29,2%, xizmatlar 68,6% ni tashkil etadi.

Tayanch iboralar

Jahon valyuta-moliya tizimi, jahon ishchi kuchi bozori, korporatsiya, moliyalashtirish, monetarizm.

Nazorat uchun savollar

1. Kanadaning umumiy iqtisodiy-geografik tavsifini bering. Sizning nazaringizda Kanadaning ajralib turadigan asosiy jihatlariga nimalarni misol kilib keltirish mumkin?
2. Mamlakat taraqqiyotida tabiat iqlimi qanday rol oʻynaydi?
3. Kanadaning katta ettilik davlatlaridagi oʻrni haqida gapirib bering.
4. Kanada iqtisodiyotida uning tarixiy rivojlanishi va sanoati qanday oʻrin tutgan?
5. Kanadaning soliq siyosatida hozirgi kunda qanday muammolar hukm surmokda?
6. J. Kretenning liberal davlatdagi makroiqtisodiy siyosatidagi ustuvor yoʻnalishlari qanday?
7. Davlat iqtisodiyotining hozirgi holati haqida tushuncha bering.

8. Kanada bilan O'zbekiston davlatlari o'rtasida qanday shartnoma va bitimlar imzolangan, va uning ijrolari hozirgi kunda qanday amalga oshirilmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд. 3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
3. Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.
4. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

4 – bob . G`ARBIY EVROPA MAMLAKATLARINING QTISODIYOTIGA UMUMIY TAVSIF

4.1. G`arbiy Evropa mamlakatlarining urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlari

4.2. Zamonaviy sharoitda G`arbiy Evropadagi iqtisodiy o`shishning xususiyatlari va iqtisodiyotdagi asosiy muammolar

4.1 G`arbiy Evropa mamlakatlarini urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari

O`zbekiston Respublikasi va Evropa Hamjamiyati Komissiyasi o`rtasidagi o`zaro diplomatik munosabatlar 1994 yil 16 noyabrda o`rnatilgan. O`zbekiston Respublikasi elchixonasi 1995 yil yanvar oyidan Bryusselda o`z faoliyatini boshladi, 2002 avgust oyidan boshlab esa, Toshkentda “Evropa Uyi” o`z faoliyatini olib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil iyunda bo`lib o`tgan Evropa Ittifoqining sammitida ishtirok etdi va sammit doirasida O`zbekiston Respublikasi hamda Evropa Ittifoqi o`rtasida o`zaro hamkorlik va hamdo`stlik to`g`risidagi Kelishuv imzolandi. Shuningdek, Evropa Ittifoqi mamlakatlarining rahbarlari bilan uchrashuv bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi va Evropa Hamjamiyati o`rtasidagi aloqalarning rivojlanishida o`zaro hamkorlik va hamdo`stlik to`g`risidagi Kelishuv asosiy hujjat hisoblanadi.

Savdo iqtisodiy hamkorlik: 2005 yil yakunlariga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi (EI) mamlakatlari o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasi 1mlrd. 586 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan va 2004 yilga nisbatan 105,1% ga o`sgan. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya 430,2 mln. AQSH doll., Germaniya 325,8 mln. AQSH doll., Frantsiya 132,7 mln. AQSH doll., Latviya 101,7 mln. AQSH doll., Italiya 86,2 mln. AQSH doll., Polsha 64,1 mln. AQSH doll. va Litva 45,2 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan. 2005 yilning yakunlariga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida EI mamlakatlari investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning soni 583 taga etdi. Mamlakatda EI davlatlari kompaniyalarining 204 vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda.

Iqtisodiy salohiyatiga ko`ra, G`arbiy Evropa AQSH va Yaponiyaning birgalikda olingan salohiyatiga deyarli teng keladi. Agar Evropa mamlakatlarining jami YaIMni e`tiborga olsak, u AQSHning YaIMga taxminan teng (2004 yilda 11 trln. AQSH doll.). Jami jahon sanoat ishlab chiqarishining va ilmiy-texnik salohiyatining uchdan bir qismi, milliy daromadining to`rtidan bir qismi va patent fondining esa beshdan bir qismi G`arbiy Evropa mamlakatlariga to`g`ri keladi. G`arbiy Evropa mamlakatlarining xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlaridagi va jahon xo`jalik aloqalari tizimidagi ishtiroki ham sezilarli darajada: bu mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushining hajmi jihatidan AQSH ulushidan ko`proq, importidagi mavqei esa deyarli AQSH mavqeiga teng keladi.

G`arbiy Evropada ikkita asosiy integratsion guruhni ajratib ko`rsatish mumkin: Evropa Ittifoqi va Evropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (EESA) (EFTA – European Free Trade Association). Biz bilamizki, bu ikki integratsiya guruhi o`rtasida uzviy

iqtisodiy aloqalar olib borilmoqda, binobarin EI va EESAni o'z ichiga olgan yagona iqtisodiy makon tashkil topganligi to'g'risida ta'kidlab o'tish lozim.

Evropa Ittifoqiga hozirgi paytda 25 mamlakat a'zo bo'lib kirgan:

- Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Frantsiya, Germaniya va Italiya (bu mamlakatlar 1957 yilda Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil etish bo'yicha Rim bitimini imzolagan);
- Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniya (EIHga 1973 yilda a'zo bo'lgan);
- Gretsiya (EIHga 1981 yilda a'zo bo'lgan);
- Ispaniya va Portugaliya (1986 yildan boshlab EIH a'zosi);
- Finlyadiya, Shvetsiya va Avstriya (EIHga 1995 yilda a'zo bo'lgan).

2004 yil 1 maydan Evropa Ittifoqiga yana 10 ta mamlakat Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Polsha, Sloveniya, Slovakiya, Malta, Chexiya, Estoniya a'zo bo'ldi.

EESAgaga esa Shveysariya, Lixtenshteyn (bu ikki mamlakat o'rtasida valyuta va bojxona ittifoqi mavjud), Islandiya va Norvegiya mamlakatlari a'zodir.

Evropani birlashtirish g'oyasi ancha ilgari boshlangan, ya'ni 1517 yilda Erazm fon Rotterdamskiy yozgan edi, 1849 yilda esa frantsuz yozuvchisi Viktor Gyugo "Evropa qo'shma Shtatlari"ni tashkil etish borasida o'z fikrlarini bayon qilgan, 1946 yil Syurixda Uinston Cherkhill "Evropa qo'shma Shtatlarini tashkil etishimiz kerak" degan edi. Biroq, 1950 yilning o'rtalarigacha bu shiorlarning negizida hech qanday iqtisodiy asos bo'lmagan.

Evropaning yagona iqtisodiy makon sifatidagi taraqqiyoti faqatgina ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlandi. G'arbiy Evropaning urushdan keyingi rivojida quyidagi asosiy bosqichlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. 1945-1957 yillar –urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash davri. Ikkinchi jahon urushi Evropa uchun o'z qora ishini amalga oshirdi: harbiy harakatlar natijasida uning iqtisodiy salohiyatiga ulkan zarar etdi, Evropaning jahon savdosida, kapitallarning eksporti va importida egallagan mavqeiga putur etdi, natijada bu hudud AQSHga sezilarli darajada bog'lanib qoldi. Bretton-Vudsdagi qabul qilingan jahon valyuta tizimida AQSH dollari tanho hukmronlikka ega bo'ldi, dollari Evropa mamlakatlari valyutalariga nisbatan kursi asossiz ravishda ko'tarib qo'yildi.

1948-1951 yillarda AQSH urushda vayron bo'lgan G'arbiy Evropa iqtisodiyotini qayta tiklashga ko'maklashish maqsadida Marshall rejasini amalga oshirdi. Ushbu rejaga ko'ra, AQSH G'arbiy Evropa mamlakatlariga, asosan Buyuk Britaniya va GFRga o'sha payt uchun katta mablag' hisoblangan 12,3 mlrd. dollari miqdorida davlat assignatsiyalarini berdi. Shu bilan birgalikda bu hududga AQSHdan katta miqdorda xususiy kapitallar ham kirib keldi. AQSH Evropa mamlakatlarida olib borilgan tuzilmaviy islohotlarni o'tkazish jarayonida intellektual yordamini ham berdi.

G'arbiy Evropa davlat rahbarlarining siyosiy xohish-istaklari, jumladan, 1950 yil 9 mayda Germaniya va Frantsiya o'rtasida ko'mir va po'lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni taklif etgan Frantsiya tashqi ishlar vaziri R. Shumanning taklifini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Bundan tashqari sobiq SSSR boshchiligidagi Sharqiy Evropa davlatlarining 1949 yilda O'zaro iqtisodiy yordam kengashining tashkil etilishi ham G'arbiy mamlakatlar milliy xo'jaliklarining bir-biriga yaqinlashishiga

turtki bo'ldi. Nihoyat, mustamlaka imperiyalar (Britaniya, Frantsiya, keyinchalik Ispaniya va Portugaliya imperiyalari)ning parchalanishi sobiq metropol davlatlarning o'z qit'asidagi qo'shnilari bilan aloqalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishga majbur etdi. Shunday qilib, 1951 yilning aprelida Ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi (KPEB)ni ta'sis etish haqida Parij shartnomasi imzolandi. Unga olti davlat a'zo bo'ldi: Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg (BENILYuKS), GFR, Frantsiya va Italiya.

1955 yilning iyun oyida bo'lib o'tgan Messin Anjumani qarorlari integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga yangi turtki bo'ldi. Bu Anjumanda Evropa integratsiyasining istiqbollari belgilandi, pirovard maqsad milliy iqtisodiyotlarning birlashishi va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali umumiy bozorni shakllantirish edi.

Evropa Ittifoqining navbatdagi yirik tarixiy bosqichi 1957 yilning mart oyida bojxona ittifoqi va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat olib borishga asoslangan Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH)ni tashkil etish to'g'risida Rim shartnomasining imzolanishi bo'ldi. Bundan tashqari shu yili Atom Energetikasi bo'yicha Evropa hamjamiyati (Evroatom) tashkil etildi. Rim shartnomasining kuchga kirishi KPEB, EIH va Evroatomni birlashtirdi, yuqorida zikr etilgan olti mamlakat unga asos soldi va a'zo bo'lib kirdi. Bu hujjat integratsiyani rivojlantirishga doir asosiy yondashuvlar, jumladan "to'rtta erkinlik" makonini yaratish, ya'ni tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi makonini yaratishni ifodalab berdi.

2. 1957-1974 yillar – Evropa integratsiyasining boshlanishi va Evropa mamlakatlari rivojlanishining ekstensiv modeli. 60-yillarda EIning davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini (Vazirlar Kengashi, Evropa Komissiyasi va Evropa Sudi) shakllantirish jarayoni amalga oshirildi.

1959 yilda o'zaro savdodagi bojxona bojlarining umumiy darajasi 10 %, 1960 yilda esa yana 20 %ga pasaytirildi. 1968 yilning 1 iyuliga kelib, ichki bojxona chegaralari olib tashlandi va tashqi chegarada umumiy bojxona tariflari o'rnatildi. 1969 yil Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo'lib o'tgan majlis EI tarixida integratsiya jarayonining birinchi bosqichi tugaganligidan dalolat berdi. Bu davrni bojxona ittifoqi bosqichi deb atash mumkin.

Iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan, 1957-1974 yillar Evropa uchun rivojlanishning yuqori sur'ati bilan xarakterlanadi. Eng katta muvaffaqiyatlarga sanoat, qishloq xo'jaligi va tashqi savdo sohasida erishildi, natijada qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha G'arbiy Evropa AQSHga deyarli etib oldi, lekin texnologiyalarning rivojlanishi bo'yicha hali ham orqada edi.

3. 1974-85-yillar – jahon iqtisodiy inqirozlari davri. 70-yillardagi iqtisodiy va valyuta chayqalishlari natijasida EIHda keng ko'lamdagi iqtisodiy inqiroz vujudga keldi. Erkin suzuvchi valyuta kursiga o'tilishi valyuta sohasidagi barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatdi. Shu paytgacha qo'llanib kelingan ekstensiv o'sish Keyns modelining kamchiliklari ko'rinib qoldi. Bu bosqichda vujudga kelgan iqtisodiy inqirozlarning sababi sifatida G'arbiy Evropaning jahon xo'jaligi aloqalaridagi ishtirokini ham ko'rsatish mumkin, zero ana shu tashqi omillar inqirozning chuqurlashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. 1974 yilda Evropa Kengashi tashkil etildi, 1979 yildan boshlab esa

Evropa Parlamenti saylana boshlandi va 1979 yilga kelib Evropa valyuta tizimi vujudga keldi.

4. 1985-1992 yillar – integratsiya jarayonlarining kuchayishi va uzoq muddatli iqtisodiy ko'tarilish davri. Bu davr yagona ichki bozor yoki boshqacha qilib aytganda, "umumiy bozor"ni shakllantirish yakunlanganligi bilan xarakterlanadi. 1986 yilda imzolangan Yagona Evropa Akti (YaEA) ham katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki bu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish yo'nalishlarini belgilab berdi. Bular savdo yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash, ishtirokchi-mamlakatlar ichki chegaralarini ochish, ilmiy-texnologiyani ayirboshlashni jadallashtirish, yagona valyutani joriy etish va Evropa Ittifoqining barcha fuqarolari huquqlarining tengligi hamda ijtimoiy kafolatni ta'minlash kabilar edi.

Evropa Ittifoqi rivojlanishining uchinchi, ya'ni zamonaviy bosqichi G'arbiy Evropada iqtisodiy ittifoq yaratishga qaratilgan bo'lib, u XX asrning oxirgi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. 1990 yilda Hamjamiyatning o'n ikki a'zosi kishilar, tovarlar, kapital va axborotlarning erkin harakatlanishi uchun ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni 1993 yilning 1 yanvaridan boshlab ochish to'g'risida Shengen bitimini imzoladi. 1992 yilda Evropa Ittifoqi to'g'risida Maastricht shartnomasi imzolandi va ushbu hujjatga ko'ra quyidagilar ta'sis etildi:

1. yagona Evropa fuqaroligi;
2. siyosiy ittifoq;
3. iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

Iqtisodiyot sohaslarida bu davrda G'arbiy Evropaning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini sezilarli darajada mustahkamlashdi. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot borasida olib borilgan ishlar AQSH va Yaponiyaga deyarli etib olishga yordam berdi. 80-yillarning o'rtalari va 90-yillarning boshlarida inflyatsiya darajasi pasaydi, valyuta kurslari barqarorlashdi, YaIM o'sdi, tashqi savdoda tovar aylanmasi kengaydi. 1991 yilda imzolangan Maastricht shartnomasida milliy valyutalarni asta-sekin muomaladan chiqarish va yagona umumevropa pul biriligi joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo'yildi.

5. 1993 yildan Evropa integratsiyasining zamonaviy bosqichi – iqtisodiyotning yangi modeliga o'tish boshlandi. 1995 yilda Hamjamiyatga yana uchta davlat: Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiyaning kirishi va Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatining Evropa Ittifoqi deb nomlanishidan so'ng bu integratsiya birlashmasi hozirgi zamonaviy ko'rinishiga ega bo'ldi.

Evropa Ittifoqi uchta asosga tayanadi:

1. iqtisodiy ittifoq;
2. adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlik;
3. xavfsizlik va tashqi siyosat sohasida kelishib ish ko'rish.

Evropa Ittifoqining asosiy maqsadlari Evropa xalqlarining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, ichki chegaralarsiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy sohada o'zaro aloqalarni kuchaytirish hisoblanadi.

Evropa Ittifoqining eng muhim tamoyillari sifatida a'zo-mamlakatlarning milliy xususiyatlari va inson huquqlariga hurmat bilan qarashni keltirish mumkin. Evropa Ittifoqining shtab-kvartirasi Bryusselda joylashgan, bu erda Kengash majlislarini

o`tkazadi va Evropa Komissiyasi doimiy asnoda faoliyat olib boradi. O`z navbatida, Evropa parlamenti va sudi Lyuksemburgda joylashgan.

Milliy valyutalarni muomaladan chiqarish va yagona valyuta evroni joriy etish jarayoni 1992 yildagi Maastrixt shartnomasidan boshlangan. Valyuta ittifoqi tomon harakat uch bosqichda amalga oshirilmoqda. 1996 yil 1 yanvargacha tayyorgarlik, 1999 yil 1 yanvargacha tashkiliy va 2002 yilgacha yakuniy bosqichlardir. Evro hududiga kirish uchun asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- 1.byudjetning kamomadi 2 %dan yuqori bo`lmasligi;
- 2.davlatning qarzi YaIMning 60 %idan ko`p bo`lmasligi;
- 3.yillik inflyatsiya 1,5 %dan yuqori bo`lmasligi;
- 4.uzoq muddatli kreditlar bo`yicha o`rtacha nominal % stavkasi yiliga 2 %dan yuqori bo`lmasligi;
- 5.valyuta kursining tebranishi 2,25 %dan baland bo`lmasligi kerak.

Valyuta ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga qo`yilgan muvofiqlashtirilgan talablarning qattiqligi EI davlatlarining ikki guruhga saralanishiga olib keldi. 2002 yilgacha evroni muomalaga kiritadigan davlatlar (15 tadan 12 tasi) va bu jarayonni 2002 yildan keyinga qoldiruvchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya).

2002 yilning o`rtalariga kelib, 12 ta davlat o`z milliy valyutalarini emissiya qilishni to`xtatishdi, muomalaga evroning 5 ta tanga puli va 9 ta qog`oz pullari kiritildi. Mavjud milliy pul belgilari asta-sekin muomaladan chiqariladi, barcha hisoblashish operatsiyalari xalqaro elektron tizim "Target" yordamida evroga o`tkaziladi.

4.2. Zamonaviy sharoitda G`arbiy Evropadagi iqtisodiy o`sishning xususiyatlari va iqtisodiyotdagi asosiy muammolar

G`arbiy Evropa mamlakatlarida iqtisodiy o`sishning darajasi AQSH, Kanada va Yangi industrial mamlakatlarga nisbatan pastroq, chunki o`rtacha yillik o`sish odatda 2-3 %ni tashkil etadi. Evropa iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy sohalar quyidagilar hisoblanadi:

1. samolyotsozlik (Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya);
2. bank faoliyati (Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya, Ispaniya);
3. biotexnologiya (Germaniya);
4. avtomobilsozlik (Germaniya, Frantsiya);
5. raqamli televidenie (Frantsiya);
6. moliyaviy xizmatlar (Buyuk Britaniya, Lyuksemburg);
7. sug`urta (Niderlandiya);
8. nashr ishlari (Germaniya);
9. to`qimachilik (Italiya);
10. suv ta'minoti (Frantsiya).

Bundan tashqari Evropa orgtexnika, telekommunikatsiya va aloqa vositalari, aniq texnika va optika, kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda kuchli mavqega ega.

Yuqorida qayd etilgan sohalarida global raqobatbardoshlikka erishilgan bo`lsa-da, G`arbiy Evropa mamlakatlarida fuqarolarning kuchli ijtimoiy himoyalanihi

mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatadi va shu bilan bir vaqtda tadbirkorlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Evropacha rivojlanish modelining amerikacha modeldan farqi shundaki, tarixan Evropada davlatning roli, iqtisodiyotda davlat sektorining o'rnini favqulodda muhim bo'lgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti – bu aralash iqtisodiyotning Evropa varianti bo'lib, unda aholining daromadlari bo'yicha tabaqalanish darajasi uncha yuqori bo'lmaydi.

Bu modelning muammolari shundan iboratki, birinchidan, Evropa texnologik jihatdan orqada qolmoqda, chunki davlat tomonidan moliyalashning ustuvor yo'nalishi ITTKI sohasi emas, balki ijtimoiy dasturlar hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik borasida asosiy e'tibor davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim bitiruvchilarining nazariy tayyorgarligi va haqiqiy biznes amaliyoti o'rtasida katta farq mavjud.

EI mamlakatlari boshqaruv tizimi ham AQSH nisbatan samarali emas, chunki byurokratiya ko'proq, poraxo'rlik darajasi yuqori (Frantsiya, Italiya). Davlat aralashuvining darajasi kuchli bo'lganligi uchun tadbirkorlar o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydilar.

Ikkinchi muammo, aytish mumkinki, asosiy muammo iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish zaruriyatidir. Evropada tarmoq tuzilmasi va bandlik tuzilmasini tubdan qayta qurish kerak. Evropada samaradorlikka asosan bandlar sonini kamaytirish orqali erishiladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat aralashuvining kuchayishiga, soliqqa tortishning yuqori darajasiga, milliy xo'jalikning nosamaraviy sohalarida ish joylarini saqlab qolishni talab qiladi.

Uchinchi muammo – hududiy bozorni kengaytirish mummosidir. Bu borada Evropa iqtisodiy makonini Markaziy-Sharqiy Evropa mamlakatlari hisobiga kengaytirish mumkin, lekin buning uchun bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini G'arbiy Evropa mamlakatlarinikiga yaqinlashtirish zarur bo'ladi.

To'rtinchi muammo, G'arbiy Evropaning AQSH bilan iqtisodiy (ba'zi hollarda siyosiy) raqobat olib borishi sanaladi. Evropa Ittifoqiga yangi mamlakatlarning a'zo bo'lishi bu borada ijobiy turtki berishi mumkin, lekin bu ichki muammolarning ko'payishiga ham olib keladi. Bundan tashqari Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari keyingi paytdagi iqtisodiy salohiyatning o'sib borayotganligini ham hisobga olish kerak.

Xulosa

G'arbiy Evropa iqtisodiy salohiyatiga ko'ra AQSH va Yaponiyaning birgalikda olingan salohiyatiga deyarli teng keladi. G'arbiy Evropa mamlakatlarining jami YaIM AQSHning YaIMga taxminan teng. Jami jahon sanoat ishlab chiqarishining va ilmiy-texnik salohiyatining uchdan bir qismi, milliy daromadining to'rtidan bir qismi va patent fondining esa beshdan bir qismi G'arbiy Evropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. G'arbiy Evropa mamlakatlarining jahon eksportidagi ulushi AQSH ulushidan ko'proq, importidagi mavqei esa deyarli AQSH mavqeiga teng keladi. G'arbiy Evropa AQSH va Yaponiya bilan birgalikda jahon xo'jaligining uch asosiy markazini tashkil etadi.

Hozirgi paytda G'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyotida bir qancha muammolar mavjud. Ushbu muammolar asosan mehnat bozori, ishchi kuchining qimmatligi bilan bog'liq. Natijada G'arbiy Evropa AQSH va Yaponiyadan iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha orqada qolmoqda.

Tayanch iboralar

Evrovalyuta, Evropa valyuta birligi, Evropa valyuta tizimi, Evropa iqtisodiy hamjamiyati, Evro obligatsiyalar, korporatsiya.

Nazorat uchun savollar

1. G'arbiy Evropa mamlakatlarining iqtisodiy jihatdan qanday umumiy muammolari mavjud?
2. G'arbiy Evropa mamlakatlarining zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotidagi, rivojlanishida ko'zga ko'rinarli jihatlarini ko'rsating.
3. G'arbiy Evropa mamlakatlari tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish ko'rsatkichlarini ko'rsating va o'z tushunchangizni bildiring.
4. "Evropa Ittifoqi"ni tuzishdan asosiy maqsad, ya'ni nimalar kutilgan edi va ularni amalga oshirishda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
5. Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan Amerika mamlakatlari iqtisodiyotida qanday o'xshashliklar va farqlar mavjud?
6. G'arbiy Evropa mamlakatlari Eini tuzganlaridan, ya'ni birlashganlaridan keyin ularning YaMM va YaIMda o'zgarishlar sodir bo'ldimi?
7. Evropa Ittifoqi ilmiy-texnik taraqqiyotida qanday jihatlari bilan AQSH va Yaponiyadan ajralib turadi?
8. Nima sababdan Evropa Ittifoqi mamlakatlarini boshqarish AKShga nisbatan samarali emas?
9. Hozirgi vaqtda EI bilan O'zbekistonning aloqalari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –Изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К°", 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: ТК Велби, Изд-во Поспект, 2006.
4. Nazarova G.G., Halilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Кругман П. Международная экономика. -Изд. 5-е. -СПб.: Питер, 2004.
7. Ломакин В. Мировая экономика. Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
8. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

5- bob. GERMANIYA IQTISODIYOTI VA UNING JAHON XO`JALIGIDA TUTGAN O`RNI

5.1. Germaniyaning iqtisodiy – jo`g`rofiy holati

5.2. Ijtimoiy bozor xo`jaligiga asoslangan nemis modeli va uni modernizatsiya qilish zaruriyati

5.3. Germaniyaning zamonaviy makroiqtisodiy siyosati

5.4. Germaniya iqtisodiyotining tuzilishi va o`ziga xos xususiyatlari

5.1. Germaniyaning iqtisodiy – geografik holati

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) O`zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 31 dekabrda tan oldi. 1992 yil 6 martda mamlakatlar o`rtasida o`zaro diplomatik munosabatlar o`rnatildi. Toshkent va Berlin shaharlarida mamlakatlarning elchixonalari faoliyat olib bormoqda.

Mamlakat rahbarlarining yuqori darajadagi 5 ta rasmiy tashriflari bo`lib o`tdi: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning GFR ga rasmiy tashrifi (1993yil, 1995yil va 2001 yillarda) amalga oshirildi. Shuningdek, 1995 yilda Germaniya Federal Prezidenti R. Gertsog va 2002 yilda Germaniya Kantsleri G. Shryoder rasmiy tashrif bilan O`zbekiston Respublikasida bo`ldi.

2004 yil yakunlariga ko`ra, mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasi 320 mln. AQSH doll.ga, 2005 yilda esa, 326 mln. AQSH doll.ga teng bo`ldi. Ikkala davlat o`rtasidagi jami moliyaviy va texnik hamkorlik 240 mln. Evroni tashkil etdi. Hozirgi kunda, O`zbekiston Respublikasida Germaniya investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan 141 ta korxona o`z faoliyatini olib bormoqda. O`zbekiston Respublikasida Germaniyaning 54 ta kompaniyasi vakolatxonalari ro`yhatga olingan bo`lib, ular jumlasiga, «Simens», «Daymler Krayssler», «Tissen-Krup», «BASF», «Lyutganza», «Alkatel», «Bayer» va boshqalar kiradi. Shuningdek, «Doyche Bank», «Kommertsbank», «Drezdner Bank», «Bankgezelshaft Berlin» kabi banklarining vakolatxonalari faoliyat ko`rsatmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) Evropaning markaziy qismida joylashgan bo`lib, shimolda Daniya bilan, g`arbda Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Frantsiya davlatlari bilan, Janubda Shveytsariya va Avstriya, sharqda Chexiya, Slovakiya, Polsha davlatlari bilan chegaradosh. GFR Evropa hamjamiyati va NATOga a'zo bo`lgan davlat sifatida Evropaning markaziy va sharqiy davlatlarini bir – biriga bog`lab turadi. GFRning umumiy maydoni 356,96 km. kv. bo`lib, u hududiy jihatdan 16 erdan tashkil topgan: Baden – Vyrtemberg (poytaxti Shtutgart shahri), Bavariya (poytaxti Myunxen shahri), Berlin (poytaxti Berlin shahri), Bradenburg (poytaxti Potsdam shahri), Bremen (poytaxti Bremen shahri), Gamburg (poytaxti Gamburg shahri), Gassen (poytaxti Visbaden shahri), Mekklenburg – Pommeraniya (poytaxti Shveren shahri), quyi Saksoniya (poytaxti Gannover shahri), Shimoliy Reyn – Vestfaliya (poytaxti Dyusseldorf shahri), Reynland – Pfalsh (poytaxti Maynts shahri), Saar (poytaxti Saarbryukxen shahri), Saksoniya (poytaxti Druven shahri), Saksoniya – Anxalt (poytaxti Magdenburg

shahri), Shlezvig – Golshteyn (poytaxti Kil shahri) va Tyuringiya (poytaxti Erfurt shahri).

GFR aholisi taxminan 82,5 mln. kishi bo`lib, uning 6,5 mln.i xorijliklardir. Poytaxti Berlin shahri (1991 yilning iyun oyidan), rasmiy davlat tili nemis tili, dini xristian (nasroniy) va pul birligi nemis markasi bo`lgan edi (2002 yilning yanvarida Evro pul birligi qabul qilindi). Milliy bayrami nemis birligi kuni (1990 yil 3 oktyabr GDR va GFR ning birlashgan kuni) hisoblanadi. Germaniya Federal Prezidenti Roman Xertsog, Federal kantsler Angela Merkel.

Hozirgi kunda, 2004 yil yakunlariga ko`ra, Germaniyaning YaIM ko`rsatkichi 2,271 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning yillik o`sishi – 0,1% ga pasaygan. Aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YaIM ko`rsatkichi 27600 AQSH doll.ni tashkil etadi. YaIMning tarmoqlar bo`yicha tarkibi: qishloq xo`jaligi 1 %, sanoat 31 %, xizmat ko`rsatish 68 % (2002 yilda) ga teng bo`lgan. Yalpi investitsiyalar YaIM ning 17,7 % ini tashkil etadi. Mamlakat aholisining asosiy qismi (42,43 mln.) ishga yaroqli bo`lib, ularning tarmoqlar bo`yicha bandligi quyidagicha: qishloq xo`jaligida 2,8 %, sanoatda 33,4 %, xizmat ko`rsatish sektorida esa 63,8 % ishchi kuchi banddir.

2004 yilda Germaniyada ishsizlik darajasi 10,5% ga teng bo`lgan, shuningdek davlat byudjeti 2,252 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, shundan byudjet daromadlari 1,079 trln. AQSH doll., xarajatlari esa, 1.173 trln. AQSH doll.ni tashkil etgan. 2003 yilda Germaniya tashqi savdo aylanmasi 1,2819 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, shundan eksport 696,9 mlrd. AQSH doll., import 585 mlrd. AQSH doll. va tashqi savdo saldosi ijobiy bo`lib 111,9 mlrd. AQSH doll.ni tashkil etadi. Asosiy eksport tovarlariga mashina va uskunarlar, texnologiyalar, qishloq xo`jaligi mahsulotlari, to`qimachilik mahsulotlari va boshqalar kiradi. Asosiy eksport hamkorlari Frantsiya (10,6 %), AQSH (9,3 %), Buyuk Britaniya (8,4 %), Italiya (7,4 %), Gollandiya (6,2 %), Avstriya (5,3 %), Belgiya (5,1 %), Ispaniya (4,9 %), Shveytsariya (4 %) hisoblanadi. Asosiy import tovarlariga metallar, gaz, neft, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Asosiy import hamkorlari Frantsiya (9,2%), AQSH (7,3%), Buyuk Britaniya (6 %), Italiya (6,3 %), Gollandiya (8,4 %), Avstriya (4 %), Belgiya (4,9 %), Xitoy (4,7 %) mamlakatlari hisoblanadi.

Germaniyaning yirik mamuriy va sanoat markazlari Berlin, Keln, Essen, Gamburg, Dyusseldorf, Myunxen, Shtutgart shaharlari hisoblanadi.

GFR federativ davlatdir, erlarining har biri o`z konstitutsiyasiga, parlamenti va hukumatiga ega. Federatsiya konstitutsiyasi GFR ning asosiy qonunidir. Davlat rahbari federal prezident hisoblanadi, u xalqaro munosabatlarda mamlakat nomidan ish ko`radi, ijroiya hokimiyati esa to`lalgicha federal kantsler qo`lida.

GFRning federatsiya miqiyosidagi qonun chiqaruvchi oliy organi bundestag parlament bo`lib, u bevosita umumxalq saylovlarida yashirin ovoz berish asosida 4 yil muddatga saylanadi. Bundestag saylovlarida ro`yxatdagi saylovchilarning 5% dan ko`p ovozini olgan partiyalar ishtirok etishi mumkin. Erlarning manfaatlarini Bundestag ifodalaydi, Bundestag federatsiyaning qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatini ta`minlovchi asosiy organi bo`lib, hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushidan so`ng, Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti yuksalishida “Marshall plani” ning ahamiyati juda katta bo`ldi. Ayniqsa, o`tgan asrning 50-yillarida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ichki bozorning

kengayishi bilan bog'liq xolda moliya tizimida milliy valyuta-doyche markaning mustahkamlanishiga katta e'tibor qaratildi.

Germaniya foydali qazilmalar zaxirasiga boy emas, chunki toshko'mir va kaliy tuzlarigina mavjud. Ko'rinib turibdiki, bunday foydali qazilmalar xo'jalikda hech qanday sezilarli qiymatga ega emas. Shunga qaramay, tabiiy resurslarning kamligi mashhur nemis tejamkorligini keltirib chiqargan va mamlakat iqtisodiyotining ilmtalab tarmoqlarini rivojlantirish va sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashtirdi. Mamlakat hududining 55 %ini qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar, 30 %ini o'rmonlar tashkil qiladi. Mamlakatning suv resurslari orasida daryolar va kanallarning ko'pligini aytish mumkin. Bunday ichki suv tizimlarining kattaligi kemasozlikning rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Duysburg dunyodagi eng yirik daryo porti hisoblanadi. U Germaniya, Shveytsariya va Avstriyaning chegarasida joylashgan, natijada bu holat ko'plab turistlar va dam oluvchilarni jalb qiladi.

Germaniyaning aholisi 82,5 mln kishini tashkil etadi. Aholi soni bo'yicha Germaniya Evropada Rossiyadan so'ng 2-o'rinda turadi. Aholinig zichligi kv. km ga 230 kishini tashkil etadi. Aholi eng zich hudud muhim sanoat mintaqasi – Reyn-Vestfaliya eridir. Germaniya aholisining tarkibi deyarli bir xil. Lekin so'nggi vaqtlarda xorijlik ishchi kuchining o'sishi kuzatilmoqda va ularning soni aholining 10 % iga yaqinlashmoqda. Germaniya – etarlicha yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakat, aholining 83 %i shaharlarda yashaydi.

1990 yil oktabrda Sharqiy erlar (avvalgi GDR) GFR tarkibiga kiritilgandan so'ng yagona Germaniya 16 federal erlardan iborat bo'ldi, mamlaktning poytaxti yana Berlinga qaytarildi.

5.2. Ijtimoiy bozor xo'jaligiga asoslangan nemis modeli va uni modernizatsiya qilish zaruriyati

Zamonaviy Germaniyaning iqtisodiy tizimi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti hisoblanadi. Mamlakatda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi AQSH yoki Buyuk Britaniyaga nisbatan doimo yuqori bo'lgan. Gitler davrining totalitarizmi umuman davlatning iqtisodiyotda hukmronligiga olib keldi. Lekin II jahon urushidan so'ng mamlakatda xalq xo'jaligining tiklanish davrida aynan davlat jamiyat barqarorligini va ijtimoiy himoyalaniшни ta'minlab bergan. Ijtimoiy bozor xo'jaligi kontseptsiyasiga asoslangan holda nemis "Iqtisodiy mo'jizasi"ning otasi L. Erxard iqtisodiyotda mashhur islohotlarini olib bordi. Davlatning bunday ijtimoiy siyosati Germaniyaning hozirgi kuniga ham xos.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli iqtisodiy o'sish va bandlikni teng taqsimlash o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Agar ushbu modelning etik tamoyillari protestantlikka asoslangan bo'lsa, ijtimoiy tamoyillar so'zsiz katolik dinidan olingan.

Tizim markaziga davlat, jamiyatning barcha a'zolariga oz yoki ko'p miqdorda ijtimoiy foydalarning teng taqsimlanishini ta'minlab beruvchi faoliyati qo'yilgan.

Rivojlanish makroiqtisodiy yo'lining boshqa xususiyati "Reyn kapitalizmi" hisoblanadi. Uni mamlakat iqtisodiyotida banklar sezilarli rol o'ynashi ajratib turadi. Germaniyada banklar sanoat kompaniyalari, xizmatlar sohasining yirik aktsiyadorlari hisoblanadi. Shuning uchun biznes echimlarini qabul qilish jarayonida banklarning

faol aralashuvi o'z-o'zidan emas. Shunday qilib, Germaniya iqtisodiyotida banklarning tutgan o'zni ularning biznesga real ta'sir etish hisobi bilan dunyodagi boshqa etakchi mamlakatlarga nisbatan ancha kuchli hisoblanadi.

Hozirgi kunda Germaniya o'zining ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modeli tufayli bir qancha qiyinchiliklarni boshidan kechirmoqda. 90-yillarning oxiriga kelib, YaIMning o'sish sur'atlari AQSHga nisbatan deyarli uch barobar past edi. 1993 yildan boshlab, misli ko'rilmagan ishsizlik darajasi qayd etildi. 1997 yilning martida ishsizlik eng yuqori darajaga etib, iqtisodiy faol aholining 11,3 % ini tashkil etdi. 1999 yilning yozigacha nemis markasining kursi pasayishda davom etdi. Bunga asosiy sabab faqatgina jahon valyuta-moliya inqirozining ta'siri emas, balki nemis ijtimoiy bozor iqtisodiyotining inqirozi hamdir.

Germaniya ijtimoiy bozor xo'jaligi inqirozining sabablari 90-yillardagi mamlakat hukumatining noto'g'ri iqtisodiy siyosati, ish haqining yuqori darajasi, innovatsiyalarning etarli emasligi va ijtimoiy kafolatlarning yuqori darajasi hisoblanadi. Mehnat haqi yuqoriligi sababli nemis korxonalari foydaning 40 %ini mehnatga haq to'lash uchun sarflaydi. Har 100 marka ish haqi uchun ish beruvchi 81 marka ijtimoiy to'lovlar to'lashi kerak. Natijada Germaniyada 1 soatlik minimal mehnat haqi jahonda eng yuqori bo'lib, o'sha paytda 10,5 markani tashkil etgan. Ishsizlik bo'yicha yordam pulining darajasi ham etarli darajada yuqori, natijada bu nemislarning davlatga qaram bo'lishiga olib keldi. Ijtimoiy kafolatlar tizimini ushlab turish uchun aholi va kompaniyalarga kuchli fiskal bosim qo'llaniladi.

90-yillarning ohiriga kelib, mamlakatda soliqqa tortish darajasi misli ko'rilmagan darajada edi. Masalan, agar AQSHda taqsimlanmagan foydaning 32 %, Buyuk Britaniyada 45%i soliqqa ketsa, Germaniyada bu ko'rsatkich 65 % ga etdi. Soliqqa tortishning yuqori darajasi ko'plab nemis kompaniyalarining o'z ishlab chiqarish bozorlarining xorijda rivojlanishiga majbur qilmoqda, yuqori daromadli jismoniy shaxslar dunyoning boshqa mamlakatlariga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishni ma'qul ko'rmoqda.

Soliqlarning yuqori darajasi va xorij investitsiyasini rag'banlantirish dasturining yo'qligi Germaniyaning xorij kapitalini jalb qilish bo'yicha unchalik qulay emasligiga olib keldi. Nemis ishchi kuchining yuqori narxi mamlakatning raqobatbardoshligini sezilarli darajada pasaytirdi.

Xorij kompaniyalari Germaniyada ishlab chiqarishdan mahrum. Shuning uchun xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarishdagi va aholi bandligidagi ulushi unchalik katta emas. Masalan, Niderlandiyada xorijiy investorlarning umumiy investitsiyadagi ulushi 35 % bo'lsa, Buyuk Britaniyada 25 %, Frantsiyada 12 % ni Germaniyada 7,5 %ni tashkil etadi. Germaniyada oxirgi 90-yillar mobaynida mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarining hajmi 3 marta ko'payib 58 mlrd markani tashkil qilishiga qaramay, xorij investorlarining ulushi umumiy qo'yilmalarning 7,5 %ini tashkil qiladi, xolos. Xorij kapitalining GFRga kam kirishi bilan birgalikda nemis kapitalining xorijga katta miqdorda chiqib ketishi kuzatildi, moliyaviy investorlar esa o'z operatsiyalari uchun soliqlarini yanada liberal soliq iqlimli mamlakatda to'lashni ma'qul ko'radi.

Xorij investorlarining Germaniyada yuqori texnologik ishlab chiqarishni amalga oshirishga qiziqmasligi mamlakatning texnologik kuchsizlanishiga olib keldi.

Germaniya dunyoda texnologiya jihatidan etakchi hisoblanmaydi, ayniqsa, mikroelektronika, gen injeneriyasining o`rni kuchsiz. Buning natijasida Germaniya eksportining raqobatbardoshligi pasaymoqda. 1980 yildan 1993 yilga qadar jahon yuqori texnologiyali mahsulotlari bozoridagi Germaniya hissasi 20,3 dan 16,2 %ga qisqarishi kuzatildi. Shubhasiz, bugun ham ijtimoiy bozor iqtisodiyoti ilmiy-texnikaviy rivojlanishga zarar etkazmoqda. Mamlakatda iqtisodiy siyosatda ustivor yo`nalish yuqori texnologiyalar emas, balki kelajakda uning ortidan yuqori texnologiyali bozor mahsulotlarini yo`qotishga olib kelayotgan dasturlar hisoblanadi. Nemis TMKlari o`z ITTKIning 1G`3 qismigachasini xorijda olib bormoqda. Chunki Germaniyada fan blan shug`ullanish qulay emas. Aholining ommaviy ijtimoiy noroziliklari kelib chiqishi mumkinligi sababli mamlakat ochiq holda nemis iqtisodiyotining zarar keltiruvchi sektorlarini subsidiya qilishda davom etmoqda. Buning natijasida, Germaniya jahon bozorida raqobatbardosh bo`lmagan ko`mir, po`lat quyish, kemasozlik sanoatlarini saqlab qolgan holda davlat byudjeti xarajatlarining 1G`3 qismi shunday iqtisodiyotning zarar keltiruvchi sohalariga to`g`ri subsidiyalar sifatida sarflanmoqda. Bunday siyosatni AQSH va Yaponiyadagi mamlakatning selektiv ko`magida to`la raqobatbardosh tashkilotlar bilan solishtirib, Germaniya sanoatidagi infratuzilmaviy muammolarini echishda to`liq noqobililigini tan olish lozim.

Sanoatning asosiy sohalarida yuqori to`lanadigan ish o`rinlarini saqlab qolgan holda Germaniya o`z milliy iqtisodiyotining ilg`or sektorlarida yangi ish o`rinlarini yaratishga qodir emas. Natijada YaIMdagi nomoddiy ishlab chiqarish sohasining ulushi boshqa rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan ancha kam. Bundan tashqari Germaniya infratuzilmasi - aloqa, energiya va transportning narxlari yuqori darajadadir.

Mamlakatga xorij investitsiyalarining kirishi chegaranganligi ichki bozorning ham raqobatbardosh emasligiga olib kelmoqda. Davlat boshqaruvi amalda Keynsning talab iqtisodiyotida yozib o`tilganidek, bozorni boshqarishda davom etmoqda. Ijtimoiy bozor xo`jaligi iqtisodiyotda barcha resusrlarni qayta taqsimlab beruvchi davlatning o`rnini mustahkamlashga olib kelmoqda. Germaniyada YaIM dagi davlat xarajatlarining ulushi katta (50 % atrofida). Davlat xarajatlarining o`sishi esa byudjetdagi kamomad va davlat qarzi bilan bog`liq muammolarni keltirib chiqardi. Valyuta almashuvi bo`yicha Maasstrixt mezonlarida ruxsat berilgan maksimal daraja mos ravishda YaIM 3% va 60%ini tashkil etadi.

Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining inqiroz sharoitida Sharqiy erlardagi tuzilishdagi yangilanishlarni hal qilishga ham to`g`ri keldi. Bu raqobatbardosh bo`lmagan ishlab chiqarishni, ishsizlikni va ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarmoqda. Sharqiy erlardagi qoloqlikni tugatish uchun 2 trln. marka hajmidagi investitsiyalar zarur, lekin mablag`ni zamonaviy sharoitda topish qiyin. Shuningdek Sharqdagi mehnat samaradorligi darajasini undan taxminan 3 marta ko`p bo`lgan G`arb standartlariga etkazish lozim. Tuzilmaviy yangilanishning oqibatlaridan Sharqiy nemislarni himoya qilish uchun xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish va kuchli ijtimoiy siyosat yuritish lozim. Bularning barchasi Federal hukumatdan yangi xarajatlarni talab etadi.

5.3. Germaniyaning zamonaviy makroiqtisodiy siyosati

Germaniyada 1998 yil 27 sentabrda G. Shryoderning Federal kantsler lavozimiga saylanishi iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini boshladi. Avvalgi konservatorlar davri va o'zgarishlarga umidlar faqatgina nemislar uchun emas, balki butun Evropa uchun tugadi. Germaniyaning ko'p aholisi Shrederni L. Erxard g'oyalari va ijtimoiy bozorning himoyachisi deb hisoblab, avvalgi Gelmut Kolga nisbatan ko'p ovoz berishdi. Shryoderning so'l hukumati taxmin qilinganidek, Evropada integratsiyaning davom etishi va Germaniyaning yagonaligini ta'minlashi lozim edi. Ko'p nemislar aslida 3-reyx davrini eslagan holda Germaniya birlashishidan xavfsirashadi, shuning uchun barchaga Germaniya boshqaruvidagi Evropa emas, evropalashgan Germaniya kerak edi. Evropa birlashishining rivojlanish jarayonida Germaniyaning gegemonligi davom etishi uchun mamlakatda jiddiy ichki o'zgarishlarni amalga oshirish kerak edi. Germaniyaga yaqin davrgacha omadli rivojlanib ketayotgan ijtimoiy bozor xo'jaligi modelida o'zgarishlar kiritilmoqda, lekin globallashuv sharoitida bu juda samarasiz bo'lib kelmoqda. Germaniya o'z islohotlar siyosatida AQSH tajribasi emas, birinchi navbatda Evropa Ittifoqidagi boshqa mamlakatlar yo'nalishida boradi.

Evropadagi zamonaviy islohotlarning tajribasida 2 ta yo'nalish mavjud: Buyuk Britaniyadagi konservatizm – “Bleyrizm” yoki Frantsiyadagi sotsializm – “Jospenizm”dir. Shryoder o'z makroiqtisodiy siyosatida asosan shu ikki davlat tajribasiga tayandi. Frantsiya bu erda Germaniyaga o'xshash ijtimoiy bozor modeli namuna bo'lib xizmat qiladi. Buyuk Britaniya esa konservatizm va leyborizmning bir-biri bilan uyg'unlashishida o'z aksini topadi. Hokimiyatga kelishi bilanoq Shryoder Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga harakatlanishini, mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini tiklash dasturini e'lon qildi. Shryoder nemislarga noe mitte (yangi markaz), biznesga do'st sotsializmni yoki vijdonan kapitalizmni va'da qilgan. Iqtisodiyotni liberallashtirish quyidagilarni ta'minlab berishi kerak edi:

1. korxonalardan olinadigan soliqlarni kamaytirish;
2. mehnat bozorining egiluvchanligini ta'minlash va ish kuni vaqtini o'zgartirish;
3. mehnatga haq to'lash xarajatlarini kamaytirish;
4. iqtisodiyotning jamoa sektorini modernizatsiyalash.

Moliya vaziri Gans Etmel nemis iqtisodiyotidagi konservativ o'zgarishlar dasturini ishlab chiqdi. Ushbu kursning asosiy holatlari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. federal byudjetning xarajatlarini kamaytirish (2002 yilgacha 16,7 mlrd. AQSH doll.ga);
2. davlatning nafaqaga xarajatlarini kamaytirish va xususiy nafaqa jamg'armalariga soliq imtiyozlarini berish;
3. moslashuvchan mehnat bozorini shakllantirish;
4. bandlikni qo'llab-quvatlash, avvalgi ishchi va ish beruvchilar o'rtasidagi jamoaviy kelishuvlar tizimini o'zgartirish.

Zamonaviy Germaniyaning asosiy muammosi ishsizlik bo'lib qolmoqda (iqtisodiy faol aholining taxminan 10.2%). Buni noraqobatbardosh, moslashuvchan

bo'lmagan mehnat bozori, hozirgacha ishlab kelayotgan GFRning mehnat qonunchiligi natijasida sodir bo'lmoqda, chunki qonunchilik ko'p hollarda ishsizlikni rag'batlantirmoqda.

Germaniya yuqori malakali mehnat resurslariga, dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biriga ega bo'lishiga qaramay, eguluvchan bo'lmagan mehnat bozori iqtisodiyotning o'sishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Mehnat bozorining nazorati tufayli tadbirkorlar yangi ish o'rinlarini yaratishga unchalik qiziqmaydilar. Ayniqsa etakchi sohalarda kafolatlar bilan himoyalangan ishchi kuchi samarali mehnat qilishga qiziqmaydi. Ko'p hollarda ish beruvchilar uchun yuqori malakali, lekin qimmat nemis personalidan foydalangandan ko'ra, malakasi pastroq xorijlik ishchilarni taklif qilish ancha foydaliroq bo'lmoqda.

Zamonaviy islohotlar dasturi kamchiliklardan ham holi emas. Nemis kompaniyalaridan olinadigan soliq to'lovlarining bor-yo'g'i 6 mlrd doll.ga qisqartirilishi iqtisodiy o'sishda unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi. Asli mamlakatning nafaqa tizimi ham inqirozga uchramoqda. Germaniyaning makroiqtisodiy siyosatidagi tendentsiyalar shundan iboratki, nemis eksporti o'sishi bilanoq islohotlar haqida unitib qo'yilmoqda. 1999 yil yozidagi Federal parlamentga bo'lgan saylovlarda nemis saylovchilarining ovozlari ko'rsatib turibdiki, nemis xalqi iqtisodiyotda o'zgarishlar bo'lishini xohlashadi va buning uchun ba'zi yo'qotishlarga ham tayyor.

Germaniyaning ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotidan aynan bozor iqtisodiyotiga o'tish uning milliy xo'jaligidagi asosiy muammolarini echishga yordam bergan bo'lardi. Iqtisodiyotda davlat rolining kamayishi va bozor mexanizmlariga yo'naltirilishi, xususiylashtirish siyosatini davom ettirish, zararli ishlab chiqarishlarni tugatish, davlat byudjetini qisqartirish, subsidiyalarni bekor qilish, soliqlarni kamaytirish, iqtisodiyotni sezilarli sog'lomlashtirishga, unga xorij investitsiyalarini jalb qilishga yordam bergan bo'lardi. Agar Germaniya o'z vaqtida iqtisodiyotni qayta shakllantirmasa, u jahon xo'jaligidagi mavqeini yo'qotib, yaqin raqobatchilari Evropa mamlakatalari, Yaponiya va AQSHdan tashqari tez rivojlanib borayotgan Janubiy- Sharqiy Osiyo mamalakatlaridan ham orqada qolishi mumkin.

5.4. Germaniya iqtisodiyotining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari

Germaniya iqtisodiyotining tarkibi quyidagicha: YaIMning 1,1 %i qishloq xo'jaligida, 31 %i sanoatda, 67,9 %i xizmatlar sohasida yaratiladi (2002). Sanoatning ulushi boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan katta. Bu o'z-o'zidan emas. Germaniya jahon bozorida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan (mashinasozlik). Urushdan keyingi davrlarda mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi sezilarli darajada pasaydi. Shunga qaramay, nemis qishloq xo'jaligi yuqori sifatli bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi juda kam bo'lishiga qaramasdan, mamlakat oziq-ovqatlar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining 90 % ini o'zi ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi sanoatning boshqa ko'plab asosiy sohalari singari davlat byudjetidan ko'p miqdorda yordam pullari oladi Germaniya go'sht, sut, don kabi mahsulotlarni eksport qiladi, sanoati ko'plab

tayyor mahsulotlar bo'yicha jahon bozorlarida etakchi hisoblanadi va sanoatning eng raqobatbardosh sohalari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. avtomobilsozlik;
2. transport mashinasozligi, vagonsozlik, samolyotsozlik;
3. umumiy mashinasozlik uskunalari, dastgohlarini ishlab chiqarish;
4. aniq mexanika va optika, kimyo, formatsevtika va parfyumeriya-kosmetika sanoati;
5. qora metallurgiya.

Oxirgi yillarda Germaniya sanoatida yangi texnologiyali sohalarning salmog'i ortib, qazib oluvchi, to'qmachilik, charm oyoq kiyimlari va oziq-ovqat sanoatining ulushi kamayib bormoqda. Germaniya Sharqiy erlarining sanoatini avvaldan sobiq Ittifoq hamda Markaziy va Sharqiy Evropaga yo'naltirilgan sohalarni tugatishga to'g'ri keldi.

Germaniya xizmatlar sohasining rivojlanishi boshqa rivojlangan mamlakatlardan biroz ortda qolmoqda. U erda xizmatlar sohasida eng oz ish o'ni yaratilgan. Shunga qaramay, mamlakat jahon miqyosida bank va moliya xizmatlari, turizmga ixtisoslashgan bo'lib, u yuqori darajada rivojlangan infratuzilmaga ega; yuqori sifatli avtomobil va temir yo'llarining Evropa va jahondagi eng yirik aeroportlarga (Frankfurt. Dyusseldorf, Myunxen) va dengiz portlariga (Gamburg, Bremen) ega. Transport sohasida eng ilg'or texnologiyalar qo'llanilmoqda (Masalan: Germaniyada ishlab chiqarilgan Inter-Siti-Ekspress tezyurar poezdlari). Germaniya elektr energetikasi asosan neft, ko'mir va tabiiy gaz singari yoqilg'ilardan foydalanadi. Atom elektrostansiyalari elektr-energiyaning atigi 10 %ini ishlab chiqaradi.

3-jadval

Germaniyaning jahonda tutgan o'ri

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori	Egal.o'ri
YaMM	Mlrd. dol.	2252,33	3
YaMM aholi jon boshiga	Ming dol.	27,5	6
Elektr energiyasi	Mlrd. Kvt/s	483,3	6
Ko'mir	Mln. t.	261,5	5
Mis	Mln. t.	0,59	4
Rux	Mln. t.	0,36	4
Plastmassa	Mln. t.	16,5	3
O'simlik yog'i	Mln. t.	2,42	8
Margarin	Mln. t.	0,65	4
Saryog'	Mln. t.	0,45	4
Pishloq	Mln. t.	1,37	3
Vino	Mln. Gkl	11,3	6
Pivo	Mln. Gkl	113,4	3
Sigaret	Mlrd. dona	222,8	4
Bug'doy	Mln. t.	16,7	8
Po'lat	Mln. t.	42,0	5
Neftni qayta ishlash quvvatlari	Mln. t.	113	7
Neft mahsulotlari i/ch	Mln. t.	25,8	6
Sun'iy yonuvchi gaz i/ch	Mlrd. m3	267	5
Cho'yan va temir qotishmalarini	Mln. t.	29,2	5

quyish			
Qo'rg'oshin quyish	Ming t.	375	4
Engil avtomobil i/ch	Ming.dona	5300	2
Qurilgan sut i/ch	Ming.t.	610	5
Qandolat mahsulotlarini i/ch (muzqaymoq/shokolad)	Ming.t.	513g`1230	2
Shaxsiy kompyuterlar soni	Mln.dona	30,0	3
Mahsulot va xizmatlarning eksporti	Mlrd.dol	649,4	2
Eng yirik importchi	Mlrd.dol.	493,0	2
Oltin zaxirasi	Troya untsiyasi	111,1	2
Xalqaro valyuta zaxirasi	Mlrd.dol.	87,6	7
Kreditlarni qaytarish qobiliyatining yuqori ko'rsatkichlari reytingi	100 % xavfsiz	94,1	3
Aholining o'rtacha yoshi	Maksimum	40,1	3

Mamlakatning o'z energetika salohiyati unchalik ham kuchli emas, shuning uchun tashqaridan neft va gaz importiga bog'liqligi juda katta. U dunyodagi eng muhim eksportchi va importchi davlatlardan hisoblanadi, 2002 yilda tovar hajmi bo'yicha 2-o'rinda edi (721 mlrd. AQSH doll. yoki jahon eksportining 10 %i), shuningdek tovar importi bo'yicha 2-o'rinda (466.6 mlrd. AQSH doll. yoki jahon importining 8,4 %i) turadi. Xizmatlar eksporti bo'yicha mamlakatning o'ni biroz pastroq - 4-o'rin (75,7 mlrd. AQSH doll. yoki 5,9%). Xizmatlar importi bo'yicha avvalgidek ikkinchi o'rinda (121,8 mlrd AQSH doll. yoki 9,4%) kelmoqda (3-jadval).

Yuqorida keltirilgan raqamlardan Germaniya savdo balansining, jahon savdosidagi mustahkam o'ni ko'rinib turibdi. Nemis iqtisodiyoti jahon ho'jaligi aloqa tizimiga etarli darajada integratsiyalashgan. Mamlakat eksporti YaIM 23,6 % ini tashkil qiladi. Mamlakatning asosiy tashqi savdo hamkorlari Frantsiya (importning 12 %, eksportning 10 %), Buyuk Britaniya (eksportning 8 %, import 6,3 %), Nideerlandiya (7,7 %, 8,2 %), Italiya (eksportning 7,6 %i, importning 8,4 %i), AQSH (7,9 %, 5,3 %) va Belgiya – Lyuksemburg (6,8 % , 6 %) davlatlari hisoblanadi.

Xulosa

Germaniya Evropaning markazida joylashgan mamlakat bo'lib, jahondagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Germaniya iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli asosida rivojlanib kelmoqda. Germaniya jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan bo'lib, jahon eksporti va importida etakchi mavqega ega. Germaniya iqtisodiyotining tarkibi quyidagicha: YaIM 1,1 % qishloq xo'jaligida 31 % sanoatda, 67,9 %i xizmatlar sohasida yaratiladi.

XXI asr boshida Germaniya iqtisodiyotida bir muncha muammolar ko'zga tashlanmoqda. Germaniya kompaniyalarining jahon iqtisodiyotidagi

raqobatbardoshligi kamayib bormoqda. Xorijiy kompaniyalar Germaniyadagi o'z korxonalarini boshqa mamlakatlarga olib ketishga harakat qilmoqdalar. Bu ko'p jihatdan Germaniya iqtisodiy rivojlanish modelining zamonaviy sharoitlardagi kamchiliklari natijasidir. Shu sababli Germaniya hukumati tomonidan iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, iqtisodiy modelni o'zgartirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tayanch iboralar

Marshall rejasi, Evropa Ittifoqi (EI), Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani, savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi.

Nazorat uchun savollar

1. Germaniyaning umumiy geografik muhitiga tavsif bering. Mamlakatning tabiiy geografik o'rni uning iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?
2. Germaniya sanoati tarixan qanday rivojlangan?
3. 60-70-yillarda Germaniyaning tashqi aloqalari qanday omillar ta'sirida rivojlanib borgan?
4. Evropa Ittifoqida Germaniya qanday o'ringa ega?
5. Germaniya jahon bozorida qanday mahsulotlari bilan mashhur?
6. Germaniya TMKlarining jahon miqyosidagi o'rni haqida gapirib bering? Davlat bu shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar chiqargan?
7. Germaniyaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qiling, XX asrning ikkinchi yarmida Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omil va vazifalarini ko'rsating.
8. O'zbekiston bilan Germaniyaning iqtisodiy aloqalarini xarakterlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G'., Xalilov X. va boshqalar. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti (Ilmiy-ommabop risola). –T.:TDIU, 2005.
5. Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.
6. Булатов А.С. Мировая экономика. Учебник: -М.:Юристъ, 2004.
7. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник.-М.: Юнити-Дана, 2004.
8. Энциклопедия стран мира. -М.: Экономика, 2004.
9. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.
- 10.Буторина О. Европейский Союз: Справочник путеводитель. –С.-П.: 2003.

6-bob. FRANTSIYA MAMLAKATINING IQTISODIYOTI

6.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

6.2. Frantsiyaning rivojlanishida makroiqtisodiy modelining ahamiyati

6.3. Frantsiya TMKlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni

6.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

Frantsiya Respublikasi O`zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1992 yil 3 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o`rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 21 fevralda o`rnatildi. 1995 yil mart oyidan boshlab O`zbekiston Respublikasining Parijdagi elchixonasi va 1992 yil iyun oyidan boshlab, Frantsiyaning Toshkentdagi elchixonasi o`z faoliyatini olib bormoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. 1999 yil 1 iyuldan kuchga kirgan O`zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi o`rtasidagi o`zaro hamkorlik Kelishuvi doirasida, O`zbekiston va Frantsiya savdo-iqtisodiy aloqalarida ijobiy natijalarga erishildi. 2003 yil ko`rsatkichlariga qaraganda, O`zbekiston va Frantsiya o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasi 38,9 mln. AQSH doll.ga teng bo`lib, shundan 14,8 mln. AQSH doll. eksport hissasiga to`g`ri keladi. Importning ulushi esa, 24,1 mln. AQSH doll.ga teng bo`ldi. Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasida Frantsiya kapitalining ishtirokida tashkil etilgan paxta urug`ini qayta ishlashga ixtisoslashgan “Mirishkor” qo`shma korxonasi (Namangan viloyati) o`z faoliyatini olib bormoqda. Qo`qon shahrida poyafzal ishlab chiqarishga yo`naltirilgan 100 % Frantsiya kapitali ishtirokidagi “Kofra” korxonasi ish olib bormoqda. Ayni paytda, mamlakatimizda Frantsiyaning 11 ta firmasi va 2 ta banki “Kredit Kommersial de Frans” va “Sosete Jeneral”ning vakolatxonalari tashkil etilgan.

Frantsiya Respublikasi eng rivojlangan G8 davlatlaridan biridir. 2004 yil yakunlariga ko`ra, Frantsiyaning aholisi 60,5 mln. kishiga etdi. Mamlakatning jami YaIM ko`rsatkichi 1,661 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning yillik o`sishi 0,5 %ni tashkil etdi va aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YaIM 27600 AQSH doll.ga teng bo`lgan. YaIM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi quyidagicha: qishloq xo`jaligi 2,7 %, sanoat 24,4 %, xizmatlar 72,9 % ulushga ega. Investitsiyalarning YaIM dagi ulushi 19,2 %ga teng bo`lib, mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 21,1 %ni tashkil etgan. Ishga layoqatlilar soni 27,39 mln. kishiga teng bo`lib, ularning 4,1 %i qishloq xo`jaligida, sanoatda 24,4 % va xizmat sohasida 71,5 % banddir. Ishsizlik darajasi 9,7 % (2004 y). Frantsiya Respublikasining davlat byudjeti 1,838 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning daromad qismi 882,8 mlrd. AQSH doll.ga va xarajatlar qismi esa, 955,4 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`ldi. Asosiy eksport mahsulotlari mashina va transport vositalari, aviakosmos, kimyo mahsulotlari va h.k.dan iborat. Asosiy eksport hamkorlari: GFR (14,9 %), Ispaniya (9,6 %), Buyuk Britaniya (9,4 %), Italiya (9,3 %), AQSH (6,8 %) (2003 y) mamlakatlari hisoblanadi. Mamlakatning jami importi 2003 yilda 339,9 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`ldi. Asosiy import tovarlari: mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari va h.k.dan tashkil topgan. Import hamkorlari: GFR (19,2 %), Ispaniya (7,4 %), Buyuk Britaniya (7,0 %), Italiya (9,0 %), AQSH (5,4 %)

(2003 y) mamlakatlaridir. Frantsiya Respublikasining oltin-valyuta zaxirasi 70,76 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'ldi.

Birinchi jahon urushigacha (1914 yil) Frantsiya mamlakatining iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi asosiy rolni o'ynagan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymati sanoat mahsulotidan yuqori bo'lib, aholining 40%i qishloq xo'jaligida band bo'lgan. Lekin XIX asrning oxirgi choragida qishloq xo'jaligi uzoq muddatli inqirozga uchradi. O'zini g'alla bilan ta'minlash imkoniyatlari va dehqonchilik ekin maydonlariga ega bo'lgan Frantsiya, qishloq xo'jaligi hosildorligi jihatidan Evropada 2-o'rinda turgan. Er xo'jaligining texnik jihatdan orqada qolganligi va er maydonlarining mayda-tarqoq ekanligi ham hosildorlikning asosiy salbiy sababidir.

Bu davrga kelib, mamlakatdagi 2 mln.ga yaqin dehqon xo'jaliklari (40 %) 1 gektardan ham kam er maydoniga egalik qilgan, 2,4 mln. dehqon xo'jaliklari esa ersizlanib qolgan edi. Xullas, Frantsiyada er maydonining kamligi, qarzlarning ko'pligi dehqonlarga qishloq xo'jaligi texnikasidan, mashinalardan va mineral o'g'itlardan etarli darajada foydalanishga yo'l qo'ymasdi. Chorvachilik ham mamlakatda past darajada rivojlangan edi. XIX asrning oxirida ro'y bergan inqiroz qishloq xo'jaligidagi ahvolni yanada og'irlashtirib yubordi. Bundan tashqari, u o'z Evropa va jahon bozorlarida qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan raqobat qila olish qudratiga ega bo'magan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, mamlakat dunyoda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rindan 4-o'ringa tushib qoldi. 1860-1913 yillar mobaynida Frantsiya sanoatining o'sish sur'atlari 2-2,5 marta kamaydi. 1870-1913 yillarda sanoat mahsulotining hajmi dunyoda 7 marta, jumladan, AQSHda 13 marta, Germaniyada 7, Frantsiyada esa atiga 4 marta o'sgan edi.

Frantsiya sanoati boshqa kapitalistik davlatlarning sanoatidan farq qilib, asosan iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, boshqa davlatlarda (AQSH va Germaniyadan) og'ir sanoatning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan edi. Dunyo bozorlarida Frantsiyada ishlab chiqarilgan qimmatbaho shoyi gazmollar, parfyumeriya va kosmetika, zargarlik buyumlarga talab ancha yuqori bo'lgan. Shu sababli mamlakatdagi korxonalarda ishchilarning konsentratsiyasi ancha past bo'lgan, masalan, XIX asrning oxirlarida Frantsiya sanoat korxonalarining 94 %ida 10 tadan ortiq ishchi ishlamagan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Frantsiyaning iqtisodiy qoloqligining bir necha sabablari bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir. Bulardan biri uning Prussiya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyati hisoblanadi. Urushda Frantsiya iqtisodiyoti juda katta zarar ko'rdi va u Germaniyaga katta pul kontributsiyasi, ya'ni 5 mlrd. frank miqdorda pul to'ladi. Metallurgiya sanoati uchun muhim xomashyo bazasi bo'lgan Lotaringiyadan mahrum bo'ldi. Buning natijasida mamlakat ko'mir, mis, paxta bilan bir qatorda temir rudasini ham import qilishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari, uning sanoati eski texnika-texnologiya asosida tashkil qilingan bo'lib, bu esa sanoatda texnologiyani yangilashni talab qilar, u esa o'z navbatida katta mablag' bilan bog'liq bo'lgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Frantsiyada sanoatga nisbatan banklarning konsentratsiyasi, markazlashuvi, yiriklashuvi tez sur'atlarda amalga oshdi. Mamlakatning eng yirik banki Frantsiya banki bo'lib, kapitallarning katta qismi shu

bankda mujassamlangan edi. Katta foyda olish maqsadida Frantsuz bankirlari o'z kapitallarini chetga olib ketar, bu bilan o'z sanoatiga kerakli mablag'lar etishmasligiga va uning rivojiga to'sqinlik qilardi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, Frantsiyaning moliya kapitali xorijda sudxo'rlik faoliyatini boshlab yuborgan. Masalan 1880 yilda xorijiy mamlakatlarga chiqarilgan jami kapital 15 mlrd. frankni tashkil etgan bo'lsa, 1914 yilda ushbu ko'rsatkich 60 mlrd. frankni tashkil etgan. Mamlakat kapitalini eksport qilish sar'atlari sanoatning o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 1870-1913 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish atiga 3 marta o'sgan bo'lsa, kapitalni eksport qilish 6 marta o'sgan. Bu davrda kapitalni eksport qilish hajmi bo'yicha Angliya jahonda birinchi o'rinni egallagan bo'lsa-da, dunyoda sudxo'r davlatlardan biri sifatida Frantsiya tanilgan. Angliya o'z kapitalini asosan xorijiy mamlakatlarda sanoatni rivojlantirishga sarflagan bo'lsa, Frantsiya esa undan farqliroq kapitalni qarzga bergan va sudxo'rlik bilan shug'ullangan.

Shunday qilib, Frantsiyaning birinchi jahon urushiga qadar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: sudxo'rlikka asoslangan iqtisodiyotning ustunligi, sanoat yiriklashuvining pastligi, qishloq xo'jaligida mayda tarqoq xo'jaliklarning ko'pligi va mayda ishlab chiqarishga asoslangan ishlab chiqaruvchilarning mavqei baland bo'lishi va boshqalardir. Xullas, moliya kapitalining tez rivojlanib borishi xorijda mustamlakachilik siyosatining kuchayib borishi uchun zamin yaratdi, natijada XIX asrning oxirlariga kelib, u Afrikada katta mustamlakalarga ega bo'ldi. Frantsiyaga qarashli mustamlakalarning umumiy maydoni o'z hududiga nisbatan 21 marta katta bo'lib, Rossiya imperiyasini hisobga olmaganda, u dunyoda Angliyadan keyin yirik mustamlakachilik siyosatini olib borgan davlat sifatida 2-o'rinda turgan.

6.2. Frantsiyaning rivojlanishida makroiqtisodiy modelning ahamiyati

Ikkinchi jahon urushi ham Frantsiyaga katta zarar keltirdi, ya'ni 1440 mlrd. frank zarar ko'rildi va 1100 ming odamni yo'qotdi, natijada Frantsiya sanoat mahsulotlarining hajmi 30 %ga kamaydi. Uning Hindi-Xitoy, Suriya, Livan kabi mustamlakalari o'z mustaqilligiga erishdi. Urushdan keyingi 1945-47yillarda mamlakatda ko'mir, avtomobil, aviasozlik sanoat korxonalari va shuningdek bir qancha yirik banklar milliylashtirildi. Shu yillarda "Marshal plani" asosida Frantsiyaga katta iqtisodiy yordam ko'rsatildi. Urushdan so'ng Frantsiyaning iqtisodiy rivojlanishi sanoatni texnik-texnologik jihatdan qayta qurish bilan birga amalga oshirildi, natijada sanoatning yuksalishi tezlashdi, hamda kapital jamg'arish ko'paydi. Masalan, 1949-55 yillarda kapital jamg'arma 2 barobar ko'paydi, uning eksporti ham oshdi, natijada Frantsiya 50-yillarning o'rtalarida urushdan oldingi iqtisodiy ravnaqiga erishdi.

50-yillarda Evropa davlatlarining iqtisodiy integratsiyasi kuchaydi. 1957 yilning martida Italiyaning Rim shahrida Evropaning 6 davlati (Frantsiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) hamkorligida Evropa iqtisodiy Hamjamiyati yoki "Umumiy bozor"ni tuzdi, bu qaror 1958 yilning 1 yanvaridan kuchga kirdi. Keyinchalik Gretsiya va Turkiya davlatlari ushbu hamjarkmiyatga qo'shildi. 1973

yilning 1 yanvaridan EIH ga Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya va Norvegiya davlatlari a'zo bo'ldilar va EIH davlatlarining umumiy soni 12 taga etdi. 1960 yilda EIH davlatlariga o'xshash Erkin savdo assotsiatsiyasi davlatlari (Avstraliya, Angliya, Norvegiya, Daniya, Portugaliya, Shveytsariya, Shvetsiya) tuzildi. 1961 yilda bu uyushmaga Finlandiya, Lixtenshteyn, 1970 yilda Islandiya qo'shildi. EIH ga investitsiya banki, rivojlanish fondi, ko'mir va po'lat birlashmasi (1951 yilda bu birlashma 50 yilga mo'ljallab tuzilgan edi) va boshqa xalqaro tashkilotlar ham a'zo bo'lib kirdi.

50-yillarda mamlakat iqtisodiyotida asosan harbiy sanoatni rivojlantirishga (militarizatsiyalashtirishga) ko'proq e'tibor qaratildi, chunki hukumat bu davrda V'etnam va keyinchalik Jazoirida mustamlakachilik urushlarini olib bordi. Frantsiya 1949 yilda NATO, 1954 yilda esa SEATO harbiy bloklariga a'zo bo'ldi. AQSHning Korea bilan olib borgan urushlari Frantsiya hukumatining ham harbiy qurollanishga bo'lgan xarajatlarini yanada ko'paytirishga olib keldi. Biroq, 1949-50 va 1952-53 yillarda ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar mamlakat iqtisodiyotining birmuncha pasayishiga sabab bo'ldi.

1953 yilning oxirlariga kelib, Frantsiya iqtisodiyoti tez rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi, lekin uning iqtisodiyoti bir tekisda rivojlanib bormadi. Xorij kapitallari bilan raqobatlashish maqsadida mamlakat iqtisodiyotida "modernizatsiyalashtirish yoki halok bo'lish" degan qarashlar kontseptsiyasi paydo bo'ldi. Natijada 50-yillarning o'rtalariga iqtisodiyotdagi umumiy kapital qo'yilmalar urushdan oldingi 1939 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi. Bu davrda mamlakat investitsiyasining 90 %ga yaqini asosan harbiy og'ir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. Agar, ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda mamlakatning asosiy investitsiyasi energetika kompleksi va qora metallurgiya sanoat korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, 1954-58 yillarda esa ximiya, mashinasozlik, radioelektronika va asbob-uskunalar ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarining ham yuksalishiga e'tibor berildi. Natijada 1958 yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1939 yilga nisbatan 2 barobarga o'sdi.

50-yillarda Frantsiya qishloq xo'jaligida ham juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ana shu yillarda uning qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika inqilobi (ITR) to'liq g'alaba qozonib, qishloq xo'jaligi mashinalari bilan erga ishlov berish usullari kengaydi. 50-yillarning oxirlarida qishloq xo'jaligi traktor parklarining soni 1939 yilga nisbatan 16 barobarga, qishloq xo'jaligida ximiyaviy imperial o'g'itlardan foydalanish esa 2 marta o'sdi.

Mamlakatda ishlab chiqarishning modernizatsiyalanishi monopolistik kapitalizmning kuchayishiga olib keldi. Masalan, mamlakatning avtomobilsozlik sanoatida 4 ta ishlab chiqarish firmasi ("Reno", "Simka", "Sitroen", "Pejo") muhim rol o'ynay boshladi. Biroq, mamlakatda ishlab chiqarishning kontsentratsiyasi qanchalik ro'y bermasin sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha Frantsiya etakchi rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Angliya, GFR) dan orqada qolgan edi. Frantsiya davlat-monopolistik kapitalizmi mamlakatdagi xususiy sanoat korxonalarini moliyaviy ta'minlab turdi. 1948-59 yillarda davlat byudjetidan sanoat monopoliyalari uchun juda katta mablag` (42,5 mlrd. frank) ajratildi va ushbu xarajatlar asosan soliq to'lovchilar hisobidan to'ldirildi.

Frantsiyada davlat-monopolistik kapitalizmining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. 50-yillarda u kapitalistik mamlakatlar ichida birinchi bo'lib iqtisodiyotni rejali rivojlantirish yo'lidan bordi. 1946 yilda alohida tashkilot – “Planlashtirish bo'yicha bosh kotibiyat” tuzildi. Mamlakat iqtisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlantirishda 1947-58 yillarga mo'ljallangan birinchi reja mamlakat iqtisodiyotida milliy sektorning modernizatsiyasiga e'tiborni qaratgan bo'lsa, 1954-57 yillarga mo'ljallangan ikkinchi rejali boshqarish davrida asosiy e'tibor ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarning jahon bozorlardagi raqobatbardoshligiga, 1958-61 yillarga mo'ljallangan uchinchi rejali boshqarish davrida esa asosiy e'tibor proteksionizmdan “ochiq iqtisodiyot”ga o'tish siyosatiga qaratilgan edi.

Xullas, 50-yillardagi rejali boshqarish ishlab chiqarishga o'z ta'sirini sezilarni ko'rsatgan bo'lsa-da, undan keyingi yillarda Frantsiya kapitalizmini “reja”li rivojlantira olmagan edi. 1958-59 yillarda dunyo mamlakatlarida ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar mamlakat sanoatining rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, 1959 yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sishi rejadagi 4,9% o'rniga 1,1%ni tashkil etgan xolos.

Frantsiya iqtisodiyotida gollizm siyosati. 50-60-yillar bo'sag'asida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. 1958 yilda davlatning milliy rahbariyati general de Goll hokimiyatni qo'lga oldi va o'z siyosatini yuritdi. Iqtisodiyotda gollizm siyosatining mazmuni va mohiyati shundan iborat bo'ldiki, Frantsiya sanoatining xalqaro ekspansiyasini kengaytirish, monopolistik tuzilmani kengaytirib, sanoatning barcha tarmoqlarini esa amaliyotda keng rivojlantirishdan iborat edi.

Ushbu tamoyillar keyinchalik Frantsiya sanoati va uning tizimini isloh qilishda muhim rol o'ynadi. Ro'y bergan ITR ta'sirida ilg'or texnika-texnologiyaga ega bo'lgan Frantsiyaning zamonaviy sanoat tarmoqlari (atom, samalyotsozlik, avtomobilsozlik, ximiya, neftni qayta ishlash) faoliyat ko'rsatib kelayotgan sanoat tarmoqlarga (metallurgiya, stanoksozlik, engil va oziq-ovqat) qaraganda tez rivojlana boshladi. Hukumat yangi harbiy sanoat tarmoqlar kompleksini (kosmonavtika, raketa qurollari ishlab chiqarish) vujudga keltirib va rivojlantirib jahon mamlakatlari ichida yadroviy qurollarga ega bo'lgan uchinchi davlatga (AQSH va SSSR dan so'ng) aylandi.

Frantsiyada, ayniqsa, plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari katta tezlikda rivojlanib bordi. 60-yillarga kelib zamonaviy radioelektronika sanoati faoliyat ko'rsatib kelayotgan toshko'mir sanoat tarmoqlarini ancha orqada qoldirib ketgan edi va ushbu yangi sanoat tarmoqlari asosan uning chekka rayonlarida rivojlandi. Mamlakatning Tuluza shahrida aerokosmos, Grenoblda yadro sanoati, Bretanda elektronika sanoat korxonalari tashkil topdi. Uning Marsel rayoni va G'arbiy dengiz qirg'oq bo'ylarida esa sanoatlashgan port shaharlari tashkil topdi.

60-yillarga kelib, Frantsiya qishloq xo'jaligi kompleksi mexanizatsiyalashtirildi, natijada u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (sut-yog', vino ichimligi va h.k.) va shuningdek xorijiy mamlakatlarga g'alla mahsulotlarini eksport qiluvchi (AQSH dan so'ng) asosiy davlatlardan biriga aylandi. Biroq, qishloq xo'jaligida kapitalistik

transformatsiyaning ro'y berishi bir qator iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. Ommaviy ravishda dehqonlarning shaharlarga ketib qolishi oqibatida (yiliga 150-152 ming kishi) minglab dehqon fermer xo'jaliklarining yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi.

Frantsiya iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishida mamlakatning 1957 yilda "Umumiy bozor"ga (EIH) a'zo bo'lib kirishi ham muhim rol o'ynadi. Sanoat mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligi kuchayishida gollizm siyosati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Monopolistik kontsentratsiyaning xalqaro miqyosda kengayib borishiga e'tibor qaratildi. Buning natijasida kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi o'nlab firmalar tushkunlikka uchradi. Shunday qilib, 60-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatda 4ta yirik sanoat monopoliyalari "Peshine-Yujin-Kyulman" (rangli metallurgiya va ximiya sanoati sohasida), "Sen-Goben-Nont-a-Musson" (shisha va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida) tashkil topdi. Agar 60-yillarda Frantsiyaning yirik sanoat kompaniyalari hisobiga 40% ga yaqin ishlab chiqarish sohalari to'g'ri kelgan bo'lsa, 70-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 60 %ni tashkil etdi.

Mamlakatda yirik TMK tashkil topishida yirik moliya guruhlar (oligarxlar) muhim rol o'ynadi. 60-yillarda Frantsiya iqtisodiyotida 4 ta yirik moliyaviy guruh ("Pariba" bank guruhi, "Syuez" moliyaviy kompaniyasi, birlashgan "Lazarov va Shnayder" guruhi, "Rotshild" guruhi) tashkil topdi. Hukumat ushbu moliyaviy guruhlardan asosan xorijiy mamlakatlardagi moliyaviy oligarxlar bilan yaqin aloqada bo'lishda foydalandi.

60-yillarda Frantsiyaning tashqi savdosi asosan ikki omil ta'sirida ("Umumiy bozor" doirasida "ochiq iqtisodiyot"ga o'tish va dunyo siyosiy xaritasida Frantsiya mustamlakachilik tizimining butunlay tugatilishi) rivojlanib bordi. Hukumat 1954-55yillarda Hindi-Xitoydagi mustamlakalarining (V'etnam, Laos, Kombodja) milliy mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. 1956 yilda Tunis va Marokash davlatlari, 1958 yilda Gvineya, 1962 yilda esa Jazoir o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Xullas, 50-60-yillarda Frantsiyaning mustamlakalari bo'lgan Afrikaning 15 davlati o'z mustaqilligini qo'lgan kiritgan edi.

60-yillarda Frantsiyaning sobiq mustamlakalari bilan olib borilgan tashqi savdo aloqalari garchi qisqarib borgan bo'lsa-da, "umumiy bozor"ga a'zo bo'lgan rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari kengayib borgan edi. Xullas, 1967 yilda mamlakatning EIH davlatlari bilan olib borgan tashqi savdo aloqalari sobiq mustamlaka davlatlariga nisbatan 3 barobarga o'sgan edi.

Frantsiyada davlat-monopolistik kapitalizmi rivojlanishi bilan bog'liq holda mamlakat iqtisodiyotida jamiyatning sinfiy tuzilishi ham keskin o'zgarib borgan edi. 1954-1974 yillarda yollanma ishchilar sinfi 10 mln. kishiga etib, mamlakat umumiy aholisi hisobida 65 dan 80% ga ko'paydi. 1968 yilning may-iyun oylaridagi umumiy ish tashlashlar bilan bog'liq holda hukumat ishchilar sinfiga bir qator engilliklar berishga majbur bo'ldi. Jumladan, ishchilarning o'rtacha ish haqi 14 %ga, nafaqa va yordam pullari esa bir necha marta oshirilib, ish soatlari qisqartirildi.

70-80 yillarda Frantsiya iqtisodiyotining tashqi ko'rinishi o'zgardi, chunki mamlakat rivojlangan etakchi kapitalistik davlatlardan biriga aylandi. 1950-73

yillarda Frantsiyaning oʻrtacha YaIM ishlab chiqarish hajmi 4,8 dan 5,3%ga, sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa 5,9 dan 6,5% ga oʻsdi.

70-yillarning oʻrtalarida Frantsiya hukumati va uning prezidenti V. Jiskar d-Esten “Umumiy bozor”larda doim raqobatlashib turgan GFR dan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish koʻrsatkichlari boʻyicha oʻzib ketishini maqsad qilib qoʻygandi. Biroq, 1974-1975 yillarda roʻy bergan navbatdagi inqiroz mamlakatning iqtisodiyotiga juddiy taʼsir koʻrsatdi. Inqiroz iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga oʻz taʼsirini koʻrsatib, kapital qoʻyilmalarning pasayishi, inflyatsiyaning kuchayishi va ishsizlar sonining koʻpayishiga olib keldi. Agar 1950-1973 yillarda sanoatda yillik oʻrtacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 5,2 va 5,9 %ni tashkil etgan boʻlsa, 1973-1980 yillarda esa 2,7 va 1,4 %ni tashkil etgan edi. Ana shu yillarda umumiy sanoat mahsulotlarining 40 %dan ortigʻini berib turgan mamlakatning koʻzga koʻringan sanoat tarmoqlari (qora metallurgiya, kemasozlik, engil va oziq-ovqat hamda umumiy mashinasozlik sanoati) deyarli turgʻunlik holatiga tushib qolgan edi.

Hukumat bunday iqtisodiy tushkunliklardan chiqish uchun ettinchi besh yillik (1976-1980) rejalarini qabul qildi. Unda EIH doirasida xoʻjalikni isloh qilish, jahon bozorlarida esa yirik TMK taʼsir doirasini kuchaytirishga eʼtibor berildi. Eksport tovarlarni ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini (avtomobilsozlik, aviaraketa qismlari, elektrotexnika, ximiya sanoati, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish) davlat tomonidan qoʻllab – quvvatlanishga eʼtibor berildi. Ushbu sanoat tarmoqlarida xalqaro ahamiyaga ega boʻlgan yirik TMK lar tashkil topdi. Shunday qilib Gʻarbiy Evropada eng yirik EVM mashinalarini ishlab chiqaruvchi “Xanuell-Byull-KII” Frantsiya – Amerika TMK, “Pejo-Sitroen”avtomobilsozlik firmasi kabi TMK tashkil topdi. Aviasozlik sohasida “Aerobus”, “Konkord” loyihalari, shuningdek yadro energetikasi va axborotlashtirishda davlat tarmoqli dasturlarining amaliyotda keng qoʻllanishi boshlandi. Oʻz mahsulotlarining 40%ni eksportga chiqaruvchi harbiy-sanoat korxonalari kengaydi va mustahkamlandi.

1977-79 yillarda sanoatdagi qisqa muddatli intensiv rivojlanish uzoqqa bormadi. 80-yillarning boshida Frantsiya yana oʻz boshidan ogʻir iqtisodiy tushkunlikni kechira boshladi. 1981-1982 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yiliga 1,5%ga pasayib bordi. Inqiroz mamlakatda ishsizlar sonining koʻpayishiga va isteʼmol tovarlari narxining koʻtarilishiga olib keldi (1981 yilda 14,3%ga koʻtarilgan edi). Xullas, 80-yillarda Frantsiyaning 10% aholisi qoʻlida mamlakat milliy boyligining taxminan 60% toʻplangan boʻlsa, 50% aholi qoʻlida esa milliy boylikning atigi 5,5%i toʻplangan edi xolos.

1981 yilda Frantsiya sotsial partiyasining lideri Fransua Mitteran mamlakat prezidenti boʻlib saylandi. U bir qator demokratik xususiyatga ega boʻlgan progressiv islohotlarni oʻtkazdi. 1982 yilning fevralida mamlakatda “Milliylashtirish toʻgʻrisida”gi qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun asosida jahon mamlakatlari ichida birinchi boʻlib Frantsiyaning 11 ta milliy sanoat guruhidan 9 tasi davlat nazorati qoʻliga oʻtdi, shuningdek “Pariba” va “Syuez” yirik moliyaviy kompaniyalari, 36 ta tadbirkorlik va tijorat banki milliylashtirildi. Natijada davlat sektoriga qarashli boʻlgan sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish 18 dan 32 %ga, bank doirasida esa oʻsish surʼatlari hatto 75% ni tashkil etgan edi. Davlat sektorida kompensatsiya hajmi 35 mlrd. frankdan 42 mlrd.ga koʻpaytirildi. Biroq, 1982 yilda

o'tkazilgan ushbu islohotlar keyingi yillarda davlat uchun "zarar" keltira boshladi. Iqtisodiy islohotlar mamlakatning bir qator korxonalariga, jumladan, ilg'or texnik aloqalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi.

6.3. Frantsiya TMKlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'рни

Frantsiyaning xalqaro sanoat korporatsiyalari mamlakatning tashqi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash va ilmiy-texnik salohiyatini ko'tarishda muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi kunda mamlakat eng yirik kompaniyalarining xorijiy mamlakatlardagi ishlab chiqarishi umumiy ishlab chiqarishning 50 %ini tashkil etadi. Eksport kvotasida savdo hajmi esa 50 %dan oshmoqda (masalan, "Sen-Goben Pont-a-Musson", "Peshine-Yujin-Kolman" kompaniyalarini eksport kvotasida savdo hajmi 53 %, "Pejo" 55 %, "Sitroen" 51 %, "Kompani Fransez de petrol" 58 %ni tashkil etmoqda). XX asrning 70-yillaridayoq Frantsiyaning TMKlari jahon bozorlarida hatto AQSH kompaniyalari bilan ham raqobatlasha oladigan yirik uyushmalarga aylanib qolgan edi. Ana shu yillarda Evropaning 20 ta eng yirik kompaniyasi 4 tasi Frantsiyaga tegishli bo'lgan.

Mamlakatda biznes gigantlarining rivojlanish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega. 50-yillardan so'ng Frantsiya kapital qo'yilmalarining asosiy sohasi G'arbiy Evropa mamlakatlari bo'lib, mamlakat to'g'ridan – to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarining s qismi ushbu mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelgan. 70-yillardan so'ng esa Frantsiya TMKlarining AQSH va Kanada bozorlariga ommaviy kirib kelishi kuzatilgan. Xullas, mamlakatning ishbilarmon doiralari sanoati rivojlangan davlatlarga kapital qo'yishga qiziqishlari tasodifiy bo'lmagan. Chunki sanoati rivojlangan davlatlarda zamonaviy texnika-texnologiyadan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari G'arbiy Evropa davlatlari, shuningdek AQSH va Kanadaning bozorlari Frantsiya kompaniyalarining sanoat mahsulotlarini sotish bozorlari sifatida ahamiyati ham ortib borgan edi.

Mamlakatning yirik TMKlari xorijiy mamlakatlarga (Germaniya, Belgiya, Gollandiya, Italiya, Ispaniya, Shvetsariya) investitsiya kiritishga katta e'tibor berishmoqda. Ammo g'arbning sanoati rivojlangan davlatlariga bo'lgan qiziqishning kattaligiga qaramay, tadbirkorlar Afrikada, ayniqsa, "Frank zonasida" faol ishlamoqdalar. Frantsiya kompaniyalari mintaqaviy siyosatining muhim tomonlaridan yana biri Lotin Amerikasida, ayniqsa, Braziliya va Argentinada investitsiyalarning ko'payishidir. Frantsiyaning qariyb barcha yirik kompaniyalari ushbu mintaqada katta va kichik bo'limlardan iborat korxonalariga ega.

Ma'lumki, Frantsiyaning TMKlari biznesning yiriklashuviga, kapitalning markazlashuvi va milliy kompaniyalarning globalashuviga katta e'tibor berib kelmoqda. Elektrtexnikasi va elektronika sohasining 46 % ini nazorat qiluvchi kompaniyalar asosan 2 ta yirik kompaniya "Kompani jeneral d-elektrosite" va "Tomson-Brandt" tomonidan boshqarib turiladi. Ushbu kompaniyalarning hamkorligi natijasida vujudga kelgan "Kompani internatsional nur l-informatik" kompaniyasining xalqaro EHM bozorlariga chiqishi imkonini bermoqda. Avtomobilsozlikda esa "Reno" va "Pejo" kompaniyalari o'rtasidagi kooperatsiya jahon avtomobilsozlik sanoatida ilg'or o'rinlardan biriga chiqish uchun imkon

yaratmoqda. Xullas, Frantsiyada davlat TMKning rivojlanishiga yordam beribgina qolmay, bevosita tashqi iqtisodiy ekspansiyada ishtirok etib, mamlakatning tashqi iqtisodiy mavqeini mustahkamlab kelmoqda.

Frantsiyaning “Kompani Fransez de Petrol” kompaniyasi yirik neft kompaniyalaridan biri boʻlib, u 1924 yilda tashkil topdi. Asosiy aktsiyadori davlat (35 %) hisoblanadi. Eng yirik noamerika kompaniyalari roʻyxatida 5- oʻrinda turadi. Kompaniya jahonning koʻplab mamlakatlarida oʻz boʻlimlariga ega. Jahon bozorlarida “Total” guruhi nomi bilan ish yuritadi. “Total” kompaniyasining ish faoliyati doirasiga asosan neft va neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, tabiiy gaz qazib olish, saqlash, qayta ishlash, tashish, ximiya va ximiyaviy mahsulotlarni, plastmassalarni ishlab chiqarish va boshqalar kiradi.

“Total” kompaniyasiga qarashli neft tashuvchi umumiy yuk sigʻimi 3,3 mln. barrel boʻlgan 14 ta yirik suv transporti mavjud. Bu uning dengiz transportiga boʻlgan ehtiyojining 43%ini qondiradi, bundan tashqari neft quvurlar orqali ham tashiladi. Neft quvurlarining umumiy uzunligi Gʻarbiy Evropa mamlakatlarida 3,9 ming km. ni tashkil etadi. “Total” kompaniyasi 12 ta davlatda joylashgan 22 ta neftni qayta ishlovchi zavodga ega. Ushbu zavodlarda har kuni 1,5 mln. barrel neft qayta ishlandi. Frantsiyada ishlab chiqariladigan neft mahsulotlarining asosiy qismi “Total” kompaniyasi guruhi hisobiga toʻgʻri keladi. “Total” kompaniyasi guruhi “Peshine-Yujin-Kolman” kompaniyasi bilan hamkorlikda uran rudasini toʻyintirish boʻyicha “Minatom A.S.” hissadorlik jamiyatini tuzgan. Ushbu kompaniya uran xomashyosini asosan Avstriya, Kolumbiya, Frantsiya, Nigeriya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va AQSH da qazib oladi.

Uran rudasini qazib olish “Minatom” kompaniyasining boʻlimi boʻlgan “Soseme santral de l-uranuie de minere radioaktif” sanoat kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. “Total” kompaniyasi guruhi quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ishlaydigan “Sosete Fransez d-etyud termin ed-enerji soler” kompaniyasining 25 % aktsiyasiga, AQSH ning fotoelektron kameralar ishlab chiqaruvchi “Foton Pauer ink” kompaniyasining 54% aktsiyasiga ham ega. 1976 yilda Frantsiyada “Total koperasyon jyustriel” kompaniyasi tashkil topgan boʻlib, bu kompaniya neft, neft mahsulotlarini qazib olish, qayta ishlash, tashish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. ITTKI uchun kompaniya yiliga 200 mln. frankdan ortiq mablagʻ sarflaydi.

Frantsiyaning “Pejo” kompaniyasi yirik avtomobilsozlik firmalaridan biri boʻlib, u 1876 yilda tashkil topgan. Ushbu kompaniya avtomobil ishlab chiqarish boʻyicha Gʻarbiy Evropa davlatlari ichida birinchi, dunyo mamlakatlari ichida esa 4-oʻrinda turadi. Ishlab chiqarish aylanmasining hajmi boʻyicha “Pejo” Frantsiyada 2-oʻrinda, Gʻarbiy Evropa mamlakatlari ichida esa 5-oʻrinda turadi. Kompaniya 500 ta eng yirik noamerika kompaniyasi roʻyxatida 27-oʻrinda turadi. Kompaniya 80-yillargacha “Pejo Sitroen” nomi bilan faoliyat koʻrsatgan. “Pejo”ning bosh xoldingi ishlab chiqarish xususiyatlariga koʻra uchta boʻlimga ajratilgan. Birinchi boʻlim (avtomobillar ishlab chiqarish) uch kompaniyadan iborat boʻlib, “Pejo”, “Sitroen” va “Kraysler Frans” nomlari bilan faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Frantsiyada ishlab chiqariladigan avtomobillarning 59-60 %i ushbu kompaniyalar hissasiga toʻgʻri keladi.

“Pejo” kompaniyasi Frantsiyadan tashqarida Buyuk Britaniya (asosan “Kraysler”ga tegishli zavodlarda), Ispaniya va Argentinada avtomobillar ishlab chiqaradi. Bundan tashqari “Pejo” kompaniyasi Nigeriya va Malayziyada, JAR va Madagaskarda, Ruminiya va Portugaliyada, Belgiya, Irlandiya va Avstraliyada, Yangi Zellandiya va Indoneziyada, Tayland, Gana, Keniya va Urugvayda ham oʻz avtomobillarini ishlab chiqaruvchi zavodlarga egadir. Ikkinchi boʻlim (poʻlat va avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish) “Asee utillaj Pejo”, “Krezo-Luar”, “Sher-Shatiyon”, “Agrenaj e redyukter”, “Sikl Pejo”, “Panxard e Levasef” kompaniyalaridan iborat. Kompaniyaning ushbu guruhlarida Frantsiya va Ispaniyada podshipnik va transmissiyalar ishlab chiqaradi. “Sikl Pejo” zavodlari Frantsiyada ishlab chiqariladigan barcha velosiped va mopedlarning 37 %ni beradi. “Sikl Pejo” ning korxonalari Ispaniya, JAR, Marokash, Braziliyada joylashgan. Har bir mahsulot “Panxard e Levaseor” tomonidan ishlab chiqariladi. Uchinchi boʻlim (transport boʻlimi) JEFSO kompaniyasi tomonidan boshqariladi. Ushbu kompaniya asosan avtomobillarni temir yoʻl transporti orqali tashish ishlari bilan shugʻullanadi. Kompaniya oʻz moliya va bank kompaniyalari, sugʻurta jamiyatlariga ega. Kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50-52 %i eksport qilinadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50%i xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilib, uning asosiy aksiyadorlari “Solete Fonser finansier e de partisipasyon”, “La Fansez de Partisipasyon finansier e Pejo Frer” (37 % aksiyaga ega), “Kraysler” (15 % aksiyaga ega), “Mishlen” (9 % aksiyaga ega) kompaniyalari hisoblanadi.

Frantsiyaning “Kompani jeneral de eliktrisiti S.A.” – KJE kompaniyasi elektr-texnika tovarlarni ishlab chiqaruvchi yirik transmilliy kompaniyalardan biri boʻlib, 1899 yilda tashkil topdi. Kompaniya Frantsiyaning sanoat firmalari ichida elektr-texnika tovarlarini ishlab chiqarish darajasi boʻyicha 5-6 oʻrinlarda tursa, 500 dan ortiq yirik noamerika kompaniyalari ichida esa 31-32 oʻrinlardan birida turadi. Kompaniya kompyuter va axborot vositalarini ishga tushirish, konstruktor-ixtirochilik sohalari bilan, telekommunikatsiya va aloqa tizimini takomillashtirish, elektr-texnika va radio tovarlarini ishlab chiqarish ishlari bilan shugʻullanadi.

KJE ulgurji savdoda bank ishlari bilan (“Elektrobank” orqali) ham shugʻullanadi. Kompaniya elektrotexnik tovarlarni ishlab chiqarish boʻyicha Frantsiyada oldingi oʻrinlardan birida turgan. 50-yillardan boshlab esa kompaniya sanoat va harbiy ahamiyatga ega boʻlgan elektr-texnik va telefon apparatlarini, maishiy elektr tovarlarni ishlab chiqara boshlagan. 1976 yilda kompaniya mamlakatdagi yirik qurilish firmalaridan biri boʻlgan “Sosete jeneral d antrepriz”ni bankrotga uchratib, uni aksiyalarini qoʻlga kiritdi. Gʻarbiy Evropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida, shuningdek Shimoliy Amerikada tashqi savdoda ekspansiya siyosatini olib bordi. 60-yillarning oxirlariga kelib esa kompaniya toʻliq zamonaviy elektr-texnik asbob-uskunalar bilan qayta taʼminlandi.

Hozirgi kunda KJE kompaniyasi harbiy ahamiyatga ega boʻlgan elektr texnika sohasiga oid asbob-uskunalarini ishlab chiqarish va telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish va yanada takomillashtirish ishlariga eʼtibor qaratmoqda. “Alston Atlantik” va “Xaniuell-Byull” kontsernlari kompaniyaning yirik filiallari hisoblanadi. Kompaniya tomonidan sotilayotgan tovarlarning 1/3 qismi xorijiy mamlakatlarda faoliyat koʻrsatayotgan filiallar ulushiga toʻgʻri keladi. “KJE” kompaniyasining

asosiy aksionerlaridan biri “Grup de la Kess Depo” hisoblanadi (kompaniyaning 5-6% kapitaliga egalik qiladi)

Frantsiyaning “Mishlen” xolding kompaniyasi jahon mamlakatlari ichida shina va rezina texnika buyumlarini ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. Kompaniya 1893 yilda tashkil topgan bo`lib, jahon bozorlariga asosan shina va rezina texnika buyumlari etkazib turgan. Dunyo mamlakatlarida avtomobilsozlik sanoat korxonalarining katta tezlikda rivojlanib borishi munosabati bilan kompaniya o`z mahsulotlarini nafaqat Frantsiya bozorlariga, balki butun G`arbiy Evropa bozorlariga ham chiqarib turgan. Shina va rezina texnika mahsulotlarini ishlab chiqarish ustida doimiy ilmiy-tadqiqot, novatorlik ishlarini olib borishi “Mishlen” kompaniyasi tovarlarining AQSH va Lotin Amerikasi mamlakatlarining ichki bozorlariga ham kirib borishi imkonini bergan. 70-yillarning o`rtalarida “Mishlen” kompaniyasi jahon mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan radial shina mahsulotlarining 50-55 %ni bera boshlagan.

Hozirgi kunda kompaniya jahon bozorlariga asosan shina ballonlarni chiqaruvchi TMKlardan biri bo`lib, engil va yuk mashinalari, qishloq xo`jaligi traktorlari va yo`l-qurilish mashinalari, velosiped va mototsikllar uchun, shuningdek turli texnik sohalarga muljallangan rezina texnika buyumlarini ishlab chiqarmoqda. “Mishlen” Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi yirik kauchuk plantatsiyalariga, 3ta yirik sintetik kauchuk ishlab chiqaruvchi zavodlarga (Frantsiyada) egalik qilib, po`lat simli radial shinalarni ishlab chiqarmoqda. “Mishlen” xolding-kompaniya bo`lib, ko`p tarmoqli ishlab chiqarish filiallariga ega. Kompaniyaning asosiy aksionerlari oilaviy shajaralar boshlig`i F. Mishlen va F. Rolle, shuningdek “Sosete Okzilierde Jeston” kompaniyasi hisoblanadi.

Xulosa

Frantsiya Respublikasi eng rivojlangan katta G-7 davlatlaridan biridir. 2004 yil yakunlariga ko`ra, Frantsiyaning aholisi 60,5 mln. kishiga etdi. Mamlakatning jami YaIM ko`rsatkichi 1,661 trln. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning yillik o`sishi 0,5 %ni tashkil etdi va aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YaIM 27600 AQSH doll.ga teng bo`lgan. YaIM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi quyidagicha: qishloq xo`jaligi 2,7%, sanoat 24,4%, xizmatlar 72,9 ulushga ega.

Frantsiyaning iqtisodiy rivojlanish modeli boshqa rivojlangan mamlakatlardan farq qilib, unda davlatning roli katta hisoblanadi. Deyarli barcha yirik kompaniyalarda davlatning ulushi mavjud. Keyingi yillarda hukumat mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, mavjud muammolarni hal etish (masalan, ishsizlik) maqsadida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish, mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Tayanch iboralar

Gollizm, Evropa Ittifoqi (EI), Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD), Byudjet (byudjet, budget), Evro obligatsiyalar (evroobligatsii, eurodollar bonds).

Nazorat uchun savollar

1. Frantsiyaning umumiy geografik muhitiga tavsif bering. Mamlakatning tabiiy geografik o'rnini uning iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?
2. Frantsiya sanoati tarixan qanday rivojlangan?
3. 60-70-yillarda Frantsiyaning tashqi aloqalari qanday omillar ta'sirida rivojlanib borgan?
4. Evropa Ittifoqida mamlakat qanday o'ringa ega?
5. Frantsiya jahon bozorida qanday mahsulotlari bilan mashhur?
6. Frantsiya TMKlarining jahon miqyosidagi o'rnini haqida gapirib bering? Mamlakat bu shaxslarga nisbatan qanday imtiyozlar chiqargan?
7. Frantsiyaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qiling, XX asrning ikkinchi yarmida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillarini ko'rsating.
8. O'zbekiston bilan Frantsiyaning iqtisodiy aloqalarini xarakterlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. М.: Юристъ, 2004 .
6. Кругман П. Международная экономика. –изд. 5-е. -СПб.: Питер, 2004.
7. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
8. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

7-bob. BUYUK BRITANIYA IQTISODIYOTI

7.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

7.2. Buyuk Britaniya rivojlanishida makroiqtisodiy modelining ahamiyati

7.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyotida transmilliy kompaniyalarning tutgan o`rni

7.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

Buyuk Britaniya O`zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 31 dekabrda tan oldi va 1992 yil 18 fevralda ikkala mamlakat o`rtasida diplomatik munosabat o`rnatildi. Mamlakatlar o`rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1993 yilning noyabr oyida Buyuk Britaniyaga qilgan rasmiy tashrifi muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. Buyuk Britaniya O`zbekistonning Evropadagi yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2005 yil yakunlariga ko`ra, ikkala mamlakat o`rtasidagi o`zaro savdo aylanmasi 430 mln. AQSH doll.ga teng bo`lgan. Shundan eksport miqdori 335,6 mln. AQSH doll.ga, import esa, 94,6 mln. AQSH doll.ga teng bo`lib, tashqi savdo ijobiy saldosi 241,1 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan.

O`zbekistonda Buyuk Britaniya investorlarining ishtirokida tashkil etilgan 171 ta korxona ro`yxatga olingan. Shundan 33 tasi 100 % Britaniya kapitali asosida tashkil etilgan. O`zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilingan 44 ta Buyuk Britaniya firma va kompaniyasi mamlakatda o`z vakolatxonalarini ochgan. Buyuk Britaniyaning investitsiyasi ishtirokida O`zbekistonda tashkil etilgan kompaniyalarga “British-Ameriken-Tabakko” va “Oksus mayning” larni misol qilib keltirish mumkin.

2006 yil 25 aprelda Toshkentda bo`lib o`tgan O`zbek-Britaniya savdo va sanoat kengashida, ikkala mamlakat o`rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari to`g`risida fikr almashildi.

Buyuk Britaniya jahonning eng rivojlangan G8 mamlakatlari qatoriga kiradi. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo`shma Qirolligi Shimoli-G`arbiy Evropada joylashgan bo`lib, tarkibiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya mamlakatlari kiradi. Xududi 244,820 kv. km, aholisi 60.270.708 kishi (2004 y.) ni tashkil qiladi. Poytaxti – London (7,1 mln.). Yirik shaxarlari Birmengem (1,5 mln.), Lids (780 mln.), Glazgo (721 mln.), davlat tili – ingliz tili pul birligi – erkin muomaladagi funt sterling, u o`z navbatida 100 pensga bo`linadi. Aholining o`rtacha umr ko`rish darajasi erkaklar orasida 74 yosh, ayollar orasida esa 80 yoshga teng.

Buyuk Britaniya parlamentar monarxiyadir, qirolicha Elizaveta II davlat boshlig`i hisoblanadi. Mamlakatda yagona asosiy qonun – konstitutsiya yuq. Boshqa qonun dalolatnoma asosida ish yuritiladi. Katta ettilik, Evropa Ittifoqi, NATO va BMT xavfsizlik kengashinig doimiy a'zosi hisoblanadi. Hamdo'stlikni boshqaradi, unga 48 dan ortiq (ilgari mustamlaka bo`lgan) davlatlar a'zo bo`lgan. Buyuk Britaniya yuqori darajada rivojlangan industrial davlatdir va jahonning iqtisodiy ishlab chiqarishida YaIM bo`yicha etakchi o`rinni egallaydi. 2004 yil mamlakatda

YaIM ishlab chiqarish hajmi 1,666 trl. AQSH doll.ni, jon boshiga 27,700 AQSH doll.ni, o`rtacha yillik o`sish darajasi esa 2,2 %ni tashkil etgan. Bundan YaIM qishloq xo`jaligida 0,9 %, sanoatda 26,5 % va xizmat ko`rsatish sohasida 72,6 % (2004y.) ni tashkil qiladi.

Tashqi savdo-sotiq sheriklari asosan: AQSH - (25,9 %), GFR - (24 %), Frantsiya - (17,6 %), Niderlandiya - (13,2 %), Belgiya - (10,5 %), Italiya - (9,1 %), Irlandiya - (6,5 %), Ispaniya - (4,4 %) mamlakatlaridir. Ta'lim olish va meditsina xizmati tekin (xususiy tarmoq ham mavjud). Oliy o`quv yurtlari orasida 1167 yilda tashkil etilgan Oksford va 1209 yilda tashkil etilgan Kembrij, London va Edinburg universitetlari dunyoga mashhurdir.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya eng yirik mustamlakachi davlat bo`libgina qolmay, balki dunyo bozorida sanoat va shuningdek moliya – bank tizimida ham asosiy rol o`ynovchi yirik kapitalistik mamlakat bo`lgan. Ammo XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Angliyaning iqtisodiy rivojlanishida ma'lum o`zgarishlar ro`y berib, ular quyidagilardan iborat:

1. Angliya dunyo sanoati va shuningdek bozoridagi etakchilik mavqeni yo`qotdi;

2. harbiy sanoat sohasida va shuningdek mustamlaka mamlakatlarida kapitalistik monopollarning soni o`sdi;

3. qudratli banklar tashkil topdi va rante tabaqasi vujudga keldi;

4. kapitalni eksport qilish mamlakatda muhim rol o`ynay boshladi. Ayniqsa, mustamlaka va o`ziga tobe bo`lgan davlatlarga ko`p miqdorda chiqarilgan;

5. Angliyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida uning eng yirik mustamlakachi davlat ekanligi muhim rol o`ynagan.

XIX asrning 70-yillarga qadar “dunyo ustaxonasi” deb nom olgan bu mamlakat dunyo mamlakatlari sanoat ishlab chiqarishining 1G`3 qismini, cho`yan eritish va ko`mir qazib chiqarish hajmining 50% ini bergan bo`lsa, 70- yillardan boshlab Angliyaning dunyo sanoati va savdosidagi hukmronligi inqirozga uchray boshladi. Uning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: birinchidan, yosh kapitalistik davlatlar AQSH va Germaniya o`z sanoatini yuqori texnika va texnologiya asosida tashkil qilib, Angliya tovarlarini dunyo bozorlaridan siqib chiqara boshladi. Chunki bu davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxi past bo`lishi bilan bir qatorda, ular arzon va ko`plab ishlab chiqarilgan.

Shu sababli, bu yosh kapitalistik davlatlar, ayniqsa, Germaniya “demping” siyosatini (dunyo bozoridagi mahsulotlarning narxini ataylab pasaytirish uslubi) tez-tez qo`llab turishi, natijasida XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Angliya sanoat mahsulotlarining eksporti 8 % ga, Germaniyaniki 40 %ga, AQSHniki esa 230 %ga o`sdi. XIX asrning 80-yillariga kelib mamlakatning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi tanho hukmronligi va texnik-texnologik jihatdan ustunligi pasaydi. 1913 yillarga kelib, Angliya cho`yan ishlab chiqarish bo`yicha AQSHdan 3 marta, Germaniyadan esa 2 marta orqada qoldi.

Xullas, 1876-1913 yy. sanoat mahsulotlarni hajmi Angliya 2 marta o`sgan bo`lsa, Germaniyada 4 marta, AQSHda esa 7 marta o`sdi. Ikkinchidan, Angliyanig sanoatidagi hukmron mavqeni yo`qotib borishi, sanoat mahsulotlarini sotishni qiyinlashtirdi. Masalan, 1873-1982 yy. mamlakatda sanoat mahsulotlariga bo`lgan

talabga nisbatan ko'p mahsulot ishlab chiqarilishi natijasida kuchli iqtisodiy inqirozlar kelib chiqqan edi. Xullas, ana shu yillarda bo'lib o'tgan inqiroz va uzoq davom etgan dipressiya uning iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, mamlakatda XIX asrning 70-90 yillarda bo'lib o'tgan qishloq xo'jaligi (agrar) inqirozi ham og'ir oqibatlariga olib keldi. Chunki texnika-texnologik yutuqlar tufayli suv transporti yordamida Evropaga arzon va sifatli Amerika bug'doyi olib kelina boshladi. Arzon okean orti bug'doyining raqobati Angliya qishloq xo'jaligiga juda og'ir salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bir necha o'n yillar mobaynida (1871-1891 yy.) jahon bozorida bug'doyga bo'lgan baho keskin pasaydi va bug'doy ekin maydonlari mamlakatda 10%ga qisqartirildi. Bu hol mamlakatning tashqi bozorlarga bo'lgan qaramligi va chetdan oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelishini kuchaytirdi.

To'rtinchidan, Angliya o'z mustamlakalariga ishonib, sanoatini qayta qurmadi, uni modernizatsiya qilmadi, oqibatda sanoat mahsulotlari raqobatda yutqiza boshladi. XIX asrning oxirlariga kelib, Angliyada sanoatning bir necha tarmoqlarida kapitalistik monopoliyalar vujudga kela boshladi. Lekin bu erda kartel va trestlarning paydo bo'lishi Germaniya va AQSHga nisbatan sekin amalga oshirildi.

Buning sababi shunda ediki, mamlakat sanoatining muhim tarmoqlari (ko'mir qazib olish, metall, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, mashinasozlik sanoatining ba'zi tarmoqlari) eski asbob-uskunalar bilan jihozlanganligi tufayli, ishlab chiqarishda ko'p xarajat talab qilinardi. Shuning uchun ham ingliz sanoatining mahsulotlari dunyo bozorida raqobatga bardosh bera olmasdi. Natijada ingliz kapitalizmi eskirib qolgan tarmoqlarini qayta jihozlash o'rniga (bu esa katta xarajatlarni talab etar edi) tashqariga kapital chiqarishni afzal deb bildi. Lekin sanoatning foydali tarmoqlari bo'lmish harbiy va ximiya sanoatiga o'z mablag'larining bir qismini sarflagan edilar. Shuningdek XIX asrning oxirlarida Angliyada har yili 4000ga yaqin aktsiyadorlik jamiyatlari tashkil topa boshladi, bu mamlakatda kapitalning markazlashuvidan dalolat berar edi.

XIX asrning 80-90 yillarida Angliyada dastlabki monopolistik uyushmalar yangi tarmoqlarda vujudga keldi. Ulardan eng birinchilari Anglo-German portlovchi moddalar "Dinamit Nobel" (1886 y.) va ximiyaviy "YuNAYTED Alkali" (1890 y.) trestlari hisoblanadi. Sanoatning eski tarmoqlari bo'lmish tog'-kon, metallurgiya va boshqa sanoat korxonalarining kontsentratsiyasi mamlakatda sekin rivojlandi. "Savdo uyushmalari" ko'rinishidagi korxonalarning soni Germaniyaga nisbatan 3 marta kam edi.

Angliyaning eski sanoat tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoatida gazmol ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallashni davom ettirgan. Bu tarmoqda band bo'lgan ishchilarning soni, boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan ancha ko'p bo'lgan. Dunyo bozoridagi raqobatni engish uchun XIX asrning 90-yillarida ip-gazlama ishlab chiqarish sanoatida dastlabki monopolistik birlashmalar paydo bo'ldi. Jumladan, gazmollarni bo'yash, jihozlash va gul bosish bo'yicha fabrikalarni uyushtirgan birlashmalar vujudga kelib, ular asosan Misrdan keltirilgan sifatli paxta xomashyosi hisobiga ishlagan.

7.2. Buyuk Britaniya rivojlanishida makroiqtisodiy modelining ahamiyati

XX asr boshlarida Angliya sanoat sohasidagi etakchiligini yo`qotgan bo`lsa ham, sanoatning ba'zi bir turlari bo'yicha, (kemasozlikda) birinchilikni saqlab qolgan edi. 1913 yillarda ham butun dunyo mamlakatlarida qurilgan kemalarning 58-60 %i Angliyaga to`g`ri kelar edi (1896 yili 78 % to`g`ri kelgan edi).

XIX asrning oxirlariga kelib, mamlakatda zo`r berib qurollanish va harbiy sanoatni kengaytirish ishlari avj oldi. Harbiy sanoat kompleksiga tegishli Armstrong-Untvort (1897 y.), Vickers (1898 y.) va zambarak to`plarini ishlab chiqaruvchi "Garvey Stil" (1902 y.) kabi trestlar tashkil topdi.

XIX asrning 70-80-yillarida Angliyaning mustamlaka monopoliyalari tomonidan juda katta mablag` jamg`arilgan bo`lib, bu jamg`arma mustamlakalarni boshqarish va foydali qazilmalarni tashib ketish hisobiga amalga oshirildi. Bunga misol qilib 1898 yilda tuzilgan Britaniyaning Janubiy Afrika kompaniyasini ko`rsatsa bo`ladi. Bu monopoliya maydoni jihatidan Germaniya va Avstro-Vengriya maydonini qo`shib hisoblaganda ham ko`p hududlarni o`z ichiga olgan. Xullas, Transvaldagi (hozirgi Janubiy Afrika Respublikasi) oltin konlar va boshqa foydali qazilmalarni o`zining xususiy mulki deb e`lon qilgan bu kompaniya Janubiy Afrikadagi olmos sanoatidan millionlab funt sterlin foyda ko`rib, Anliya kapitalining yanada o`sishiga sabab bo`lgan.

Kishloq xo`jaligi sahasida ham Angliyaning mustamlaka monopoliyalari vujudga kelib, ular plantatsiya xo`jaliklarini birlashtirib, turli oziq-ovqat mahsulotlarini (choy, kofe, kakao, er yong`oq va boshqalar) ishlab chiqarish bo'yicha ixtoslashgan edi. Yirik qishloq xo`jaligi monopoliyasi, jumladan, "Leber Brazenr" tresti tashkil topgan bo`lib, bu monopoliya G`arbiy Afrikadagi plantatsiyalarga egalik qilgan. Bu trest o`z tarkibiga 60 ta kompaniyani birlashtirgan bo`lib, Anglyadagi sovun ishlab chiqarishning s qismini ham o`z qo`liga olgan edi.

XX asrning boshlarida Angliya-Gollandiya qo`shma neft tresti "Royal datchshell" (1907 y.) tuzildi, o`z davrining eng yirik monopoliyalaridan biri bo`lgan bu trest dunyo neftining 13 %ini bergan. Shu davrda Angliyada temir yo`l qurilishi sohasida ham aktsiyadorlik shaklida birlashgan yirik monopoliyalar vujudga keldi. Bu monopoliyalarning faoliyati ingliz kapitalizmiga katta foyda keltirdi. 1890-1913 yillarda Buyuk Britaniya temir yo`llarining umumiy uzunligi 100 ming km.ga etib, dunyodagi temir yo`llarning 1/5 qismi Angliyaga to`g`ri kelgan edi (1913 yil). XX asr boshlarida mamlakatda jami 12 ta yirik temir yo`l kompaniyalari mavjud bo`lib, ularning barchasi temir yo`l qurilishi tashkilotlariga birlashtirilgan. XIX asr oxirlarida ham Angliya kema savdosida muhim rol o`ynagan va 1890 yilda jahon kema savdosining 50 %, 1913 yilda esa 2/5 qismi Angliyaga to`g`ri kelgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Angliya moliya sohasida ham dunyoning yirik markazlaridan biriga aylangan edi. Davlatning milliy valyutasi xalqaro pul muomalasi sifatida qo`llanilib, dunyo savdosidagi to`lash vositasi bo`lib xizmat qilgan.

Bank tizimida eng katta banklar London shahrida joylashgan. Angliyaning dunyo bozoridagi rolining o`sib borishi bilan bog`liq holda davlatda bank kapitalining markazlashuvi ham tezlashib borgan. Masalan, 1913 yilda Angliyada

500 dan ortiq banklarning qo`shilishi yoki sinishi natijasida 5 ta yirik bank tashkil topib, davlatdagi barcha pul jamg`armalarining 40 %iga egalik qilgan. Mamlakatning moliya tizimida muhim rol o`ynovchi bank guruhlaridan yana biri mustamlaka mamlakatlardagi banklar bo`lgan. 1910 yillarda mustamlaka banklarning soni 72 ta bo`lib, o`zining 5449 ta bo`limlariga ega bo`lgan. Xullas, XX asrning boshlariga kelib, Angliyada moliya kapitali bilan sanoat kapitalining qo`shilishi natijasida yirik moliya egalari (olligarxlar) paydo bo`ldi. Ularning ichida eng taniqli bo`lganlari Motild, Goshen, Grenfell, Bering, Lloyd kabi bankirlar va shuningdek Tekant, Bickers, Chamberlen singari sanoat magnatlari hisoblanadi.

1870-1918 yillarda dunyo bozorlarida savdo qilish borasida birinchi o`rinni egallab kelgan Angliya rivojlanishning o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mamlakat savdosining o`ziga xos xususiyatlaridan biri tovar chiqarishga nisbatan olib kelishning afzalligida namoyon bo`ldi. XIX asrning oxirida import – eksportga nisbatan 2 barobarga o`sdi. Dunyo bozorlarida tanho hukmron bo`lib kelgan Angliya endilikda muntazam ravishda yosh kapitalistik davlatlar bo`lmish Germaniya va AQSH tomonidan raqobatga uchrab, savdo siyosatini o`zgartirishga majbur bo`ldi. Mamlakatning tashqi savdosida doimiy salbiy balans holatlari ro`y bera boshlagan, ya'ni mamlakatda tovar olib kelish uni chiqarishga nisbatan bir necha bor ustun bo`lgan. Tashqi savdodagi salbiy balans o`rnini xorijda joylashtirilgan kapitaldan keladigan foyda qoplagan.

XX asr boshlarida Angliyaning xorijda joylashgan kapitallaridan kelgan foyda, tashqi savdodagi foydaga nisbatan 5 marta ko`p bo`lgan. Masalan, 1800 yillarda Angliyaning xorijdagi kapitalining umumiy miqdori 1 mlrd. funt sterlingni tashkil etgan bo`lsa, birinchi jahon urushi yillarida uning milliy daromadi 2 hissaga ko`tarilib, “xorijdan” olgan foydasi esa shu davr ichida 9 barobarga oshgan edi. 1911 yilda Angliyaning xorijga joylashtirgan kapitalidan ko`rgan foydasi 180 mln. funtni tashkil qilgan. 1914 yilda Angliya dunyoda chetga kapital chiqarish bo`yicha birinchi o`rinda turgan. Uning chetga chiqargan kapitalining umumiy hajmi Frantsiya va Germaniya kabi davlatlarnikidan ham ko`p bo`lgan. Angliya tomonidan juda katta miqdordagi kapitalning chiqarilishi uning ko`p sonli mustamlakalari bilan bog`liq bo`lgan.

1876 yilda Angliya mustamlakalarida yashovchi aholining umumiy soni 250 mln. kishini, maydoni esa 22,5 mln. kv. km. ni tashkil qilgan. XIX asrning oxirida Angliya mustamlakalarining umumiy maydoni 33,5 mln.kv.km ga, aholisi esa 400 mln.kishiga etgan edi. Xullas, XIX asrning 70-yillariga kelib, Buyuk Britaniya mustamlakalarining umumiy maydoni o`zidan 120 marta, aholisi jihatidan esa 8 marta ko`p bo`lgan. Britaniya imperiyasining mustamlakalari orsida asosiy o`rinni Hindiston egallagan bo`lib, uning Angliyaga to`lanadigan har yilgi soliq pullari 150-160 mln. funtni tashkil qilgan. Shuning uchun ham Angliyaning eng yirik mustamlakasi bo`lgan Hindiston “ingliz saltanatining yoquti” deb atalgan. Hindistonda mustahkam o`rnashib olgan ingliz mustamlakachilari Osiyo qit'asi va Hind okeani havzasiga kiruvchi mamlakatlarda ham o`z mustamlakachilik siyosatini yuritgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliyaning bir qancha mustamlakalari dominionlarga, ya'ni o`zini-o`zi boshqaradigan hududlarga aylana boshladi. Shunday

dominionlardan birinchisi Kanada (1867 yil), XX asr boshlarida dominionlikni qoʻlga kiritgan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Ittifoqi kabi davlatlar boʻlgan. Bu metropoliyalar Angliyaning xomashyo bazasiga aylangan. Avstraliya va Yangi Zelandiya xoʻjaligi asosan chorvachilikka ixtisoslashgan boʻlib, butunlay Angliya bozoriga tobe boʻlgan. Janubiy Afrika Ittifoqi davlatlari esa togʻ-kon sanoatini rivojlantirishni keng yoʻlga qoʻyib, Angliya kapitaliga butunlay qaram boʻlgan. Kanada oʻz navbatida don va shuningdek oʻrmon xoʻjaligi mahsulotlarini mustamlakachi davlatga etkazib turgan.

XX asr boshlariga kelib, Angliyaning mustamlakachilik siyosatida ham maʼlum qiyinchiliklar (metropoliya va koloniyalar oʻrtasidagi qarama -qarshiliklarning kuchayib borishi, mustamlakalarda milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi, yirik kapitalistik davlatlar tomonidan dunyoda qayta boʻlib olish uchun kurashning avj olishi va h.k.lar) paydo boʻla boshladi. Qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi birinchi jahon urushining boshlanishiga asosiy sabab boʻldi. Chunki bu davrda jahon siyosati va iqtisodiyotida ikki harbiy blok – biri Angliya boshchiligidagi Anlanta davlatlari boʻlsa, ikkinchisi, Germaniya boshchiligidagi Avstro-Germaniya ittifoqi paydo boʻlgan.

Birinchi jahon urushi Angliyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoliga jiddiy zarar koʻrsatdi. 1914-1918 yillardagi Birinchi jahon urushi Angliyadan juda katta mablagʻlarni sarflashni talab qildi. 1914 yilda Buyuk Britaniyaning 19 % milliy daromadi qurollanishga ketgan boʻlsa, 1915 yilda 50 %, 1916 yilda esa 56,3 % milliy daromadi qurollanishga sarf qilingan edi. Angliya sanoatida harbiy sanoat muhim rol oʻynab, sanoatning boshqa tarmoqlari yalpi mahsuloti 1G`3 ga qisqardi. Mamlakat byudjetini toʻldirish maqsadida Angliyada soliq olish 7 barobarga oshirildi.

Xullas, Angliyaning qilgan xarajatlari zoyi ketmadi va u Birinchi jahon urushida gʻolib chiqdi. Angliya oʻzining raqibi boʻlgan Germaniyani engdi va gʻolib chiqqan mamlakat sifatida juda katta ulushni qoʻlga kiritdi. Masalan, Germaniyaning butun harbiy floti va shuningdek bir qancha mustamlaka erlari Angliyaga oʻtdi. Natijada, Britaniya mustamlaka imperiyasining umumiy maydoni 35 mln.kv.km ga va aholisi esa 450 mln.ga etdi. 1916 yilda Angliyada eng kuchli tadbirkorlar jamiyati – Britaniya sanoat uyushmasi tashkil topgan boʻlib, u bir necha ming korxonalarni birlashtirgan edi. Mamlakatda millionerlarning soni ham 2 barobarga oshib, 1,5 mln. kishini tashkil qildi.

Angliya birinchi jahon urushidan keyin 1918-24 yillarda “Midlend”, “Lloyd”, “Berkleys”, “Vestminster” va “Neshnl provinshel” kabi eng yirik aksionerlik banklari vujudga keldi. Moliya banklarining mamlakatda tashkil topishi sanoatning rivojlanishiga olib keldi. Aynan shu yillarda sanoatning turli sohalarida 40 dan ortiq trestlar paydo boʻldi. Sanoatning yangi tarmoqlaridan biri boʻlgan kimyo sanoati juda tez surʼatlarda rivojlanib bordi. Ammo bu yuksalish davri uzoqqa choʻzilmadi, chunki “Buyuk dipressiya” (1929-1933 yillardagi jahon kapitalizmi krizisi) Angliyani ham chetlab oʻtmadi. 1929 yilda Angliyada sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi 1913 yilgi darajasiga tushib, 23%ga kamayib ketdi. Natijada ishsizlarning soni esa 3 mln. kishiga etdi.

“Buyuk depressiya” yillarida mamlakatning qishloq xo`jaligi ham chuqur iqtisodiy inqirozga uchradi. Yirik er egalari – lendlordlar hali ham mamlakatda katta er maydonlariga egalik qilar edi. Dehqonchilik qilinadigan erlarning 70%i ijara sifatida foydalanishga berilgan. Iqtisodiy inqiroz yillari Angliya qishloq xo`jaligining milliy daromaddagi ulushi 2 barobarga pasayib, bor-yo`g`i 4%ni tashkil qilgan xolos. Buyuk Britaniya oziq-ovqat mahsulotlarining ko`pgina turlarini chetdan olib kela boshladi. Mamlakat 1929-33 yillarda iqtisodiy inqirozdan chiqish maqsadida proteksionizm siyosatini olib borib, ichki bozorni kengaytirishga harakat qildi. Proteksionizm siyosati Angliyada sanoatning jonlanishiga olib keldi. 30-yillarning o`rtalariga kelib, mamlakat yana jahon mamlakatlari savdosida kapitalning eksporti bo`yicha birinchi o`ringa chiqib oldi. Lekin shunday bo`lsa-da, import eksportdan yuqori turgan (importning 75%i xomashyo va oziq ovqatdan iborat edi).

Jahon bozorlarida Angliya bilan raqobat qila oladigan davlatlarning (Germaniya, Yaponiya va AQSH kabilar) soni oshib bordi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin mavqei kuchayib ketgan AQSH Buyuk Britaniyani ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan quvib o`tdi va u dunyoda sanoat mahsulotlari eksporti bo`yicha borinchi o`ringa chiqib oldi. Xullas, Ikkinchi jahon urushidan so`nggi dastlabki yillarda Angliya sanoat mahsulotlarini 5 marta kam chiqarib, AQSH dan 3 barobar kam eksport qilgan edi.

Angliya hukumati Ikkinchi jahon urushiga 25 mlrd.funt xarajat qildi va urush yillari tashqi bozorlaridan (Arab Sharqi va Janubiy-Sharqiy Osiyodan) mahrum bo`la boshladi. Chunki bu erlarda Amerika kapitali mustahkam o`rnashib ola boshladi. Ayniqsa, mamlakat uchun eng og`ir zarba XX asrning o`rtalaridagi milliy ozodlik harakatining rivojlanib ketishi natijasida uning eng yirik mustamlakalari – Hindiston, Birma, Seylon o`z mustaqilligiga erishdi.

AQSH Buyuk Britaniyaning urushdan keyingi qiyinchiliklaridan foydalanib, o`ziga qulay bo`lgan shartnomalar tuzib oldi. Masalan, 1945 yilning dekabr oyida moliya sohasida shartnoma tuzib, AQSH Angliyaga 4400 mln.doll. miqdorida kredit berdi. Bundan tashqari Angliyaga “Marshal rejasi” deb nom olgan iqtisodiy siyosat asosida ham katta yordam ko`rsatildi. “Marshal rejasi” Evropa mamlakatlarini Ikkinchi jahon urushidan keyin tiklash va rivojlantirish rejasi bo`lib, bu Amerikaning iqtisodiy yordami asosida amalga oshirilgan edi.

“Marshall rejasi”ning tashabbuskori AQSHning davlat kotibi Jorj Marshall bo`lib, bu reja 1947 yilda tasdiqlandi va 1948 yilning aprelidan amalga oshirila boshladi. Ushbu reja bo`yicha G`arbiy Evropanng 17 davlati AQSHdan yordam olib, iqtisodiy mavqeini tiklab olishga muyassar bo`ldi. Shuni ham ta`kidlash kerakki, bu reja yordamida faqatgina G`arbiy Evropa davlatlari emas, balki Osiyoda Yaponiya hukumati ham katta moddiy yordam olishga erishdi. Xullas, “Marshall rejasi” 1951 yilgacha amal qilgan bo`lib, Angliya ana shu 4 yil ichida 3 mlrd. doll.ga yaqin moliyaviy yordam olgan edi.

XX asrning 50-60-yillarida Angliyada ahamiyatga sazovar bo`lgan o`zgarishlar ya'ni, iqtisodiy islohotlar bo`lib o`tdi. Bu islohotlar, fikrimizcha, ma'lum jihatdan Franklen Ruzveltning “Yangi kurs” siyosati ta'siri asosida amalga oshirilgan bo`lsa kerak. Chunki Angliyada 1950-51 yillardagi sanoat yirik tarmoqlarining

milliylashtirilishi davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'lgan edi.

7.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyotida transmilliy kompaniyalarning tutgan o'рни

Angliya Transmilliy kompaniyalari uzoq tarixiy davrlarni o'z boshidan kechirgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buyuk Britaniyada qaram davlatlar va mustamlakalarga kapital olib chiqish keng rivojlandi. 1893 yilda xorijiy mamlakatlarda joylashtirilgan Angliya kapitali Buyuk Britaniya Birlashgan qirolligining barcha boyliklarini 15 %ni tashkil qilgan. Xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi tadbirkorlik kapitali shaklida amalga oshirilgan. Shuning uchun ham mamlakatning yirik monopollari tashkil topgan paytdan boshlab, xalqaro kompaniyalar sifatida faoliyat yuritish boshlagan.

Ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillarda ham bu mamlakat jahondagi eng yirik kapital eksport qiluvchi davlatlardan biri bo'lib qolavergan. Xorijiy mamlakatlarda kapital eksporti natijasida uning TMK nazorati ostida bo'lgan yirik ishlab chiqarish tizimi tashkil topdi. Angliyaning xorijiy mamlakatlardagi filiallari mahsulotlari mamlakat YaMM ga nisbatan 55,2% ni, xorijiy ishlab chiqarishning eksportga nisbati esa 261,3%ni tashkil etgan. Bu davrda xorijiy mamlakatlarda Angliya korporatsiyalarining ishlab chiqargan mahsulotlari qiymati Germaniya, Yanponiya va Frantsiyalikidan ham yuqoriroq bo'lgan.

Angliya sanoat kapitalining tashqi ekspansiyasida davlatning 10 ta eng yirik korporatsiyasi oldingi o'rinlardan birida turgan. Uning xorijiy mamlakatlardagi eng yirik aktiviga ega bo'lgan korporatsiyalari kimyo va neft qazib olish, sanoat korxonalari, oziq-ovqat va ichimlik suvi hamda sharbatlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar, tamaki ishlab chiqaruvchi korxonalar shuningdek elektr texnika, umumiy mashinasozlik kompaniyalari hisoblangan. Uning to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalari asosan sanoati rivojlangan Evropa mamlakatlariga qaratilgan edi. Xullas, hozirgi kunda mamlakat kapital qo'yilmalarining 75 %i rivojlangan davlatlarga, 25%i esa rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, tashqi iqtisodiy ekspansiya yirik kapital mablag'larni talab qiladi. Britaniya TMKning ustunlik tomoni shundaki, ular qudratli London banklarining yordamiga tayangan holda faoliyat ko'rsatadi. Angliyaning yirik "katta to'rtlik" banklari ("Barkleyz bank", "Neshnl vestminster bank", "Middland bank", Lloyd bank") xalqaro kredit sohasida muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro moliya markazlarida joylashgan, yirik resurslarga va keng masshtabda tarqalgan filiallar tizimiga ega bo'lgan ushbu banklar xalqaro ssuda kapitali bozori hisoblangan evrovalyuta bozorida muhim rol o'ynamoqda.

Angliyaning TMKlari kapitalni nafaqat depozit banklardan, balki ixtisoslashgan savdo-investitsiya banklaridan ("bankirlar uyi"), shuningdek nafaqa jamg'armalari va sug'urta kompaniyalaridan ham oladilar. Shuning uchun ham xalqaro TMKlar doimo banklar bilan yaxshi munosabatda bo'ladi. Masalan, "British petroleum" kompaniyasi doimo "Neshnl Vestminster bank" ning mijozi va "Danlon xolding" kompaniyasi doimo "Barkleya bank"ning mijozi hisoblanadi.

Britaniya korporatsiyalari xorijiy mamlakatlardagi tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining muhim omillaridan biri texnika va texnologik jihatdan ustunligidir. Endi mamlakat yirik TMKlarining ba'zilar bilan tanishib chiqamiz.

Angliyaning “British petroleum PLK” korporatsiyasi jahonning eng yirik neft monopollaridan biri bo'lib, u 1909 yilda tashkil topdi. Korporatsiya jahon mamlakatlarining sanoat korporatsiyalari orasida 6-o'rinda, noamerika korporatsiyalari ichida esa 2-o'rinda turadi. Korporatsiya aksiyalarining 48-49 %i davlatga tegishlidir. “British petroleum” korporatsiyasi xalqaro kartellar tashkilotining a'zosi bo'lib, yiliga 163-165 mln.t. neft mahsuloti -3,5-4 mlrd. kub m. tabiiy gaz, 17-18 mln. t. ko'mir qazib oladi. Bundan tashqari yiliga 2,5-3 mln. t. siqilgan gaz va shuningdek 114,5 mln. t.ga teng bo'lgan 111 ta tanker va 26 ta davlatda umumiy quvvati 120 mln. t.ga ega bo'lgan 38 ta neftni qayta ishlash zavodlari ustidan (Angliya, Frantsiya, Germaniyada 4 tadan neftni qayta ishlash zavodlari ustidan, AQSHda 3 ta zavod ustidan, Kanada va Avstraliyada 2 tadan zavodlar ustidan, Irlandiya, Belgiya, Gollandiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Turkiya, Kipr, Yaman, Sinegal, Burkina-Faso, JAR, Serra-Lione, Keniya, Nigeriya, Sudan va boshqa davlatlarda 1 tadan neftni qayta ishlash zavodlari) ustidan o'z nazoratini o'rnatgan.

90-yillar boshida va hozirgi kunda ham “British petroleum” kompaniyasi mamlakatning kimyo sanoatidagi eng yirik kompaniyalaridan biri hisoblanadi. Kompaniyaning etilen, propilen, bo'tadien, plastmassalari ishlab chiqaruvchi zavodlari 6 ta xorijiy mamlakatda joylashgan. XX asrning 70-yillaridayoq kompaniyaning ximiya sanoat korxonalari Evropa Hamjamiyati davlatlari ichida birinchi bo'lib neft va neft mahsulotlaridan sintetik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashdi.

“Bat industriz PLK” korporatsiyasi 1902 yilda tashkil topgan bo'lib, jahonda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksporti bo'yicha eng yirik monopoliyalardan biridir. “BAT” korporatsiyasi yiliga 350 dan ortiq sigaretalar, jumladan, 210 xil tamaki, 130 xil sigara ishlab chiqaradi. 90-yillarda kompaniya eng yirik noamerika kompaniyalari ichida 24-o'rinda turgan. Aktsiyadorlik kapitali 2885 mln. funt sterlingga teng bo'lib, dunyoning 50 dan ortiq xorijiy davlatlarida joylashgan 120 dan ortiq tamaki fabrikalari faoliyat ko'rsatadi. Kompaniya o'z mahsulotlarining asosiy qismini (deyarli 90%) tamaki fabrikalar joylashgan davlatlarning ichki bozorlariga chiqaradi, qolgan mahsulotlarni esa 180dan ortiq mamlakatlarga eksport qiladi.

“BAT” korporatsiyasining shu'ba korxonalari AQSH, Germaniya va boshqa davlatlarning bozorlarida oldingi o'rinlardan birida turadi. Masalan, “Braun end Uilyamson tobako korporatsiyasi” (AQSHdagi filiali) AQSH kompaniyalari orasida sotuvlar bo'yicha 3-o'rinda turadi. Firmaning Germaniyadagi filiali “X.B. Krenanfiltr” kompaniyasi esa nafaqat Germaniyada, balki butun G'arbiy Evropa mamlakatlarida eng yirik tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan biridir. “BAT” kompaniyasining xomashyo etkazib beruvchi bozorlari AQSH, Kanada, Turkiya, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hisoblanadi.

Kompaniya jahon mamlakatlarida qog'oz ishlab chiqaruvchi 26 ta fabrika ustidan o'z nazoratini o'rnatgan. Qog'oz ishlab chiqaruvchi fabrikalarning 8 tasi

Belgiya, Frantsiya, Irlandiya, Braziliya, Hindiston va Afrika davlatlarida joylashgan. "BAT" kompaniyasi qutilar ishlab chiqaruvchi 111 ta korxonaga ham ega bo'lib, ulardan 68 tasi Angliya va Irlandiyada, 31 tasi AQSH va Kanadada, qolganlari esa Germaniya, Frantsiya va JARda joylashgan. "BAT" kompaniyasi Buyuk Britaniyada atir-upa mahsulotlarini sotuvchi eng yirik kompaniyalardan biridir. Kompaniyaning atir-upa ishlab chiqaruvchi korxonalari 35 ta davlatda joylashgan bo'lib, ularning mahsulotlari 150 ga yaqin davlatlarda sotiladi.

Xulosa

Jahon bozorlarida Angliya bilan raqobat qila oladigan davlatlarning (Germaniya, Yaponiya va AQSH kabilar) soni oshib bordi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin mavqei kuchayib ketgan AQSH Buyuk Britaniyani ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan quvib o'tdi va u dunyoda sanoat mahsulotlarining eksporti bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi. Xullas, Ikkinchi jahon urushidan so'nggi dastlabki yillarda Angliya sanoat mahsulotlarini 5 marta kam chiqarib, AQSH dan 3 barobar kam eksport qilgan edi.

Tayanch iboralar

Tetcherizm, bojxona ittifoqi, tashqi savdo siyosati, TIFni tartibga solishning tarifli usullari.

Nazorat uchun savollar

1. Reyganomika bilan Tetcherizm o'rtasida qanday o'xshashliklar bor?
2. Margaret Tetcher Angliya iqtisodiyotida 1979-90 yillarda qanday o'zgarishlarni amalga oshirgan?
3. Mamlakatning hozirgi etakchilari qanday iqtisodiy yo'ldan bormoqdalar?
4. Etakchi G'arbiy Evropa davlatlarining zamonaviy ilmiy-texnik rivojlanishining qanday xususiyatlarini bilasiz?
5. Mamlakatlarning investitsiya muhiti, ularning ilmiy-texnik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Buyuk Britaniyaning Evropa Ittifoqidagi mavqeini yoriting?
7. Angliyaning xo'jalik yuritish xususiyatlarini asosini tahlil qiling.
8. Mamlakatning jahon xo'jaligi va Evropadagi mavqeiga baho bering.
9. Buyuk Britaniyaning XX asr ikkinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari va sharoitlarini ko'rsatib bering.
10. Angliyaning iqtisodiy rivojlanishiga uning geografik holati qanday ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во «Проспект», 2006.
2. Кудров В.М. Мировая экономика. –М., 2004.
3. Ломакин В.К. Мировая экономика. –М., 2004.
4. Энциклопедия стран мира. -М.: Экономика, 2004.
5. Вольский В.В. Социально- экономическая география зарубежного мира. –М.: Дрофо, 2003.
6. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. –С.- П., 2003
7. Буторина. О. Европейский Союз: Справочник путеводитель. –М., 2003.
8. Пашковская. И. Европейская экономическая и валютная интеграция. –С-П., 2003.

8-bob. ITALIYA RESPUBLIKASINING IQTISODIYOTI

8.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

8.2. 1990-2000 yillardagi Italiya xukumatining iqtisodiy siyosati

8.3. Italiya iqtisodiyoti rivojlanish modeli xususiyatlarining tavsifi

8.4. Italiyaning transmilliy kompaniyalari

8.1. Mamlakatning umumiy tavsifi

Italiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 10 yanvarda tan oldi va mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 24 martda o'rnatildi. 1992 yil sentyabrdan boshlab, Toshkentda Italiyaning elchixonasi va 1998 yil yanvar oyidan boshlab esa, O'zbekiston Respublikasining Rimdagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi.

1996 yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Italiyaning Florentsiya shahriga rasmiy tashrifi doirasida o'zaro aloqalar yangi bosqichga olib chiqildi va tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi va EI mamlakatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Kelishuv imzolandi. 1997 yil may oyida Italiya Respublikasining Prezidenti O.L. Skalfaro va 1997 yil sentyabr oyida Italiya vazirlar Kengashi Raisi R. Prodi O'zbekistonda rasmiy tashrifda bo'ldi. 2000 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Italiyaga rasmiy tashrifi amalga oshirildi.

Savdo iqtisodiy hamkorlik. 2002 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi va Italiya o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo aylanmasi 123,8 mln. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 49,3 mln. AQSH doll., import esa, 74,4 mln. AQSH doll.ni, natijada salbiy saldo 25,1 mln. AQSH doll.ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida Italiya investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 49 ta qo'shma korxona va 100% Italiya kapitali asosida tashkil etilgan 4 ta korxona faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligida Italiyaning 7 ta firma va kompaniyasi akkreditatsiya qilingan.

Italiya Respublikasi jahonda eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib, G8 ga a'zo. Italiya Respublikasi Evropaning janubida, O'rta er dengizi havzasida joylashgan bo'lib, uning tarkibiga Apenin yarim oroli, Sitsiliya, Sardiniya kabi yirik orollar va boshqa bir qator mayda orollar ham kiradi. Er maydoni 301,2 ming kv. km. Aholisi – 55.6 mln. kishi, aholining 98%i italiyaliklarni tashkil qiladi. Poytaxti – Rim shahri (aholisi 3 mln. kishiga yaqin).

Italiya tarixan sivilizatsiyaning beshigi hisoblanadi. Evropa mamlakatlari taraqqiyotining istiqbolini belgilab bergan uyg'onish davri (XV asr) sivilizatsiyasi ham aynan shu davlatning nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan ko'plab tarixiy obidalar, jumladan, “ochiq muzey shahri” bo'lgan Venetsiya shahri ham nafaqat italiyaliklar, balki dunyo xalqlarining madaniy boyligi hisoblanadi. Italiyalik Dante, Petrarka, Bokkachcho kabi dunyoga mashhur insonlar jahon madaniyati rivojliga o'z hissalarini qo'shganlar.

Italiya Evropa Ittifoqi (EI) va NATOga a'zo bo'lgan rivojlangan davlatlardan biridir. Elga a'zo davlatlarning yagona iqtisodiy valyutasini tashkil etish g'oyasini ham Italiya hukumati ilgari surgan. Italiya siyosiy sohada ham dunyo mamlakatlari ichida eng nufuzli davlatlardan biridir. 1997 yilda Albaniyada ro'y bergan siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishda Italiya "najot qal'asi" vazifasini bajargan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Italiya iqtisodiy rivojlanish davriga qadam qo'ydi. Ana shu qisqa 20-30 yillik iqtisodiy rivojlanish yillarida dunyoga mashhur "Fiat", "Alfa – Romeo" va "Ferrari" kabi avtomobillarning yangi markalari yaratildi. Italiyaning bunday yirik iqtisodiy yutuqlarga erishishida hukumat rahbariyatining halq manfaatini ko'zlab ish yuritishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Italiya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning ilk poydevori "Buyuk ipak" savdo yo'lining rivojlanishi (XV asr) bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonning Evropa davlatlari sari integratsiyalashuvida Italiyaning o'ziga xos o'rni bor. 1996 yilda Prezidentimiz I. Karimovning Italiyaning Florensiya shahriga tashrifi chog'ida O'zbekiston-Italiya munosabatlarida yangi davr boshlandi. Respublika Prezidentining tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan EI davlatlari o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq Evropaning yirik axborot mahkamalari, jumladan, Reyter, Franspress, Evropa kabi dunyoga mashhur axborot agentliklari tomonidan mamlakatimiz haqida qiziqarli ma'lumotlar berilmoqda. Italiya – O'zbekiston o'rtasida, ayniqsa, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi, qurilish, sayyohlik, fan va madaniyat sahalarida malakali mutaxassislar tayyorlashdagi hamkorliklar yildan-yilga kengayib, rivojlanib bormoqda.

8.2. 1990-2000 yillardagi Italiya hukumatining iqtisodiy siyosati

Italiya hozirgi kunda jahon mamlakatlari, "katta ettilik" ichida sanoati rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. 2004 yilda mamlakatning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1.55 trln. AQSH doll.ni tashkil etib, Yaponiya, AQSH, GFR va Frantsiyadan keyingi 5-o'rinda, aholi jon boshiga o'rtacha milliy daromadning to'g'ri kelishi bo'yicha esa jahon mamlakatlari ichida 3-o'rinda turadi. Italiyada o'rtacha YaIM ishlab chiqarishning yillik o'sish darajasi 0,4 %ni tashkil etgan. Xullas, 2004 yilda mamlakatning iqtisodiy tuzilmasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish quyidagicha ko'rinishda bo'lgan: sanoatda 28,9 %ni, qishloq xo'jaligida 2,2 %ni, xizmat ko'rsatishda esa 68,9 % ni tashkil etgan. 2003 yilda xizmat ko'rsatish sahasida mehnatga qobiliyatli aholining 70 %, sanoatda 32 %, qishloq xo'jaligida esa 5 %, xizmat ko'rsatishda 63 %i band bo'lgan.

Italiya iqtisodiyotida davlat monopolistik kapitali hukmronlik qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida xorij kapitalining roli ham katta hisoblanadi. Ma'lumki, Italiyada yoqilg'i resurslari (ayniqsa, gaz va neftga) va shuningdek sanoatning ko'plab boshqa xomashyo resurslari tanqis. Biroq, mamlakatda rux, oltingugurt, qalay, boksit, marmar qazib olish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Italiya gidro-energetika resurslariga boy. Italiyada, ayniqsa, mashinasozlik, avtomobilsozlik, oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik, metallurgiya sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan

soha hisoblanadi. Mamlakatda hisoblash texnikasi, elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Italiyada avtomobil va temir yo'l transporti ham yaxshi rivojlangan sohadir. Mamlakat aholisining 90%dan ortiq yo'lovchilari, 80%dan ortiq yuklari esa avtomobil transporti yordamida orqali tashiladi. Mamlakat avtosaroylarida 25 mln. dan ortiq avtomashilalar mavjud.

Italiyaning jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan xalqaro tashqi iqtisodiy aloqalari asosan dengiz transporti (import yuklarning 80-90%i, eksport yuklarning 60-65%i) orqali amalga oshiriladi. Mamlakatning savdo flotida 1,5 mingdan ortiq yuk tashuvchi kemalar mavjud bo'lib, jahon mamlakatlari ichida yuk tashishdagi o'rinlari bo'yicha 10-o'rinda turadi. Italiya xalqaro turizmning yirik markazlaridan biri bo'lib, yiliga mamlakatga 50-52 mln. ga yaqin turistlar kelib ketadilar.

Italiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. 1999 yilda Italiyaning YaIMi 1,4% ga (1998 y.-1,5 %) o'sgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Italiya Evropaning va shuningdek EI davlatlarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan ham orqada turgan. Buning sabablari, birinchidan, mamlakat iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarga nisbatan sekin rivojlanib borayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, jahon bozorlarida Italiya mahsulotlariga bo'lgan talabning qisqarib borayotganligidir. 1999 yilda Italiya iqtisodiyotida muhim rol o'ynagan sanoatning rivojlanish darajasi 1,7%ga pasayib (1998 y.- 2,2% tashkil etgan), xizmat ko'rsatish sahalaridagi o'sish ko'rsatkichlari esa 1,0 %ga qisqargan (1998 y. – 1,5%). 1999 yilda Italiya qishloq xo'jaligi katta tezlikda rivojlanib o'sish darajasi 5,6 %ni tashkil etgan (1998 y. – 1,2 %).

2004 yilda Italiyada ish bilan band bo'lgan aholi soni 24,15 mln. kishi bo'lib, mamlakat umumiy aholisining 88,6 %ini tashkil etgan. Xullas, Italiya hukumati mamlakatda yangi ishchi o'rinlarini vujudga keltirish va ishsizlar sonini (ayniqsa, yoshlar o'rtasida) kamaytirishga urinsa ham, EI mamlakatlari ichida ishsizlar sonining ko'pligi bo'yicha eng yuqori o'rinlardan birini (Ispaniyadan keyin) egallab turibdi.

8.3. Italiya iqtisodiyoti rivojlanish modeli xususiyatlarining tavsifi

Italiyada sanoat siyosati. Italiyaning sanoat sahasida olib borayotgan siyosati asosan kichik va o'rtacha rivojlangan ishlab chiqarish korxonalarini (MSP) qo'llab-quvvatlash, shuningdek mamlakatning shimoliy va janubiy rayonlari o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni qisqartirishga qaratilgan. Chunki bunday ishlab chiqarish korxona-firmalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Italiyaning 93 %ga yaqin kichik va o'rta miqyosdagi ishlab chiqarish korxona-firmalarida 200 dan kam bo'lmagan ishchi va xizmatchilar mehnat qiladi. Ishlab chiqarish firmalarining 85 %i kichik korxonalarni tashkil etib, ulardan 11 kishidan 50 kishiga qadar ishchi va xizmatchilar band. Bunday ishlab chiqarish korxonalari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 %ni beradi.

Hozirgi kunda Italiya qishloq xo'jaligi fermalarida ishga yaroqli aholining 5 %, xizmat ko'rsatish sahalarida esa 63 %i band. Italiyaning kichik va o'rta miqyosdagi ishlab chiqarish korxonalari asosan metalni qayta ishlash, to'qimachilik, teri, mebel ishlab chiqarish tashkil topgan. Xullas, Italiya ushbu ishlab chiqarish korxonalarining

o'ta ixtisoslashganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarining sifatliiligi, ixcham va bejirimligi hamda doimo yangilikka intilishi bilan jahon bozorlarida katta yutuqlarga erishib kelmoqda.

Italiyaning kichik va o'rta korxonalari mamlakatning ma'lum sanoat rayonlarida joylashgan bo'lib, ularning iqtisodiy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda mamlakatda 800 ga yaqin ishlab chiqarish sanoat rayonlari mavjud. Kichik va o'rta korxonalarining 91 %i Italiyaning shimoli va markaziy rayonlarida, 9 %i esa mamlakatning janubiy qismlarida va shuningdek Sitsiliya va Sardiniya orollarida joylashgan. Mamlakatning janubida ishsizlar soni mamlakatda yashaydigan umumiy aholining 25 %ini tashkil etadi (2003 yilda yoshlar o'rtasidagi ishsizlar soni mamlakat ishga yaroqli aholisining 56,6 %ni tashkil etgan edi).

2004 yilda Italiyaning sanoat tarmoqlarida umumiy aholining 32 %i band bo'lib, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining umumiy bahosi 509,7 trln. lirani tashkil etgan. Italiyaning oziq-ovqat sanoat tarmoqlarida 358 mingga yaqin kishi (umumiy sanoat korxonalar aholisining 8,3 %) band bo'lgan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining 82 %i ichki talabni qondirishga, 5,4%i esa eksportga mo'ljallangan.

2004 yilda Italiyaning to'qimachilik va tikuv sanoati tarmoqlarida ishlayotgan ishchilarning soni 696 ming kishini tashkil etgan (barcha sanoat tarmoqlarida ishlayotgan ishchilarning 16,2 %). Ushbu sanoat tarmoqlarining 53,6 % mahsuloti eksport qilingan holda 46,4 %dan ortiqrog'i esa mamlakatning ichki talabini qondirishga qaratilgan edi. Mamlakat eksportida to'qimachilik sanoati mahsulotlari (asosan ip to'qimachilik sanoati) muhim rol o'ynaydi. Biroq, hozirgi kunda ba'zi bir sabablarga ko'ra ushbu sanoat tarmoqlari ham qarama-qarshiliklarga duch kelmoqda.

Italiyada teri va poyafzal mahsulotlarini ishlab chiqarish ham rivojlangan soha bo'lib, u jahon mamlakatlari ichida ushbu soha bo'yicha 2- yoki 3-o'rinlardan birida turadi. Ushbu sanoat tarmoqlarida 258 ming ishchi yoki sanoatda ishlayotgan barcha aholining 6 %i banddir. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan poyafzal mahsulotlarining 80 %dan ortiqrog'i eksportga chiqariladi.

Italiyada yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati ham ancha rivojlangan sohadir. Sanoatning ushbu tarmoqlarida 2004 yilda 396 ming kishi yoki sanoatda band aholining 9 %i band bo'lgan. Respublika ushbu sanoat mahsulotlarini jahonning barcha mamlakatlariga, asosan, Lotin Amerikasiga eksport qiladi. Qog'oz-tsellyuloza sanoati va nashriyotlarida 241 ming kishi yoki sanoatda band bo'lgan umumiy aholining 5,6 %, kimyo sanoatida 188 ming kishi, sanoatda umumiy aholining 4,4 %i band bo'lgan. Metallurgiya va metalni qayta ishlash sanoat tarmoqlarida ishlayotgan ishchi va xizmatchilarning umumiy soni esa 552 ming kishini tashkil etgan.

Mamlakatning mashinsozlik tarmoqlarida aholining 11 % (472 ming kishi) banddir. Ushbu tarmoq o'z mahsulotining 70 %ini ichki talabni qondirishga qaratgan holda 55,7 %ni esa eksportga chiqaradi (asosan EI va Lotin Amerikasi davlatlariga, Rossiya Federatsiyasi va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga chiqaradi). Italiyaning elektron va elektronika sanoat tarmoqlarida mehnat qilayotgan umumiy aholining 7,6 %i (328 ming kishi) band bo'lib, mamlakat ichki talabining 50 %ini qondirgan holda 50 %ga yaqin mahsulotni eksportga chiqaradi.

Italiyaning transport vositalarini ishlab chiqarish tarmoqlarida aholining 7,1 % (303 ming kishi) band bo'lib, mamlakat ichki talabining 47 %ni qondirgan holda, 50 %dan ortiqrog'i eksportga ham chiqarib turadi. Mamlakatning rezina va plastmassa ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarida aholining 4,5% (195 ming kishi) band bo'lib, ushbu sanoat tarmoqlari mamlakat ichki talabini 75 % qondirgan holda 40 %ga yaqin o'z mahsulotini eksportga ham chiqarib turadi. Xizmat ko'rsatish sohalarida umumiy aholining 61,9%i (12.8 mln. kishi) banddir.

2004 yilda ishga yaroqli barcha aholisining 5,5 % (1134 mln. kishi) qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lgan edi. Mamlakatda agrar sektor asosan dehqonchilikka yo'naltirilgan bo'lib, ushbu sektorda band bo'lgan aholining 58 %i dehqonchilik bilan, 42 %i esa chorvachilik bilan shug'ullangan. Haydab dehqonchilik qilinadigan erlarning 50%dan ortig'iga donli ekinlar (yiliga 1 mln. t.ga yaqindan etishtirib, Evropa mamlakatlari ichida birinchi o'rinda turadi) ekiladi. Mamlakatning shimoliy rayonlarida dehqon fermer xo'jaliklari bog'dorchilikdan yiliga 6 mln. tonnaga yaqin mevali mahsulotlarni oladi. Mamlakatning janubiy rayonlari asosan bodom, er yong'og'ini va boshqa subtropik ekinlarni ekishga ixtisoslashtirilgan. Mamlakatning qishloq xo'jaligida yiliga 10 mln. tonnaga yaqin uzum hosili olinadi, shundan 3.3 mln.t. sitrus, 5.5 mln. tonna tomat etishtiriladi. Italiya xo'jaligida sut va go'sht chorvachiligi asosan mamlakatning shimoliy rayonlaridagi o'tloqli yaylovlarda keng tarqalgan.

Italiyaning tashqi savdo siyosati. Respublika jahon mamlakatlari ichida tashqi savdo hajmi bo'yicha 6-o'rinda turadi (jahon savdo aylanmasining 6%i). 1999 yilda xorijiy mamlakatlarga nisbatan Italiyada tovarlar aylanmasining o'sish darajasi biroz pasayganligi kuzatilgan edi. 1996 yilga nisbatan tashqi savdo saldosi 3 barobarga qisqargan. 1999 yilda ham tashqi savdoda asosiy o'rinni EI davlatlari egallab turgan eksportining 57 %i va importining 61 %i ana shu davlatlarning hissasiga to'g'ri keladi. Eksportining eng o'sgan hududlaridan biri Shimoliy Amerika bo'lgan. 1998 yilda G'arbiy Evropa mamlakatlrida ro'y bergan moliyaviy inqirozlar ta'sirida Italiyada markaziy va Sharqiy Evropa mamlaktlaridan tovarlarning qo'plab kirib kelishi kuzatilgan edi. Avvalgi yillar kabi uning eksport pozitsiyasida asosiy o'rinni qayta ishlab chiqarish sanoat mahsulotlari (mashinalar va asbob-uskunalar, transport vositalari, to'qimachilik va to'quv buyumlari, kimyo mahsulotlari) egallagan.

1996-1999 yillarda iqtisodiyotda asosiy tarmoqlar bo'yicha rivojlanishning kvotalari saqlanib qolinishi asosida (qishloq xo'jaligi – 1,6 %, qayta ishlash sanoati – 97,7 %, qazib olish sanoati – 0,2 %, xizmat ko'rsatish sahasi esa 0,5 %) ba'zi tarmoqlar bo'yicha milliy eksport rivojlanishida quyidagi salbiy holatlar ham kuzatilgan edi:

1. An'anaviy rivojlanib kelayotgan sanoat tarmoqlari hissasining pasayishi (asosan to'qimachilik, tikuvchilik, teri va poyafzal sanoatida), ushbu tovarlarga nisbatan Osiyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan tovarlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, Osiyo va Rossiya bozorlarini egallashida uning moliyaviy muammolari va qisman mamlakatdan tashqarida tovarlarning joylashishi masalalari.

2. Moliyaviy va sug'urta institutlari tomonidan tashqi bozorlarda mashinasozlik sanoat kompleksi mahsulotlarini qo'llab-quvvatlashning qisqartirilishi.

3. 90-yillardan boshlab, kichik va o`rtacha korxonalarning eksportda ishtirok etish faoliyatidagi aktivlikning susayishi (asosan oziq-ovqat va kimyo sanoati, transport mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalarida), 1999 yilda Italiya eksporti eng kam rivojlanganligi bilan xarakterlanishi.

4. Italiyaning moliyaviy va boshqa tashkilotlari tomonidan etarli qo`llab-quvvatlanmayotganligi sababli (ayniqsa, kichik va o`rta korxonalar) ba'zi korxonalar nafaqat tashqi bozorlarda, balki ichki bozorlarda ham xorij kompaniyalari oldida raqobatga bardosh berolmayotganligi va h.k.lar). Natijada 1999 yilda Italiya importida asosiy o`rinni mashinasozlik va transport mahsulotlari, rezina-texnik buyumlar va mebellar turgan.

Italiyaning davlat uyushmalari va xususiy monopoliyalari. Italiya iqtisodiyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri yuqori darajada ishlab chiqarishning kontsentratsiyasidir. Mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalaridagi kontsernlar monopoliya holatida faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Xolding tizimidagi sanoatni tiklash institutlari davlatning yirik uyushmalaridan biri hisoblanadi. Sanoatni tiklash institutlari (IRI) dunyoda yirik o`nlik guruhiga kiruvchi uyushmalaridan biri bo`lib, o`z tarkibiga 150 dan ortiq turli sanoat tarmoqlarini (kemasozlik va kema remonti, suv transport, mashinasozlik, qora metallurgiya va h.k. tarmoqlarni) birlashtirgan. Sanoatni tiklash institutlarining korxona va firmalarida 350 mingga yaqin kishi mehnat qilishadi, ushbu korxonalarning yillik aylanmasi 50 mlrd. AQSH doll.dan ortiqdir.

Italiyaning yirik Davlat kompaniyalaridan biri neftgaz uyushmasi "ENI" neft-gaz va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 160 dan ortiq kompaniyalar ustidan o`z nazoratini o`rnatgan. "ENI" kompaniyasi asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda neft va gaz qazib olish ishlari bilan shug`ullanib, unga tegishli bo`lgan korxonalarda 90 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi. Kompaniyaning yillik aylanmasi 30 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qiladi.

Italiyaning mashinasozlik sanoatida "Fiat" yirik xususiy kontsernlardan biri bo`lib, unda 290 mingdan ortiq ishchi va xizmatchi mehnat qiladi. "Fiat" kompaniyasi 80%dan ortiq engil avtomobillarni ishlab chiqaruvchi 100 dan ortiq kompaniyalar ustidan o`z nazoratini o`rnatgan (1998 yilda ushbu kontsern 2,5 mln. avtomashina ishlab chiqargan edi). Kontsern Evropa avtomobil bozorlarining 13 %i ustidan o`z nazoratini o`rnatgan. 1998 yilda "Fiat" xususiy kontsernining yillik daromadi 2,87 trln. lirani tashkil etgan.

Italiyaning xususiy kontsernlaridan yana biri "Fininvest" bo`lib, yillik aylanmasi bo`yicha Italiyada 3-o`rinda turadi (yillik aylanmasi 1998 yilda 7 mlrd. AQSH doll. atrofida bo`lgan). Uyushmada 26 mingdan ortiq ishchi va xizmatchilar mehnat qiladilar. "Fininvest" xususiy kontserni asosan televidenie va nashriyot ishlari bilan, biznes reklamasi, televizor va kinofilmlarni ishlab chiqarish, efirga tarqatish, sug`urta ishlari bilan shug`ullanadi.

8.4. Italiyaning transmilliy kompaniyalari

Italiya Ikkinchi jahon urushi yillarida mag'lubiyatga uchrab, iqtisodiy jihatdan nihoyatda kuchsizlanib qoldi. Mamlakat iqtisodiyoti Frantsiya va Buyuk Britaniyadan keskin orqada qolgan edi (garchi aholi soni teng bo'lsa-da). 50-yillardan boshlab, Italiya iqtisodiyoti Angliya va Frantsiyaga nisbatan katta tezlikda rivojlanib, iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha faqatgina GFRdan orqada qola boshlagan edi. Italiyada iqtisodiy rivojlanishning nisbatan tez borishi mamlakatning muhim iqtisodiy tarmoqlarida ishlab chiqarishning kontsentratsiyasi va monopollashuviga sabab bo'ldi, natijada yirik TMKlar paydo bo'ldi.

Ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasi asosida paydo bo'lgan yirik korporatsiyalar xorijiy mamlakatlarda kapital qo'yish sohalar va nihoyatda boy bo'lgan ichki bozorlarni qo'lga kiritdi. Agar 50-yillarda mamlakatda faqatgina 2 ta yirik TMK faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 80-yillarga kelib, neft, avtomobilsozlik, kimyo, rezina va sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari va boshqa sohalarda 5 ta yirik TMK paydo bo'lgan edi. Ushbu TMK Evropa mamlakatlarining yirik korporatsiyalari bilan raqobatlasha boshladi. Italiya korporatsiyalari o'z kapitali va sanoat tovarlari bilan Evropa, Osiyo, Afrika va shuningdek Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlariga kirib bordi, uning 5 ta yirik TMKsi (garchi mamlakatda ularning soni bir necha o'nlab bo'lsa-da) jahondagi 500 dan ortiq yirik niamerika kompaniyalari ichida alohida o'ringa ega bo'lgan edi. Endi Italiyaning ba'zi yirik transmilliy kompaniyalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Italiyaning "ENI" kompaniyasi, 1953 yilda davlat nazoratida bo'lgan neft, gaz va neft-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi bir qator kompaniyalar birlashishidan tashkil topdi (ularning ichida eng yirigi "Agip" kompaniyasi hisoblanib, 80- yillarda kapitalistik dunyoning yirik sanoat kompaniyalari ichida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha 10-12-o'rinda, 500 dan ortiq yirik noamerika kompaniyalari ichida esa 3-8-o'rinlardan birida turgan). 50-yillarning oxirlarida "ENI" kompaniyasi o'z tovarlari bilan Evropa, Afrika, Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari ichki bozorlariga kirib bordi. 1973-74 yillarda ro'y bergan yoqilg'i-energetika inqirozi yillarida kompaniya juda katta zarar ko'rди. Italiyaning "ENI" kompaniyasi xolding kompaniyalardan biri bo'lib, xorijiy mamlakatlarda – Avstraliya, Angliya, Argentina, Gretsiya, Zambiya, Eron, Zair, Irlandiya, Ispaniya, Kamerun, Keniya, Kongo, Libiriya, Malta, Nigeriya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Saudiya Arabistoni, Sudan, AQSH va jahonning o'nlab mamlakatlarida xususiy korxonalar ko'rinishida hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kompaniyaning ish bilan band bo'lgan umumiy aholisining 16-18 %, sotilayotgan mahsulotlarning 1G`3 qismi xorijiy mamlakatlardagi sanoat korxonalari ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari kapital qo'yilmalarning 31-35 % kompaniyaning xorijiy mamlakatlardagi korxonalariga, jumladan, Afrika mamlakatlariga 13-15%, Evropa mamlakatlariga 12-13 %, Yaqin va O'rta Sharq – 5-6 %, Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlariga esa 1-2 % to'g'ri keladi.

Italiyaning "ENI" xolding kompaniyasi "AGIP" kompaniyasi orqali asosan neft va gaz foydali qazilmalarga boy bo'lgan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, Afrika mamlakatlarida, Shimoliy dengizlardagi foydali qazilmalarni razvedka qilish,

ishga tushirish ishlari bilan va shuningdek ko`mir, uran va boshqa foydali qazilma boyliklarni qayta ishlangan neft mahsulotlarining 1G`3 qismini beradi. GFR, Shveytsariya va shuningdek Afrika mamlakatlarida joylashgan 20 ga yaqin neft tozalash zavodlariga to`liq yoki qisman egalik qiladi. Kompaniyaga qarashli gaz quvurlarining umumiy uzunligi 14-16 ming km. atrofida. Ko`plab neft va neft mahsulotlarini tashiydigan tankerlarga ega.

Kompaniya rezina, plastik buyumlarni, sintetik mahsulotlarni, polimerlarni, neft-kimyo mahsulotlarini quruqlik va dengiz okeanlarda foydalaniladigan burg`ulash quvurlari, prokladkalar, shuningdek atom sanoati uchun zarur bo`lgan buyumlarni ishlab chiqaradi. Bundan tashqari kompaniya jun, rux, bariy, marmar, to`qimachilik dastgohlarini, farmatseftika mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Kompaniya kiyim-kechak gazmollarni bichish, tikish ishlari bilan va shuningdek moliya – bank faoliyati bilan ham shug`ullanadi. 1980-90 yillarda neft va neft-kimyo sanoati mahsulotlaridan ko`rgan umumiy foydaning 75-80% kompaniyaning neft va gaz sanoati korxonalariga to`g`ri kelgan.

Italiyaning “Fiat” kompaniyasi dunyodagi eng yirik avtomobilsozlik sanoat kompaniyalaridan biri bo`lib, u 1981 yilda kapitalistik dunyodagi yirik sanoat korporatsiyalari ichida 22 o`rinda, 500 dan ortiq yirik noamerika sanoat kompaniyalari ichida esa 9-o`rinda turgan. “Fiat” kompaniyasi 1906 yilda Italiyaning Turin shahrida tashkil topdi, 20- yillarga kelib engil avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompleks korxonalardan biriga aylandi. Kompaniya AQSHning “Ford” kompaniyasi guruhi ta'sirida rivojlanib bordi. Kompaniya birinchi va ikkinchi jahon urushi yillarida ishlab chiqarishni katta tezlikda o`zgartirib, takomillashtirdi. Argentina va Ispaniyada avtomobil qismlarini yig`uv sexlarini, Frantsiyaning “Simka” firmasi bilan hamkorlikda esa avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish shaxobchalarini tashkil etdi. Ikkinchi jahon urushidan so`ng Ispaniyada “Seat” kompaniyasi nomi bilan ataluvchi avtomobil qismlarini yig`uv zavodini bunyod etdi. 1978 yilda kontsern AQSHning Kaliforniya shtatida tibbiy jihozlarni etkazib beruvchi “Bentli laboratorie ink” kompaniyasini tashkil etdi. “Fiat” kompaniyasining litsenziyasi bilan Polsha, Turkiya, Yugoslaviyada avtomobillar ishlab chiqarila boshladi va 70-yillarda kompaniyasi to`liq qayta ta'mirlanib, moliyaviy xolding kompaniyalardan biriga aylandi. Hozirgi kunda “Fiat” xolding kompaniyasining sanoat korxonalari Italiyadan tashqarida Avstraliya, Angliya, Argentina, Belgiya, Braziliya, Gollandiya, Daniya, Misr, Zair, Irlandiya, Ispaniya, Kanada, Keniya, Nigeriya, Peru, Portugaliya, AQSH, Turkiya, Uganda, Frantsiya, GFR, Chili, Shveytsariya, Efiopiya, JAR va boshqa mamlakatlarda faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Kompaniyaning ish bilan band bo`lgan umumiy aholisining 21-22 %i xorijiy mamlakatlarga to`g`ri keladi. Kompaniya turli rusumdagi avtomobillari, “Iveko” nomli og`ir yuk avtomobillarni, traktor va buldozerlarni, ko`tarma kranlar, dvigatellar, kompressorlar, elektr asbob-uskunalar teplovoz va vagonlar, presslovchi temirchilik stanoklar, reaktorlar va uning qismlarini jahon bozorlariga chiqarib turadi.

Harbiy va grajdan samolyotlari uchun Buyuk Britaniyaning “Rolls-Roys”, AQSHning “Jeneral elektrik” kompaniyalari bilan hamkorlikda reaktor trubinalari va bosmaxonalar uchun texnik asbob-uskunalarini ishlab chiqaradi. “Fiat” xolding kompaniyasi suv-texnika tarmoqlari uchun damba va to`siqlar, “Impresit”

kompaniyasi orqali Italiyada eng yirik po'lat va cho'yan prokatlarni etkazib beruvchi kontsernlardan biri hisoblanadi. Kompaniya aholiga transport va turizm xizmatlarini ham ko'rsatadi. "Lya Stamp" nomli gazetani chop etadi. "Fiat" kompaniyasining sotuvdan ko'radigan umumiy foydasining 43-45 %i engil avtomobillar, 23-25 %i yuk mashinalari, 6-8%i traktorlar, 4-6 %i po'lat va cho'yan prokatlardan, 24-26 %i esa boshqa sanoat tovarlaridan keladi.

"Montedison" Italiyaning yirik kimyo kompaniyalaridan biri bo'lib, 1966 yilda mamlakatning ikkita yirik kimyo kompaniyalarining ("Montekatini va "Edison") birlashishidan tashkil topdi. Kompaniya hozirgi kunda 500 dan ortiq yirik noamerika TMKlari ichida 45-46 o'rinda turadi. 1888 yilda tashkil topgan "Montekatini" kompaniyasi dastlab mis, er osti foydali qazilmalarini razvedka qilish va ishlab chiqarish ishlari bilan shug'ullanishdan boshlagan. 1964 yilda elektrenergiyasi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi SADE jamiyati bilan qo'shilgandan so'ng "Montekatini" Italiyaning yirik kimyo kompaniyalaridan biriga aylandi. 1884 yilda tashkil topgan "Edison" kompaniyasi esa elektrenergiyasi mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning taqsimoti bilan, 1974 yillardan boshlab esa kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlari bilan ham shug'ullangan. 70-yillarda jahon bozorlarida neftning narxi keskin tushib ketishi munosabati bilan "Montedison" kompaniyasi katta zarar ko'rdi.

Hozirgi kunda kompaniya xolding kompaniyalar ko'rinishida Italiyadan tashqarida Avstraliya, Avstriya, Angliya, Argentina, Bagama orollar, Belgiya, Braziliya, Venesuela, Gonkong, Gretsiya, Daniya, Zair, Hindiston, Indoneziya, Eron, Ispaniya, Kanada va boshqa 130 ga yaqin davlatda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kompaniyaning sotilayotgan mahsulotlari 30-35 % uning xorijiy mamlakatlardagi filiallariga to'g'ri keladi. Kompaniya yiliga 16-18 mln. t. neft mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavodlarga ega. Kompaniya jahon bozorlariga asosan sintetik mahsulotlar, gazmol, protsilen, vanilin, rezina va bo'yoqlarni, farmatsevtika mahsulotlari, tibbiy asbob-uskunalar, kosmos va harbiy sanoat uchun zarur bo'lgan jihozlarni, qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlarni ishlab chiqaradi. Bundan tashqari kompaniya tipografiya va moliyaviy bank ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Italiyaning "Pirelli" kompaniyasi Evropa mamlakatlari orasida shina, rezina va kabel buyumlari ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalardan biri hisoblanadi. 1980 yillarda kompaniya sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi bo'yicha 500 dan ortiq yirik noamerika TMKlari ichida 107-110- o'rinlardan birida turgan. Kompaniya 1872 yilda G. Pirelli tomonidan tashkil etilgan "Pirelli komp", nomi bilan kompaniya 1920 yilda qayta tashkil etildi. XX asrning 20-30 yillaridayoq kompaniya xorijiy mamlakatlarda ham gorizontaal va vertikal yo'nalishlarda integratsion ishlab chiqarishni rivojlantirib yuborgan edi.

Kompaniya tomonidan radial shinalar ishlab chiqarishning ixtiro qilinishi munosabati bilan Frantsiyaning "Mishlen" kompaniyasi bilan, 1970-71 yillarda esa Angliyaning "Danlop" firmasi bilan shartnomalar tuzib, ITTKI sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirdi. Angliya, Irlandiya va "Evropa Ittifoqi"ga a'zo mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari ko'rayotgan umumiy foydasining 49-50 %i "Pirelli" kompaniyasiga tegishli bo'lgan. 70-yillar boshida

kompaniyaning Italiya va boshqa xorijiy mamlakatlardagi zavodlari neft va boshqa mahsulotlarga nisbatan narx-navoning ko'tarilishi munosabati bilan katta zarar ko'rdi. 1981 yilning 15 oktyabrida kompaniya Angliyaning "Danlop" kompaniyasi bilan olib borilayotgan aloqani to'xtatdi.

Hozirgi kunda "Pirelli" xolding kompaniyalardan biri sifatida Italiya, Angliya, Argentina va boshqa davlatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Sotuvdan ko'rayotgan umumiy foydaning 30-35 %i kompaniyaning xorijiy mamlakatlardagi sanoat korxonalari ulushiga to'g'ri keladi. Kompaniyaning avtomobillar va samolyotlar, mototsikllar va velosipedlar, traktor shinalarini, sanoatda foydalaniladigan rezinali shlanglarni, parolon, rezinali oyoq kiyimlari, sport mahsulotlari, kabellar, sellyuloza va qog'ozlarni jahon bozorlariga olib chiqadi

Italiyaning "SNIA-Viskoza" sun'iy sintetik tolalarni ishlab chiqaruvchi sanoat korporatsiyasi 1917 yilda "Italiya-Amerika dengiz yuklarini tashish jamiyati" SNIA sifatida tashkil topdi. 1920 yillarga kelib "Dengiz savdosi yuk tashish va sanoat jamiyati" nomi bilan faoliyat ko'rsata boshladi. 1928 yildan beri esa "SNIA-Viskoza" kompaniyasi nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kompaniya 80- yillarda 500 dan ortiq yirik noamerika sanoat korporatsiyalari ichida 362-365-o'rinlardan birida turgan. Kompaniya dastlabki ish faoliyatini AQSHdan Italiyaga yuk tashish kemalarida ko'mir tashishdan boshlagan. Keyinchalik esa ishlab chiqarishda keskin o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan sun'iy sintetik ipak tolalari, sintetik gazmol materiallari, harbiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqara boshlagan. 1973-74 yillarda jahon bozorlarida neftga bo'lgan narx-navoni ko'tarilishi natijasida kompaniya juda katta zarar ko'rdi.

Hozirgi kunda "SNIA-Viskoza" kompaniyasi Argentina, Braziliya, Hindiston, Irlandiya, Ispaniya, Lyuksemburg va boshqa o'nlab mamlakatlarda o'z sanoat korxonalariga ega. Kompaniya sintetik gazmollarni, soda, kaprolakt, sellyuloza, qog'oz, temir yo'l harakati qismlarini, aerokosmos harbiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. AQSH, Yaponiya, JAR va jahonning boshqa mamlakatlarida sun'iy sintetik mahsulotlarni ishlab chiqarish zavodlari qurilishi ishlarida qatnashib kelmoqda. Kompaniyaning Lyuksemburgdagi "Slina" filiali esa asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va er osti foydali qazilmalarini razvedka qilish bilan shug'ullanadi. Sun'iy sintetik mahsulotlar sotuvidan ko'rilayotgan umumiy foydaning 50-55 %i "SNIA-Viskoza" kompaniyasiga tegishli bo'lib, uning 22-23 %i kimyo sanoati mahsulotlari, 12-13 %i harbiy sanoat mahsulotlari, 16-18 %i esa kompaniyaning boshqa sanoat mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Xulosa

Italiya Respublikasi hozirgi kunda etakchi sanoati rivojlangan mamlakatlardan biri sifatida jahonning barcha mamlakatlari bilan yaqin iqtisodiy munosabatlarni olib borayotgan davlatlardan biridir.

Italiya iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri yuqori darajada ishlab chiqarishning kontsentratsiyasidir. Mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalaridagi kontsernlar monopoliya holatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda

Tayanch iboralar

Monitoring, innovatsion faoliyat, informatsiya va texnologiyalar jahon bozori, ko'ngilli eksport cheklashlari, lizing, litsenziyalash.

Nazorat uchun savollar

1. Etakchi G'arbiy Evropa davlatlari zamonaviy ilmiy-texnik rivojlanishining qanday xususiyatlarini bilasiz?
2. Mamlakatlarning investitsiya muhiti, ularning ilmiy-texnik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Italiya jahon xo'jaligi va Evropa Ittifoqida qanday mavqega ega?
4. Italiyaning xo'jalik yuritish xususiyatlari asosini tahlil qiling.
5. Italiyaning XX asr ikkinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari va sharoitlarini yoriting.
6. Italiya iqtisodiyotidagi asosiy muammolar qaysilar?
7. Italiya iqtisodiy modelining Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya modellaridan farqini tushuntirib bering.
8. Italiyada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy mohiyati nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
7. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

9-bob. MARKAZIY VA SHARQIY EVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

9.1. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining urushdan keyingi yillarda jahon sotsialistik tizimi doirasidagi rivojlanish xususiyatlari

9.2. Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Sloveniya

9.3. Boltiq boʻyi mamlakatlari (Litva, Latviya va Estoniya)

9.4. Bolgariya, Ruminiya va Xorvatiya

9.1. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining urushdan keyingi yillarda jahon sotsialistik tizimi doirasidagi rivojlanish xususiyatlari

Polsha Respublikasi Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 27 dekabrda tan oldi va 1992 yil 19 martda ikkala mamlakat oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatildi. 1996 yilda Polshaning Toshkentdagi elchixonasi oʻz faoliyatini boshladi. 2003 yilda Varshavada Oʻzbekiston Respublikasining Bosh Konsulligi oʻz faoliyatini boshladi.

1995 yil 10-11 yanvar va 2003 yil 10-12 iyul kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Polsha Respublikasiga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. 2002 yil 20-23 oktyabrda Polsha Respublikasining Prezidenti A.Kvasnevskiyning Oʻzbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi amalga oshirildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. 2003 yilning birinchi yarim yillik ma'lumotlariga qaraganda, ikkala mamlakat oʻrtasidagi tovar aylanmasi 14,7 mln. AQSH doll.ga teng boʻlib, shundan 2,1 mln. AQSH doll. eksport, 12,6 mln. AQSH doll. importni tashkil etgan. Polsha kapitali asosida tashkil etilgan va Oʻzbekistonda roʻyxatdan oʻtkazilgan korxonalarga quyidagilarni misol qilish mumkin: “AJ Budimeks” (qurilish sohasida), “Polfa” (farmatsevtika sohasida), “Molton S.J.” (qurilish, tijorat va reklama sohasida).

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida Polsha kapitali asosida tashkil etilgan 14 ta korxona oʻz faoliyatini olib bormoqda. Shundan 12 tasi qoʻshma korxona, 2 tasi esa 100% Polsha kapitaliga asoslangan korxonalardir.

Vengriya Respublikasi Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 26 dekabrda tan oldi va ikkala mamlakat oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 3 martda oʻrnatildi. 1997 yilning 29 oktyabr va 1 noyabr kunlari Vengriya Respublikasi Prezidenti A. Gyontsaning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. 2002 yilning 27-29 oktyabr kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Polshaga rasmiy tashrifi amalga oshirildi.

4-jadval

Savdo-iqtisodiy hamkorlik

mln. AQSH doll.

Yil	Tovar aylanmasi	Eksport	Import
2002	7,9	1,1	6,4
Yanvar-iyul 2003	6,2	0,4	5,8

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Aloqalar, Investitsiya va Savdo Vazirligi ma'lumoti.

O'zbekiston Respublikasida Vengriya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 5 ta korxona o'z faoliyatini olib bormoqda, shundan 2 tasi 100% Vengriya kapitali asosida tashkil etilgan.

Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi tomonidan Vengriya Respublikasining "Gedeon Rixter" AJ korxonasi akkreditatsiya qilingan va o'z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Bolgariya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 6 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil aprelda o'rnatildi. 1999 yil apreldan Bolgariyaning Toshkentdagi elchixonasi o'z ishini boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Bolgariya Prezidenti J. Jeleu 1995 yil mart oyida Kopenhaga bo'lib o'tgan ijtimoiy masalalar bo'yicha Butunjahon sammiti doirasida uchrashib, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish to'g'risida fikr almashdilar. 1998 yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Bolgariyaga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. 1999 yil may oyida Bolgariya Respublikasi Prezidenti P. Stoyanovning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi.

5-jadval

Savdo-iqtisodiy hamkorlik

mln. AQSH. doll.

Yillar	Tovar aylanmasi	Eksport	Import
2002	5,2	0,18	5,05
Yanvar-avgust 2003	2,28	0,45	1,83

Manba: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi ma'lumoti.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida Bolgariya investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 45 ta korxona bo'lib, shundan 39 tasi qo'shma korxona, 6 tasi esa 100 % Bolgariya kapitali asosida tashkil etilgan.

Slovakiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 24 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1993 yil 1 yanvarda o'rnatildi. 1996 yil 1 iyunda Toshkentda Slovakiyaning elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. 1995 yil mayda Slovakiya Bosh Vaziri o'rinbosari, Moliya Vaziri S. Kozlikov boshchiligidagi Hukumat delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasida rasmiy tashrifda bo'ldi. 1997 yil 16-17 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Slovakiyaga rasmiy tashrifi amalga oshirildi va tashrif davomida bir qator kelishuvlar imzolandi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. 2002yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Slovakiya o'rtasidagi o'zaro tovar aylanma 8,2 mln. AQSH doll.ga teng bo'lgan. Shundan, eksport 2,4 mln. AQSH doll.ni, import 5,7 mln. AQSH doll.ni, manfiy saldo esa, - 3,2 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan. Hozirda O'zbekiston Respublikasida Slovakiya investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 6 ta korxona bo'lib, shundan 1 tasi 100% Slovakiya kapitali asosida tashkil etilgan.

Sloveniya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 27 dekabrda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasida 1995 yil 16 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

6-jadval

Savdo-iqtisodiy hamkorlik

Yillar	Eksport	Import	Saldo	Tovar aylanmasi
1996	66,7	2719,9	-2653,2	2786,6
1997	0,3	371,8	-371,5	372,1
1998	84,1	65,6	+18,5	149,7
1999	45,3	4467,4	-4422,1	4512,7
2000	41,5	1630,5	-1589,0	1672,0
2001	12,6	1743,6	-1731,0	1755,6
2002	256,4	1866,3	-1609,9	2122,7

ming. AQSH.doll.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi ma'lumoti.

Sloveniyaga eksport tovarlari: paxta ip kalavalari va to'qimachilik mahsulotlari 79,0%, shuningdek tibbiy va kommunikatsiya xizmatlari 21 %ni tashkil qiladi. Sloveniyadan import tovarlari: farmatsevtika mahsulotlari 93,7 %, efir moyi 1,9 %, va boshqa mahsulotlar 3,8 % ni tashkil qiladi.

Chexiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 24 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasida 1993 yil 1 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1997 yil 14-16 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi Hukumat delegatsiyasi Chexiya Respublikasida rasmiy tashrifda bo'ldi va ushbu tashrif ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1997 yil 27-29 oktyabr kunlari Chexiya Bosh vaziri V. Klaus O'zbekiston Respublikasida rasmiy tashrifda bo'ldi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. 2002 yil yakunlariga ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi 34,7 mln. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 2,1 mln.AQSH doll.ni, import esa 32,6 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan. Hozirda O'zbekiston Respublikasida Chexiya investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 12 ta qo'shma korxona faoliyat olib bormoqda.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida SSSR bosimi ostida hukumat tepasiga kommunistik partiyalar keldi va bu mamlakatlarning iqtisodiyoti markazlashgan-rejali iqtisodiyotga aylantirildi: xususiy tarmoqqa barham berildi yoki sezilarli darajada qisqartirildi; deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat qo'lga o'tdi; milliy xo'jalikda markazdan rejalashtirish amalga oshirildi; iqtisodiyotda sotsialistik korxonalar – monopolistlar vujudga keldi.

Shunday qilib, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida iqtisodiyot davlat nazorati ostiga o'tdi. Bunday tizimda na mehnat bozori, na tovar bozori, na kapital bozori mavjud bo'ladi, ichki narxlar jahon narxlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu tizimning asosiy maqsadi partiya va hukumat tomonidan belgilangan rejani bajarishdan iborat bo'lib, tadbirkorlikka bo'lgan rag'batlarga barham berishdir.

Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyotining urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy o'sishi ekstensiv xarakterga ega bo'lib, uning asosida resurslarni tejash va yuqori darajadagi kapital qo'yilmalar yotadi. Davlat iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga investitsiyalar kiritish lozimligini o'zi hal qiladi, ilg'or ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini qoloq ishlab chiqarishni subsidiyalash uchun qayta taqsimlaydi. Rivojlanishdagi ustuvor yo'nalishlar sifatida faqat og'ir sanoat: metallurgiya, ximiya sanoati, mashinasozlikka e'tibor beriladi.

Marakazlashgan rejali tizimning ustunligi to'liq bandlik darajasini ta'minlay olardi, mehnat qilishga hech qanday rag'batlar yo'q edi, ya'ni qat'iy belgilangan ish haqi tizimi doirasida mehnat haqi, mukofotlar, imtiyozlar mehnat unumdorligiga bog'liq emas edi. Bundan tashqari sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida, ayniqsa, fuqarolar uchun texnologiyalardan, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan yaxshi foydalanilmas edi. Davlat ishlab chiqarishni avtomatlashtirish orqali ishchi joylarini qisqartirish borasidagi innovatsiyalardan manfaatdor emas edi.

Sotsialistik tizimda (G'arbiy mamlakatlardagi kabi) ekstensiv rivojlanish o'z chegarasiga etgandan keyin, G'arbiy mamlakatlardan farqli o'laroq, rivojlanishning yangi yo'llari taklif etilmadi, natijada ishlab chiqarish orqaga ketdi, milliy mahsulot hajmi kamayib, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashdi. Sotsialistik mamlakatlarning g'arb bilan hamisha qurollanish poygasiga intilishi ham bu mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir o'tkazgan. Chunki katta miqdordagi eng sara resurslar harbiy sanoat majmuasini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Texnologiyalarning eskirishi tufayli ishlab chiqarish xarajatlarining haddan tashqari ortib ketishi Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida ishlab chiqarilgan tovarlarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligiga putur etkazdi. Bundan tashqari mulkchilik munosabatlari sotsialistik tizimning asosiy kulfati edi, zero deyarli barcha narsa davlat timsolidagi byurokratik apparatga qarashli edi. Talab va taklifning mos kelmasligi natijasida muomaladan tashqaridagi pullar ko'payib ketdi. Pul tanqisligi muammosini hal etish uchun davlat emissiyaga ko'proq murojaat qila boshladi. Natijada inflyatsiya muammosi vujudga kela boshladi. Masalan, 1989 yilda Yugoslaviyada inflyatsiya 2800 % darajasida qayd etildi. Bu va boshqa muammolar natijasida mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli kiritilishi kerakligi aniq-ravshan ko'rinib qoldi.

80-yillarning oxiriga kelib Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining iqtisodiyotida tubdan qayta qurish jarayonlari boshlanib ketdi. Bu islohotlarning umumiy unsurlari quyidagilar edi:

- makroiqtisodiy barqarorlashtirish va iqtisodiyotdagi vaziyatni nazorat qilish (bu maqsadni amalga oshirish uchun inflyatsiya bilan kurash, yangi soliq siyosati, tashqi qarzlarni kamaytirish kabi dasturlar olib borildi);

- narxlarni isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy qilish, bu bozor munosabatlari va bozor narxlariga o'tishni nazarda tutardi (narxlar va savdoni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechish, ishchi kuchi bozorini erkinlashtirish, moliya tizimini isloh qilish va boshqalar);

- xususiy tarmoqni rivojlantirish, xususiylashtirish va ishlab chiqarish tuzilmasini isloh qilish;

- davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta ko'rib chiqish;
- amalga oshirilgan islohotlar dastlabki yillarda o'z natijasini bermadi, faqatgina 1994 yilga kelib o'z mevasini bera boshladi.

9.2.Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Sloveniya.

Polsha Respublikasi Evropa Ittifoqiga 2004 yil 1 mayda a'zo bo'lgan. Hozirda Polsha Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 312,685 kv.km.ni, aholisi esa 38,6 mln. kishi (2004 y) ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 427,1 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 3,7% ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 11,1 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 3,1%, sanoat 31%, xizmatlar 65,9% ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 0,7% ga, ishsizlik darajasi esa 20% ga teng bo'lgan. Polsha Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 39,13 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 48,64 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y). Mamlakatning eksporti 57,6 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y), importi esa 63,65 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y) tashkil etgan.

Chexiya Respublikasi Evropa Ittifoqiga 2004 yil 1 mayda a'zo bo'lgan. Hozirda Chexiya Respublikasi rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 78866 kv.km.ni, aholisi esa 10,2 mln. kishi (2004 y) ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 161,1 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 2,9% ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 15,700 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 3,1 %, sanoat 35,5 %, xizmatlar 61,4 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 0,1% ga, ishsizlik darajasi esa 9,9% ga teng bo'lgan. Chexiya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 33,25 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 38,88 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y). Mamlakatning eksporti 46,77 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 50,4 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y.) tashkil etgan.

Vengriya Respublikasi Evropa Ittifoqiga 2004 yil 1 mayda a'zo bo'lgan. Hozirda Vengriya Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 93,030 kv.km.ni, aholisi esa 10 mln. kishi (2004 y) ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 139,8 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 2,9 %ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 13,900 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 3,3 %, sanoat 32,5 %, xizmatlar 64,2 % ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 4,7 %ga, ishsizlik darajasi esa 5,9 %ga teng bo'lgan. Vengriya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 35 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 39,88 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y.). Mamlakatning eksporti 42,03 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 46,19 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y.) tashkil etgan.

Vishegrad to'rtligi deb ataluvchi Polsha, Vengriya, Chexiya va Slovakiya hamda Sloveniya Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari ichida eng etakchi mamlakatlar sanaladi. Bozor islohotlari yo'lida bu mamlakatlar eng katta yutuqlarga

erishdi. Markaziy va Sharqiy Evropada Chexiya iqtisodiyoti eng barqaror iqtisodiyot hisoblanadi. O'zaro Yordam Kengashi tarqab ketganidan so'ng yuqoridagi to'rt mamlakat Vishegrad guruhi deb ataluvchi integratsiya guruhini tashkil etdi. Bu integratsiya guruhi doirasida iqtisodiy aloqalar muvofiqlashtiriladi, umumiy mudofaa ta'minlanadi, hududdagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi jarayoni olib boriladi.

9.3. Boltiq bo'yi mamlakatlari (Litva, Latviya va Estoniya)

Bozor munosabatlariga o'tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi borasida Baltika mamlakatlari Vishegrad to'rtligi va Sloveniyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu mamlakatlar sobiq SSSRdan ajralib chiqqanidan so'ng yuqori darajadagi siyosiy barqarorlikka erishdi. Bu mamlakatlarda makroiqtisodiy qayta qurishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Dastlab Baltika mamlakatlari Rossiya xomashyosini dengiz portlari orqali reeksport qilishga ixtisoslashdi. 90-yillarning boshlarida Estoniya va Litvaning jami eksportining 30-45 %ini neft va metallar eksporti tashkil qilar edi. Latviya esa Rossiya tadbirkorlari uchun offshor xizmatlar ko'rsatar edi. Hozir ham bu davom etmoqda. Mamlakat jami bank depozitlarining deyarli yarmi rossiyalik rezidentlarga tegishli.

Hozirgi iqtisodiy o'sish faqatgina tashqi omillar emas, balki ichki talabning va investitsiyalar hajmining ortishi bilan ham bog'liq. Sanoatda yangi asbob-uskunalarining o'rnatilishi va yangi zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bu mamlakatlar tovarlarining raqobatbardoshligi oshishiga olib kelmoqda. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar o'z mevasini bermoqda.

Ayniqsa, Litvada amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayoni e'tiborga loyiq, ya'ni barcha davlat monopoliyalari xususiy tarmoq qo'lga o'tdi. Faqat mamlakat elektrenegiyasining 60 %ini ta'minlovchi Ignalin AES bundan mustasno. Samarador xususiy kompaniyalarning tashkil etilishi va ular o'rtasida raqobatning kuchayishi, xususiylashtirish jarayonida xorijiy kompaniyalarning ishtiroki mahsulot sifatining oshishi va narxlarning pasayishiga yordam berdi.

Estoniyada ham xususiylashtirish jarayoni juda tez amalga oshirildi. 90-yillarning o'rtalariga kelib sanoat, moliya tarmog'i va xizmatlar sohasida bu jarayon deyarli o'z yakuniga etdi. Hozirgi paytda xususiy tarmoqning YaIMdagi ulushi 70 %ga etdi. Yirik sanoat korxonalaridan faqat ikkita energetik kompaniya davlat ixtiyorida qolgan.

9.4. Bolgariya, Ruminiya va Xorvatiya

Bolgariya Respublikasi Sharqiy Evropa davlatlaridan biri bo'lib, uning er maydoni 110,910 kv.km.ni, aholisi esa 7,5 mln. kishi (2004 y.)ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 57,13 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 4,3 %ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 7600 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 11,4 %, sanoat 30,0 %, xizmatlar 58,6 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 2,3% ga, ishsizlik darajasi esa 14,3 % ga teng

bo`lgan. Bolgariya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 8,121 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 8,121 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`lgan (2004 y). Mamlakatning eksporti 7,337 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 9,723 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y) tashkil etgan.

Ruminiya Respublikasi Sharqiy Evropa davlatlaridan biri bo`lib, uning er maydoni 237,500 kv.km.ni, aholisi esa 22,4 mln. kishi (2004 y.)ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko`rsatkichi 2004 yilda 155 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning yillik o`sish darajasi 4,9 %ga, aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YaIM ko`rsatkichi esa 7000 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi: qishloq xo`jaligi 13,1 %, sanoat 38,1 %, xizmatlar 48,8 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 15,3 % ga, ishsizlik darajasi esa 7,2 %ga teng bo`lgan. Ruminiya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 17,6 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 18,38 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`lgan (2004 y). Mamlakatning eksporti 17,63 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 22,17 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.) tashkil etgan.

Xorvatiya Respublikasi Sharqiy Evropa davlatlaridan biri bo`lib, uning er maydoni 56,542 kv.km.ni, aholisi esa 4,5 mln. kishi (2004 y.)ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko`rsatkichi 2004 yilda 47,05 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`lib, uning yillik o`sish darajasi 4,5 %ga, aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YaIM ko`rsatkichi esa 10,6 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi: qishloq xo`jaligi 7,9 %, sanoat 30,0 %, xizmatlar 62,1 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 1,8 %ga, ishsizlik darajasi esa 19,5 %ga teng bo`lgan. Xorvatiya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 12,76 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 14,31 mlrd. AQSH doll.ga teng bo`lgan (2004 y.). Mamlakat eksporti 6,355 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y), importi esa 12,86 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.) tashkil etgan.

Bolgariya, Ruminiya va Xorvatiyaning makroiqtisodiy holati yuqorida qayd etib o`tilgan ikki guruh mamlakatlar ko`rsatkichlari oldida unchalik yaxshi emas. Iqtisodiy islohotlar bu mamlakatlarda juda sekin amalga oshirilmoqda. Bu uch davlat iqtisodiyoti quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiylashtirishning sekin amalga oshirilayotgani;
- aholi turmush farovonligining pastligi;
- ishlab chiqarishning qisqarganligi;
- korxonalarda moliyaviy resurslarning etishmasligi.

Iqtisodiyotlarining tarkibiga kelsak, bu mamlakatlarda YaIMda qishloq xo`jaligining ulushi hali ham yuqori darajada. Xizmatlar sohasi etarli darajada rivojlanmagan. Sanoatning qazib olish tarmog`i ko`proq rivojlangan va u og`ir sanoatga xizmat qiladi. Bolgariya kosmetika va farmatsevtika mahsulotlariga ixtisoslashishga harakat qilmoqda. Engil sanoat (oziq-ovqat, tamaki va to`qimachilik) ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolgariya vino ishlab chiqarish bo`yicha jahonda to`rtinchi o`rinda turadi.

Xulosa

Mamlakatlar iqtisodiy infratuzilmasi etarli darajada rivojlanmagan. Energetika tarmog`i importga bog`lanib qolgan.

Bolgariya va Ruminiyaga nisbatan Xorvatiyaning iqtisodiy salohiyati kattaroq bo`lsa-da, bu mamlakatdagi fuqarolar urushi va uning asoratlari iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishiga to`squinlik qilmoqda. 1993 yilda islohotlar endi boshlangan bo`lsa-da, sanoatni tuzilmaviy qayta qurish va zamonaviylashtirish uchun mablag`larning etishmasligi bu islohotlarni to`laqonli amalga oshirishga imkon bermadi. Urush paytida Xorvatiya xorijiy mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko`ra 8 mlrd. doll. miqdorida zarar ko`rgan. 80 % aholisi kambag`allik chegarasida turmush kechirmoqda.

Tayanch iboralar

Evropa Ittifoki (EI), eksport kvotasi, embargo, erkin savdo hududlari.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining umumiy geografik muhitiga tavsif bering.
2. Mamlakatlarning tabiiy geografik o`rni uning iqtisodiyotida qanday rol o`ynaydi?
3. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining iqtisodiyotini tahlil qiling.
4. Evropa Ittifokida Markaziy Evropa va Sharqiy mamlakatlari qanday o`ringa ega?
5. O`zbekiston bilan Markaziy Evropa mamlakatlari iqtisodiy aloqalarini tavsiflang.
6. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari jahon bozorida qanday mahsulotlari bilan mashhur?
7. Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlarining makroiqtisodiy ko`rsatkichlarini tahlil qiling.
8. G`arbiy Evropa ilg`or mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G`., Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O`quv qo`llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
7. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

10 - bob. SHIMOLIY EVROPA DAVLATLARINING IQTISODIYOTI

10.1. Shimoliy Evropa dalarlarining umumiy ta'rifi

Shvetsiya Qirolligi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 16 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 8 aprelda o'rnatildi.

7-jadval

Savdo-iqtisodiy hamkorlik.

mln.AQSH doll.

Yil	Tovar aylanmasi	Eksport	Import
1995	2,8	0,09	2,8
1996	10,4	0,02	10,4
1997	8,0	0,04	8,0
1998	9,7	0,4	9,3
1999	37,0	0,1	36,9
2000	6,6	0,07	6,6
2001	14,8	0,1	14,7
2002	17,6	0,1	17,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Aloqalar, Investitsiya va Savdo Vazirligi ma'lumoti.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy Banki bilan Shvetsiyaning quyidagi banklari o'rtasida o'zaro korrespondentlik aloqalari o'rnatilgan: "Swenska Handelsbanken", "Nordbanken", "Scandinaviska Enskilda Banken".

Daniya Qirolligi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 31 dekabrda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 25 yanvarda o'rnatildi. 1995 yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT ning ijtimoiy masalalar bo'yicha Butunjahon mamlakatlari rahbarlarining yig'ilishida ishtirok etish uchun Kopengagenda rasmiy tashrifda bo'ldi.

8 - жадвал

Savdo-iqtisodiy hamkorlik.

mln.AQSH. doll.

Yillar	Tovar aylanmasi	Eksport	Import
1995	12,2	1,2	9,9
1996	24,2	0,07	24,2
1997	2,8	0,2	2,6
1998	8,8	0,05	8,8
1999	13,4	0,05	13,4
2000	7,7	0,07	7,7
2001	11,2	0,09	11,1
2002	13,5	0,1	13,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Aloqalar, Investitsiya va Savdo Vazirligi ma'lumoti.

Hozirgi kunda O'zbekiston bozorida Daniya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 6 ta kompaniya o'z faoliyatini olib bormoqda. Misol uchun, oziq-ovqat va xalq

iste'moli tovarlarini etkazib berish bilan shug'ullanuvchi "Yan Interneshnl" Daniya kompaniyasining filiali va boshqalar. Bundan tashqari, Toshkentda tibbiy dori-darmonlar, xususan insulin ishlab chiqarishda jahonda etakchilik qiladigan "Novo Nordiks AG'O" Daniya kompaniyasining vakolatxonasi ham ochildi va samarali faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy Banki bilan Daniyaning quyidagi banklari o'rtasida o'zaro korrespondentlik aloqalari o'rnatilgan: "Den Danske Bank", "Yunibank".

Shimoliy Evropa davlatlariga Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya va Islandiya) hamda Finlyandiya kiradi. Ushbu davlatlar nisbatan kam aholiga ega bo'lsa-da, anchagina katta tabiiy boyliklarga ega. Norvegiya va Daniya neft va tabiiy gaz qazib oladi, Islandiya va Norvegiyada baliq ovlash rivojlangan. Shimoliy Evropada shuningdek foydali qazilmalar (temir, rux, qo'rg'oshin, nikel, alyuminiy), boy o'rmon resurslari (Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya), geotermal resurslar (Islandiya), gidroenergetika resurslari (Norvegiya, Islandiya) ham mavjud.

Shvetsiyaning er maydoni 449,964 kv. km. Aholisi 8,986,400 kishi (2004 y.). Poytaxti Stokgolm. Ma'muriy jihatdan 24 guberniyaga bulinadi. Davlat tili shved tilidir.

Daniya umumiy maydoni 43,094kv.km.ga teng, aholi soni 2004 yilda 5,413,392 kishini tashkil etgan. Pul birligi Daniya kronasi. Daniya 1849 yildan konstitutsiyali monarxiyadir, davlat boshlig'i qirol (qirolicha Margaret II). NATO va EI a'zosi. Rasmiy tili dat tilidir.

Norvegiyaning poytaxti Oslo. Hududi 324,220 kv.km. 2004 yil ma'lumotlariga ko'ra aholi soni 4,574,560 kishini tashkil etgan. Rasmiy tili norvej tili.

Islandiya Atlantika okeanining shimoliy kismidagi orolda joylashgan. Hududi 103,000 kv.km, aholisi - 293,966 kishi (2004 y.). Ma'muriy jihatdan 23 okrugga bo'linadi. Poytaxti Reykyavik. Rasmiy tili island tili. Islandiya parlamentar respublika, davlat boshlig'i prezident.

Finlyandiya parlamentar respublika. Ma'muriy jihatdan 12 guberniyaga bo'linadi. Poytaxti Xelsinki. Hududi 338,145 kv.km, aholisi 5,214,512 kishi (2004y). Fin va shved tillari davlat tillari hisoblanadi.

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyotini ko'rib chiqishdan avval, ularning "skandinaviya sotsializmi" deb nom olgan mashhur iqtisodiy rivojlanish modelini o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Skandinaviya iqtisodiy modeli ijtimoiy bozor xo'jaligi ko'rinishlaridan biri bo'lib, bunda davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rni ayniqsa aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Ushbu model skandinaviya davlatlarining o'ziga xosligi bilan bog'liqdir: Markaziy Evropa davlatlarini larzaga solgan ko'plab urushlar, revolyutsiyalar Shimoliy Evropa davlatlarini chetlab o'tgan. Ushbu davlatlarda markaziy Evropa davlatlaridan farqli o'laroq umuman boshqa tipdagi kapitalizm vujudga kelgan, chunki skandinaviya davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishi jamiyatning birlashishi, qirol, dvoryanlar, burjuaziya va dehqonlar (aholining quyi qatlami) ning o'zaro murosaga kelishi yo'lidan borgan. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida zo'ravonlikdan foydalanilmagan, hukumat jamiyatda muvozanatni saqlab turishga muvaffaq bo'lgan. Shimoliy Evropa davlatlarida kapital jamg'arish uchun nihoyatda

qulay sharoitlar yaratilgan, chunki XIX asr yarmidan ular o'zlarini neytral deb e'lon qilgan va urushlarda ishtirok etmagan.

10.2. Shimoliy Evropa iqtisodiyotining hozirgi holati

Skandinaviya sotsializmi - shaxsiy mulk ustuvorligi asosidagi aralashgan bozor iqtisodiyoti, siyosatda parlamentarizm (plyuralizm va demokratiya), rivojlangan ijtimoiy infratuzilmadir. Aslida ushbu model kapitalistik va sotsialistik rivojlanish yo'llarining eng yaxshi fazilatlarini o'z ichiga qamrab olgan. Shaxsiy mulkdorlik va xususiy tadbirkorlik skandinaviya iqtisodiyotining asosi bo'lib qolmoqda. Xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi 85 % tashkil qilsa, davlatning ulushi 15 %dan kamroq. Skandinaviya modelida davlatning asosiy vazifasi shaxsiy kapitalni davlatga qaram qilish, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri aralashish emas, balki kuchli va rivojlangan shaxsiy sektorning yaratgan YaIM sini qayta taqsimlashdir.

Skandinaviya modelining asosiy maqsadi - asosiy qismi shaxsiy bo'lgan turli xildagi va teng huquqli mulkni (shaxsiy, davlat, kommunal, kooperativ) saqlab qolish. Davlat ushbu tizimda ishlab chiqarish vositalariga egalik qilmaydi, balki iqtisodiyotning xususiy sektorida yaratilgan daromadni soliq tizimi yordamida qayta taqsimlash orqali boshqaradi. Shuningdek, davlat xususiy tadbirkorlik ustidan qat'iy huquqiy nazoratni amalga oshiradi, qonunlarga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Skandinaviya sotsial-demokratiyasining moliyaviy asosi - juda yuqori bo'lgan davlat sarf-xarajatlarini moliyalashtiradigan davlat byudjeti. Ushbu byudjetni moliyalashtirish uchun katta soliq badallari ko'zda to'tilgan. Jumladan, Shvetsiya, Norvegiya, Daniyada soliqlar YaIM ning 52-63 %, Finlyandiya, Islandiyada YaIMning 33-36 % tashkil qiladi. Yaqingacha Shvetsiyada maksimal soliq badallari 90% tashkil qilgan, lekin hozirgi kunda 55 % li shaxsiy daromad solig'i ham G'arbiy Evropadagi eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. Shunday qilib, skandinaviya iqtisodiyotining davlat sektori – iqtisodiyotni davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri boshqarish va nazorat qilish yoki butunlay davlat mulkchiligi emas, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida YaIM ni soliq tizimi yordamida qayta taqsimlashdir. Shimoliy Evropa davlatlarida YaIMni taqsimlashda davlat sektorining ulushi ancha yuqoridir, masalan Shvetsiyada bu ko'rsatkich 70 % ni tashkil qiladi.

Skandinaviya iqtisodiyotida davlatning asosiy vazifalari uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish (xalq xo'jaligidagi ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqarish, investitsiya siyosati, NIOKRni rag'batlantirish, tashqi iqtisodiy strategiya) va tadbirkorlikni huquqiy muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Skandinaviya modelining ijtimoiy yo'nalishi quyidagilarni qamrab oladi:

Iqtisodiyotda davlatning YaMM ni qayta taqsimlovchilik roli: iqtisodiyotga soliq mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatish, tadbirkorlar daromadlarining bir qismini "daromadlarni tenglashtirish" maqsadida yollanib ishlayotgan aholiga taqsimlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda faolligi: amalda ishchilar, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning ijtimoiy ittifoqi;

davlatning iqtisodiy siyosati: birinchi navbatda ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish, jumladan ishsizlarning sonini kamaytirish;

mehnat etikasining yuqori darajasi va tadbirkorlik madaniyati: skandinaviya davlatlari aholisining juda yuqori darajadagi odob-ahloqi va madaniyati.

Skandinaviya sotsializmini rivojlantirishda eng yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga Shvetsiya erishgan. Shuning uchun ham "Shvetsiyaga tenglashing!" shiori paydo bo'lgan.

80-yillarda skandinaviya iqtisodiyoti ijtimoiy himoyaga qaratilgan, Germaniya va Frantsiya iqtisodiyoti kabi birmuncha qiyinchiliklarga duchor bo'la boshlagan. Yuqori darajadagi soliq tadbirkorlikning rivojlanishiga to'siq bo'lib turardi, aholining kuchli ijtimoiy muhofazasi yollanma ishchilarning mehnatga bo'lgan ishtiyoqini kamaytirar edi. 1970 yilda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turgan Shvetsiya, 1996 yilda o'n oltinchi o'ringa tushib ketdi. Shvetsiya iqtisodiy modeli rivojlangan iqtisodiyotlar orasida reyting tushib ketishining asosiy sababchisi deb topildi. Bunga yaqqol misol tariqasida Shvetsiyada iqtisodiy faol aholisining kamayib ketishini ko'rsatish mumkin. Agar 1990 yilda 8,5 mln. aholiga ega davlatda 4,5 mln. ishlovchi bo'lsa, 1997 yilda 8,9 mln. aholiga bor-yo'g'i 3,9 mln. ishlovchilar to'g'ri kelgan. Turar-joy bozorida ham etishmovchiliklar sezila boshlagan, chunki turar-joy egalarining davlat tomonidan kafolatlangan arzon ijara haqlari (ijarachining ish haqidan 20% yuqori bo'lmagan) qoniqtirmas edi.

Mehnatga bo'lgan ishtiyoqning so'nishi nafaqat yollanma ishchilarda, balki etishtirilmagan hosil uchun davlatdan juda katta miqdordagi dotatsiyalar olgan fermerlar hamda davlat foydasiga ulkan ijtimoiy sug'urta ajratmalari va soliqlar to'lashga majbur bo'lgan tadbirkorlarda ham kuzatildi. Mehnatning yuqori soliqqa tortilishi natijasida shvedlar ilgarigi katta ish haqiga ishlashdan bosh torta boshladilar. Mashhur "Shved sotsializmi" inqirozga uchray boshladi, avvallari kuchli bo'lgan mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardosh pozitsiyalarni yo'qotishi havfi paydo bo'ldi. Shvetsiyaning Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi hamda 90-yillar boshida jahon iqtisodiyotida hukm surgan neokonservatizm to'lqini mamlakat zimmasiga mavjud iqtisodiy modelga o'zgartirishlar kiritish vazifasini yukladi.

Shvetsiya iqtisodiy siyosatida davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari aralashuvidan voz kechishi kuzatildi. Davlat sektorining iqtisodiyotdagi o'rni boshqacha tus oldi: shaxsiy va korporativ daromad soliqlari kamaytirildi, davlat bo'ylab xususiylashtirish jadallashtirildi, davlat sarf-xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan "qattiq tejash" siyosati qo'llanildi. Shvetsiyaning Evropa ittifoqiga a'zo bo'lishi bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini jadallashtirishga ijobiy ta'sirni ko'rsatdi: davlatning iqtisodiy siyosati birlashgan Evropa talablariga moslashtirildi, davlat moliyasiga (jamg'armasiga) valyuta konvergentsiyasi tamoyillari qo'llanila boshladi.

Shimoliy Evropaning boshqa davlatlari makroiqtisodiy siyosati deyarli Shvetsiya modelining o'zginasidir. Islandiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiyada ham ijtimoiy muhofazaning juda kuchli tizimi mavjud, davlat bilan tadbirkorlik esa iqtisodiy tizimda teng huquqli sherikdir. Shvetsiya boshidan kechirayotgan qiyinchiliklar yuqorida qayd qilingan davlatlarga ham xosdir. Norvegiya va Islandiya yuqori turmush darajasini milliy iqtisodiyotning unumdorligi hisobiga emas, balki tabiiy boyliklarni eksport qilishdan olingan daromadlarni aholi o'rtasida qayta taqsimlash hisobiga ushlab turishga muvaffaq bo'lib kelmoqda.

Daniya va Finlyandiya iqtisodiyoti nisbatan raqobatbardosh (47 ta rivojlangan davlatlar ichida mos ravishda 3 va 8-o`rin) bo`lsa-da, ular ham ijtimoiy muhofazaga qaratilgan sarflar bilan kuchsizlangan. Ushbu salbiy ko`rsatkichlarga qaramasdan, skandinaviya modeli o`ziga xos xususiyatlarga egadir va aynan Shimoliy Evropa davlatlariga mosdir, chunki ushbu mintaqaning barcha davlatlarda yuqori darajadagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanish standartlarini ushlab turishga kerakli madaniyat, siyosat va iqtisodiyot mavjud.

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyotining o`ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

**1) Davlatlararo xo`jalik tizimiga yuqori darajada jipslashishi.** Shimoliy Evropa davlatlari jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada kirishib ketgan, ular xalqaro iqtisodiyotdagi o`zgarishlarga tezda ko`nikdi, ilg`or texnologiyalarga va malakali ishchi kuchiga ega. Oldingi qatarga yuqori texnologiyalar, ilmiy izlanishlarni talab qiluvchi tarmoqlar chiqdi: elektronika va telekommunikatsiya (Finlyandiyaning Nokia va Shvetsiyaning Ericsson kontsernlari), tibbiyot uskunalarini ishlab chiqarish (Polar Elektroniks va Gambo kompaniyalari), ishlab chiqarish robotlari (AVV), avtomobilsozlik va aerokosmik ishlab chiqarish (SAAB, Volvo, Scania), yuqori texnologik kemasozlik, farmatsevtika (Astra kompaniyasi) va biotexnologiyalar.

Shimoliy Evropa davlatlari zamonaviy ixtisoslashuvining asosiy jihati yangi texnologiyalarning an'analar bilan birlashib ketishi hamda yuqori texnologiyalarning an'anaviy ishlab chiqarishda qo`llanilishidir. Shvetsiyaning SAAB kompaniyasi bu borada yaqqol misol bo`la oladi: firma aerokosmik majmuada qo`llanilayotgan texnologiyalarni avtomobilsozlikka moslashtirmoqda. Shimoliy Evropa davlatlarining yuqori darajadagi ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi sonlar tasdiqlaydi: ushbu mintaqada rivojlangan davlatlar aholisining 1 %i istiqomat qilsa-da, sanoat ishlab chiqarishdagi YaIM ning 3 % i va eksportning 5 % i shu mintaqaga to`g`ri keladi.

Shimoliy Evropa davlatlari YaIMining yarmidan ko`pi eksport qilinadi. Shu bilan birga jahon xo`jaligi bilan bunday jipslashib ketish, Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyotini tashqi o`zgarishlarga ta'sirchan qilib qo`yadi. Jumladan, 70-80-yillarda mintaqaning barcha davlatlari jahon iqtisodiyotidagi inqiroz tufayli jabrlandi va dunyo miqyosida ishlab chiqarish va iste'mol qilishdagi inqirozni boshidan kechirdi. Yaqinda bo`lib o`tgan dunyo iqtisodiyotidagi valyuta-moliya inqirozi Shimoliy Evropaga salbiy ta'sir ko`rsatdi. Shunga qaramasdan, tashqi omil Shimoliy Evropa davlatlarini yangi tejamkor texnologiyalarga o`tishga, ilg`or boshqaruv texnologiyalarini qo`llashga, butunjahon iqtisodiy tizimida ixtisoslashish borasida yangi yo`llarini izlashga undaydi.

**2) Davlatning YaIMni qayta taqsimlash mexanizmi orqali iqtisodiyotga katta ta'sir ko`rsatishi.** Shimoliy Evropa davlatlarining o`rtacha 30 % YaIMi soliqqa tortish va tadbirkorlardan tushadigan badallar hisobiga ishchilar manfaatiga ijtimoiy sug`urtalar orqali qayta taqsimlanadi. Bundan tashqari, davlat ITTKI tizimini deyarli 80 %ga moliyalashtirish orqali ilmiy-texnik taraqqiyotni rag`batlantiradi.

3) Kuchli moliyaviy-ishlab chiqarish guruhlarining mavjudligi va kooperativ harakat. Shimoliy Evropa davlatlarining yirik transmilliy kompaniyalari jahonda obro`ga ega bo`lgan firmalardir. Butun dunyoda LM Ericsson, ABB, Volvo, Svenska Handelsbanken, Skandinaviska Enskidabanken, Nokia, Sonera, Statoil, Norsk Hydro va

boshqalar mashhurdir. Qishloq xo'jaligi korxonalarining 90 %i kooperativ shaklda tuzilganligi bilan ajralib turadi.

4) Ishchilarning yuqori darajadagi malakasi. O'rta va oliy o'quv yurtlarining yuqori standartlari, trening dasturlari, tarkibni qayta o'qitish ishchilarning malakasini bozor talablariga mos ravishda yuqori darajada ushlab turishga imkoniyat yaratadi.

5) Hukumat iqtisodiy siyosatining ijtimoiy muhofazaga qaratilganligi. Shimoliy Evropada davlat aholining to'liq bandligini ta'minlaydi, mehnat sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor beradi, tashqi muhitni himoyalash va ijtimoiy barqarorlashtirish tizimlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

6) Butunjahon xo'jaliklarining o'zgaruvchan sharoitlariga Shimoliy Evropa iqtisodiyotining faol moslashuvi. Finlyandiyaning tajribasi bunga misol bo'la oladi. 80-yillarning oxirigacha Finlyandiyaning iqtisodiyoti o'rtacha ilmtalab mahsulotlarni SSSR ga eksport qilishga qaratilgan. SSSR bo'linib ketganidan keyin va Rossiya iqtisodiyotida tizim inqirozi boshlanishi bilan Finlyandiya zudlik bilan Evropa Ittifoqi va Shimoliy Amerika davlatlari bozorlariga ixtisoslashtirish va iqtisodiyotning ilg'or sektorlaridagi yuqori texnologik mahsulotlar orasida e'tiborli o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyoti tarkibi (Islandiyasiz) 9- jadvalda ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiyaning YaIM qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining taxminiy ulushlari ko'rsatilgan. Bularning ichida faqat Finlyandiya ma'lum ob'ektiv sabablarga ko'ra, postindustrial nuqtai nazaridan, qoloqroq YaIM ega. Shunga qaramay, jadallik bilan o'rtadagi farqni bartaraf qilishga erishmoqda, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari ko'rsatkichlari bo'yicha (jumladan aholi jon boshiga uyali telefonlar soni bo'yicha) nafaqat skandinaviya davlatlari, balki eng rivojlangan davlatlardan o'zib ketgan.

9-jadval

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyotining strukturasi

Iqtisodiyot tarmog'i	Tarmoqning YaMM dagi ulushi, %			
	Daniya	Norvegiya	Finlyandiya	Shvetsiya
Qishloq xo'jaligi	2	2,5	4,3	2
Sanoat	22,1	36,2	32,7	29
Xizmatlar	75,9	61,2	62,9	69

Izoh: YaIM ning jami ko'rsatkichlari yig'indisi sonlarning yaxlitlashtirilganligi sababli 100 % dan oshib ketishi mumkin.

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiyotida hozirgi kungacha qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik muhim o'rin egallaydi. Bu erda donchilik mahsulotlari, kartofel etishtiriladi, go'sht-sut sanoati rivojlangan. Er reliefi bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun eng qulay sharoit Daniyadadir, davlatda 64 % er agrosanoatda qo'llanilishi mumkin. Islandiya hududida esa agrosanoat uchun bor-yo'g'i 1 % er ajratilgan. qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 80% kooperativlarning mahsulotidir. Baliqchilik Islandiyaning milliy xo'jaligida alohida o'rinni egallagan, davlatning 70 % eksporti dengiz mahsulotlariga to'g'ri keladi. Yuqorida qayd etilgan davlatlar ichida Finlyandiya eksportning 30 %ni tashkil qiluvchi o'rmon xo'jaligi ustuvordir.

Shimoliy Evropa davlatlarida ishlab chiqarishning quyidagi tarmoqlari rivojlangan:

- neftgaz (Daniya, Norvegiya);
- metallurgiya (Norvegiya, Shvetsiya, Islandiya);
- tsellyuloza-qog'oz sanoati va poligrafiya (Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya);
- mashinasozlik; avtomobilsozlikni, aniq dastgohlar va qurilish anjomlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga qamrab olgan (Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya);
- kemasozlik (Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya);
- elektronika va elektr-texnika (Shvetsiya, Finlyandiya);
- kimyo sanoati (Norvegiya, Finlyandiya);
- yog'och ishlab chiqarish (Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya);
- to'qimachilik (Daniya, Finlyandiya);
- oziq-ovqat (guruhdagi barcha davlatlar).

Shimoliy Evropa davlatlari mahsulotlarining sifati va ilmtalabligi ularning tashqi bozorda xaridorgiriligini ta'minlaydi. Mintaqaning ko'pchilik ishlab chiqarish korxonalari chuqur ixtisoslashgan bo'lib, jahon bozoriga tor yo'nalishdagi mollarni chiqaradi. Internatsionallasuvi strategiyasi va global strategiya Shimoliy Evropa davlatlari kompaniyalarining jahon bozorlarini egallashiga sharoit yaratmoqda. Neft, gaz va metall kabi sanoatning an'anaviy tarmoqlarida ishlab chiqariluvchi mahsulotlar ham xaridorgir bo'lib qolmoqda.

Shimoliy Evropadagi ba'zi davlatlarning energetika resurslari noyobdir. Xususan, Norvegiya neft-gaz hamda gidroenergiya resurslariga boy mamlakat hisoblanib, jon boshiga ishlab chiqariladigan elektr energiyasi bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Islandiyada ko'plab geotermal buloqlar energiyasidan foydalaniladi va elektr energiyasini G'arbiy Evropaga eksport qilish jiddiy muhokama qilinmoqda.

Shimoliy Evropa davlatlari oliy darajadagi transport infratuzilmasiga ega. Ularning barchasi dengiz mamlakatlaridir. Daniya va Norvegiya esa jahonda eng katta savdo flotiga ega bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. O'z ichiga tezyurar poezdlarni (masalan, mamlakat ishlab chiqarilgan X2000 poezdlari xizmat qiluvchi Stokgolm-Gyoteburg yo'nalishi) qamrab olgan temir yo'llari ham yaxshi rivojlangan. Avtomagistrallar tizimi mavjud, ulardan ba'zilari (ayniqsa Norvegiyada) ko'plab tonnellar orqali o'tgan. Ko'plab aeroportlar ishlab kelmoqda, shu bilan birgalikda skandinaviya havo yo'llarining yo'lovchi tashish imkoniyatlari doim oshib bormoqda (misol, 1999 yilda Norvegiya poytaxti Osloda yangi aeroport ishga tushirildi).

Ijtimoiy muhofaza sohasida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'pchilik ijtimoiy xizmatlar, jumladan sog'liqni saqlash yoki maorif davlat tomonidan to'liq ta'minlanadi. Shimoliy Evropaning tovar va xizmatlar ishlab chiqarishida katta daromad olmaydigan tashkilotlar ijtimoiy-foydali mahsulot yaratadi. Moliyaviy tizim va turizm an'anaviy ravishda rivojlangan. Shvetsiya eng kuchli moliya-kredit tizimiga ega.

Xulosa

Shimoliy Evropa davlatlari iqtisodiy rivojlanishining kelajagi Umumevropa itegratsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqaning Evropa Ittifoqiga kirmaydigan (Norvegiya, Islandiya) davlatlari betaraflik afzalliklari bilan bog'lik yutuqlar (metall, baliq, neft va gaz eksportidan olinadigan daromadlardan o'z xohishiga ko'ra foydalanish

imkoniyati) bilan birga nuqsonlarga ham ega. Xususan, EI Norvegiya va Islandiyaning nisbatan arzon narxdagi baliqlarini Evropa Ittifoqi davlatlariga sotishda antidemping to'siqlarini qo'yimoqda. Daniya va Shvetsiya esa evro valyutasini kiritishda extiyotkorlik qilmoqda. Ko'pchilik ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Shimoliy Evropa davlatlari Umumevropa qurilishida etakchilik qilishga tayyordir, lekin an'anaviy "skandinaviya betarafligi" mintaqaning EI ga faol kirishida asosiy psixologik to'siq bo'lib kelmoqda.

Tayanch iboralar

Byudjet, proteksionizm, rivojlanishning ekstensiv yo'li? "Skandinaviya sotsializimi", ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisdiyoti

Nazorat uchun savollar

1. Shimoliy Evropa mamlakatlarida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari nimadan iborat? Ularning Katta Etilikka kiruvchi davlatlar vazifalaridan farqi nimada?
2. Skandinaviya iqtisodiy modelining ijtimoiy yo'naltirilganligi nima bilan ajralib turadi?
3. Nima uchun 90-yillarda mashhur "Shved sotsializmi"ni qayta qurishga to'g'ri keldi?
4. G'arbiy Evropa kichik davlatlarini ta'riflang va tavsiflang. Har bir guruhga tegishli ma'lum davlatlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ta'riflang.
5. G'arbiy Evropa kichik davlatlarining iqtisodiyotiga EI yoki EAST a'zo bo'lish qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Markaziy Evropa davlatlari iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Niderlandiya va Irlandiyalarning makroiqtisodiy rivojlanish tajribasidan qanday saboq olsa bo'ladi?
7. Shimoliy Evropa davlatlarining jahon xo'jaligi va iqtisodiyotidagi holatiga baho bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К°", 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Поспект, 2006.
4. Nazarova G.G., Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
7. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

11- bob. YAPONIYA IQTISODIYOTI

11.1. Yaponiya bo'yicha umumiy tavsif

11.2. Yaponiyaning «iqtisodiy mo'jiza» yaratishdagi asosiy omillari

11.3. Yaponiyaning iqtisodiy o'sish davrlari

11.4. Mamlakat iqtisodiyotida sanoat va qishloq xo'jaligining ahamiyati va tutgan o'rni

11.5. Transporti

11.1. Yaponiya bo'yicha umumiy tavsif

Yaponiya O'zbekistonning mustaqilligini 1991 yil 28 dekabrda tan oldi va ikkala mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 26 yanvarda o'rnatildi. 1993 yil yanvar oyidan boshlab, Toshkentda Yaponiyaning elchixonasi va 1996 yilda Tokioda O'zbekistonning elchixonasi o'z faoliyatini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yaponiyaga rasmiy tashrifi 1994 yil va 2002 yillarda amalga oshirilgan. 1999 yil va 2004 yillarda, Yaponiya tashqi ishlar vazirlari O'zbekistonda rasmiy tashrifda bo'ldi. 2005 yil yakunlariga ko'ra, ikkala mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi 85,3 mln. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 31,7 mln. AQSH doll.ni, import esa 53,6 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan.

O'zbekistonga Yaponiyadan olib kirilgan jami moliyaviy resurslar 1,9 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, 871 mln. AQSH doll.dan ortig'i davlatning imtiyozli kreditlariga, 820 mln. AQSH doll. esa, Yaponiya xalqaro hamkorlik bankining tijorat kreditlariga to'g'ri keladi. Yaponiyadan O'zbekistonga beg'araz iqtisodiy yordamlarining jami qiymati 147 mln. AQSH doll.ga teng bo'ldi. Texnik yordam 47 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan.

O'zbekistonda Yaponiyaning 24 ta firma va kompaniyasi ro'yxatga olingan va faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, Yaponiya investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 7 ta qo'shma korxona va 100 % Yaponiya kapitali asosida tashkil etilgan korxonalar ham faoliyat olib bormoqda. 1994 yilda o'zbek-yapon va yapon-o'zbek iqtisodiy hamkorlik Qo'mitalari tashkil etilgan. 1999-2001 yillarda Toshkentda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) ning mintaqaviy vakolatxonalari ochilgan.

Jahon xo'jaligi tarixidan ma'lumki, Yaponiya 50-yillargacha agrar mamlakat sifatida tan olinar edi. Ammo 60 - yillarga kelib, jahonda eng etakchi davlatlar hisoblangan AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya kabi mamlakatlar Yaponiyaning jahon xo'jaligida "iqtisodiy mo'jiza"ga erishganini tan oldi. Yaponiya sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va iqtisodiy salohiyati bo'yicha jahonda AQSHdan so'ng ikkinchi mamlakatga aylandi. U bozor iqtisodiyotiga o'tganligi tufayli, deyarli bir avlod hayoti davomida iqtisodiy jihatdan o'zini tiklabgina qolmay, jahonda eng yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

Yaponiya- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani ko'rfazidagi orollardan tashkil topgan davlat bo'lib, uning hududi 377,9 ming kv.km. yoki butun er yuzi hududining 0,3

%ini tashkil qiladi. Unga yaqin bo'lgan qo'shni mamlakatlar (suv xavzasida) Rossiya, Xitoy, KXDR va Janubiy Koreya mamlakatlaridir. Yaponiyani bejizga «kunchiqar mamlakat» deyishmaydi.

Yaponiya 4 ta yirik orol, ya'ni Xokqaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari hamda ularning tevarak-atrofidagi ko'pdan-ko'p, jami 6800 ta oroldan tashkil topgan. Poytaxti-Tokio. Yirik industrial shaharlariga – Tokio, Osaka, Iokogama, Nagoya, Sapporo, Kobe, Kioto, Fukuoka, Kavasaki, Xirosima va boshqa yirik shaharlar kiradi.

Pul birligi-yen bo'lib, 2006 yil holatiga 1dollar 116 yenga tengdir. Aholisi 128 mln. kishini tashkil qilib, aholi zichligi 1 kv.km.ga 340 kishi to'g'ri keladi.

11.2. Yaponiyaning «iqtisodiy mo'ljiza» yaratishdagi asosiy omillari

Yaponiyaning iqtisodiy tarixida «yalpi iqtisodiy taraqqiyot» davri ikki marotaba ro'y bergan:

- 1868 yildan (Meydzi inqilobi) so'ng;
- 1945 yildan (Ikkinchi jahon urushi) so'ng.

Yaponiyaning 1945-1970 yillardagi iqtisodiy taraqqiyotini tahlil qilar ekanmiz, ushbu yillarda hukumat tomonidan amalga oshirilgan ko'plab iqtisodiy islohotlar va dasturlarni hamda ularning negizida “iqtisodiy mo'ljiza” yaratilganining guvohi bo'lamiz. Uning “iqtisodiy mo'ljiza” yaratishdagi asosiy omillari quyidagilardan iborat.

1) Fan va texnika omili. 1945-1965 yillar davomida fan va texnikani rivojlantirish maqsadida mamlakatda tashkil qilingan ko'plab ilmiy-tekshirish institutlarga davlat byudjetidan ko'plab miqdorda mablag'lar ajratildi. Shu yillar mobaynida, hukumat yiliga YaIMning 3%i miqdoridagi ulushning ilmiy-texnika institutlariga yo'naltirdi.

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda kompaniya va firmalar ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishdi, shu bilan birga, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati bilan jahon bozorlarida eng oldingi o'rinlardan joy oldi. Qolaversa, yillar davomida shakllangan ilmiy-texnik imkoniyatlarni saqlash, ilmiy-texnik rivojlanishning mintaqaviy va hududiy fondlarini tashkil etish, ilmiy izlanish va tadqiqotlarni olib borish va ular natijasini ishlab chiqarishga joriy qilish hamda ilg'or texnologiyalarni qo'llash kabi vazifalarga e'tibor berdi.

2) Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida «Yaponiya modeli»ning ahamiyati. «Yaponiya modeli» deyarli 150 yil davomida o'z xususiyatiga ega bo'lib tashkil topgan. Ushbu modelning Evropa mamlakatlari va AQSH modellaridan farqi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida davlatning yuqori darajada qatnashuvidir.

Yapon modeli - vatanparvarlik tuyg'usi asosida yaratilib, eng avvalo, sanoat mahsulotlarining eksport qilinishi evaziga xorijiy valyutasini tushirish va tushgan valyuta evaziga etakchi xorijiy mamlakatlardan eng zamonaviy texnologiyalarni sotib olish, yuqori mehnat unumdorligiga erishish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabilarni o'z ichiga oladi.

“Yaponiya modeli”ning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Mamlakatda bir xil sohada faoliyat ko`rsatayotgan ishlab chiqaruvchi korxona va kompaniyalarning birlashuvi, ya'ni “keyretsu”, va buning natijasida moliya-sanoat guruhlarining tashkil qilinishi. Lekin ko`plab “keyrettsu”lar urushdan oldingi monopol kompaniyalar – “dzaybatsu”lardan kelib chiqqan. Bu guruhlar yirik banklar, savdo va sanoat kompaniyalari tomonidan boshqariladi.

2. Mamlakatda mehnat munosabatlari tizimining shakllanuvi, ya'ni:

- yapon milliy urf-odatlaridan kelib chiqqan holda ishxona rahbariyati tomonidan ishchilarning doimiy mehnat faoliyatini kafolatlash;
- fuqarolarni butun umrga ish bilan ta'minlash;
- ishchi o`rinlarga yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ishchilarning doimiy ravishda ish faoliyatlarini almashtirib turishlari;
- kompaniya va firmalarning rahbarlari tomonidan ishchi-xizmatchilarni doimiy ravishda va har tomonlama rag`batlantirib turishi;
- ishchilarning “ishxona- bizning uyimiz” shiori ostida faoliyat ko`rsatishi;
- ishxonalarda ishchilarning mehnat intizomiga qattiq rioya qilishi.

3. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hukumatning ahamiyati va uning kuchli nazorati. Hukumat mamlakatdagi barcha iqtisodiy muammolarni “Moliya-sanoat guruhlari” rahbarlari bilan hamkorlikda hal qiladi.

Shu bilan birga, Hukumat markazlashgan umumdavlat rivojlanish rejalarini quyidagi yo`nalishlarda ishlab chiqaradi:

- iqtisodiy taraqqiyot;
- ijtimoiy-ta'minot;
- er va er osti manbalaridan unumli foydalanish;
- sanoat tarmoqlarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadi.

4. Hukumat tomonidan mamlakatda har qanday biznesga qarshi qattiq kurash olib borishi va nazorat o`rnatishi.

5. Milliy kadrlar tayyorlanishini takomillashtirish, ya'ni talabalarni xorijiy mamlakatlardagi eng obro`li o`quv muassasalari va ishchi-xizmatchilarni xorijga malaka oshirishlari uchun yuborish.

Shuni alohida qayd etish lozimki, “yaponiya modeli” 90-yillarning boshlaridan o`z xususiyatlarini yo`qota boshladi.

6. Hududiy joylashuvning noqulayligini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish tarmoqlarining tartibli joylashtirilishi. Mamlakat hududining ko`plab mayda orollardan tashkil topganligi sababli sanoatni rivojlantirish sohasida hukumat hududiy joylashuvlarga katta ahamiyat berdi. Jumladan, mamlakat reifining noqulayligi (doimiy kuchli tayfun, vulqonlarning harakati va zilzilalar) va tog`lik hududlarning ko`pligiga qaramay, barcha sanoat ishlab chiqarish ob'ektlari tartib bilan joylashtirildi. Hozirda Yaponiya hududiy jihatdan 10 ta iqtisodiy hududga bo`lingan, bular: Xokqaydo, Toxoku, Kanto (eng rivojlangan sanoat hududi), Tokay, Xokuriku, Kansay, Tyugoku, Okinava, Sikoku va Kyusyu.

7. Hududining iqtisodiy-geografik qulayligi. Mamlakat Tinch okeani havzasi mintaqasining markazida joylashganligi sababli, ko`pgina halqaro tranzit dengiz va havo yo`llari aynan uning hududidan kesib o`tgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni

jahon bozoriga olib chiqishda aynan dengiz yo'llari alohida ahamiyat kasb etgan, chunki eng arzon tashqi yo'l suv transportidir.

8. Tabiiy resurslardan unumli foydalanishi. Yaponiya dunyodagi tabiiy resurslarga muhtoj mamlakatlardan biridir. Mamlakatning tabiiy va qazilma boyliklarining kamligi odatda uning iqtisodiy rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak edi. Ammo yapon mutaxassislari tabiiy resurslardan unumli foydalanib, uning chiqindilarini qayta ishlash orqali sifatli xomashyo oldilar. Shu bilan birga, yapon mutaxassislari tomonidan okean va dengiz tubida ko'plab foydali qazilmalar borligi aniqlandi, ular zamonaviy texnologiya usullari orqali qazib olinmoqda.

9. Transport va aloqa tizimining yuqori darajada rivojlanishi. Yaponiya minglab mayda orollardan tashkil topganligi uchun quruqlik orqali xorijga chiqish imkoniyati yo'q. Xorij mamlakatlari bilan tashqi savdo-sotiq olib borish sohasida suv va havo yo'llari transportiga katta ahamiyat berdi. Ayni paytda mamlakatda 126 ta halqaro dengiz portlari mavjud. Umuman 1960 yilga kelib, mamlakatda barcha ichki va tashqi transport tarmoqlari zamonaviy talabga javob berdi.

10. Mehnat resurslari. Mamlakat aholisi 128 mln. kishini tashkil qilsa, shundan 73 mln. kishi ishchi kuchini tashkil qiladi, bu umumiy aholining 57 %i demakdir. Yuqorida qayd etilganidek, yaponlarning ish faoliyati "yapon modeli"da o'z aksini topgan.

11. Barcha sanoat tarmoqlarining xorijdan keltirilgan zamonaviy yangi texnologiyalar bilan ta'minlanishi. 1948-1950 yillarda barcha sanoat tarmoqlarida modernizatsiya jarayoni amalga oshirildi. Minglab zavod va fabrikalar AQSH va Buyuk Britaniya hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlandi, hamda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi bilan 1955 yildayoq urushdan oldingi holatini tiklashga erishdi.

12. Mahsulot ishlab chiqarishning tez sur'atlarda o'sishi. 50-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida halqaro ahvolning keskinlashishi yapon iqtisodiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki, 1950-1953 yillardagi AQSHning Koreya yarim orolidagi urush harakatlari tufayli Yaponiya AQSH uchun minglab harbiy texnikalarni ishlab chiqarish bo'yicha buyurtmalarni oldi. Iqtisodiy yuksalish 1950 yildan 1973 yilgacha yiliga o'rtacha 11% dan o'sdi.

13. Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarishda xorijiy texnologiyalarining litsenziyasini sotib olishi. 60-yillardan boshlab, Yaponiya mahsulot ishlab chiqarishda jahondagi etakchi mamlakatlarning, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Frantsiya kabi mamlakatlar kompaniyalarning mahsulotlarini ishlab chiqarishi bo'yicha ularning kvotasini sotib oldi.

14. 1950-1970 yillar mobaynida jahon bozorida yoqilg'i xomashyosining arzon bo'lganligi. Yaponiyadagi deyarli barcha kompaniyalarning neftga bo'lgan ehtiyoji va talabi hozirgi kunda ham katta. 1973 yilgacha, ya'ni 1-jahon neft inqirozigacha ishlab chiqarish korxonalari neft narxining jahon bozorida bir me'yorda bo'lganligi sababli bir tekis ishlashiga imkon bergan. Yaponiya sanoat tarmoqlari asosiy xomashyolarning qariyb 90 %ini import qiladi. Hozirda ham paxta, teri kabi xomashyolarning 100 %i; neft, temir ruda va nikelning 99 %i; ko'mir va mis rudasini

95 %i; qo`rg`oshin, alyuminiy 90 %i, tuz 80%; tabiiy gaz, sink, yog`ochning 60 %ini import qilmoqda.

15. Import qilinadigan xomashyo va texnologiyalarni boj to`lovlaridan ozod qilinishi. Hukumat 50-yillardanoq, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, ularni turli soliq to`lovlaridan vaqtincha ozod qilishi va korxonalarning bir me'yorda ishlashi uchun xomashyoni o`z vaqtida etkazib berishi katta ahamiyat kasb etdi. Eng asosiysi, hukumatning etakchi sanoat tarmoqlari uchun import qilinadigan xomashyo va texnologiyalarning boj to`lovlaridan ozod qilishi natijasida ko`plab kompaniyalar mavqeini moddiy jihatdan mavqeini tiklab oldi.

16. Mahsulotlarning yalpi eksportga chiqarilishi. Sanoat korxonalari mahsulotlarining yalpi eksportga chiqarilishi xorijiy texnologiyaning import qilinishi uchun asosiy manba bo`ldi. 50- yillarda tatbiq qilingan "Eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish" islohoti 80- yillarning o`rtalariga borib o`z kuchini yo`qota boshladi.

17. Ekologiyani asrash omili. Mamlakat atrof-muhitni toza saqlash va tabiatni muhofaza qilish bo`yicha davlat byudjetidan ko`pdan-ko`p mablag`larni ajratmoqda. Hukumat minglab zavod va fabrikalardan chiqadigan chiqindilar va havoni zararlantiruvchi zaharli tutunlarni atrof-muhitga tarqatmaslik hamda inson salomatiga zarar etkazmaslik maqsadida ko`plab chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, aholi sog`lig`iga zarar etkazuvchi ob'ektlarning shahardan tashqarida yoki aholi kam yashaydigan hududlarda qurilishi bo`yicha dastur qabul qildi. Shuning uchun ham, hozirda Yaponiya aholisining o`rtacha yashash davri 83 yoshni tashkil qilib, bu ko`rsatkich bo`yicha jahon mamlakatlari ichida 1-o`rinda turadi.

18. Marketing siyosatining oqilona olib borilishi. Ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ichki bozor imkoniyatlari o`rganilib, talab va ehtiyoj, ichki va tashqi bozorni zarur iste'mol mollari bilan ta'minlash kabi vazifalarni marketing asosida olib bordi. Hukumat marketing siyosatini quyidagi yo`nalishlarda olib bordi:

1. korxonalarda tarkibiy o`zgartirishlarni amalga oshirish;
2. jahon andozasiga mos ravishda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish;
3. yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari hamda jahon bozorlarida mahsulotga bo`lgan talab va ehtiyojni to`la o`rganish;
4. bozorni tahlil qilish va undan foydalanish uchun eng raqobatdosh mahsulotlar namunalarini tanlashni o`z ichiga oldi.

19. Davlat tomonidan yuqori darajada ichki investitsiyalarning sanoat tarmoqlari uchun sarf qilishi. 60-yillarda hukumat YaMMdan 30-35 % mablag`larni zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun sarf qildi.

20. Yaponiya iqtisodiyotida AQSHning ahamiyati. Ikkinchi jahon urushidan so`ng, Yaponiyaning iqtisodiyotini tiklash deyarli Ittifoqchilarning zimmasida qoldi. AQSH hukumati uning iqtisodiyotini sog`lomlashtirish maqsadida eng asosiy tarmoqlar, jumladan, ko`mir qazish, kemasozlik va energetika tarmoqlarini moddiy jihatdan va texnologiya bilan ta'minladi. AQSHdan esa yoqilg`i, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlar keltirildi.

21. Harbiy mudofaa uchun xarajatlarning keskin kamaytirilishi. 1947 yilning 5 mayida qabul qilingan (Parlament tomonidan) Konstitutsiya demokratik huquqlar va erkinliklar qabul qildi, millatning suveren huquqi sifatida har qanday urushdan voz

kechilganini tasdiqladi. Konstitutsiyaga asosan, 1947-1980 yillar davomida davlat byudjetidan harbiy mudofaa uchun sarf-xarajat miqdori YaIMning 1 %idan oshmadi. Masalan, 1930-40 yillarda yillik sarf-xarajatning 9-10 %i harbiy sanoatga xarajat qilgan bo'lsa, 1947-1977 yillargacha bu ko'rsatkich faqat 1-1,5%ni tashkil qildi.

22. Yapon kishilarining mehnatsevarligi, ya'ni «inson omili». Yaponiyaning «iqtisodiy mo'ljiza» yaratishida «inson omili» nihoyatda muhim bo'lib, yapon xalqi mehnatni yuqori darajada qadrlaydi.

1948-1986 yillar davomida ishsizlik 1-2 % tashkil qilgan. Yaponiyada ish faoliyati 1 yilda 2090 soatni tashkil qiladi (O'zbekistonda taxminan 1840 soat atrofida). Yaponlar o'z mehnatiga yuqori oylik maoshlarini olishadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 1 yilga 37 ming doll.ni tashkil qiladi.

23. Hukumat tomonidan, iqtisodiy rivojlanish va sanoat ishlab chiqarish siyosati dasturlarining yuqori darajada ishlab chiqilishi. Yaponiya xukumati 1945-1970 yillar mobaynida jahon xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etgan quyidagi eng asosiy iqtisodiy islohot va dasturlarni turli sohalarida tatbiq qildi:

- agrar islohot;
- demonopolizatsiya siyosati;
- «Dodj yo'nalishi» iqtisodiy dasturi;
- «Shoup soliq islohoti»;
- tashqi savdoni erkinlashtirish siyosati;
- «Milliy daromadlarni ikki marta ko'paytirish rejasi»;
- «Iqtisod qilish siyosati»;
- «Ishlab chiqarishni eksportga ixtisoslashtirish».

11.3. Yaponiyaning iqtisodiy o'sish davrlari

Yaponiya iqtisodiyotining tiklanishi va uning taraqqiyotini asosan biz quyidagi iqtisodiy davrlarga bo'lamiz:

1-davr, 1945-49 yillar. Yaponiya xukumati mamlakat iqtisodiyotini qayta qurish va uni rivojlantirish uchun 1947-49 yillarda bir necha iqtisodiy islohotlarni tatbiq qildi:

1. 1945 yilning dekabr oyida hukumatning mamlakat iqtisodida eng birinchi qabul qilgan iqtisodiy islohoti- agrar islohoti bo'ldi. Bu islohot mamlakatdagi yirik pomeshchiklarning ekin maydonlarini dehqonlarga bo'lib berishdan iborat bo'ldi. Er islohoti natijasida, umumiy ekin maydonining 80 %i yirik er egalaridan tortib olindi va dehqonlarga arzon narhda bo'lib berildi.

2. 1945 yilning oktyabrida «Antimonopol» qonuni qabul qilindi va u mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etdi (qonun 1947 yildan kuchga kirgan), ushbu «Antimonopol» qonunining loyihasi Yaponiya iqtisodi uchun AQSHda ishlab chiqilgan edi. Ushbu demonopolizatsiya siyosati mamlakatning turli tarmoqlaridagi yirik moliyaviy-sanoat kontsernlarini (dzaybatsu) tarqatib yubordi. Buning natijasida mamlakatda raqobatdoshlikka va iqtisodiy o'sishga yo'l ochildi.

«Dzaybatsu»ning ma'nosi, aslida hukumat tomonidan qurilgan zavod va fabrikalar hamda yirik ishootlarning davlat tomonidan yirik savdogarlarga sotilishi,

keyinchalik yirik kontsernlarning paydo bo'lishiga olib kelgan, masalan, Mitsubishi, Sumitomo va Mitsui.

Shuni alohida qayd etish lozimki, banklar demonopolizatsiya siyosatidan mustasno edi, chunki yirik banklar mamlakat iqtisodining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etardi. Shu bilan birga xukumat tomonidan kuchli bank tizimi ishlab chiqildi.

3. Urushdan so'ng mamlakatda tashkil qilingan Ittifoqchilar Bosh qo'mondonining moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatchisi Djozef Dodjning mamlakat iqtisodi uchun «Dodj yo'nalishi» iqtisodiy dasturi qo'llanildi. Bu dastur xukumatning nazorati bilan bir qatorda, o'z ichiga davlat tomonidan bir necha tarmoqlarni moliyalashtirishni olar edi. Ushbu sanoat tarmoqlariga umumiy sarfning 70-86 %igacha davlat tomonidan moliyalashtirildi. Ushbu qabul qilingan ilk islohotdan so'ng Yaponiya yalpi milliy mahsuloti 1947 yildayoq 8,4 %, 1948 yilda esa 13 % o'sdi.

4. 1948 yilda xo'jalik yuritishning davlat boshqaruvi bekor qilinib, narxlar shakllanishida liberallashtirish choralarini qabul qilindi. Bu bilan yapon sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish va halqaro raqobatdoshligini oshirish, hamda yangi tarmoqlarni shakllantirishga e'tibor berildi.

5. 1949-1950 yillarda Yaponiya xukumati tomonidan AQSH ma'muriyatining ko'rsatmasiga binoan mamlakatda «Shoup soliq islohoti» tatbiq qilindi. Ushbu islohot mamlakatda ishlab chiqarish tarmoqlaridan olinadigan soliqni kamaytirish, ya'ni ishlab chiqarishdan tushadigan daromaddan maksimal 35% soliq to'lash, qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar uchun 5 % miqdorida soliq to'lash kabi islohotlar amalga oshirildi.

6. 1949 yilda 1949-1955 yillarga mo'ljallangan o'ta balanslashtirilgan davlat byudjeti qabul qilindi, inflyatsiyaga chek qo'yildi, hamda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish kurslari belgilandi (1 dollar-360 yen qilib belgilandi).

Qisqa qilib aytganda, sanoat tizimining yo'lga qo'yilishi va qishloq xo'jaligining qayta tiklanishi uchun Yaponiya iqtisodi 1945-1949 yillarda juda og'ir davrni boshidan kechirgan. Mamlakatning iqtisodiy rivoji va mustahkam poydevorini qurishda yuqorida qayd qilingan iqtisodiy islohotlar - «Dodj yo'nalishi» nomli iqtisodiy dastur bo'ldi.

2-davr, 1950-1955 yillar. 1950 yilda hukumatning «Xorij sarmoyalari» to'g'risidagi Qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida davlatning qat'iy nazoratida mamlakatga xorijiy sarmoyadorlarning jalb qilinishi uchun xalqaro investorlar bilan shartnomalar tuzildi.

1950-1955 yillar mobaynida Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasida halqaro ahvolning keskinlashuvi yapon iqtisodiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, AQSHning Koreya yarim orolida olib borgan urush harakatlari tufayli Yaponiya AQSH uchun harbiy texnikalarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi. Urush harakatlari tufayli AQSH Yaponiyadan avtomobillar, to'qimachilik va farmatsevtika mahsulotlarini sotib ola boshladi. Urushning 1 oyi o'zidayoq Yaponiya AQSHga 21,1 mln. doll. hajmida mahsulotlar sotdi.

Yaponiyaning harbiy sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bo'yicha buyurtmalar qabul qilishi sanoatning yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayniqsa,

yirik zavod va korxonalarda ishchilarning oylik maoshlari oshirilganligi sanoat tizimi va uning taraqqiy etishi bo'yicha katta o'zgarishlar bo'ldi. Koreya yarim orolidagi urush vaqtida Yaponiya AQSHdan jami 1,1 mlrd. AQSH doll. miqdorida harbiy texnika va boshqa zarur iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga buyurtma oladi. Shuning evaziga, Yaponiyaning YaMM 1949-1951 yillarda 6 %dan o'sgan.

3-davri, 1955-1963 yillarda iqtisodiyotning barqaror ushlab turilishi uchun sanoatdan tushayotgan barcha foydalar iqtisodiy kon'yukturalarga taqsimlandi. Shu yillarda yapon iqtisodiyotida katta iqtisodiy yuksalish boshlandi, ya'ni yangi sanoat tarmoqlari: neft-kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika va sintetika ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari tashkil qilindi.

1955 yilda Yaponiya sanoati urushdan oldingi holati, ya'ni 1941 yil holatiga bo'lgan ko'rsatkichlarga etib oldi. 1955 yili YaIM oldingi yilga nisbatan 10,8%ga o'sdi. 1955 yildan 1963 yillarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtacha 9,8%ni tashkil qildi. 1960 yilda xukumat quyidagi muhim iqtisodiy islohotlarni qabul qiladi, jumladan:

1) Tashqi savdoni erkinlashtirish faoliyati boshlandi. Bu islohotga asosan ba'zi mahsulotlarning eksport qilinishi uchun ruxsatlar berildi, hamda 1964 yilga borib, barcha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 93% tashqi savdoga, ya'ni eksportga chiqarildi.

2) Hukumat «Milliy daromadlarni ikki marta ko'paytirish rejasi»ni tatbiq qildi. Qabul qilingan davlat rejasiga asosan, byudjetga tushadigan daromad 10 yil ichida 2 marotabaga ko'paytirishni maqsad qilib qo'yadi. Lekin ushbu davlat rejasi haqiqatda 7 yil ichida amalga oshirildi, ya'ni 1966 yilda ko'zlangan maqsadga erishildi.

4-davri, 1964-1973 yillarda iqtisodiy tez o'sish sur'ati oldingi yillarga nisbatan yanada kuchaydi. Mamlakatning 1964-1973 yillardagi iqtisodiy rivojlanish davri mamlakat iqtisodi tarixida "tez taraqqiyot" davri nomini oldi. Shu yillarda iqtisodiy o'sish yiliga 14 %ni tashkil qildi va "iqtisodiy mo'jiza"ga erishildi, shuning uchun ham 70-yillardan boshlab, Yaponiya mamlakati "kunchiqar mamlakat" deb atala boshladi (YaIM 1955-1973 yilgacha yiliga 10 % o'sgan edi).

1950-70 yillarda Yaponiya iqtisodi juda tez sur'atlar bilan rivojlanganligi sababli, u yalpi milliy mahsulot va sanoat ishlab chiqarishining hajmi jihatidan dunyoda ikkinchi davlatga aylandi.

Quyida jahondagi eng rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish (YaMM) sur'atlari keltirilgan (10-jadval):

10-jadval

Jahondagi eng rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish (YaMM) sur'atlari

Mamlakatlar	1964-1973yy., %	1960-1973yy.,%	1973-1983yy.,%
Yaponiya	14	10,1	3,7
AQSH	4	3,9	1,9
Germaniya (GFR)	4,5	4,5	1,7
Buyuk Britaniya	3	3,1	0,8
Frantsiya	5,5	5,6	2,2
Italiya	5	5	1,8

1964-1973 yillardagi Yaponiya iqtisodiyotining tez taraqqiyoti sabablari quyidagicha bo'ldi:

- sanoat tarmoqlarida ko'plab miqdorda kapitalning jamg'arilishi;
- ilmiy-tekshirish institutlarining tavakkal kapitallari hisobiga ko'plab daromadlar olishi, ularning ish faoliyatlari yildan-yilga rivojlanishi;
- sanoat tizimlarida erkin ravishda olingan litsenziya hisobiga amerika va Evropa kompaniyalari mahsulotlarining ishlab chiqarishi;
- jahon bozorida xomashyo va yonilg'ining arzon bo'lganligi;
- ishchi kuchlarining boshqa etakchi mamlakatlarga qaraganda arzon bo'lganligi;
- davlat byudjetidan deyarli harbiy xarajatlar qilinmaganligi sababli, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko'plab qo'shimcha mablag'larning sarf qilinishi;
- oylik maoshlarning yanada ko'tarilishi bois korxona va tashkilotlarda bo'sh o'rinlar qolmadi, qolaversa ishchi kuchi ko'p ishlab chiqarish sohalarida bo'sh o'rinlarga ishchilarni jalb qilish borasida talab ham kuchaydi.

Ishsizlikning ko'rsatkichi o'rtacha 0,5% tashkil qildi.

5-davr, 1974-1983 yillar. 73-74- yillarda OPEK mamlakatlarining neft narxini 4 marotaba ko'tarishi natijasida jahon xo'jaligida «birinchi neft inqirozi» vujudga keldi.

Ushbu neft inqirozi Yaponiya sanoatining tarmoqlariga juda katta salbiy ta'sir o'tkazdi. 1974 yilda sanoat ishlab chiqarishi oldingi yilga nisbatan deyarli 20 % ga kamaydi. Yaponiya xukumati neft inqirozidan chiqib ketish maqsadida, ko'p energetika talab qiluvchi tarmoqlarga e'tiborini qaratadi, ya'ni sanoat tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirishning yangi tizimini ishlab chiqadi. Lekin bu «iqtisod qilish siyosati» ham unchalik samarador emasligini isbotladi.

Hukumat yangi moliyaviy islohotini ishlab chiqib, davlatning iqtisodiyotdagi nazorati qisqartirildi, davlat mulkining xususiylashtirishga yanada keng yo'l ochib berildi, hamda korxonalarining soliqlari ham qisqartirildi. Qilingan chora-tadbirlardan so'ng bozorlardagi narh-navo 1976 yildagina barqarorlashdi. Xukumatning barcha harakatlari tufayli mamlakatning sanoat tizimi 1978 yilning kuzidagina qayta tiklanishga erishildi, ya'ni o'z yo'liga tushirildi va bu bilan 1972 yilgi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichiga etib oldi.

Masalan, 1977 yilda Yaponiya xoriждан 237 mln.t. neftni import qilgan (1965-1970 mln.t.), ya'ni bu bilan energetika ishlab chiqarish uchun ketadigan xomashyo xarajatlari quyidagicha bo'lgan: neft – 75 % (2001 - 55 %), ko'mir-18 % (2001 - 20 %), tabiiy gaz-2 % (2001 - 11 %)ni tashkil qilgan. Shuning uchun ham, neft inqirozidan keyin xukumat neftdan ko'ra ko'mir va suyuqlik gazdan (sji-jenno'y gaz) ko'proq foydalanishga o'tildi, chunki ko'mir neftga qaraganda ham arzon xomashyo bo'lgan edi.

1980 yilda mamlakatning iqtisodiyoti avvalgi o'sish sur'atlariga yana chiqib oldi. Shu yili bir yildagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 7132 doll.ni tashkil qildi.

6-davr, 1984-1997 yillar. 1981-1986 yillarda davlatning AQSHga eksporti deyarli 2,5 marotaba, ya'ni 38,6 mlrd.dan 80,5 mlrd. AQSH doll.gacha o'sdi. 1984 yilda jahon bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 12 % Yaponiyaga to'g'ri keldi.

1987 yilda yalpi milliy mahsulot 371,1 trln. yenni (2,9 trln. doll.) tashkil qildi. Bu oldingi yilga nisbatan iqtisodiy o'sishning 5%ini tashkil qildi. Natijada, bu ko'rsatkich 1973-1974 va 1979 yillardagi "neft inqirozi" yillardan keyingi eng yaxshi ko'rsatkich bo'ldi.

90-yillardan mamlakatda iqtisodiyot tizimining qayta tuzilishi natijasida juda kuchli stabil iqtisodiyot vujudga keldi, jumladan:

- hukumat tomonidan sanoatda "qayta qurish" siyosati olib borildi;

- hukumat asosiy e'tiborni xizmat ko'rsatish tarmoqlariga, aviatsiya, kosmonavtika, meditsina, biotexnologiya tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratdi.

Yaponiyaning iqtisodiy o'sishi sekinlashuvi 1993 yildan yana boshlandi, buning eng asosiy sabablari:

- ishsizlikning o'sishi;
- milliy yennning qadrsizlanishi;

1993 yilgi jahon xo'jaligidagi «neft inqirozi» bo'ldi.

1994 yilda «Evropa Ittifoqi» tashkilotiga a'zo mamlakatlari bilan keng miqyosda eksport-import jarayonlarini olib borishi va uni rivojlantirish maqsadida hukumat «Yaponiyaga kirish darvozasi» dasturini qabul qiladi.

7-davr, 1998 yillardan –hozirgi kungacha bo'lgan davr. 1997 yilgi Janubi-Sharqiy Osiyo mamalkatlarida ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin mamlakat iqtisodiyotining hozirgi kunda yana tez sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgani ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda.

Yaponiya hukumati iqtisodiy o'sishni yo'lga qo'yish uchun bir qancha iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1998 yilda eng asosiy iqtisodiy islohot- 1998-2001 yillarga mo'ljallangan **«Big Bang»** islohotini qo'lladi. Ushbu islohot iqtisodiyotni jadallashtirish uchun 33 trln.yen miqdorida mablag' ajratildi va bu mablag' iqtisodni qayta ko'tarish uchun etarli bo'ldi.

11.4. Mamlakat iqtisodiyotida sanoat va qishloq xo'jaligining ahamiyati va tutgan o'rni

Yaponiya XX asrning 70-yillariga borib, eng katta iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va moliyaviy salohiyatga ega bo'lgan davlat sifatida jahon xo'jaligiga tanildi, chunki sanoat ishlab chiqarish tizimi tarmoqlarini 10-15 yil ichida juda tez sur'atlarda o'zgartirib yubordi. Jumladan, mamlakatning to'qimachilik va qishloq xo'jaligiga asoslangan tarmoqlarining o'rniga yuksak zamonaviy sanoat tarmoqlari vujudga keldi. 1950-60 yillarda yirik sarmoya talab qiluvchi tarmoqlar, jumladan, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, ximiya, kemasozlik va avtomobilsozlik, mashinasozlik, qog'oz ishlab chiqarish kabi sanoat tarmoqlari yildan-yilga juda tez sur'atda o'sdi.

Hozirgi kunda 34 ta yapon kompaniyasi dunyodagi eng yirik 200 ta kompaniya reytingidan joy olgan. Mamlakatda jami 800 mingdan ortiq yirik, o'rta va kichik kompaniyalar mavjuddir. Yaponiyadagi barcha o'rta va kichik korxonalar va

mikrofirmalar ham turli uyushmalarga birlashgan. Deyarli 99 % korxonalar kichik va o`rta biznes toifasidagi korxonalar qatoriga kiradi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: qora metallurgiya, radioelektronika, teleradioapparatura, avtomobilsozlik, tezyurar poezdlarni ishlab-chiqarish, neft ximiyasi, to`qimachilik, avtomatika dastgohlari, aloqa vositalari, biotexnologiya, mikroelektronika va boshqa o`nlab sanoat tarmoqlari mavjud. Yaponiya sanoati xorijdan sotib olingan xomashyo hisobiga ishlaydi. Hozirda ko`p xomashyo talab ishlab chiqarishlar xorijga, avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga ko`chirilmoqda.

Yaponiyaning eng asosiy sanoatlaridan biri avtomobilsozlik hisoblanadi. Oxirgi yillarda avtomobilsozlikdan tushadigan foyda YaMMning 10 %ini tashkil qildi. 1936 yilda Tashqi savdo va sanoat vazirligi Harbiy mudofaa vazirligi bilan birgalikda «Avtomobil ishlab chiqarish» qonuniga asosan, avtomobilsozlik sanoat tarmog`i tashkil qilindi. Eng birinchi avtomobil kompaniyalari «Toyota Motor», «Nissan Motor» va «Dizel Motor» hisoblanadi. Avtomobilsozlik tarmog`ida 1945 yilda qabul qilingan «Amerika avtomobillarini ta'mirlash» dasturining ahamiyati katta bo`ldi. 1950 yildan esa hukumat avtomobilsozlik tarmog`ini rivojlantirishda qat'iy nazorat o`rnatdi.

Aholining avtomobillarga bo`lgan extiyoji katta bo`lganligi sababli, 70-yillargacha barcha ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning atigi 20%i eksportga chiqarilgandi xolos. 1974 yilda avtomashinalarni ishlab chiqarish bo`yicha Germaniyadan o`zib ketib 1-o`ringa ko`tarildi. Avtomobil ishlab chiqarishi bo`yicha 12 ta kompaniya faoliyat ko`rsatib, ular yiliga 14 mln. dona avtomobil ishlab chiqish quvvatiga ega. Avtomobil ishlab chiqarishdagi eng yirik kompaniyalar-«Toyota dzidosya», «Nissan dzidosya», «Xonda giken kogyo», «Mitsubisi dzidosya kogyo», «Mazda motor» va boshqa kompaniyalardir.

Hozirgi kunda Yaponiya avtomobilsozlik kompaniyalari o`z bo`limlarini Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga, ayniqsa, Xitoy avtomobil bozoriga kiritishga harakat qilmoqda. Chunki ushbu mamlakatlarda quriladigan zavodlar kelajakda mamlakatga katta kapitallarni olib kelishi mumkin.

Yaponiya energetika tarmog`i bo`yicha importchi mamlakat hisoblanadi, chunki energiya uchun ketadigan neft, gaz, ko`mir, uran va boshqa hom-ashyolarning 80 %i xorijdan keltiriladi va bu butun importning 16 %ini tashkil qiladi. Yiliga o`rtacha 1000 mlrd.kVt.ga yaqin elektr-energiya ishlab chiqarilib, energiya ishlab chiqarish bo`yicha jahonda 3-o`rinda turadi.

Metallurgiya sanoat tarmog`ida «Nippon kokan seytetsu», «Sinnippon seytetsu» va «Kawasaki seytetsu» kompaniyalari mamlakatda ishlab chiqariladigan cho`yanning 70 %i va 60 % metalni ishlab chiqaradi hamda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish bo`yicha dunyoda AQSHdan so`ng 2-o`rinda turadi.

Kemasozlik sanoati mamlakatdagi eng etakchi sanoat tarmoqlaridan biridir. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan kemalarning 48 %i aynan shu mamlakatda ishlab chiqariladi. Eng asosiy kemasozlik sanoatining markazi Kawasaki shaharida joylashgan. Bundan tashqari Iokogama, Osaka, Kobe va Nakasaki shaharlaridagi kemasozlik tarmoqlari rivojlangan. «Mitsubisi Dzyukogio» va «Isikavadzima Xarima» kompaniyalari kema ishlab chiqarishi bo`yicha dunyoda 1 va 2-o`rinlarda turadi.

Bundan tashqari ko'plab kompaniyalar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda etakchi o'rinlarda boradi, masalan:

«Mitsui» kompaniyasi - neftni qayta ishlash texnikalari va asbob-uskunalarini ishlab chiqaradi.

«Soni» kompaniyasi - texnika va radioapparat tovarlarini ishlab chiqaradi.

«Nissyo-Ivai» kompaniyasi - oltin qazib chiqarish texnologiyalari va uning asbob-uskunalarini ishlab chiqaradi.

«Sumitoma korporeyshn» kompaniyasi kompyuter va telekommunikatsiya mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

«Panasonik», «AYVA», «JVC» kompaniya va firmalari texnika, radioapparat, teleapparat mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

«Yamasa» firmasi esa radioapparat va elektron musiqa asboblari ishlab chiqaradi.

YaMMda qishloq xo'jaligining ulushi atigi 2 %ni tashkil qiladi. Yaponiya qishloq xo'jaligining tarixi 2 ming yildir. Sholi va boshqa don ekinlarini etishtirish usuli Xitoydan Koreya orqali etib kelgan. 20-yillarda ham mamlakat iqtisodiyotining bosh tarmog'i agrar sektor bo'lgan va mamlakatda asosan sholi etishtirilgan. Qishloq xo'jaligida asosan sholichilik, baliqchilik, parrandachilik, cho'chqachilik va meva-sabzavot tarmoqlari mavjud.

1945 yilda qabul qilingan agrar islohotning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo'lgan:

- 1946-1949 yillarda agrar sektorni rivojlantirish bilan mamlakat oziq-ovqat muammosiga barham berish;
- fermer xo'jaliklarini tashkil qilish;
- qishloq xo'jaligini yangi texnikalar bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligida meliorativ tizimni kengaytirish;
- fermerlarning mineral o'g'itlar va texnikalarni sotib olishlari uchun davlat tomonidan kreditlar berishdan iborat bo'ldi.

Islohot natijasida 1948 yilning o'zidayoq, mamlakatda yuzaga kelgan oziq-ovqat taqchilligiga butunlay barham berildi. Yaponiya qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatuvchi fermer xo'jaliklarining har biriga 1,5 ga. er maydoni to'g'ri keladi. Hududning 14 % qishloq xo'jaligi tarmoqlari mujassamlashgan va unda 5,5 mln. kishiga yaqin aholi faoliyat ko'rsatadi. Eng asosiy qishloq xo'jaligi ekini – sholi bo'lib u yaponlarning eng asosiy ovqati hisoblanadi. Yapon sholisining mingdan ortiq turi mavjud. Eng qimmat va to'yimli sholi mamlakat hududining shimoli-sharqida, Toxoku rayonida etishtiriladi.

So'nggi 10 yil ichida qishloq xo'jaligining tarkibi o'zgarib bormoqda. Hukumat tomonidan ham asosiy e'tibor sholiga, ya'ni «yapon noni»ning etishtirilishiga qaratilmoqda, hamda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning 55 %i sholi etishtirilishi uchun ajratilgan va yiliga o'rtacha 16 mln.t.ga yaqin hosil olinadi. Bir necha mahsulot etishtirilishi bo'yicha, jumladan, guruch - 100 %, tuxum - 99 %, sabzavotlar - 85 %, mevalar - 60 %, sut mahsulotlari - 70 %, aholi ehtiyojini qoplaydi. Paxtaning 100 %; bug'doyni 90 %, tuz-80 %; shakarining 60 % xorijdan import qilinmoqda.

Umuman, qishloq xo'jaligida etishtirayotgan mahsulotlar mamlakat ehtiyojini 70 % ta'minlaydi va qolgan oziq-ovqatning 30 % import qilinadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import qilish bo'yicha Yaponiya jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi va bu ko'rsatkich jami mahsulotning 12%ini tashkil qiladi. Yaponiyaning oziq-ovqat importi bo'yicha asosiy xorijiy hamkorlari AQSH, Xitoy va Avstraliyadir.

Baliqchilik tarmog'i quyidagi sabablarga ko'ra rivojlangan:

- baliq ovlash yaponlarning an'anaviy mashg'uloti yoki «xobbi»si;
- hududni okean va dengizlarning yuvib turishi hamda jahon xo'jaligida Tinch okeanining shimoli-g'arbiy qismi jahon baliqchiligining bosh rayoni hisoblanadi;
- yapon aholisining baliqdan boshqa go'sht mahsulotlarini deyarli iste'mol qilmasligidir.

Baliq ovlash bo'yicha Yaponiya jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi, har yili o'rta hisobda baliqning 35 turi bo'yicha 12 mln.t. baliq ovlanadi. Jahon xo'jaligida baliq ovi va "baliq ovlaydigan kemalar"ning 15 %i shu mamlakatga to'g'ri keladi. Yaponiya o'rmonga boy bo'lsa-da, yog'ochga bo'lgan ehtiyoji va talabi katta. Yog'ochning 60 %i xorijdan import qilinib, dunyodagi eng yirik «o'rmon iste'molchi»sidir.

11.5. Transporti

Yaponiya mamlakatining ichki hududidagi eng rivojlangan transport turiga temir yo'llar transporti kiradi. Yaponiyada temir yo'llar transporti boshqa transportlardan ustun turadi. Chunki, mamlakat bo'yicha yo'lovchi tashishning 40 % va yuk tashishning 42 % temir yo'llar transportiga tegishlidir. Temir yo'llarining uzunligi 39 ming km, buning yarmi elektrlashgan temir yo'llardir.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, 1949 yilda «Yaponiya Milliy temir yo'llari» («Japan Railways») kompaniyasi davlat tarkibida tashkil topdi (1987 yilda moliyaviy qiyinchiliklarga bardosh berolmay ushbu kompaniya xususiylashtirildi, hamda 6 ta mintaqaviy passajir temir yo'l kompaniyalariga bo'linib ketdi). Ushbu kompaniya tomonidan 1964 yilda dunyoda 1-bo'lib tez yurar poezdlarni ishlab chiqardi va shu yilning o'zidayoq 1-marta tezyurar poezdlar uchun temir yo'l qurildi. Yaponiya transportini metrosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shahar transportida metroning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Hozirgi kundagi dunyodagi eng uzun metro liniyasining qurilishi Tokioda 2000 yilda boshlangan bo'lib, uning ishga tushirilishi 2007 yilda rejalashtirilgan.

Yaponiya metrosi o'zga xos xususiyatga ega. Keyingi yillarda qurilayotgan metropolitenlarning aksariyati shunday rejalashtirilganki, ular er yuzasidagi temir yo'l liniyalari bilan tutashib ketgan. Shunga ko'ra, shahardagi elektr poezdlar ham metropoliten relslaridan foydalanib, er ostiga sho'ng'iy oladi.

Yaponiyada metro qurilishi ko'pincha kamxarajat usulda quriladi. Tunellar ustida avtomobillar yurishi uchun po'lat metallar bilan qoplanadi va yopiladi.

Metro qurilishi iqtisodiy inqiroz paytlarida yangi ish o'rinlarini yaratdi.

Yaponiyada metro qurilishlari davom etayotgan bo'lsa-da, ba'zi to'siqlarga duch kelmoqda. Jumladan, doimiy ravishda zil - zilalarning bo'lib turishi va er ostida suv yo'llarining ko'pligi qiyinchilik tug'dirmoqda.

Avtomobil yo'llarining uzunligi - 1,3 mln.km.dan ziyod, ularning 47 %i qattiq qoplamali yo'llar, shundan 5 ming km. - tez qatnovli yo'llar. Eng katta avtomagistralning uzunligi 8600 km.dir. Havo yo'llari transportida asosiy aviakompaniyalar: «Djapan eyrlaynz», «Ol Nippon koku» va «Djapan eyr sistem» aviakompaniyalari hisoblanadi.

Suv transportida yuk ayirboshlash miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Umumiy tashqi savdo-sotiqning 99 %i suv transporti orqali amalga oshiriladi. Mamlakatning ichki hududlarida yuklarning ko'p qismi kabotaj kemalarda tashiladi. Shunisi bilan qiziqki, er sharidagi okean va dengizlarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha kemalarning 52%ini Yaponiyada ishlab chiqarilgan kemalar tashkil qiladi.

Neft quvurlarining uzunligi - 550 km. Tabiiy gaz quvurlari uzunligi-2100 km.ni tashkil qiladi.

Shahar transporti eng zamonaviy avtobus va engil mashinalari bilan jihozlangan. Mamlakatda avtobuslarga bo'lgan ehtiyoj to'la qondirilganligi sababli, oxirgi yillarda avtobuslarning soni ko'paytirilmasdan bir me'yorda ushlab turilibdi. Avtobuslarning kamayishi asosan elektr temir yo'llar va metrolarning ko'plab qurilishi, engil avtomobillarning ko'payishi bilan bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, engil mashinalar avtobuslarni shahar transportidan siqib chiqarmoqda. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha avtobuslarning 100 %i maalliy kompaniyalar (43%-«Toyota»; 17 %-«Mitsubishi», 15 % «Nissan») tomonidan ishlab chiqarilgan (11-jadval) .

11-jadval

Transport turi, (2005 й.)	Yo'lovchilarni tashish, (% hisobida)	Yuk tashish, (% hisobida)
Temir yo'l	40	42
Avtomobil	48	31
Avtobus	5,5	0
Samolyot	4,5	1
Kema	2	26

Yaponiya hududi ko'plab tog'lardan tashkil topganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda mamlakatda 3 mingdan ortiq turli uzunliklardagi tunnellar mavjud.

11.6. Yaponiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

Yaponiya - hozirgi kunda yuksak darajada rivojlangan industrial agrar mamlakat bo'lib, iqtisodiy qudrati bo'yicha jahonda AQSHdan keyin 2-o'rinda turadi. «Iqtisodiy mo'jiza» sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hukumatning kuchli nazorati ostida vujudga keldi. Shuning uchun ham, mamlakat iqtisodiyotida davlat sektori ustuvor hisoblanadi.

Dunyoda ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotning 12 %i Yaponiyaga to'g'ri keladi. U 80-yillardan boshlab, dunyodagi eng yirik kreditor davlat hisoblanadi, 1998 yildayoq xorijga bergan kredit miqdori 1 trln. doll.dan oshib ketgandi.

Xulosa

Yaponiya jahon tashqi savdo oboroti bo'yicha AQSH, Xitoy va Germaniyadan so'ng 4-o'rinda turadi. Tashqi savdo-sotiqdagi eng asosiy hamkorlari AQSH, Xitoy, ASEAN va Evropa ittifoqi mamlakatlaridir.

Umumiy tovar ayirboshlash 2005 yilda 1034,8 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qilib, undan 542,1 mlrd. AQSH doll. eksport va 492,7 mlrd.AQSH doll. miqdori importni tashkil qiladi. Jahon miqyosidagi eksport ulushining 9 % va import ulushining 9,5 %i ushbu mamlakatga tegishli.

Asosiy eksport mahsulotlariga avtomobil, kemalar, tez yurar poezdlar, asbob-uskunalar, elektronika, metall va metall buyumlar, ximiya mahsulotlari kiradi. Eksport geografiyasi: AQSH – 31 %, Tayvan – 7 %, Xitoy - 5,5 % Janubiy Koreya - 5,5 %, Gongkong – 5 % va h.k. mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Asosiy import mahsulotlariga eng birinchi navbatda neft xomashyosi, yog'och, oziq-ovqat va boshqa xomashyo manbalari kiradi. Importining 22 % i AQSHdan, 14 % - Xitoydan, Janubiy Koreyadan - 5, Avstraliyadan - 4, Tayvandan – 4 % keltiriladi.

Yaponiya Iqtisodiyot va sanoat vazirligining ma'lumotiga ko'ra, 2005 yilda ishlab chiqargan mahsulotlarining 29 %i xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan. Masalan, ishlab chiqarilgan avtomobillarning deyarli 30 %i va televizorlarning 98 %i xorijda ishlab chiqarilgan.

Yaponiya engil avtomobillar, traktorlar, kemalar, maishiy xizmat ko'rsatish texnikalari, rangli televizorlar, kompyuterlar, videomagnitafonlar, elektr-texnika asboblari, optika asboblari, sun'iy ipak tolasini ishlab chiqarish, baliq ovlash bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab turibdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jahondagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning “bosib o'tgan yo'llari” va bosqichlarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida tatbiq qilgan. Jumladan, Tailand, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Janubiy Koreya, Tayvan, Filippin kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar va dasturlarda aynan “yaponiya tajribasi”ning ba'zi jihatlaridan unumli foydalanilgan. Yaponiya XX asrning ikkinchi yarmida jahon xo'jaligida eng etakchi mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egalladi.

Tayanch iboralar

Savdo palatasi, saldo, tarif, xolding, Yaponiya iqtisodiy mo'jizasi

Nazorat uchun savollar

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaponiya mamlakati iqtisodining ahvoli qanday bo'lgan edi?
2. Yaponiyaning “iqtisodiy mo'jiza” yaratishdagi eng asosiy sabablari nima?

3. Yaponiya birinchi “neft inqirozi”dan qanday chiqib ketdi?
4. Iqtisodiy rivojlanishdagi eng asosiy omilini aytib bering.
5. Yaponiyaning iqtisodiy o`sinh davrlarini aytib bering.
6. 1980-87 yillarda Yaponiya iqtisodining tez o`sinh sabablarini keltiring.
7. Yaponiyaning qaysi iqtisodiy rivojlanish davri mamlakat iqtisodi tarixida “tez taraqqiyot” nomini oldi?
8. Nima sababdan Yaponiya 60-yillari tez sur'atlarda rivojlanib ketdi?
9. Yaponiyaning hozirgi sanoat tizimlarini aytib bering.
10. “Dodj yo`nalishi» dasturi qachon qo`llanilgan va uning maqsadi nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Поспект, 2006.
4. Nazarova G.G`, Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O`quv qo`llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
7. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

12-bob. “YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR” NING IQTISODIYOTI

12.1. “Yangi industrial mamlakatlar” (YaIM)ning umumiy xarakteristikasi

12.2. YaIM iqtisodiy modellarining o`ziga xos tomonlari

12.3. YaIM – xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o`rni

12.1. “Yangi industrial mamlakatlar” (YaIM)ning umumiy xarakteristikasi

Singapur Respublikasi O`zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil aprelda tan oldi va ikkala mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar 1997 yil 8 aprelda o`rnatildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida Singapur O`zbekistonning yirik savdo hamkorlaridan biri bo`lib, 2005 yil yakunlariga ko`ra, mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro tovar aylanma sezilarli darajada o`sdi. Tovlar ayirboshlash 2004 yil bilan solishtirganda 215% (24,2 mln.AQSH doll.)ga oshgan va 76,1 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan eksport 71,1 mln. AQSH doll.ga, import esa 5,0 mln. AQSH doll.ga teng bo`lgan.

O`zbekiston Respublikasida Singapur investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan 8 ta korxona faoliyat olib bormoqda.

Malayziya O`zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992 yil 1 yanvarda tan oldi va ikkala mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 21 fevralda o`rnatildi. 1993 yil Malayziyaning Toshkentdagi elchixonasi o`z faoliyatini boshladi. 1999 yildan boshlab, O`zbekiston Respublikasining Malayziyadagi elchixonasi faoliyat ko`rsatmoqda.

1992 yil O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Malayziyaga rasmiy tashrifi va 1993 yilda Malayziya Bosh vaziri M. Muhammadning O`zbekistonga rasmiy tashrifi mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 2005 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov davlat tashrifi bilan Malayziyada bo`ldi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik. 2005 yil yakunlariga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi va Malayziya o`rtasidagi tovar aylanma 16,2 mln. AQSH doll.ga teng bo`lib, shundan eksport 3,9 mln.AQSH doll.ni, import 12,3 mln.AQSH doll.ni tashkil etgan. 2005 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Malayziyaga davlat tashrifi chog`ida jami qiymati 400 mln. AQSH doll.ga teng bo`lgan 15 ta savdo va investitsiya kelishuvlari imzolandi.

O`zbekiston Respublikasida Malayziya investorlari ishtirokida tashkil etilgan 23 ta korxona faoliyat olib bormoqda. Shundan 19 tasi qo`shma korxonalar, 4 tasi esa 100 % Malayziya kapitali asosida tashkil etilgan korxonalar. Bular jumlasiga: “O`zbekiston” mehmonxonasini qayta ta'mirlashda hamkorlik qilgan kompaniyalarni, “O`zMalOyl” neftni qazib olish va qayta ishlash kompaniyalarini kiritish mumkin.

Koreya Respublikasi O`zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 30 dekabrda tan oldi va ikkala mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 29 yanvarda o`rnatildi. Diplomatik munosabatlar o`rnatilganiga qisqa vaqt bo`lishiga qaramasdan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Koreya Respublikasining rahbarlari bilan beshta (1992 y., 1994 y., 1995 y., 1999 y., 2005 y.

va 2006 y.) yuqori darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tdi. 2006 yil 28-30 mart kunlari Seulda bo'lib o'tgan uchrashuvda ikkala mamlakat rahbarlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikalarining strategik hamkorlik to'g'risidagi Dekloratsiyasi imzolandi (12-jadval).

12- jadval

Savdo-iqtisodiy hamkorlik

mln. AQSH doll.

Кўрсаткичлар	1999 й.	2000 й.	2001 й.	2002 й.	2003 й.	2004 й.	2005 й.
Товар айланма	526,8	393,9	485,0	326,0	289,9	408,7	564,5
Экспорт	122,5	106,4	137,0	67,0	55,1	56,8	51,5
Импорт	404,4	287,5	348,0	259,0	234,8	351,9	513,0
Сальдо	-281,9	-181,1	-211	-192	-179,7	-295,1	-461,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Aloqalar, Investitsiya va Savdo Vazirligi ma'lumoti.

2005 yil yakunlariga ko'ra, ikkala mamlakat o'rtasidagi tovar aylanma 564 mln. AQSH doll.ga teng bo'lib, shundan eksport 51,5 mln. AQSH doll.ni, import 513,0 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan. Manfiy saldo -461 mln. AQSH doll.ga teng bo'lgan. Import miqdorining kattaligiga sabab, "O'zDEU" avto korxonasi uchun Koreyadan olib kelinayotgan ko'p miqdordagi ehtiyot qismlardir.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotiga Janubiy Koreyadan kirib kelgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning miqdori 1mlrd. AQSH doll.ga borib etdi. O'zbekiston Respublikasida Koreya investorlari ishtirokida tashkil etilgan 138 ta korxona o'z faoliyatini olib bormoqda. Shundan, 17 tasi 100 % Koreya kapitali asosida tashkil etilgan korxonalardir. Respublikamizning Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi tomonidan 37 ta Koreya kompaniyalari akkreditatsiya qilingan va o'z vakolatxonalarini ochgan.

XX asrning 60-80 yillari rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy tuzilishida global o'zgarishlarni vujudga keltirgan davr bo'lishi bilan bir qatorda, YaIM ijtimoiy – iqtisodiy tuzilishida ham yuksak o'zgarishlar davri bo'ldi.

Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 98,480 kv.km.ni, aholisi esa 48 mln. kishi (2004 y.)ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 857,8 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 3,1 %ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 17,800 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 3,6 %, sanoat 36,4 %, xizmatlar 60,0 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 3,6 %ga, ishsizlik darajasi esa 3,4 %ga teng bo'lgan. Koreya Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 135,5 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 128,7 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y.). Mamlakatning eksporti 201,3 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 175,6 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y.) tashkil etgan.

Singapur Respublikasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 692,7 kv.km.ni, aholisi esa 4,3 mln. kishi (2004 y.)ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 109,4 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 1,1% ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 23,700 AQSH doll.ni

tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: sanoat 32,2 %, xizmatlar 67,8 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 0,5 %ga, ishsizlik darajasi esa 4,8 %ga teng bo'lgan. Singapur Respublikasining davlat byudjeti daromadlari 14,15 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 15,61 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y.). Mamlakatning eksporti 142,4 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 121,6 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y.) tashkil etgan.

Malayziya Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, uning er maydoni 329,750 kv.km.ni, aholisi esa 23,5 mln. kishi (2004 y.) ni tashkil etadi. Mamlakatning YaIM ko'rsatkichi 2004 yilda 207,8 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lib, uning yillik o'sish darajasi 5,2 % ga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 9,000 AQSH doll.ni tashkil etgan. YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi: qishloq xo'jaligi 7,3 %, sanoat 33,5 %, xizmatlar 59,1 %ga teng. 2004 yilda mamlakatdagi inflyatsiya darajasi 1,1% ga, ishsizlik darajasi esa 3,6 %ga teng bo'lgan. Malayziyaning davlat byudjeti daromadlari 22,95 mlrd. AQSH doll.ga, xarajatlari 27,75 mlrd. AQSH doll.ga teng bo'lgan (2004 y.). Mamlakatning eksporti 98,4 mlrd. AQSH doll.ni (2004 y.), importi esa 74,4 mlrd. AQSH doll.ni (2003 y.) tashkil etgan. "Yangi industrial mamlakatlar" rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidan barcha iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ajralib turadi.

YaIMni rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlab turuvchi tomonlar, ularni rivojlangan mamlakatlardan ham ajratib turadi. Ularning rivojlanishi "Yangi industrial" modeli sifatida ma'lumdir. Bu xususiyatlar, Lotin Amerikasidagi hamda Osiyodagi YaIMning rivojlanish tajribasini tahlil qilish jarayonida aniq ko'zga tashlanadi.

Lotin Amerikasidagi YaIM rivojlanish tajribasining muhim rolini pasaytirmasdan turib ta'kidlab o'tish joizki, Osiyodagi YaIM, aynan: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, ko'pchilik ozodlikka erishgan mamlakatlar uchun xalk xo'jaligining ichki dinamikasi bo'yicha ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarning ekspansiyasi bo'yicha ham, rivojlanishning o'ziga xos namunasi bo'lib qoldi. Odatda, "Yangi industrial mamlakatlar" qatoriga Osiyodagi to'rtta qayd etib o'tilgan bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar ham taalluqli hisoblanadi. Nomma–nom sanab o'tilgan barcha mamlakatlar YaIMlarning birinchi avlodi yoki birinchi qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ularning ketidan "YaIM"ning keyingi avlodlari etishib chiqmoqda. Masalan: ikkinchi avlod mamlakatlariga Filippin, Xitoyning Janubiy chegaralari va boshqalar kiradi. "Yangi industriallashuvning" butun boshli zonalari, yaqin mintakalarda o'z ta'sirini o'tkazayotgan iqtisodiy o'suvchanligi yuqori bo'lgan qutblar paydo bo'lmoqda.

BMT tomonidan ishlab chiqargan usul bo'yicha YaIM qatoriga kiruvchi mamlakatlar u yoki bu mezonlar bo'yicha alohida ajralib turadi:

1. aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotlarning miqdori;
2. uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;
3. YaIM tarkibidagi qayta ishlash sanoatining tutgan o'rni, 20% atrofida bo'lishi kerak;
4. chiqariladigan tovarlar umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksportining hajmi;

5. xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy miqdori.

Bu ko'rsatkichlar bo'yicha YaIM nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar oldida ajralib turadi, balki ayrim hollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlar ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi. Masalan, Tayvan, 1952-1993 yillar oralig'ida YaIM hajmini 170 marotaba o'stirdi. (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir), tashqi savdo hajmini esa 543,6 marotabaga oshirdi. Inflyatsiyaning past darajada saqlanganligi sharoitida -3,6 %, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati 8,7 % tashkil etdi. Tayvan ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritiladi. Aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ning hajmi 15 ming doll.ni (2000 y.) tashkil qiladi.

Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning 30 yil oralig'idagi iqtisodiy rivojlanish sur'ati hisoblab ko'rilganda (1960-1990 y.y.) uning darajasi yiliga 5% tashkil etgan, o'sha paytda bu ko'rsatkich Evropa mamlakatlarida 2%ga teng bo'lgan. Bu paytda, Tayvanda o'sish sur'ati juda yuqori bo'lgan. Shuningdek, 90 yillarda Janubiy Koreya 8 %, Singapur 8 %, Malayziya 9 % yillik o'sish sur'atiga ega bo'lgan (13-jadval).

13-jadval

Osiyoning “Yangi industrial mamlakatlar”idagi yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati (%)da

Mamlakatlar	1980-90 yillar o'rtalarida	1991 y.	1992 y.	1993 y.	1994 y.
Janubiy Koreya	9,9	8,3	7,3	6,4	7,6
Tayvan	8,3	7,3	6,7	6,7	6,9
Gonkong	7,1	4,0	5,8	5,4	5,5
Singapur	6,3	7,0	6,1	6,0	6,1
Malayziya	5,1	8,6	8,5	7,6	7,5

“Yangi industrial mamlakatlar” iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi ular aholisining yashash sharoitlarining yaxshilanib borayotganligi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuningdek, 60-yillarning o'rtalaridan 90- yillarning boshlariga qadar o'tgan davr ichida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad bu mamlakatlarda 4 marotaba o'sdi. Xalqaro ekspertlarning prognoz qilishicha, 2010 yilga borib Sharqiy Osiyo yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha G'arbiy Evropani quvib o'tadi, 2020 yilga borganda esa Shimoliy Amerikani quvib o'tadi.

Singapur haqida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995 yil Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib “industrial rivojlangan mamlakat” nufuzini qo'lga kiritdi. Bunday unvon unga iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Barqaror iqtisodiy o'sishning 3 yilligi davomida nisbatan past rivojlangan 10 mamlakat doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy davlatlari qatoridan joy oldi (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoati yiliga o'rtacha 8,4 % rivojlandi, mamlakatdagi aholining turmush darajasi etti marotaba ortdi. Singapurdagi har bir aholining o'rtacha statistik daromadi 1995 yilda 22,3 ming doll.ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich sobiq metropoliya Buyuk Britaniyaning ko'rsatkichlaridan ancha yuqori turadi.

O'z navbatida Gonkong ham Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi bo'lib hisoblanar edi, keyinchalik esa u ko'pchilik ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'zining metropoliyasi darajasidan yuqori pog'onaga ko'tarildi.

12.2. YaIM iqtisodiy modellarining o'ziga xos tomonlari

“YaIM”ning iqtisodiy modeli va uning muvaffaqiyatli rivojlanish tomonlari qarab chiqilayotganda, uning muvaffaqiyatlarini ta'minlab beruvchi tashqi va ichki darajasidan yuqori omillar xususida ham to'xtalib o'tiladi. Ko'rinib turibdiki, omillarning bu ikki guruhi, YaIM hukumatlari tomonidan olib borilayotgan nozik, maqsadli siyosatlar orqali to'ldirib turiladi. “YaIM”ning ichki tuzilishidagi muammolarga, hamda ularning xo'jalik mexanizmlari tadrijiga asosiy e'tiborni qaratmasdan, YaIM tashqi iqtisodiy omillarining o'ziga xos tomonlari va uning Osiyo “ajdaholari”ning kuchayib borishidagi hamda Lotin Amerikasi YaIMining rivojlanishidagi roli xususida to'xtalib o'tamiz.

Jahon tajribasi guvohlik bermoqdaki, xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishayotganda, u yoki bu mamlakatlar asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning o'sishiga zaruriy hisoblanadigan sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar o'z iqtisodiyotlari doirasida texnologik halqalarning barcha bo'g'inlaridan foydalangan holda tarkibiy qayta qurishlarga xomashyolardan esa texnologik sig'imi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarga o'ta boshlaydi. Tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta'mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalqaro mehnat taqsimoti ko'lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul hisoblanadi.

AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator mamlakatlar xuddi mana shu yo'llar orqali taraqqiy etgan. Shuningdek, AQSH asosan xomashyo, mevalar, paxta, asal, ko'mir va shunga o'xshash bir qancha mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan. GFR esa, 50-yillarda ko'mir, qora metallar, ximiyaviy mahsulotlar singari bir qancha mahsulotlarni eksport qilgan. Yaponiya to'qimachilik, metalurgiya, ximiya mahsulotlarini eksport qilishdan boshlagan.

60-yillarda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlar – “YaIM” xuddi shu yo'l orqali xarakat qildi. Ularning barchasi iqtisodiy o'sishning tashqi omillaridan samarali foydalandi. Shu o'rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar, texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

Qaysi sabablarga ko'ra “Yangi industrial mamlakatlar”ni dunyodagi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan ajratib ko'rsatish mumkin?

Bir qator sabablarga ko'ra, “Yangi industrial mamlakatlar”ning ba'zilar sanoati rivojlangan mamlakatning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta'sir doirasiga tushib qoldi. Shuningdek, AQSH siyosiy manfaatlarning ta'sir doirasi, asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining “kommunistik ta'siriga” qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreya mamlakatlariga qarshi qaratildi.

Bu mamlakatlar cheksiz ravishda iqtisodiy va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Masalan, Tayvanga 1,5 mlrd. doll. miqdorida yordam ko'rsatildi va 1950-1965 yillar oralig'idagi AQSH ning yordami, Tayvanda jalb etilgan jami

investitsiyalarning 34% ini tashkil etdi, shu jumladan 74 % infratuzilmaga, 59 % qishloq xo'jaligiga va 13 % sanoatga jalb etildi. Bularning hammasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida katta ijobiy qadam bo'ldi.

“YaIM” zamonaviy iqtisodiy tarkibi shakllanishida, to'g'ridan –to'g'ri investitsiyalarning ta'siri katta bo'ldi. 80-yillarning birinchi yarmida “YaIM” iqtisodiyotidagi to'g'ridan–to'g'ri investitsiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan–to'g'ri sarmoya qo'yilmalarining 42% iga etdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH “Yangi industrial mamlakatlar” dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko'zga ko'ringan investori hisoblanadi. Ulardagi to'g'ridan–to'g'ri investitsiyalarning o'sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10 %ini tashkil etadi. “YaIM”dagi to'g'ridan –to'g'ri investitsiyalarning miqdori bo'yicha Yaponiya ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari, “YaIM” ning industriallashuviga va ular eksportining raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratdi. Ular “YaIM” ni sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksport qiluvchilariga aylanishida muhim rol o'ynaydi. Bunday investitsiyalar faqat 1982-1985 yillarning o'zida Tayvanda 2 martadan ko'prok, Gonkongda 61 %ga o'sdi.

Bu paytda Yaponiya sarmoyalari ishtirokida ushbu mamlakatlarning yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning ekportchilari bo'lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshlaridan e'tiboran, Yaponiya investitsiyalar umumiy miqdorining yarmidan ko'prog'ini tashkil etdi va ular ishtirokida dastgohlar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha kompleks barpo etildi.

Osiyodagi “YaIM” uchun shu narsa xarakterli bo'ldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishlash sanoati va xomashyo tarmoqlariga tomon yunaltirildi. O'z navbatida, Lotin Amerikasining “YaIM” dagi ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko'prok savdo, xizmat ko'rsatish sohasi va qayta ishlash sanoatiga jalb etildi. Xorij xususiy sarmoyalarining keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, “YaIM” da xorijiy sarmoyalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmadi.

Quyida Lotin Amerikasi va Osiyoning “YaIM” bozoridagi qo'yilmalarining daromadlilik darajasi ko'rsatilgan (%): Argentina – 57,96, Braziliya – 83,5, Meksika – 39,87, Chili – 38,92, Indoneziya – 78,67, Janubiy Koreya – 26,03, Tayvan – 103,98, Tailand – 121,27, Fillipin – 165,18

Ko'rinib turibdiki, Osiyoning “YaIM”dagi investitsiyalarining daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoridir.

Qonuniy shunday savol tug'iladi: Nima uchun xorij xususiy sarmoyalarning barchasi Osiyo mintaqasidagi ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi?

60-yillarning oxiriga kelib, dunyo xo'jaligi rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashdiki, transmilliy korporatsiyalar rivojlanishning manfaatlari va strategiyalari Osiyodagi bir qator davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib bordi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo'lmagan to'lov qobiliyatiga duch kelayotganligi oqibatida ular joylarda mos ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish maqsadida, sarmoyalarni chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam

qo'ymoqdalar. Transmilliy korporatsiyalarning xuddi shu yo'nalishlardagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlar to'yingan bozorlarining konyunkturasi, raqobatning avj olishi va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu korporatsiyalar, o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga muhim e'tibor qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, "Osiyo ajdaholari" xalqaro iqtisodiy konyunkturalarining bunday o'zgarishlarni qabul qilishga va ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga tayyor ekanligi ma'lum bo'ldi.

Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilishda quyidagi shart – sharoitlar muhim ahamiyat kasb etdi:

- “Yangi industrial mamlakatlar”ning foydali geografik ahvoli. Ularning barchasi dunyo savdo iqtisodiy yo'llarining chorrahasida, ya'ni jahon xo'jaligi markazlari bo'lmish – AQSH va Yaponiyaga yaqinroq joylashgan;

- mamlakatlarning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblanadigan avtokratik yoki shunga yaqin bo'lgan siyosiy muhitlarning yaratilishi;

- siyosiy barqarorlik ta'minlandi va siyosiy hamda demokratik o'zgarishlar iqtisodiy islohotlar foydasiga tomon qaratilishi;

- xorijiy investorlarga ular investitsiyalarining xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta'minlanishi;

- Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” aholisiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, intiluvchanlik, tartiblilik, matonatlilik singari noiqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu omillar ma'lum darajada Osiyo va Lotin Amerikasidagi YaIMning ikki modeli o'rtasidagi o'ziga xos bo'lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu modellarning o'ziga xos tomonlari nimada?

Birinchisi milliy iqtisodiyotning tashqi bozor va eksportga tomon ustuvor yo'nalishlar orqali rivojlanishini tushuntirib beradi.

Ikkinchi model –import o'rnini egallashga qaratilgan.

Yuqoridagi birinchi modelda ko'rsatib o'tilgandek, asrning oxiriga kelib AQSH, ikkinchi jahon urushidan keyin –G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya, keyinchalik esa Osiyoning YaIM ham shu yo'ldan bordi. Ikkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining YaIM tomonidan o'zlashtirib olindi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, import o'rnini egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlangan mamlakatlarning ilk taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Import o'rnini egallash strategiyalari xo'jalik tarkibining xilma-xilligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, ular uchun yangi va muhim hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etildi, ko'pchilik muhim yo'nalishlar bo'yicha o'z-o'zini ta'minlash darajasi o'sdi.

Shuningdek, import o'rnini egallashning dinamik va samarali davri ko'p vaqt davom etmaydi. Iqtisodiyotni tubdan islox qilishda asosiy yo'l hisoblanuvchi import o'rnini egallashga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirishni asosiy o'ringa qo'yuvchi barcha mamlakatlarda o'z-o'zidan jiddiy inqirozlar yuzaga kelmoqda. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar imtiyozli kreditlar va boshqa tomondan raqobatlilik

muhitining yoʻqligi va proteksionizmga asoslangan milliy iqtisodiyot faoliyat koʻrsatishining “qoʻllab-quvvatlab turiluvchi” muhiti, tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimlarning vujudga kelishiga yoʻl qoʻymadi. Umuman olganda, import oʻrnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xoʻjaligida tub oʻzgarishlar yasashiga yoʻl qoʻymaydi.

Bundan tashqari, import oʻrnini egallash siyosati nafaqat tashqi omillarning pasayishiga yoʻl qoʻymaydi, balki uning oʻsishini ham taʼminlaydi. Import oʻrnini egallash printsiplariga uzoq vaqt tayanilganda, qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo boʻladi, hamda keng miqyosdagi taraqqiyotga erishishni taʼminlovchi iqtisodiyotdagi etakchi tarmoqlarning vujudga kelishiga xalakit beruvchi toʻsiklarga barham beriladi.

Proteksionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralari sifatida qisman samarasiz ishalyotganiga qaramasdan, uning monopol holati va baholarining keskin oʻsayotganligidan foydalanib, foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qoʻllab-quvvatlaydi. Import oʻrnini egallash davri, koʻpchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan “yangi industrial mamlakatlar” da ham oʻz nihoyasiga etdi.

Import oʻrnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasidagi YaIM (Braziliya, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil milliy iqtisodiyotni barpo etish va bir qator tovarlarni ishlab chiqarish boʻyicha jahonda salmoqli oʻrinni egallash uchun imkoniyatlar yaratib, ijobiy rol oʻynaydi. Nima boʻlganda ham bu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zaruriyat boʻlgan shart –sharoitlarni yarata olmadi. Lotin Amerikasidagi YaIM kuchayib iqtisodiy salohiyatga ega boʻlishiga qaramasdan, Osiyodagi YaIMga nisbatan ancha qoloq hisoblanadi. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) Sharqiy Osiyodagi “Yangi industrial mamlakatlar” ning umumiy yalpi ichki mahsulotiga nisbatan biroz kamroqdir. Lotin Amerikasidagi eksportining salmoqli oʻsishiga ega boʻlmay turib, oʻz iqtisodiyotini talab darajasida tubdan islox qilishga erisha olmadi.

Iqtisodiy oʻsish surʼatlarining natijalariga qarab, ichki iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda kamchiliklarga yoʻl qoʻyildi. Bir vaqtning oʻzida tashqi muammolar ham vujudga keldi, eksportning past darajada oʻsishi, toʻlov balansi defitsiti hamda barcha yangi kreditlarga boʻlgan talabning oʻsishiga imkoniyat yaratdi. Bu mamlakatlarga sanoati taraqqiy etgan mamlakatlardan ilgʻor boʻlmagan texnika va texnologiyalar olib kelish bunday siyosatda mustahkamlanib qolaveradi.

Qayd etish joizki, Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar 90-yillarning oʻrtalariga kelib, 80- yillarning uzoq davom etgan inqirozidan chiqib oldi va hozirgi davrda iqtisodiy oʻsish surʼatlari ortib bormoqda, savdo balansining ijobiy saldosi erishilmoqda (Braziliya, Chili).

Lotin Amerikasidagi yirik YaIMdan biri hisoblanuvchi Braziliyada olib borilayotgan siyosat bu erda yangidan ochiq iqtisodiyotni yaratishga moʻljallangan. Buning uchun ichki bozorlarda raqobat kurashuvi muhiti yaratilayotgan boʻlib, unga bogʻliq holda import tariflarida pasayish kuzatilmoqda. 1995 yilda MERKOSUR mamlakatlari oʻrtasida bojxona cheklanuvlari sezilarli darajada qisqartirildi. Ushbu erkin savdo zonasi tarkibiga: Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay

mamlakatlari kiradi. Yangi islohotlarning qanchalik muvaffaqiyatli kechishini yaqin kelajak ko'rsatadi.

Osiyodagi "Yangi industrial mamlakatlar" iqtisodiyotning eksportga mo'ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma'lum davr mobaynida bir vaqtning o'zida import o'rnini egallash siyosatini o'z ichiga oladi. Import o'rnini egallash va eksportga mo'ljallangan siyosat o'zaro tengma –teng holda harakat qilib, ba'zi davrlarda esa ular bir – biridan ustunlikka ham ega bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o'tish oldidan, import o'rnini egallash mamlakatlar ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlari shakllanishining boshida xalq xo'jaligi an'anaviy sektorini qayta qurish uchun harakat qildi. Buning natijasida esa, industriallashuvga o'tish mumkin bo'lar edi.

Sharqiy Osiyodagi, shuningdek janubiy Sharqiy Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda (Tayvanda, 50– yillarda Janubiy Koreyada; 60-yillarda Malayziyada; 60-70-yillarning boshlarida Tailandda; 50-yillarning boshlari 60-yillarning oxirida Filippinda;) import o'rnini egallash siyosati ustuvor yo'nalishga ega bo'ldi. Gonkong va ma'lum darajada Singapur, tarixiy shart –sharoitlari, geografik joylashuvi va ichki talabning cheklanganligi ta'sirida ishlab chiqarishni ko'prok eksportga qaratdilar. Mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi chora–tadbirlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me'yorini oshirishga olib kelishi, iste'mol mahsulotlar, so'ngra esa oraliq talabga ega tovarlar va uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta –sekinlik bilan import o'rnini egallashiga olib kelishi kerak.

12.3. YaIM – xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o'rni

YaIM xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni va roli ularning imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Osiyo YaID tashqi bozorga yo'naltirilganligi ularning jahon bozoridagi ulushini oshirdi. Masalan, Gonkongning jahon eksportidagi ulushi 3,7 %, Singapurniki- 2,3 %, Janubiy Koreyaniki- 2,4 %, Tayvanniki- 2,2 % tashkil etadi. 80-90-yillarda Osiyo YaID sanoat eksportida ayniqsa mashina va uskunalar ulushini katta sur'atlar bilan o'sib bordi. Uzoq sharqdagi "ajdarholar" va ASEAN a'zolar (Fillipindan tashqari) 90-yillarning boshiga kelib, mashina-texnik mahsulotlar eksporti bo'yicha birinchi o'nlikka, ba'zi mahsulotlar bo'yicha esa eng yuqori o'rinlarga chiqdi. Masalan, Singapur ulushiga jahon ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash mashinalari eksportining 10,4 %, telekommunikatsiya uskunalarining 4,2 %, lampa va tranzistorlarning 6,6%, televizorlarning 8%, radiopriyomniklarning 14%, ovoz yozuvchi apparatlarning 7,3 %i to'g'ri kelgan.

Janubiy Koreya jahon bozoriga xuddi shu mahsulotlarning mos ravishda 2,9; 3,4; 9,6; 9,3; 11,1 va 9,6 % etkazib berdi. Bundan tashqari, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1%ga to'g'ri keldi.

Osiyo "Yangi industrial davlatlari" sanoat eksportining yuqori dinamikasini ta'kidlagan holda, aytish kerakki, an'anaviy tovarlar eksporti tashqi savdo aylanmasida avvalgidek muhim, ayrim tovarlar bo'yicha esa hal qiluvchi o'rinni egallardi. Masalan, xomashyo va oziq-ovqatning Janubiy Koreya va Tayvan

eksportidagi ulushi mos ravishda 7,1 va 7 %ga teng edi. 1990-1991 yillarda eksportda qiymati bo'yicha ikkinchi o'rinni Janubiy Koreyada poyafzal, Tayvanda esa o'yinchoqlar va sport tovarlari egallardi.

Janubiy Koreya eksportida to'rtinchi o'rinda hamon sintetikadan tayyorlangan to'qimachilik tovarlari, Tayvannikida ettinchi o'rinda poyafzal turadi. Osiyo "Yangi industrial davlatlari" eksporti ayniqsa mashina va uskunalar eksportida Hindiston va Lotin Amerikasidagi YaID ning kuchsizlanishi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasi YaID tovar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1992 yilda 1980 yilga nisbatan unchalik kamaymagan (-0,5 %) bo'lsa, mashina va uskunalar ulushi qariyb 1,8 barobar kamaydi. Aynan shu mashina texnika mahsulotlari eksporti rivojlangan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlari yaxshilanishining eng muhim omilidir.

Osiyo "Yangi industrial davlatlari"ning faol tashqi savdo siyosati 90-yillar boshida AQSHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan yillik o'zaro savdosi hajmi (128,4 mlrd. doll.) birinchi marta G'arbiy Evropa bilan savdo aylanmasi (117,1 mlrd. doll.) yuqori bo'ldi. Bunda Osiyo YaID (Yaponiyani qo'shib hisoblaganda) AQSH bozorida avtomobillar va elektron texnikaning 30 %ini, to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlarining 50 %ini egallaydi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida eng yirik xorij kapitali importchisi bo'lgan "Yangi industrial davlatlar" 80- yillar oxiridan kapital chiqarish geografiyasini ancha kengaytirdi. Bu avvalo, ilg'or sanoati rivojlangan davlatlar, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar, kapitalning yangi bozorlaridir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQSHda aniq maqsadga yo'naltirilgan eksport ekspansiyasini o'tkazmoqda. Amerika iqtisodiyotiga kapital qo'yib, Janubiy Koreyaliklar eng yangi texnologiyalarga yo'l ochmoqda. Boshqa Osiyo "ajdarho"lariga ham kapital olib chiqishni ko'paytirmoqda. Masalan, Tayvanning qit'adagi qarindoshi Xitoyga bo'lgan qiziqishi juda sezilarlidir. 90-yillar o'rtalarida Tayvanning XXRdagi investitsiyalari 9 mlrd. doll.dan oshib ketdi. O'z navbatida gongkonglik ishbiarmonlar XXRda ro'yxatga olingan qo'shma korxonalarining yarmidan ko'prog'ini tashkil qilganlar.

XX asrning 50-yillarida ro'y bergan jahon xo'jaligining baynalmilallashuvi jarayoninig tezlashishi rivojlanayotgan davlatlarni, birinchi navbatda "Yangi industrial davlatlar"ni ham qamrab oldi. Ishlab chiqarish, mehnat va kapital bozorlari tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallashishiga moliya bozorlarining baynalminallashuvi qo'shildi. Bu YaID ning valyuta holati kuchayishi va ularning kredit imkoniyatining o'sishi, milliy moliya bozorlarining rivojlanishi, moliyaviy salohiyatining oshishi bilan bog'liq.

Ko'pgina "Yangi industrial davlatlar" milliy moliya bozorlari tashkil topishining birinchi bosqichidan o'tdi va ular faoliyatini liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga kirishdi. Bu esa ularning xalqaro moliya munosabatlari tizimiga faol integratsiyalashuviga asos yaratdi. Kapital harakati baynalminallashuvi jarayoni hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishdan uzoq, rivojlanayotgan davlatlar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Shunga qaramasdan, ba'zi "Yangi industrial davlatlar" bu yo'lda sezilarli qadamlar qo'ydi.

Bunga 70-yillarda yangi xalqaro moliya markazlarining hosil bo'lishi va tez o'sishini kiritish mumkin. Avvalo Singapur va Gonkongda. Tayvan XXI asr boshida Osiyo-Tinch okeani mintaqadagi yirik valyuta-moliya markaziga aylanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Osiyo YaID xalqaro moliya markazlari kredit-moliya operatsiyalari o'tkazish miqyosi bo'yicha London, Parij, Syurix kabi yirik moliya markazlari bilan bir qatarga chiqib, ularni ssuda kapitali bozoridan jiddiy siqib chiqardi.

Xulosa

90-yillar o'rtalarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo'yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan bor. Bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo'nalishi ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Mehnattalab va past rentabelli ishlab chiqarishlar "ikkinchi oqim" YaID, shuningdek, Xitoy va V'etnamga "topshirilmoqda". Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir bo'lgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod "Yangi industrial davlatlar"ga ko'chish jarayoni amalda qaytarilmoqda.

YaIM rivojlanishidagi qo'lga kiritilgan yutuqlar, ularning jahon xo'jaligiga integratsiyasi ular iqtisodiy o'sishining istiqbollari, xalq turmush darajasining o'sishi va ularning tashqi iqtisodiy ekspansiyalarining oshishi etarli darajada kulay deb ishonch bilan aytishga imkon beradi. XXI asrda bu davlatlar jahon iqtisodiy hukmronligida yuqoriroq o'rin egallaydi va yangi muhim natijalarni namoyish qiladi. Jahon banki prognozlariga qaraganda, yaqin 10 yil mobaynida o'sishning o'rtacha sur'atlari Janubiy Osiyoda - 5,49 %, Sharqiy Osiyoda - 7,7 %, Lotin Amerikasida - 3,5 % ni tashkil qiladi. Sharqiy Osiyoda kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadning o'sishi 1996-2004 yillarda yiliga 6,6 %ga teng bo'lishi kutilmoqda. O'rta hisobda erda yashaydigan har bir kishiga to'g'ri keladigan daromad yiliga 1,9 %ga o'sadi.

Tayanch iboralar

Rivojlanishning ekstensiv yo'li, franchayzing, yalpi ijtimoiy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, yangi industrial mamlakatlar.

Nazorat uchun savollar

1. Yangi industrial davlatlarga umumiy tasnif bering.
2. Janubi-sharqiy Osiyoning qaysi davlatlarini "ajdaholar" deb atashadi?
3. Gonkong, Tayvan, Singapur va Janubiy Koreyaning qanday o'ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
4. "Birinchi avlod" Yangi industrial davlatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
5. Singapur va Gonkong rivojlanishiga iqtisodiyotni erkinlashtirish qanday ta'sir ko'rsatgan?

6. Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanishining ilk davrlarida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda nimalardan foydalangan?
7. Lotin Amerikasidagi Yangi industrial davlatlarning qanday xususiyatlarini bilasiz?
8. Lotin Amerikasidagi Yangi industrial davlatlar Janubi-sharqiy Osiyodagi Yangi industrial davlatlardan nimasi bilan farq qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G`., Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O`quv qo`llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .
6. Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юнити-Дана, 2004.
7. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

13- bob. XITOY XALQ RESPUBLIKASINING IQTISODIYOTI

13.1. Xitoy Respublikasiga umumiy tavsif

13.2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillar

13.3. Mamlakatning rivojlanishida “xitoy model”ining ahamiyati

13.4. Xitoyning 1950-1960 yillardagi iqtisodiy o`rish davri

13.5. Xitoy davlatining 1970 yildan keyingi iqtisodiy o`rish davri

13.1. Xitoy Respublikasiga umumiy tavsif

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) O`zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991 yil 27 dekabrda tan oldi va 1992 yil 2 yanvarda ikkala mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar o`rnatildi.

Mamlakatlar o`rtasidagi ikki tomonlama aloqalar an'anaviy do`stlik va o`zaro manfaatli hususiyatga ega. Ikkala mamlakat o`rtasidagi o`zaro manfaatli aloqalar negizida davlat rahbarlarining ishonchli hamkorlik borasidagi kelishuv va shartnomalari yotadi. Mamlakatlar o`rtasida 150ga yaqin davlatlararo va boshqa turdagi kelishuvlar qabul qilingan. Ikkala mamlakat rahbarlarining muntazam rasmiy tashriflari amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining XXR ga rasmiy tashrifi 1992 y., 1994 y., 1999 y., 2001 y. va 2005 yillarda amalga oshirilgan. O`z navbatida, XXR raislari Szyan Szemin (1996 y.) va Xu Szintao (2004 y.) O`zbekistonda rasmiy tashrifda bo`ldi.

O`zaro tashriflar chog`ida O`zbekistonga 1,5 mlrd. AQSH doll. miqdorida Xitoy investitsiyasini olib kirishga doir shartnoma va hujjatlar imzolandi. O`zbekistonga faqatgina neft va gaz sohasini rivojlantirish uchun 600 mln. AQSH doll. miqdorida Xitoy investitsiyalarini olib kirish rejalashtirilmoqda.

14-jadval

Mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasining dinamikasi (mln.AQSH doll.da)

Кўрсаткичлар	1999 й.	2000 й.	2001 й.	2002 й.	2003 й.	2004 й.	2005 й.
Товар айланмаси	80,3	95,5	106,6	130	216,4	367,1	485,4
Экспорт	19,2	22,5	14,86	17,3	53,3	101,5	228,2
Импорт	61,1	73,0	91,75	112,7	163,1	265,6	257,2
Сальдо	-41,9	-50,5	-76,8	-95,4	-109,8	-164,1	-29

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining ma'lumoti.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik

2005 yil yakunlariga ko`ra, mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro tashqi savdo aylanmasi 485,4 mln. AQSH doll.ga teng (2004 yil bilan solishtirganda 32,2 % ga o`rish kuzatilgan) bo`lib, shundan eksport 228,2 mln. AQSH doll.ga, import esa 257,2 mln. AQSH doll.ga teng bo`lgan. O`zbekiston uchun manfiy saldo – 29 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan.

XXR dan O`zbekistonga olib kirilgan jami moliyaviy resurslarning qiymati 440 mln. AQSH doll.dan ortiq.

2004 yil 17 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga (ShHT) a'zo davlatlar rahbarlarining yig'ilishida, XXR ShHT ga a'zo davlatlarga qiymati 900 mln. AQSH doll.ga teng bo'lgan tijorat kreditlarini taklif etdi. O'zbekiston tomonidan, kreditlarni jalb qilish maqsadida 22 ta loyiha taklif etilgan.

Xitoy dunyodagi eng qadimiy davlatlardan biri sanaladi va qadimda Xitoy Sharqning eng yuqori sivilizatsiyasiga ega davlat bo'lgan. Ko'pgina mamlakatlar, xususan, Yaponiya, Koreya, Tibet va V'etnam kabi mamlakatlar Xitoy tomonidan ta'sirlangan, ya'ni ular Xitoy falsafasini, san'atini, oziq-ovqatini, moddiy madaniyatini, davlat tuzilishini, texnologiyasini va yozuv harflarini o'z davlatlarida o'zlashtirgan.

Xitoy XX asrning 80-yillarigacha jahon xo'jaligida "agrar" davlatlarning biri edi. Lekin, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida uning iqtisodiy taraqqiyoti misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi bilan jahon xo'jaligida "to'rtinchi iqtisodiy mo'jiza"ni vujudga keltirdi. Birgina 2003 yilni jahon xo'jaligida "Xitoy yili" desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bunga sabab quyidagicha:

1. 2003 yilning boshlarida jahonda paydo bo'lgan yuqumli "SASK" kasalligi aynan Xitoyning Guanjou viloyatidan chiqdi va qisqa vaqt ichida butun dunyo mamlakatlariga tarqalishi natijasida minglab insonlar qurbon bo'ldi.
2. 2003 yilning oktyabr oyida Xitoy jahonda sobiq Ittifoq va Rossiyadan so'ng uchinchi bo'lib, o'z kosmik kemasini fazoga olib chiqdi.
3. 2003 yilda YaIMining o'sishini 14%ga ta'minladi.

Xitoyliklar o'z davlatlarini o'z tillarida "Zonguya" (Zhonggua) deyishadi. Bu so'zning ma'nosi "Markaziy davlat" yoki "Markaziy qirollik" ma'nosini beradi. "Xitoy" degan so'z esa xorijliklar tomonidan berilgan. Xitoy jahonga ko'plab mahsulotlarni "sovg'a" qilgan. Jumladan, jahon xo'jaligida birinchi bo'lib porox, ipak (shoyi), qog'oz, farfor, kompas kabi mahsulotlarni ixtiro qilgan.

Bugungi Xitoy hayotining qaysi sohasini olmag, taraqqiyot va yangilanish ro'y berayotganining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, jahon ommasi "XXI asr – Xitoy asri" deyishi bejiz emas, albatta.

Xitoy Xalq Respublikasi Rossiya, Mongoliya, KXDR, Ve'tnam, Laos, Hindiston, Butan, Nepal, Myanmar, Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari bilan chegaradosh. Uning quruqlikdagi chegara uzunligi qariyb 15 ming km.ni tashkil qiladi. Shuningdek, suv havzasida Yaponiya, Janubiy Koreya va Filippin mamlakatlari bilan chegaradosh. Uning suv havfzasidagi chegara uzunligi qariyb 21 ming km.ni tashkil qiladi.

Uning hududi – 9,6 mln. kv. km.ni tashkil qilib, er maydonining kattaligi jihatidan jahonda Rossiya, Kanada, AQSHdan so'ng 3-o'rinda turadi.

Mamlakat 23 ta, ya'ni viloyat, 5 ta avtonom rayon va ma'muriy boshqaruvga ega bo'lgan 4 ta shahardan iboratdir (Pekin, Shanxay, Gongkong (Syangan) va Tyantszin). Mamlakatning poytaxti-Pekin shahri yoki xitoy tilida "Beytszin" (Beydjn), ya'ni "shimoliy poytaxt" demakdir.

Xitoyning eng yirik industrial shahri – Shanxay shahri «mamlakatning eshigi» deb hisoblanadi. Shanxay dengiz porti shahri Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini olib borish, hamda iqtisodiy-geografik jihatdan «eng qulay shahar»dir.

Xitoy BMT, JST, Xalqaro valyuta fondi, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga, Osiyo taraqqiyot bankiga va boshqa ko'plab nufuzli tashkilotlarga a'zo.

Milliy valyutasi - yuan. 1 doll. q 8,6 yuanga teng (04.05.2006). Aholisi 1 mlrd. 300 mln. kishini tashkil qiladi va dunyoda 1-o'rinda turadi yoki dunyo aholisining 1G`5 qismini tashkil qiladi. Mamlakatda 1 mln.dan ortiq bo'lgan shaharlar soni 44 ta. Eng ko'p aholi Shanxayda (14.5 mln.) va Pekinda (14 mln.) istiqomat qiladi.

13.2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillar

Xitoy mamlakatining iqtisodiy taraqqiyoti 70-yillardan so'ng quyidagi omillar asosida rivojlandi:

- 1) Mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligi.
- 2) Mamlakatda yirik qazilma boyliklarning zaxirasi va ko'plab tabiiy resurslarning mavjudligi.
- 3) Qishloq xo'jaligining yuksak darajada rivojlanishi.
- 4) Xitoy mahsulotlarini eksport qilinishida demping siyosatining qo'llanilinishi.
- 5) 90-yillardan boshlab eksportning ortib borishi.
- 6) Bozor iqtisodiga o'tish davrida "xitoy modeli"ning ahamiyati.
- 7) 80-yillarda Xitoy xukumatining "kuchli" iqtisodiy islohotlarni olib borishi.
- 8) YaIMning yildan-yilga o'sib borishi. 1978 yildan 1997 yilgacha YaIM o'rtacha yiliga 9,6%dan o'sib bordi. Xitoy iqtisodiyoti tarixida YaIMning o'sish rekordi 1992 yilda yuz berib, 14,2%ni tashkil qilgan (15-jadval).
- 9) Mamlakatda ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining ortiqchaligi.
- 10) Xitoyning tashqi savdo-sotig'ida Gongkong dengiz portining ustuvor ahamiyati.
- 11) Xitoyning "ochiq eshiklar siyosati"ni amalga oshirishi.

15- jadval

YaIMning tarkibi

Ko'rsatkichlar	YaIMdagi ulushi,%da	Aholi bandligi,%da
Qishloq xo'jaligi	19	50
Sanoat	49	24
Xizmat ko'rsatish	32	26

1984 yilda Xitoy xukumati mamlakatning 14 shahriga tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish huquqini berdi. Ushbu dengiz shahar portlari tashqi savdo-sotig'i uchun "ochiq" deb e'lon qilindi. Shu bilan birga 4 ta "erkin iqtisodiy hudud". Shenchjen, Chjuxay, Syamin va Shantou tashkil qilindi. Ushbu "erkin iqtisodiy hudud"larning eng yirigi Shenchjen shahridir. Ushbu shahar Gongkongga yaqin bo'lgan hududda joylashgan.

12) Ishlab-chiqarish resurslarining doimiy o'sishi.

13) Xorijiy sarmoyalar va texnologiyalarning jalb qilinishi;

1978 yilda Butunxitoy xalq vakillari yig'inining beshinchi sessiyasida rivojlanishning "To'rt Modernizatsiya" Dasturini amalga tatbiq etishga o'tishi 10 yillik rejasining qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu "To'rt modernizatsiya" dasturi to'rtta yo'nalishda:

- qishloq xo`jaligi;
- sanoat;
- harbiy mudofaa;
- fan va texnika sohasini modernizatsiya qilishdan iborat edi.

Ushbu 10 yillik dasturda G`arbdan zavod fabrikalar uchun tayyor asbob-uskunalar va yangi texnologiyalarning katta miqdorda import qilinishiga urg`u berildi. 1978 yilning oxiriga borib, Xitoy xorijiy investorlar bilan 7 mlrd. AQSH doll. miqdorida qator shartnomalarni imzoladi.

1982 yilgacha Xitoyga jami 430 mln. AQSH doll. miqdorida xorijiy sarmoya jalb qilingan bo`lsa, 2002 yil holatiga 44 mlrd. 241 mln. AQSH doll. miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi.

14) Turizmning rivojlanishi.

Hozirda Xitoyga 1 yilda o`rtacha 3-4 mln. sayyox tashrif buyuradi. Agarda Gongkong va Makaoni qo`shib hisoblaganda yil mobaynida 11 mln. dan ortiq sayyox tashrif buyuradi.

15) Xitoy iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati.

13.3. Mamlakatning rivojlanishida “xitoy model”ining ahamiyati

1984 yilning oktyabrdagi XKP Markaziy Komitetining navbatdagi plenumida Xitoy Hukumati “Xo`jalik tizimini islohot qilish to`g`risida” qaror qabul qildi. Ushbu qabul qilingan tarixiy qarorda mamlakatda “Xitoy”ning xususiyatlariga muvofiq sotsializm qurish” vazifasi aniq-ravshan belgilab olindi va iqtisodiy davlat dasturi ishlab chiqildi.

“Xitoy modeli”da quyidagi xususiyatlarni ko`rishimiz mumkin:

- bozor islohotlarini boshlashdan avval iste'mol bozorida mahsulot narx-navolar dinamikasini tiklash, ya'ni bir xil toifaga va sifatga ega bo`lgan mahsulotlarning narxlarini tenglashtirish;
- bozor iqtisodini yuzaga keltirish va shakllantirish;
- bozorni yanada shakllantirishda xususiy tadbirkorlikni va yordamchi hunarmandchilikni rivojlantirish;
- inflyatsiyaning oldini olishda mamlakatda “qat'iy tartibda” rejim olib borish, milliy valyutaning qadrini oshirish;
- davlat korxonalarini xususiylashtirish, ya'ni sanoat korxonalarini “mustaqil xo`jalik tashkilotlariga” aylantirish;
- bir vaqtning o`zida davlat va xususiy sektorlarni rivojlantirish;
- mamlakatga xorijiy investitsiyalarni kiritishda “ochiq eshiklar” siyosatini olib borish va xorij kapitalini jalb qilish;
- mamlakatning qishloq joylarida dehqonlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarilishida davlat tomonidan moddiy va iqtisodiy yordam berish va ularning ortiqcha mahsulotlarni bozorlarda sotish imkoniyatlarini yaratib berish;
- dehqonlardan olib qo`yilgan tomorqa erlarining qaytarib berilishi, hamda qishloq joylarda “oilaviy pudrat” usulida ishlashga o`tilishi iqtisodiy islohotning asosiy maqsadlari bo`ldi.

13.4. Xitoyning 1950-1960 yillardagi iqtisodiy o`lish davri

Hukumat mamlakatda sanoatni rivojlantirishni 50-yillardan boshladi. 1952 yilda Mao Szedun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini sotsializmga o`tish davri deb e'lon qildi. Xitoy iqtisodiyoti tarixida birinchi marta mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish rejasini 1952 yilda qabul qilindi, ya'ni 1953-57 yillarga mo`ljallangan 1-besh yillik rejasini tatbiq qilindi. Bu 1-5 yillik rejasini sobiq "sovet modeli"ning nusxasi bo`lib, unda hukumatning markazlashgan rejasiga asosan, mamlakatda og`ir industriyani rivojlantirish lozim edi. Ushbu reja iqtisodiy sektorning barcha tarmoqlarini tubdan o`zgartirish, eng asosiysi esa og`ir sanoatni kengaytirishga qaratilgan edi. Hukumat yuzdan ortiq davlat tomonidan boshqariladigan yirik sanoat korxonalarini tashkil etdi.

1953 yilda aholi ro`yxatga olinganda, unda ko`tilganidan ham ortiq darajada aholi soni ro`yxatga olingandi, ya'ni jami 583 mln. kishi ro`yxatga olindi. Aholining tez ko`payishini hisobga olgan holda, Mao Szedun tomonidan "kollektivlashtirish" davri boshlandi. Unga ko`ra, hukumat qishloq joylarda jami 52 mingga yaqin qishloq xo`jaligi jamoalarini tashkil etdi va barcha jamoa tashkilotlariga qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi bo`yicha davlat buyurtmasi berilar edi va ana shu davlat buyurtmasining bajarilishi majburiy edi.

Qishloq xo`jaligini kollektivlashtirish, mehnatni ish haqi bilan rag`batlantirishning bekor qilinishi va xususiy tarzda yangi fikr bilan chiqish hollarining bo`g`ib qo`yilishi kabi qator omillarni o`z ichiga oluvchi "katta sakrash" siyosati (1958-1960 yy.) 60- yillar boshlarida mamlakatni turg`unlik holatiga keltirib qo`ydi.

"Katta sakrash" islohotining vazifalari mamlakatning 1958-1962 yillarga mo`ljallangan 2-besh yillik davlat rejasida o`z aksini topadi. Bu islohotning eng asosiy maqsadi - iqtisodiy taraqqiyotning tez sur`atlarda o`lishini ta'minlashdan ibrat.

1958 yildan so`ng 1-besh yillik reja tahlil qilinib: qishloq xo`jaligining rivojlanishi sanoatning rivojlanishiga qaraganda sust ekanligi aniqlandi, shunga ko`ra rejaga bir qator o`zgarishlar kiritildi. O`zgartirishda asosiy masala, mamlakat bo`ylab qishloq xo`jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirishga qaratildi. Bir vaqtning o`zida sanoat rivojlanishini bir maromda ushlab qolish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Dasturning muhim vazifalaridan biri arzon baholi rudalar va "metallom"lardan po`lat ishlab chiqarish uchun mayda eritish o`chog`i tashkil etilib, millionlab qishloq fuqorolari sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqara boshladi. Qilingan islohotlarning natijasi shundan dalolat berdiki, "katta sakrash" islohoti o`zini umuman oqlamadi. Qishloq xo`jaligi tarmoqlari umuman izdan chiqdi. Sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarilgan cho`yanlar sifatsiz bo`ldi. Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy tartibsizliklar, rejalashtirishdagi kamchiliklar, shuningdek, qator tabiiy ofatlarning yuz berishi mamlakat iqtisodiyotining yanada yuqori darajalarga erishishiga to`sqinlik qildi.

1965 yilda hukumat tomonidan 1966-1976 yillarga mo`ljallangan siyosiy-iqtisodiy dastur, ya'ni "Madaniy inqilob" islohotining tatbiq qilinishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti o`rniga iqtisodiyotni yanada izdan chiqardi. "Madaniy inqilob" bir paytning o`zida siyosiy tadbirlarni ham amalga oshirdi, ya'ni hukumatdan

norozi bo'lgan va qarshi g'oyalari bilan yurgan, shuningdek gumon qilingan minglab kishilar o'limga mahkum qilindi.

13.5. Xitoy davlatining 1970 yildan keyingi iqtisodiy o'sish davri

“Madaniy inqilob” islohotidan so'ng, iqtisodiyotdagi tub islohotlar 70-yillarning oxiriga kelib, agrar sohani yana bir bor qayta isloh qilish bilan boshlandi. Ommaviy tarzda dehqon xo'jaliklarining oilaviy (tomorqa) xo'jaliklariga aylantirilishi nafaqat mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini salmoqli tarzda o'sishi, balki sanoat, qurilish ishlari va sport sohasida islohotlarning o'tkazilishiga sezilarli turtki berdi.

Xukumat tomonidan 1978-1985 yillar mobaynida 8 yillik rejali rivojlanish dasturi qabul qilindi. Eng asosiysi, ushbu dastur asosida ilm va fan rivojlanishi birinchi o'ringa qo'yildi. Buning natijasida 80-yillarda mamlakatda EHM, informatika, biotexnologiya va mikroelektronika sanoat tarmoqlari vujudga keldi.

80- yillarning boshlarida, hukumat qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida agrar sektorni qayta tuza qilishni boshladi. Jamoa xo'jaliklari va ishlab chiqarish brigadalarining ko'pchilik qismlari tugatildi va oila xo'jaliklari asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi xo'jalikka aylandi. Tomorqa xo'jaligi tizimiga o'tish va to'g'ridan-to'g'ri bozordan sotib olish siyosatini qo'llash qishloqdagi ahvolni tubdan o'zgartirib yubordi va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning tez sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Mamlakatning qishloq xo'jaligidagi ushbu hola “agrar mo'jiza” sifatida talqin etildi. Jahon xo'jaligida hali hech qaysi mamlakat tomonidan qishloq xo'jaligida bu darajadagi mo'jiza yaratilmagan edi.

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 1996 yil noyabr oyidagi Butunjahon konferentsiyasi arafasida XXR o'ta noqulay tabiiy va demografik holatga qaramay, asosiy hisoblanmish oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik muammosini yuqori darajada hal etishga erishdi.

80-yillarda mamlakatda hududiy rejalashtirishni takomillashtirish maqsadida 3 ta iqtisodiy hudud:

- sharqiy hudud- iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan sanoat tarmoqlari va uning markazlari, ko'plab transpaort magistrallari, barcha dengiz savdo portlari joylashgan, hamda qirg'oqbo'yidagi eng yirik industrial shaharlar joylashgan hudud;

- markaziy hudud- asosan yoqilg'i va energiya, ximiya mahsulotlari, xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ustun turgan hudud.

- g'arbiy hudud asosan chorvachilik va mineral xomashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan hudud tashkil qilindi.

Xitoy ko'plab iqtisodiy tahlillar va izlanishlar asosida, shuningdek, jahon xo'jaligidagi etakchi hisoblangan AQSH, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya mamlakatlarining sanoat tarmoqlarini izchil o'rganib chiqib, 1985 yilda “Fan va texnikaning 1986-2000 yillarda rivojlantirish Davlat rejasi”ni qabul qildi. Ushbu reja asosida 1986-2000 yillar mobaynida ilm va fan yo'nalishida 12 ta zamonaviy sanoat tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy yo'nalishlar, jumladan, xalq xo'jaligini industriallashtirish va modernizatsiyalash, biotexnologiya, energetika, avtomatlashtirish,

aerokosmos, lazer texnikasi, mikrotexnologiya va harbiy sanoatni rivojlantirish belgilandi.

Mamlakatning iqtisodiyoti ayni paytda “2006-2010 yillar uchun dastur” bo'yicha davom etmoqda. Bu dastur o'z ichiga asosan makroiqtisodiyotni rivojlantirish va barcha turdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yildan-yilga oshirib borishdan iboratdir.

13.6. Mamlakatning sanoati va qishloq xo'jaligi

Xitoy agrar-industrial davlatdir. 1946 yildan boshlab sanoat tarmoqlari tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Jumladan, 1949 yilda Xitoy ko'mir qazib chiqarish bo'yicha dunyoda 14- o'rindan 9- o'ringa, elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha 25-o'rin, cho'yan ishlab chiqarish bo'yicha esa 23- o'ringa ko'tarilib oldi. Umuman olganda, 1940 yilgacha Xitoy sanoatining ahvoli o'sha paytdagi rivojlangan mamlakatlardan iqtisodiy taraqqiyot borasida 100-120 yil orqada qolib ketgan edi. 50-yillarning o'rtalariga kelib, respublika sobiq Ittifoqning hamkorligida qudratli sanoat tarmoqlarini tashkil qildi.

1984 yilda boshlangan islohotlarning asosiy e'tibori shaharlardagi ishlab chiqarish tarmoqlariga qaratildi. Shu asosda, korxonalarga yanada kengroq huquqlar berildi, jumladan ishchilarga mehnatiga yarasha haq to'lash printsipi qayta tiklandi, xorijiy sarmoyalar va texnologiyalar jalb qilindi.

2006 yilga kelib, ya'ni so'nggi 50 yilda Xitoyning oziq-ovqat sanoati tarmog'i jahondagi eng etakchi mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Ushbu yillar mobaynida mamlakatda 400 mingdan ortiq ishlab chiqarish korxonalari bunyod etildi. Yirik sanoat tarmoqlari dengiz qirg'oqbo'yi shaharlarda tashkil qilingan, jumladan, Shanxay, Gongkong, Szyansu, Lyaonin, Shandun, Guandun kabi shaharlar mamlakatning eng yirik industrial shaharlaridan hisoblanadi.

Xitoy sanoati 400 ga yaqin tarmoqlarga bo'lingan. Shulardan eng rivojlangan sanoat tarmog'i oziq-ovqat tarmog'idir. Chunki, xukumat 70-yillarda mamlakatda vujudga kelgan ocharchilikka barham berish uchun 1-galda mamlakat aholisini oziq-ovqatga “to'yidirishi” uchun aynan shu sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat bergan edi. Mamlakatda jami 70 mingga yaqin korxona oziq-ovqat sanoat tarmog'ida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat sanoat tarmog'ining ikkinchisi to'qimachilik sanoat tarmog'i bo'lib, unda jami 25 mingga yaqin korxona ushbu tarmoqda faoliyat ko'rsatadi. Hozirda to'qimachilik sanoat tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning miqdori bo'yicha Xitoy dunyoda 1-o'rinda turadi. So'nggi yillarda qayta ishlash sanoati yildan-yilga rivojlanmoqda. U dunyoda “chiqindi”larni qayta ishlash bo'yicha 1-o'rinda turadi. Hatto AQSH va Kanada, ya'ni okean ortidan ham chiqindilar Xitoyga keltirilmoqda. Sanoat korxonalarida ishchilarning bandligi bo'yicha ham dunyoda 1-o'rinda turadi.

Keyingi yillarda Xitoyning AQSH, Yaponiya, Koreya, Avstraliya va ASEAN mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari keng qo'lamda rivojlanmoqda. Hozirgi kunda bir kunda 2,5 mlrd. yuan atrofida mahsulot ishlab chiqarilmoqda, 1 kunda 2,5 mln. t. ko'mir, 360 ming t. neft, 455 ming t. sement ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakatda kemasozlik 80- yillardan boshlab xukumatning nazorati ostida taraqqiy etgan. Kemasozlik asosan, qirg'oqbo'yi shaharlarda rivojlangan. Lekin, hozirda mamlakatning Yantszi daryosida yirik kemalarning harakati bo'yicha jahon mamlakatlari orasida yuqori o'rinlarda turadi.

Xitoy umumiy hududining 7 %i qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan bo'lib, bu tarmoqning rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. "5 yillik rejalari" da qishloq xo'jaligining ahamiyati quyidagicha:

1-besh yillikda (1953-1957)- qishloq xo'jaligida qishloq jamolari tashkil etildi va qishloqdagi erlar va asosiy og'ir texnikalar tashkil etilgan jamoalar mulkiga aylandi.

2-besh yillikda (1958-1962) - juda katta maydonga g'alla ekishga erishildi, biroq olingan hosilning ko'pgina qismi omborlarning etishmasligi tufayli nobud bo'ldi. Shuningdek, donni chuqur ekish va to'g'ri kelmaydigan erlarga ekish tufayli bir qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Sanoat va agrar siyosatning noto'g'ri yuritilishii tufayli ekologik ofatlar yuzaga keldi. Bu o'z navbatida 3 yillik ocharchilikni keltirib chiqardi. Jahon xo'jaligi tarixidan ma'lumki, ushbu 1959-1961 yillarda mamlakatda rasmiy ravishda 20 mln. kishiga yaqin aholi ocharchilikdan halok bo'lgan.

3-besh yillikda (1963-1967) oldingi yilgi "5 yillik reja"lardan keyin mamlakat iqtisodiyotida o'shgarishlar bo'lmagandan keyin davlat iqtisodiyotni qayta qurishni boshladi. 1965 yilga borib, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, hatto sanoat tarmoqlaridagi ishlab chiqarish ham deyarli 1950 yildagi holatga yaqinlashdi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar jarayoniga ahamiyat beradigan bo'lsak, agrar islohotlarning natijalari Anxoy viloyatida vujudga kelgan. Islohotlarning 1-besh yilligidayoq, ya'ni 1978 yildan keyin etishtirilgan mahsulotlarning hajmi uchdan bir miqdorga, dehqonlarning daromadlari esa 2 baravar oshdi. Shunga qaramay, aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanmaganlik muammosi qisman bo'lsa-da, hozirgacha saqlanib qolgan.

Xitoy uchun rekord natija hisoblangan –1996 yildagi don etishtirishning eng yuqori miqdorida ham (480 mln. t, 1995 yilga nisbatan 15 mln. t ortiq) mamlakat ushbu mahsulotni xorijdan 7 mln. t miqdorida import qilishga ehtiyoj sezadi. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnikaviy bazasining yaxshi ta'minlanmaganligi ham hozirgi kunning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi yillarda esa 400-430 mln.t. atrofida don etishtirilmoqda, chunki keyingi yillarda ketma-ket sodir bo'lgan tabiiy injiqliklar natijasida bug'doy etishtirish darajasi pasayib ketdi.

Qishloq xo'jaligining mehnat unumdorligi ko'rsatakichlari AQSHning ayni ko'rsatkichlariga nisbatan 12 baravar past. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi tuzilmasining o'zi ham sifat jihatdan qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj sezmoqda. Agrosanoat kompleksining ichki tuzilmalarini takomillashtirish chorvachilik, texnik o'simliklarning asl mahsulot sifatidagi ulushi ortishini, shuningdek infratuzilmaning qayta ishlab chiqaruvchi sohalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Mamlakat qishloq xo'jaligining rivojlanishida hamma zarur shart-sharoitlarning etarliligi qo'l keladi. Jumladan, ob-havoning issiqligi, suv resurslarining etarliligi, hamda eng kerakli bo'lgan ishchi kuchining ham behisobligidadir.

Xitoyda ko'p asrlik tarixga ega guruch etishtirish davomida 10 ming xilga yaqin guruch turlari kashf qilindi. Tariq muhimligi bo'yicha mamlakatda ikkinchi o'rinda turadi, ushbu donni etishtirish 6-7-asrlardan tarqala boshlangan. Hozirga kelib, jahonning hech bir mamlakatida tariqning bunday katta hosili etishtirilmaydi. Bundan tashqari shakar va kraxmalga boy bo'lgan shirin kartoshka "batat" ham katta miqdorda etishtiriladi.

Chorvachilik tarmoqlari orasida eng rivojlangani cho'chqachilik tarmog'idir. Keyingi o'rinlarda tovuqchilik va baliqchilik turadi. Hozirda u jahonda go'sht etishtirish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Chorvachilikda 400 mln. atrofida cho'chqa, 210 mln. ortiq qo'y, 147 mln. dan ortiq qoramol bor.

1995 yil boshida qishloq ishlari muammolariga bag'ishlangan Umumxitoy yig'inida qishloq xo'jaligida ettita asosiy yo'nalish: qishloqlarda iqtisodiy siyosatning asosiy yo'lanishlarini stabillashtirish va amalga oshirish; qishloq xo'jaligiga investitsiya jalb qilish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarining aylanmasi tizimini isloh qilish, ishlab chiqarish va iste'mol qilish, qishloq xo'jaligini nazorat qilishda makroiqtisodiyotning rolini kuchaytirish belgilab olindi.

13.7. Xitoyning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

Xitoyning YaIM bo'yicha dunyoda AQSH va Yaponiyadan so'ng 3-o'rinda turadi. Lekin jahon iqtisodchi mutaxassislarining fikriga ko'ra, 2007 yoki 2008 yilga borib, uning YaIM miqdori bo'yicha 1-o'ringa chiqishi kutilmoqda.

XXR dunyo sahnasida o'z nufuziga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa oxirgi 10 yil ichida iqtisodiy nuqtai nazardan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi. Uning valyuta zaxirasi 2006 yil holatiga 850 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qildi.

Yalpi ichki mahsulotining hajmi -11 trl.yuan, ya'ni taxminan 1 trln. 400 mlrd.AQSH doll.ni tashkil qiladi. YaIMning yillik o'rtacha o'sishi 1995 yildan 2003 yilgacha o'rtacha yiliga 8,5 %, lekin 2003 yilda 14 % o'sgani bot-bot takrorlanmoqda, natijada 1980 yildan 2005 yilgacha YaMM hajmi deyarli 5 marotaba o'sdi.

Xitoyning umumiy tashqi savdo-sotig'i 955,6 mlrd.AQSH doll.ni tashkil qilib, undan 495,4 mlrd.AQSH doll.ni eksport va 460,2 mlrd.AQSH doll.ni import tashkil qiladi. Tashqi savdo-sotiq bo'yicha Xitoy 1978 yilda 32-o'rini band qilgan bo'lsa, 2006 yilga kelib, jahondagi eng etakchi mamlakatlar qatoriga qo'shildi.

Eksportning asosiy mahsulotlariga engil sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, radiotexnika va elektronika, poyafzal mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati, ximiya sanoati mahsulotlari kiradi. Importni esa ba'zi neft mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, avtomobillar, kompyuter va boshqa mahsulotlar tashkil qiladi.

Xitoy jahon xo'jaligida ko'mir qazish, po'lat quyish, to'qimachilik mahsulotlari, dukkakli ekinlarni etishtirish (yog' olinadigan-mosh, eryong'oq, loviya, pista, kanop), sement ishlab chiqarish, bug'doy, paxta, go'sht etishtirish bo'yicha, "chiqindi"lardan qayta mahsulot ishlab chiqarish, 2004 yildan boshlab, televizor ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi. U aholi va ishchi kuchining ko'pligi bo'yicha ham jahon xo'jaligida 1-o'rinda turadi.

Xulosa

Xitoy bugunga kelib, aholi soni jihatidan jahondagi eng yirik mamlakat hisoblanib, to'xtovsiz ravishda o'sib borayotgan aholisini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashga erishdi. U arzon engil sanoat va radiotexnika mahsulotlari bilan dunyo bozoriga chiqdi va borgan sari kengroq egallab bormoqda. U sotsialistik tuzum g'oyalarini buzmagani holda yuqori iqtisodiy natijalarga erishgan yagona va bozor usulida xo'jalik yuritish usullarini o'zlashtirishdagi eng ilg'or davlat hamdir. Xitoy hukumatining rahbarlari iloji boricha, boshqa davlatlar tajribasidagi ma'lum iqtisodiy xatolarni takrorlamaslikka harakat qilganlari holda, barcha yangiliklarni o'z iqtisodiyotlarida sinab ko'rishga cho'chimaydilar. Buning natijasi, ko'rib turganimizdek, yomon emas. Bundan tashqari islohotlar natijasida kelib chiqqan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish jadal yo'lga qo'yilgan.

Xitoyning so'nggi 10 yil davomidagi amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlari, milliy iqtisodiyotning tez sur'atlarda taraqqiy etishi bilan jahon xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajab emas, uning rivojlanishi shu sur'atlarda ketaversa, Xitoy yaqin orada iqtisodiy (va qator boshqa) jihatdan dunyoning eng etakchi mamlakatiga aylanishi mumkin.

Tayanch iboralar

Investitsiya, Bozor tizimi, sarmoya, demping, soliq, Bank, ilg'or texnologiya, kontsessiya, model, kapital, inflyatsiya, potentsial, korporatsiya

Nazorat uchun savollar

1. Xitoyning qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ayting
2. Hozirgi paytda Xitoyning asosiy iqtisodiy muammolarini ayting.
3. 1978 yilda olib borilgan iqtisodiy islohotlarning yakuni bo'yicha qanday yo'nalishlarni o'z ichiga olgan edi?
4. Erkin iqtisodiy hududlar maqomi qaysi shaharlarga berildi?
5. Xitoyda turizm qaysi yillardan boshlab rivojlana boshladi?
6. "XIX asr" ning mo'jiza bo'lishi mumkin bo'lgan Xitoydagi yirik qurilishini tavsiflang.
7. Nima sababdan Xitoy to'qimachilik tarmog'i bo'yicha jahon xo'jaligida eng birinchi o'rinda bormoqda?
8. Nima uchun jahon ommasi 2003 yilni Xitoy yili deyishadi?
9. Xitoyda qanday tabiiy resurslar mavjud?
10. Xitoyning "iqtisodiy mo'jiza"ga erishishidagi asosiy omillari nimalardan tashkil topgan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд.3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.
2. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.
3. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Проспект, 2006.
4. Nazarova G.G`, Xalilov X., Eshtaev A. va boshq. Jahon iqtisodiyoti: O`quv qo`llanma. -T., 2005.
5. Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. –М.: Юристъ, 2004 .

GLOSSARIY

“Demografik portlash” — jahonning kam rivojlangan va kambagʻal mamlakatlarida nazorat qilib boʻlmaydigan darajada aholi sonining oʻsishi.

Qarzni resrukturizatsiyalash — kreditni toʻlash muddatlari va %larni toʻlashni orqaga surish.

“Aqlli kishilarning ketib qolishi” — mamlakatdan "intellektual elita" vakillarining xorijda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Akkreditiv — mijozning iltimosiga koʻra bank tomonidan hujjatda koʻrsatilgan shartlarda uchinchi shaxs (benifitsiar)ga toʻlovni amalga oshirish yoki benifitsiar tomonidan qoʻyilgan oʻtkazma vasiqani (tratta) toʻlashni amalga oshirish (aktsept) boʻyicha bank majuriyatini koʻrsatuvchi.

Aktsiz — davlat organlari tomonidan belgilanadigan tovar bojxona qiymatiga narx qoʻshimchasi.

Barter — tovarni tovarga toʻgʻridan-toʻgʻri ayirboshlashni amalga oshiradigan savdo bitimi.

Bojxona boji — tovar davlat chegarasidan oʻtganda solinadigan maxsus pul soligʻi.

Bojxona ittifoqi — ikki va undan ortiq davlatning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini oʻtkazishi.

Bojxona tarifi — tovar okimlarining chegaradan oʻtishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori koʻrsatilgan tartiblangan tovarlarning roʻyxati.

Valyuta — maʼlum bir davlatning qonun bilan oʻrnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha etakchi mamlakatlarning valyutasi koʻrinishidagi xalqaro zaxira pullari, Xalqaro valyuta fondi va Evropa valyuta tizimi aʼzolari tomonidan koʻp tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega boʻlgan va oʻz echimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari

Devalvatsiya — milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon — revalvatsiya).

Evro — valyuta hamkorligi va tijoriy banklar Evropa fondi hisoblarida nakdsiz yozuv koʻrinishidagi xalqaro universal toʻlov-hisob-kitob birligi.

Evro universal evropa hisob-kitob-toʻlov birligi boʻlib, EIga aʼzo mamlakatlarning hududida EKYu oʻrniga joriy etilgan.

Evropa valyuta tizimi (EVT) — EI aʼzolarining hududiy valyuta guruhi.

Evropa Ittifoki (EI) — Evropaning 25ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu erga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, yaʼni - bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu erda mamlakatning boshqa hududlarida qoʻllanilmaydigan oʻziga xos imtiyozlar va ragʻbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESH) — preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

Jahon bahosi - talab va taklif egri chiziqlari ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo'ladi.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishdagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taksimlash, ayirboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar) o'zaro iqtisodiy ta'sirlanishining global muhiti.

Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) — xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko'rinishi.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) - milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chikaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) - BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiklashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlashtirish va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasining soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Investitsiya muhiti — mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlarning majmuasi.

Monetarizm — davlat tomonidan pul massasi o'sish sur'atlarini barqaror ushlab turish (yiliga 3-5 %) va davlat xarajatlarini qisqartirish xususiy kapital uchun bir iqtisodiyotdan boshqasiga erkin oqib o'tish kanallarini ochadi, yangi ish joylarini yaratish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatini beradi.

Monitoring (xo'jalik) — jami iqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish va statistik ishlov berish jarayoni.

Mutlaq ustunlik — xo'jalik sub'ektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish xarajatlari miqdorining turlichaligidan (masalan, bir geografik sharoitga ega bo'lmaslik) foydalanishi tufayli ko'rgan foydasi.

Nisbiy ustunlik — xo'jalik sub'ektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisidagi nisbiy farqdan foydalanishi tufayli ko'rgan foydasi.

Nou-xau — mualliflik guvoxnomasi (patent) bilan himoyalangan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

Oziq-ovqat xavfsizligi — milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

Offshor hududlar - milliy iqtisodiy makonning birismi bo'lib, bu erda xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarini xorij valyutasida amalga oshiradi.

Portfel invetsitsiyalar — xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo'yilmalari.

Proteksionizm — xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatiga yordam berish maqsadida davlatning bevosita va bilvosita usullar orqali faol aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Rezident — fuqaroligi va pasport statusidan kat'iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs tushuniladi (bu mamlakatda shtab-kvartiraga ega bo'lgan diplomatik missiya ishchilari, xarbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqari).

Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan holda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Anjumani (YuNIDO) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

TIFni tartibga solishning tarifli usullari — soliq cheklashlari (bojxona yigimlari, bojlar, aktsizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalarining yig'indisi.

TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari — tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) - xorij aktivlariga ega bo'lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirish ko'rinishi.

To'g'ri investitsiyalar — foyda olish bilan birgalikda kapital ko'yilayotgan ob'ekt ustidan nazoratni ta'minlash huquqini beruvchi kapital qo'yilmalari.

To'lov balansi — mamlakatning barcha rezidentlarining kolgan barcha mamlakatlar bilan ma'lum vaqt oralig'idagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlarning natijalarini sistemalashtirilgan holda qayd etilishi.

Jahon banki — o'zaro bir-biri bilan bog'liq beshta institutdan tarkib topgan ko'p tomonlama kredit tashkiloti.

Umumiy bozor — ishlab chiqarish omillarining milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiyaning ko'rinishi.

Jahon savdo tashkiloti — xalqaro savdoning institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Franchayzing — bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanishi

Xalqaro valyuta fondi (XVF) — yirik xukumatlararo valyuta-moliya tashkiloti bo'lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi boshqa vazifalarni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalarining tizimi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi — ishlab chiqarish boskichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi — mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda ichki ehtiyojlaridan ortikcha turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabakalanishi yuz beradi.

Xalqaro kredit — valyuta va tovar resurslarini qaytarish, muddatli va to'lov shartlarida berish.

Xalqaro savdo — milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlarini ayirboshlashning o'ziga xos shakli.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) — ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

Yangi industrial mamlakatlar — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

“Chexiya Respublikasi, Estoniya Respublikasi, Kipr Respublikasi, Vengriya Respublikasi, Latviya Respublikasi, Litva Respublikasi, Malta Respublikasi, Polsha Respublikasi, Sloveniya Respublikasi va Slovakiya Respublikasining Evropa Ittifoqiga qoʻshilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi, bir tomondan, Evropa Hamjamiyatlari hamda ularga a'zo-davlatlar, ikkinchi tomondan, oʻrtasida sherikchilik ta'sis etuvchi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitimga Bayonnomani (Bryussel, 2004 yil 30 aprel) ratifikatsiya qilish haqida” Oʻzbekiston Respublikasining 2005 yil 18 maydagi OʻRQ-1-son Qonuni - **Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami** 21-son (157) 2005 y. may

“To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni- **Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami** 15-16-son (151-152) 2005 y. aprel

“Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF—3618-son Farmoni **Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami** 23-24-son (159-160) 2005 y. Iyun.

Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: Oʻzbekiston, 2005.

Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza, GʻGʻ “Turkiston” 11 fevral, 2006 yil, 11-son.

Xalilov X., Muxtarov M.S. va boshq. Iqtisodiyot, yuridik va soliqlarga oid atamalarining izohli lugʻati OʻRDSQ. -Fargʻona, 2001.

Страны мира. -М.: Олмапресс, 2002.

Устинов И. Мировая торговля: статистическо-аналитический справочник, 2002.

Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. —М.: Юристъ, 2004 .

Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. -С.-П., 2003.

Киреев А. Международная экономика. В 2-х ч. Часть 1, 2004.

Кругман П. Международная экономика. изд. 5-е. -СПб.: Питер, 2004.

Ломакин В. Мировая экономика: Учебник. —М.: Юнити-Дана, 2004.

Ливенцев Н. Международные экономические отношения: Учебник, 2004.

Миклашевская Н. Международная экономика: Учебник. -изд. 3-е, 2004.

Спиридонов И.А. Мировая экономика: Учное пособие. —М.:Инфра-М, 2004.

Энциклопедия стран мира. -М.: Экономика, 2004.

Nazarova G.Gʻ., Xalilov X. va boshq. Germaniya Federativ Respublikasi Iqtisodiyoti: Ilmiy-ommabop risola. —T.: TDIU, 2005.

Nazarova G.Gʻ., Xaydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Oʻquv

qo'llanma. -T.: TDIU, 2005.

Nazarova G.G'., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqa. Jahon iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T., 2005.

Анилионис Г.П., Зотова Н.А. Глобальный мир: единый и разделенный. Эволюция теорий глобализации. – М.: Международные отношения, 2005.

Волгин Н.А., Волгина О.Н. Оплата труда: японский опыт и российская практика: Учебное пособие. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2005.

Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. –изд. 3-е, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.

Василенко, И.А. Геополитика современного мира: Учебное пособие. - М.: Гардарики, 2006.

Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник. - М.: Норма, 2006.

Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. - М.: Изд-во Пспект, 2006.

Internet-resurslar

<http://www.gov.uz>

<http://www.edu.uz>

[http://www.tseu.uz.](http://www.tseu.uz)

[http://jahon.mfa.uz.](http://jahon.mfa.uz)

[http://www.cer.ru.](http://www.cer.ru)

[http://www.bilimdon.uz.](http://www.bilimdon.uz)

[http://www.review.uz.](http://www.review.uz)

[http://market.yandex.ru.catalog.xml.](http://market.yandex.ru.catalog.xml)

<http://www.wto.org>

<http://www.worldbank.org>

<http://www.finansy.ru> <<http://www.finansy.ru>>

<http://econos.narod.ru> <<http://econos.narod.ru>>

<http://portal.rea.ru/> <<http://portal.rea.ru/>>

ILOVA

Mamlakatlarning YaIM bo'yicha ma'lumotlar

№	Davlat	YaIM, doll.	Ma'lumot sanasi, yil
1	Jahon	51,480,000,000,000	2004
2	AQSH	10,990,000,000,000	2004
3	Xitoy	6,449,000,000,000	2004
4	Yaponiya	3,582,000,000,000	2004
5	Hindiston	3,033,000,000,000	2004
6	Germaniya	2,271,000,000,000	2004
7	Birlashgan Qirollik	1,666,000,000,000	2004
8	Fransiya	1,661,000,000,000	2004
9	Italiya	1,550,000,000,000	2004
10	Braziliya	1,375,000,000,000	2004
11	Rossiya	1,282,000,000,000	2004
12	Kanada	958,700,000,000	2004
13	Ispaniya	885,500,000,000	2004
14	Janubiy Koreya	857,800,000,000	2004
15	Niderlandiya	461,400,000,000	2004
16	Turkiya	458,200,000,000	2004
17	Janubiy Afrika Respublikasi	456,700,000,000	2004
18	Saudiya Arabistoni	287,800,000,000	2004
19	Malayziya	207,800,000,000	2004
20	Norvegiya	171,700,000,000	2004
21	Daniya	167,200,000,000	2004
22	Chexiya Respublikasi	161,100,000,000	2004
23	Lyuksemburg	25,010,000,000	2004

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. MILLIY IQTISODIYOTLARNING JAHON XO`JALIK ALOQALARIDA TUTGAN O`RNI.....	4
1.1. Jahon xo`jaligi va milliy iqtisodiyotlar.....	4
1.2. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning turkumlanishi.....	5
1.3. Milliy chegaralar muammosi	6
1.4. Globalizatsiya sharoitida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlarini o`rtasidagi o`zaro aloqalar va ziddiyatlar	8
Xulosa.....	9
2 - bob. AMERIKA QO`SHMA SHTATLARI IQTISODIYOTI	11
2.1. Mamlakatning umumiy tavsifi.....	11
2.2. AQSH iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari	13
2.3. AQSHning iqtisodiy rivojlanish davrlari va xususiyatlari.....	15
2.4. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va o`ziga xos xususiyatlari.....	19
2.5. AQSHning jahondagi iqtisodiy mavqei	23
Xulosa	24
3 - bob. KANADA IQTISODIYOTI	26
3.1. Mamlakatning umumiy iqtisodiy-geografik tavsifi.....	26
3.2. Kanada taraqqiyoti makroiqtisodiy modelining xususiyatlari	28
3.3. Kanada iqtisodiyotining zamonaviy holati va uni rivojlantirish istiqbollari.....	29
Xulosa	30
4 – bob . G`ARBIY EVROPA MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTIGA UMUMIY TAVSIF	32
4.1 G`arbiy Evropa mamlakatlarini urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari.....	32
4.2. Zamonaviy sharoitda G`arbiy Evropadagi iqtisodiy o`rningning xususiyatlari va iqtisodiyotdagi asosiy muammolar	36
Xulosa	37
5- bob. GERMANIYA IQTISODIYOTI VA UNING JAHON XO`JALIGIDA TUTGAN O`RNI.....	39
5.1. Germaniyaning iqtisodiy – geografik holati	39
5.2. Ijtimoiy bozor xo`jaligiga asoslangan nemis modeli va uni modernizatsiya qilish zaruriyati.....	41
5.3. Germaniyaning zamonaviy makroiqtisodiy siyosati.....	44
5.4. Germaniya iqtisodiyotining tuzilishi va o`ziga xos xususiyatlari	45
Xulosa.....	47
6-bob. FRANTSIYA MAMLAKATINING IQTISODIYOTI.....	49
6.1. Mamlakatning umumiy tavsifi.....	49
6.2. Frantsiyaning rivojlanishida makroiqtisodiy modelning ahamiyati.....	51
6.3. Frantsiya TMKlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni	56
Xulosa.....	59
7-bob. BUYUK BRITANIYA IQTISODIYOTI.....	61
7.1. Mamlakatning umumiy tavsifi.....	61
7.2. Buyuk Britaniya rivojlanishida makroiqtisodiy modelning ahamiyati	64
7.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyotida transmilliy kompaniyalarning tutgan o`rni	68
Xulosa	70
8-bob. ITALIYA RESPUBLIKASINING IQTISODIYOTI.....	72
8.1. Mamlakatning umumiy tavsifi.....	72
8.2. 1990-2000 yillardagi Italiya hukumatining iqtisodiy siyosati	73
8.3. Italiya iqtisodiyoti rivojlanish modeli xususiyatlarining tavsifi	74

8.4. Italiyaning transmilliy kompaniyalari	78
Xulosa.....	81
9-bob. MARKAZIY VA SHARQIY EVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI	83
9.1. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining urushdan keyingi yillarda jahon sotsialistik tizimi doirasidagi rivojlanish xususiyatlari	83
9.2. Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Sloveniya.	87
9.3. Boltiq bo`yi mamlakatlari (Litva, Latviya va Estoniya)	88
9.4. Bolgariya, Ruminiya va Xorvatiya	88
Xulosa.....	90
10 - bob. SHIMOLIY EVROPA DAVLATLARINING IQTISODIYOTI	91
10.1. Shimoliy Evropa davlatlarining umumiy ta`rifi.....	91
10.2. Shimoliy Evropa iqtisodiyotining hozirgi holati	93
Xulosa	97
11- bob. YAPONIYA IQTISODIYOTI	99
11.1. Yaponiya bo`yicha umumiy tavsif	99
11.2. Yaponiyaning «iqtisodiy mo`jiza» yaratishdagi asosiy omillari.....	100
11.3. Yaponiyaning iqtisodiy o`shish davrlari	104
11.4. Mamlakat iqtisodiyotida sanoat va qishloq xo`jaligining ahamiyati va tutgan o`rni.	108
11.5. Transporti.....	111
11.6. Yaponiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni	112
Xulosa.....	113
12-bob. “YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR” NING IQTISODIYOTI.....	115
12.1. “Yangi industrial mamlakatlar” (YaIM)ning umumiy xarakteristikasi.....	115
12.2. YaIM iqtisodiy modellarining o`ziga xos tomonlari	119
12.3. YaIM – xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o`rni.....	123
Xulosa.....	125
13- bob. XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING IQTISODIYOTI	127
13.1. Xitoy Respublikasiga umumiy tavsif.....	127
13.2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillar.....	129
13.3. Mamlakatning rivojlanishida “xitoy model”ining ahamiyati.....	130
13.4. Xitoyning 1950-1960 yillardagi iqtisodiy o`shish davri	131
13.5. Xitoy davlatining 1970 yildan keyingi iqtisodiy o`shish davri	132
13.6. Mamlakatning sanoati va qishloq xo`jaligi.....	133
13.7. Xitoyning jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni	135
Xulosa.....	136
GLOSSARIY.....	138
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	142
ILOVA.....	144

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	3
Глава 1. МЕСТО НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОНОМИК В СИСТЕМЕ МИРОХОЗЯЙСТВЕННЫХ СВЯЗЕЙ.....	4
1.1. Мировое хозяйство и национальная экономика.....	4
1.2. Классификация стран в мировой экономике.....	5
1.3. Проблема национальных границ.....	6
1.4. Конфликты и взаимоотношение между странами в глобализации.....	8
Глава 2. ЭКОНОМИКА США.....	11
2.1. Общая характеристика страны.....	11
2.2. Основные факторы экономического развития США.....	13
2.3. Этапы и особенности экономического развития.....	15
2.4. Структура и особенности экономики США.....	19
2.5. Экономическое положение США в мире.....	23
Глава 3. ЭКОНОМИКА КАНАДЫ.....	26
3.1. Общая экономико-географическая характеристика страны.....	26
3.2. Особенности макроэкономической модели развития Канады.....	28
3.3. Современное состояние экономики Канады и перспективы ее развития.....	29
Глава 4. ЭКОНОМИКА СТРАН ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЫ: ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА.....	32
4.1. Особенности экономического развития стран Западной Европы в послевоенные годы.....	32
4.2. Особенности современного экономического роста в Западной Европе и основные проблемы европейской экономики.....	37
Глава 5. ЭКОНОМИКА ГЕРМАНИИ И ЕЕ МЕСТО В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....	39
5.1. Экономико-географическое положение Германии.....	39
5.2. Немецкой модель основан на социально-рыночной экономике и необходимость ее модернизации.....	41
5.3. Современная макроэкономическая политика Германии.....	44
5.4. Структура экономика Германии и ее особенности.....	47
Глава 6. ЭКОНОМИКА ФРАНЦИИ.....	49
6.1. Общая характеристика страны.....	49
6.2. Особенности макроэкономической модели развития Франции.....	51
6.3. Место французских ТНК в мировой экономике.....	56
Глава 7. ЭКОНОМИКА ВЕЛИКОБРИТАНИИ.....	59
7.1. Общая характеристика страны.....	61
7.2. Особенности макроэкономической модели развития Великобритании.....	64
7.3. Место ТНК в экономике Великобритании.....	68
Глава 8. ЭКОНОМИКА ИТАЛИИ.....	72
8.1. Общие сведения о стране.....	72
8.2. Экономическая политика правительства Италии в 1990-2000 гг.....	73
8.3. Особенности «итальянской модели» в развитии страны.....	74
8.4. Транснациональные компании Италии.....	78
Глава 9. ЭКОНОМИКА СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЫ.....	83
9.1. Особенности развития стран Центральной и Восточной Европы в рамках социалистической системы в послевоенные годы.....	83
9.2. Польша, Венгрия, Чехия, Словакия и Словения.....	87
9.3. Прибалтийские страны (Литва, Латвия и Эстония).....	88
9.4. Болгария, Румыния и Хорватия.....	88
Глава 10. ЭКОНОМИКА СТРАН СЕВЕРНОЙ ЕВРОПЫ.....	91
10.1. Общая характеристика стран Северной Европы.....	91
10.2. Современное состояние экономики Северной Европы.....	93

Глава 11. ЭКОНОМИКА ЯПОНИИ.....	99
11.1. Общие сведения о стране.....	99
11.2. Основные факторы создания «экономического чуда» Японии.....	100
11.3 Этапы экономического роста Японии.....	104
11.4. Значение промышленности и сельского хозяйства в экономике страны.....	108
11.5. Транспорт в экономике Японии.....	111
11.6. Место Японии в мировой экономике.....	112
Глава 12. ЭКОНОМИКА «НОВЫХ ИНДУСТРИАЛЬНЫХ СТРАН» (НИС).....	115
12.1. Общая характеристика «НИС»	115
12.2. Особенности экономических моделей НИС.....	119
12.3. НИС в системе международного разделения труда.....	123
Глава 13. ЭКОНОМИКА КНР.....	127
13.1. Общая характеристика Китая.....	127
13.2. Основные факторы экономического развития Китая.....	129
13.3. Значение «китайской модели» в развитии страны.....	130
13.4. Экономический рост Китая в 1950-1960 гг.....	131
13.5. Экономический рост Китая после 1970 года.....	132
13.6. Промышленность и сельское хозяйства страны	133
13.7. Место Китая в мировой экономике.....	135
ГЛОССАРИЙ.....	138
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	142
ПРИЛОЖЕНИЯ.....	144

CONTENTS

INTRODUCTION.....	3
Chapter 1. THE PLACE OF NATIONAL ECONOMIES IN THE INTERNATIONAL ECONOMIC RELATIONS.....	4
1.1. The world economy and national economies.....	4
1.2. Classification of the countries in world economy.....	5
1.3. A problem of national borders.....	6
1.4. Conflicts and relations between countries and groups of countries in globalization.....	8
Chapter 2. ECONOMY OF THE USA.....	11
2.1. A general characteristic of the country.....	11
2.2. Major factors of economic development the USA.....	13
2.3. Stages and features of economic development.....	15
2.4. Structure and features of economy the USA.....	19
2.5. An economic situation the USA in the world.....	23
Chapter 3. ECONOMY OF CANADA.....	26
3.1. The general economic - geographical characteristic of the country.....	26
3.2. Features of macroeconomic model of development of Canada.....	28
3.3. A modern condition of economy of Canada and prospect of its development.....	29
Chapter 4. ECONOMY OF THE COUNTRIES OF THE WESTERN EUROPE: THE GENERAL CHARACTERISTIC.....	32
4.1. Features of economic development of the countries of the Western Europe in post-war years.....	32
4.2. Features of modern economic growth in the Western Europe and the basic problems of the European economy.....	36
Chapter 5. ECONOMY OF GERMANY AND ITS PLACE IN THE WORLD ECONOMY.....	39
5.1. An economic - geographical position of Germany.....	39
5.2. Germany model based on market economy and necessity its modernization.....	41
5.3. A modern macroeconomic policy of Germany	44
5.4. Features and structure economy of Germany.....	45
Chapter 6. ECONOMY OF FRANCE.....	49
6.1. A general characteristic of the country.....	49
6.2. Features of macroeconomic model of development of France.....	51
6.3. A place French TNC in the world economy	56
Chapter 7. ECONOMY OF THE GREAT BRITAIN.....	61
7.1. A general characteristic of the country.....	61
7.2. Features of macroeconomic model of development of the Great Britain.....	64
7.3. Place THK in economy of the Great Britain.....	68
Chapter 8. ECONOMY OF ITALY.....	72
8.1. The general characteristic of the country.....	72
8.2. Economic policy of the government of Italy in 1990-2000.....	73
8.3. Value of the Italian model in development of the country	74
8.4. The transnational companies of Italy.....	78
Chapter 9. ECONOMY OF THE COUNTRIES OF THE CENTRAL AND ESTEARN EUROPE.....	83
9.1. Features of development of the countries Central and the East Europe within the framework of socialist system in post-war years.....	83
9.2. Poland, Hungary, Czech, Slovakia and Slovenia.....	87
9.3. The Baltic countries (Lithuania, Latvia and Estonia).....	88
9.4. Bulgaria, Romania and Croatia.....	88
Chapter 10. ECONOMY OF THE COUNTRIES OF NORTHERN EUROPE.....	91
10.1. A general characteristic of the countries of northern Europe.....	91

10.2. A modern condition of economy of northern Europe.....	93
Chapter 11. ECONOMY OF JAPAN.....	99
11.1. The general characteristic of the country.....	99
11.2. Major factors of creation of "economic miracle" of Japan.....	100
11.3. Stages of economic growth of Japan.....	104
11.4. Value of the industry and agriculture in a national economy.....	108
11.5. Transport in economy of Japan.....	111
11.6. A place of Japan in economic.....	112
Chapter 12. ECONOMY OF "THE NEW INDUSTRIAL COUNTRIES».....	115
12.1. A general characteristic of " the new industrial countries » (NIC).....	115
12.2. Features of economic models NIC	119
12.3. NIC in system of the international division of labor.....	123
Chapter 13. ECONOMY OF CHINESE PEOPLE'S REPUBLIC.....	127
13.1. A general characteristic of China.....	127
13.2. Major factors of economic development of China.....	129
13.3. Value of "the Chinese model » in development of the country.....	130
13.4. Economic growth of China in 1950-1960	131
13.5. Economic growth of China after 1970 year.....	132
13.6. Agriculture and industry of China.....	133
13.7. A place of China in the world economy.....	135
GLOSSARY.....	138
BIBLIOGRAPHY.....	142
APPENDIX.....	144